Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Usmonli davlatida, rivojlanish yo'lining ta'limdan kechganligini yaxshi anglagan humkdorlari, xususan Abdulhamid II davrida Jinsiyat ayirmachiligiga yo'l qo'yilmasdan qiz bolalarning ta'limi masalasi davlat darajasiga ko'tarildi. Bu borada konstitutsiyada va bir qancha hujjatlarda qarorlar qabul qilinishi, poytaxt Istambuldan tashqari viloyatlarda ham ko'plab maktablarning ochilishi, ayol o'qituvchilar tayyorlashni yo'lga qo'yilishi va bir qancha islohotlarning amalga oshirilishi bu fikrning dalilidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Atalay, Elifnur sultan II Abdülhamid döneminde kadın ve kadının sosyal hayattaki rolü, Erzurum 2020.
2. Boztepe Süleyman, II. Abdülhamid dönemi idadilerde tarih ve coğrafya eğitim-öğretimi, Konya 2015.
3. Dulum Sebel, Osmanlı devletinde kadının statüsü eğitimi ve çalışma hayatı (1839-1918), Eskişehir 2006.
4. Eraslan Cezmi, Objektiften Yansıyanlara Sultan II. Abdülhamid döneminde eğitim, Üsküdar belidiyesi, İstanbul 2017.
5. Kodaman Bayram, Abdülhamid Devri Eğitim Sistemi, Türk tarih kurumu basımevi, Ankara 1991.
6. Kurnaz Şefika, Cumhuriyet Öncesinde Türk kadını. 1839-1923, Ankara 1991.
7. Öztürk Gizem, Osmanlı kadın hareketi öncülerinden hanımlara mahsus gazate'de ideal evlilik ve aileye bakiş, Tekirdağ 2019.
8. Parmaksiz Esmâ, II.Abdülhamid dönemi (1876-1909), eğitim sistemi eğitim yapıları ve askeri Rüşdiyeler, İstanbul 2008.
9. Şeyda Arzu, Kadın eğitimi bağlamında hanımlara mahsûs gazete, A.Ü.Türkiyet Araştırmaları Enstitüsü dergisi sayı29, Erzurum 2006.

¹⁶ Arzu Şeyda, Kadın eğitimi bağlamında hanımlara mahsûs gazete, A.Ü.Türkiyet Araştırmaları Enstitüsü dergisi sayı29, Erzurum 2006, s.283

ПАРАЛИНГВИСТИКА И КУЛЬТУРА РЕЧИ

Абдуазизова Дурдона Абдузухуровна

Доктор филологических наук, профессор кафедры Узбекского и иностранных языков Таможенного института Таможенного комитета при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан.

mail: jemchujina1970@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена вопросам правильного использования паралингвистических явлений и их взаимосвязи с культурой речи. Автор затрагивает вопросы межкультурного конфликта при неправильном применении паралингвистических явлений. Анализируя научную литературу по лингвистике, культурологии, педагогике, автор освещает вопросы выбора и организации языковых и невербальных средств, не нарушая нормы литературного языка в его устной и письменной форме. Также выдвигается проблема нормы использования парафонетических и паракинесических средств, которая относится автором в раздел изучения межкультурного общения.

Ключевые слова: *паралингвистика, парафонетические и паракинесические средства, литературный язык, норма речевого поведения, межкультурный конфликт.*

PARALINGVISTIKA VA NUTQ MADANIYATI

ANNOTATSIYA

Maqola paralingvistik vositalardan to'g'ri foydalanish va ularning nutq madaniyati bilan o'zaro bog'liqligi masalalariga bag'ishlangan. Muallif paralingvistik vositalarni noto'g'ri qo'llashda madaniyatlararo ziddiyat masalalariga to'xtalib o'tadi. Tilshunoslik, madaniyatshunoslik, pedagogika bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib, muallif adabiy til normalarini og'zaki va yozma ravishda buzmasdan, til va noverbal vositalarni tanlash va tashkil etish masalalarini yoritadi. Shuningdek, muallif tomonidan madaniyatlararo muloqotni o'rganish bo'limiga kiritilgan parafonetik va parakinesik vositalardan foydalanish normasi muammosi ilgari surilmoqda.

Kalit so'zlar: *paralingvistika, parafonetik va parakinesik vositalar, adabiy til, nutq xulq-atvori normasi, madaniyatlararo ziddiyat.*

PARALINGUISTICS AND SPEECH CULTURE

ABSTRACT

The article is devoted to the issues of the correct use of paralinguistic means and their relationship with the culture of speech. The author touches upon the issues of intercultural

conflict in the case of incorrect application of paralinguistic means. Analyzing the scientific literature on linguistics, cultural studies, and pedagogy, the author highlights the issues of the choice and organization of linguistic and non-verbal means, without disrupting the norms of the literary language in its oral and written form. The problem of the norm of the use of paraphonetic and parakinetic means is also put forward, which the author refers to the section of the study of intercultural communication.

Keywords: *paralinguistics, paraphonetic and parakinetic means, literary language, norm of speech behavior, intercultural conflict.*

ВВЕДЕНИЕ

Паралингвистика связана с такими направлениями, как межкультурная коммуникация, лингвокультурология, социалингвистика, гендерная и когнитивная лингвистика и т.д. При неправильном использовании неспецифичных для одной культуры невербальных явлений может произойти межкультурный или межэтнический конфликт. Потому как человек есть носитель культурных норм своего народа, то эти нормы выражаются и в его невербальном поведении. Если человек одной культуры продемонстрировал или повёл себя согласно своему социальному статусу, то носитель иной лингвокультуры и другой социальной принадлежности может неправильно понять такое поведение собеседника. Данный конфликт в межэтническом или межкультурном смысле может иметь место также между представителями разных поколений и носителями разных лингвокультур, людьми разных религиозных убеждений и т.д.

Следовательно, возникновение межкультурных конфликтов зависит от целого ряда причин и ситуаций. Во избежание таких конфликтов между представителями разных культур, стороны идут на уступки, делая вид, что не заметили неправильное или неуместное поведение коммуниканта. Невербальное поведение коммуникантов в форме жестикуляции, мимики и других паралингвистических средств наиболее отчётливо проявляется в ситуации дискуссий, побуждающих их участников к эмоциональному выражению своих мыслей и к отстаиванию собственной точки зрения. По мимике можно определить, как воспринимает коммуникант мысль или идеи другого, и во избежание межличностного конфликта один из них идёт на компромисс или уступает другому. А решение межличностных отношений зависит от культуры поведения, этикета речи и правильного применения паралингвистических явлений коммуникантами.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Анализ научной литературы по лингвистике, культурологии, педагогике показывает, что под “культурой речи” понимается владение нормами литературного языка в его устной и письменной форме, при которой осуществляются выбор и организация языковых средств, позволяющих в определённой ситуации общения, при соблюдении этикета общения обеспечить наибольший эффект в достижении поставленных задач коммуникации.

Е.Н. Ширяев даёт следующее определение: «...культура речи – это такой выбор и такая организация языковых средств, которые в определённой ситуации общения, при соблюдении современных языковых норм и этики общения позволяют обеспечить наибольший эффект в достижении поставленных коммуникативных задач». [4, с.106]

Термин «культура речи» имеет много значений. «Культура речи – это совокупность знаний, умений и навыков, обеспечивающих автору речи незатруднённое построение речевых высказываний для оптимального решения задач общения. Культура речи – это совокупность и система свойств и качеств речи, говорящих о её совершенстве. Культура речи – это область лингвистических знаний о системе коммуникативных качеств речи». [3, с.27]

Для выражения мысли и сохранения высокой культуры следует следовать языковым и неязыковым нормам, соблюдая правила их использования, выработанные и накопленные поколениями. Культура речи предполагает также корректное использование фонационных средств паралингвистического характера в зависимости от специфических особенностей той или иной лингвокультуры.

В исследованиях по культуре речи отмечается, что «культура речи состоит из четырёх компонентов: нормативного, коммуникативного, этического и эстетического». Нормативность предполагает грамотность и правильность речи, не выходящей за рамки литературных норм. Как писал Марк Туллий Цицерон: «Умение правильно говорить – ещё не заслуга, а неумение – уже позор, потому что правильная речь не столько достоинство хорошего оратора, сколько свойство каждого гражданина». [1, с.55] Однако для того, чтобы общение достигло коммуникативного эффекта, недостаточно только правильности и соблюдения литературных норм. Коммуникативный аспект культуры речи предполагает владеть навыками как вербальных, так и невербальных средств. Следовательно, можно утверждать, что культура речи напрямую связана с паралингвистическими средствами для того, чтобы коммуникация была

плодотворной и выразительной. А правильное их применение приводит к полному пониманию и разрешению конфликтов в процессе межкультурного общения.

Т.Николаева и Б. Успенский в своих работах говорят о специфических отличиях коммуникационных знаков, используемых в разных культурах. В связи с этим было введено понятие “язык культуры”, под которым понимается “совокупность всех знаковых способов вербальной и невербальной коммуникации, которые объективируют культуру этноса, выявляют её этническую специфику и отражают её взаимодействие с культурами других этносов.” [2, с.8]

Соблюдение норм поведения, уважение к участникам общения, доброжелательное отношение, почтительность, деликатность относятся к этической стороне общения. Этические нормы необходимы как один из важнейших компонентов культуры речи, а культура речи, в свою очередь, является важной частью общей культуры человека. В этом плане паралингвистические средства наряду с лингвистическими выполняют весьма значительную роль.

Невербальные средства коммуникации позволяют коммуникантам выразить свои чувства, показать уровень своей культуры и характер взаимоотношений друг с другом. Главным показателем эмоционального состояния коммуниканта является выражение его лица и мимика, с помощью которых можно выразить всю гамму чувств. Таким образом, важнейшим условием эффективного общения является правильная интерпретация невербальных сигналов, соответственно в процессе общения с другими культурами важным условием является знание элементов невербальной коммуникации. Следует подчеркнуть, что отмечаются случаи, когда один и тот же жест может иметь многозначную интерпретацию или разночтение в невербальном поведении представителей разных культур. Например, большой палец вверх у англичан, русских и узбеков обычно трактуется как «всё нормально», «всё хорошо». В Англии данный жест у автостопщиков служит для остановки попутной машины. Однако в Нигерии и Австралии – этот жест является оскорбительным. В Лапландии, приветствуя друг друга, трутся носами. Европейцы, прощаясь, машут ладонью, поднимая её вверх и шевеля пальцами. Американец воспримет этот жест как призыв «*Иди сюда*». [6]

Каждый народ или нация могут предоставить свой специфичный арсенал средств коммуникации. Таким образом, в процессе изучения языка и

воспитания культурной компетенции, задачей является овладение не только речевыми, но паралингвистическими средствами общения.

Знание невербальных сигналов другой культуры помогает формировать невербальную, эстетическую, этическую и культурную компетенции. Культура речи непосредственно соприкасается с нормами использования паракинестических средств (жесты, мимика, телодвижения), правильным использованием парафонетических средств речи (темп, паузы, заполнители пауз, тон речи, громкость всевозможные обертоны речи и т.д.), а также умением использовать выразительные средства языка в сочетании с невербальными в различных условиях общения в соответствии с нормами того или иного народа.

Паралингвистику, изучением которой является также проблема нормы использования парафонетических и паракинестических средств, можно отнести в раздел изучения межкультурного общения. Поэтому, следует правильно применять данные средства, которые в определённой ситуации приведут к достижению поставленных задач в коммуникации с соблюдением этикета общения.

Паралингвистические средства выполняют различные функции, в том числе, несут дополнительную смыслообразующую и стилистическую информацию. Особенная интонация каждый раз придаёт новый дополнительный смысл высказыванию. При этом новая интонация может сопровождаться соответствующей мимикой и жестами. Итак, дополнительная информация, переданная паралингвистическими средствами, может полностью изменить смысл высказывания. Например, говорящий произносит следующую фразу: «*Николай же всё знает*»; в узбекской речи: «*Nikolay hammasini biladi*»; в английской речи: «*Nikolai knows everything*» с иронической интонацией. В определённой ситуации сообщение высказывания приобретает прямопротивоположный смысл, который можно выразить следующим образом: «*Николай думает, что всё знает, но на самом деле, ничего не знает*»; в узбекской речи: «*Nikolay hammasini biladi, deb o'ylaydi, lekin aslida hech narsa bilmaydi*»; в английской речи: «*Nikolai thinks he knows everything, but in fact, he doesn't know anything*». В данном случае парафонетические средства, проявляемые в тональности данного высказывания, выполняют смыслообразующую функцию, так как передают истинный смысл высказывания, несовпадающий с вербальным выражением. В данном случае также интонация определяет смысл высказывания, а также немаловажно и то, какими кинестическими средствами сопровождается речь.

К примеру, высказывание «*Мы Вас вчера ждали, но Вы...*» может произноситься с интонацией недоумения и незавершённости, и при этом сопровождается жестом разочарования, пожиманием плеч и разводом рук. В этом случае невербальные средства выполняют функцию завершения высказывания. Кроме того, в сочетании с вербальными средствами, усиливают смысл сказанного. Несмотря на длительную историю изучения жестов и мимики народов, многие вопросы остаются малоработанными, и это касается прежде всего функционального аспекта паралингвистических средств в целом, и паракинесических средств в частности.

Значимость паралингвистических средств как неотъемлемого компонента культуры речи подтверждается высказыванием Р. Якобсона о том, что «... легко возникает наивное представление об универсальности тех или иных значимых жестах, а также движений головы и лицевых мышц». [5, с.284]

«Любая церемония, дипломатический приём, официальная встреча, банкет превращает поведение человека в определённую последовательность жестов, и любой участник подобных ритуализованных ситуаций вынужден считаться с тем, что всякое его движение может быть “прочитано” как жест и истолковано тем или иным образом». [5, с. 124] Интересно отметить, что многие жесты имеют аппозитивный характер. Например: согласие-отрицание (“да” и “нет” в жестах и мимике), приветствие-прощание (движение рук), жесты радости - жесты гнева и т.д.

Этический аспект культуры речи важен для правильного применения норм и правил языкового и неязыкового поведения в зависимости от многих факторов: возрастных характеристик коммуникантов, социального статуса, стиля общения (дружеский, официальный, неофициальный и т.д.), времени и места речевого акта.

В заключение необходимо подчеркнуть, что высокая культура речи заключается не только в следовании нормам литературного языка и этикета речи, но и в правильном применении паралингвистических средств, выполняющих весьма значимую роль в процессе коммуникации. Некорректное использование невербальных средств приводит к нарушению культурных норм и созданию конфликтной ситуации.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Дератани Н.Ф. К вопросу об исторической обусловленности образа оратора Цицерона. – М., 1959. – С 55.

2. Николаева Т. М., Успенский Б.А. Языкознание и паралингвистика. Лингвистические исследования по общей и славянской типологии. – М., 1966. – С.8.
3. Соколова В.В. Культура речи и культура общения. – М.: Просвещение, 1995. – С.27.
4. Ширяев Е.Н. Что такое культура речи. Мы сохраним тебя, русская речь. – М.: Наука, 1995. – С.106.
5. Яacobсон Р. Да и нет в мимике. Язык и человек. – М.: МГУ, 1970. – С. 284.
6. URL: <https://kb25.ru/files/zhesty.pdf>. (Дата обращения: 23.02.2022)

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTAB DIREKTORLARINING BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR

Safarova.N.R.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini baholashda samaradorlikka ta‘sir qiluvchi omillar va ularning muhimlik darajasini tahlil qilish haqida so‘z yuritiladi.

***Kalit so‘zlar.** Umumiy o‘rta ta‘lim maktab direktorlari, rahbarning boshqaruv faoliyati, samaradorlikning muhim ko‘rsatkichi, samaradorlikka ta‘sir qiluvchi omillar, boshqaruv samaradorligi, baholash mezonlari.*

ABSTRACT

This article talks about the analysis of the factors influencing the effectiveness and their importance in evaluating the management performance of general secondary school principals.

***Keywords.** General secondary school principals, management activity of the leader, important indicator of efficiency, factors affecting efficiency, management efficiency, evaluation criteria.*

KIRISH

Respublikamizda ta‘lim tizimidagi islohotlar orqali tizimni yanada mukammal va xalqaro standartlar darajasida rivojlantirish, ta‘lim tizimini taraqqiyotining yangi strategiyasini ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirishda zamonaviy rahbar kadrlar, yuqori ilmiy salohiyatli pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj paydo bo‘lmoqda. Shu bilan birga umumta‘lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish va baholashga qaratilgan bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Ta‘lim muassasasi direktori boshqaruv faoliyatining asosiy vazifasi ta‘lim jarayonini tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish uchun jamoada zaruriy sharoitlarni yaratish, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash va yaxlit ta‘lim tizimini rivojlantirish hisoblanadi. Ta‘lim muassasalarini rivojlantirish hamda boshqaruv jarayonini takomillashtirishda muassasaning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar, rahbarlik uslublari, funksiya va metodlari, rahbar o‘zining boshqaruv faoliyatida afzal bilgan va asoslangan barcha usullar strategik boshqaruvning taktika va strategiyalaridan

tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Umumiy oʻrta taʼlim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash jarayonini amalga oshirishda eng asosiy bajariladigan vazifalardan biri boshqaruv faoliyati samaradorligiga taʼsir qiluvchi omillarni aniqlash va ilmiy jihatdan tahlil qilish zarur.

Samaradorlik- sifatning umumlashgan oʻlchovidir. Avvalo, samara deganda faoliyatda qoʻyilgan maqsadga toʻla yoki qisman erishish, uning yakuniy natijasi tushuniladi. Taʼlim sifatini oshirishga erishish taʼlim muassasasi boshqaruvidagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shu sababli sifatni boshqarish baʼzan samaradorlikni boshqarish deb ham aytiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Taʼlim muassasalarini boshqarish faoliyati samaradorligi bu-boshqaruv qonuniyatlari, usul va metodlari hamda innovatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv faoliyati asosida tashkil etilgan taʼlim-tarbiya jarayonining natijaviyligi hisoblanadi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktab direktorlari taʼlim muassasasi bilan ijobiy natijalarga erishishida faoliyat samaradorligiga taʼsir qiluvchi omillarni aniqlash, tahlil qilish va taʼsirchanligini oshirish bilan bogʻliq harakatlarni amalga oshirishi zarur. Pedagogika fanlari doktori, professor S.Turgʻunov boshqaruv samaradorligiga taʼsir etuvchi omillar sifatida taʼlim muassasasi rahbarlari boshqaruv tamoyillari, strategik rejalashtirish, boshqaruv uslublari, faoliyatni loyihalashtirish, jamoaning integrativ faoliyati, innovatsion faoliyat, obyekt va subyekt munosabatlarini keltirib oʻtgan. Yaʼni taʼlim muassasasi rahbarlari boshqaruv tamoyillari, usullarini qoʻllagan holda innovatsion faoliyatni tashkil qilish, taʼlim muassasasi bilan istiqbolga erishishda strategik rejalashtirish, jamoa ishtiroki bilan faoliyatni loyihalash, ularning kasbiy rivojlanish masalalari hamkorlikda olib borish orqali boshqaruv samaradorligini yuqori bosqichga olib chiqishi mumkin. Umumiy oʻrta taʼlim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash mexanizmini faoliyatning barcha yoʻnalishlarini chuqur tahlil qilish, samaradorlikka taʼsir etuvchi omillarni ilmiy nuqtayi nazardan koʻrib chiqish shu bilan birga xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqish kerak boʻladi. Maktab direktorlarining boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash boʻyicha samaradorlikka taʼsir qiluvchi omillar va muhim koʻrsatkichlarini shakllantirishda umumiy oʻrta taʼlim maktablari jamoasi fikrini oʻrganish muhim hisoblanadi.

Unga koʻra, samaradorlikka taʼsir qiluvchi koʻrsatkichlar, omillar boʻyicha darajasi aniqlanadi. Tadqiqot natijalariga koʻra, boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash boʻyicha samaradorlikning muhim koʻrsatkichlarida taʼlim muassasasini kadrlar bilan taʼminlanganligi, oliy va birinchi toifaga ega boʻlgan oʻqituvchilar

ulushi, oliy ta'lim muassasasiga kirgan o'quvchilar, fan olimpiadalarida sovrindor o'quvchilar samaradorlikni belgilovchi muhim ko'rsatkichlar qatoridan joy olgan. Bundan tashqari M.Axmedov "Xalq ta'limi rahbar va pedagog xodimlari faoliyati samaradorligini baholash masalalari" nomli maqolasida baholash samaradorligini oshirish, jarayonning adolatli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlash maqsadida mezonlar ikki yo'nalishda bo'lishi maqsadga muvofiq, ya'ni miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari muassasa rahbarlari faoliyatini to'liq qamrab olinishiga xizmat qilishini ta'kidlab o'tgan.

Rossiyalik tadqiqotchi V.S.Lazarev o'z tadqiqotlarida boshqaruv samaradorligi erishilgan va imkoniyati mavjud bo'lgan unumdorlik o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Unumdorlik ma'lum bir vaqt davomidagi natijalar va ular bilan bog'liq xarajatlar o'rtasidagi ijobiy munosabatni ko'rsatadi deb ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari V.I.Zvereva hamda P.I.Tretyakovlarning fikricha ta'lim muassasasining boshqaruv samaradorligi-bu boshqaruv faoliyati maqsadiga erishganlik ko'rsatkichi, ya'ni ta'lim muassasasida har bir ta'lim oluvchining shaxsini rivojlantiruvchi shart-sharoitlarning yaratilganligi deb hisoblaydilar.

Rivojlangan davlatlarda rahbar xodim faoliyati samaradorligini baholashda natijaga asoslanadi. YUNESKO, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan natijaga asoslangan boshqaruv tizimida rahbar xodimlar faoliyatini baholash bo'yicha yetarli darajada tavsiyalar ishlab chiqilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktab rahbarlari boshqaruv samaradorligini KPI (Key Performance Indicators - samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari) tizimi asosida baholash orqali ular o'z faoliyatlarini tahlil qilish va strategik rejalar tuzish, faoliyat yo'nalishlaridagi bo'shliqlar ustida ishlash rejalarini tuzib oladi. Samaradorlikni baholash ko'rsatkichi tizimida ta'lim muassasasi boshqaruvi va xodimlarining faoliyati raqamlar orqali o'lchanadi. Ko'rsatkichlar bo'yicha hisobot tayyorlangach, rejalashtirilgan maqsadga qanchalik darajada erishilgani, rejalar qay darajada aniq va to'g'ri qo'yilganini baholash mumkin. O'rganilgan tahlil va tadqiqotlar natijasida, umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining faoliyat samaradorligini baholash mezonlari, indikatorlar tizimini ishlab chiqishda quyidagi jihatlarini e'tiborga olish lozim bo'ladi:

- samaradorlikni belgilovchi mezonlar, ko'rsatkichlar umumta'lim maktab direktorlarining lavozim majburiyatlaridan kelib chiqib shakllantirish faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi subyektiv va obyektiv omillarni chuqur tahlil qilish;
- rivojlangan mamlakatlar ilg'or tajribalari o'rganilib, o'zimizga xos xususiyatlarni e'tiborga olgan holda, davlat talablari asosida ishlab chiqish;
- boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash parametrlarini baholash mezonlarining muhimlik darajasiga ko'ra belgilash;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ-4537-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasidagi maqsadli ko‘rsatkichlarni e‘tiborga olgan holda ishlab chiqilish:

- samaradorlik natijasiga ko‘ra maktab direktori hamda jamoani qo‘llab-quvvatlash, tizimli rag‘batlantirishni tashkil etish muassasada ta‘lim sifati va samaradorligini ko‘tarishga, xalqaro arenada raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538 son farmoni, - T., 5-sentabr 2018-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5712 son farmoni, - T., 29-avgust 2019-y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ-4537-sonli qarori, T., 26-noyabr 2019-y.
4. Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Monografiya. - T.: Fan, 2006. - 196-b.
5. Zvereva V.I. Организационно-педагогическая деятельность руководителя школы. – М.: «Novaya shkola». 1997-yil.
6. Axmedova N. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish. PhD dissertatsiyasi. - T., 2017 - 16-b.
7. Axmedov M.U Xalq ta‘limi rahbar va pedagog xodimlari faoliyati samaradorligini baholash masalalari. Zamonaviy ta‘lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal, 2019-yil, 1-son.

ORCID: 0009-0007-5218-9668

**INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN COMMUNICATION
ENTERPRISES AND THEIR IMPACT ON SERVICE EFFICIENCY (CASE
STUDY OF O‘ZBEKTELEKOM)**

To‘rayev Shavkat Shuxratovich

Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, Doctor of Science (DSc), Professor

Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich

Independent researcher, Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi
E-mail: ibadullayevsanjar5555@gmail.com

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the impact of innovative technologies on economic efficiency. It offers a detailed examination of how modern digital technologies, such as automation, artificial intelligence, cloud computing, and the Internet of Things (IoT), serve as tools for improving the efficiency of enterprises. Additionally, it analyzes the aspects of these technologies related to saving resources in production processes, increasing labor productivity, and creating new products and services.

Keywords: *Innovative technologies, economic efficiency, digital technologies, economic growth, digitalization, developing countries, Uzbekistan, McKinsey, World Bank.*

INTRODUCTION

Innovative technologies are one of the critical factors in the modern economy, and their implementation and development are crucial in improving the efficiency of enterprises. The rapid development of digital technologies in the 21st century is significantly contributing to global economic growth. According to McKinsey Global Institute, the application of digital technologies could increase the global economy by up to \$37 trillion by 2025. In particular, innovative technologies are positively impacting efficiency in the economies of developing countries. For example, according to World Bank research, the introduction of digital technologies increased Uzbekistan's production output by 5% in 2019. These data clearly demonstrate the relevance of innovative technologies and their potential for enhancing economic efficiency.

In the telecommunications sector, innovative technologies play a crucial role in increasing service efficiency. Today, technologies such as 5G, IoT (Internet of

Things), cloud computing, and artificial intelligence (AI) are essential for improving the quality and speed of service delivery, as well as ensuring reliability and security.

TABLE 1: Stages of Implementing Innovative Technologies

Stages	Actions	Goals
New Technologies	Identifying innovative technologies	Introducing new technologies
Technological Infrastructure	Upgrading and modernizing	Creating efficiency and convenience
Financial Investments	Allocating financial resources	Applying innovations through investments
Personnel Training	Conducting training and educational programs	Enhancing personnel skills
Technological Integration	Developing integration strategies	Successful integration of technologies
Problem Management	Identifying and solving issues	Resolving technological issues
Efficiency Monitoring	Implementing monitoring systems	Evaluating and improving innovations

[Implementation of Innovative Technologies] | v [Technological Infrastructure] → [Financial Investments] | | v v [Staff Training] → [Technological Integration] | | v v [Problem Management] → [Efficiency Monitoring]

Cloud computing technologies simplify data storage and processing, which enhances operational efficiency and allows for more effective management of the infrastructure. Artificial intelligence technologies, with their ability to analyze and predict data, contribute to improving the performance of communication systems.

In practice, the implementation of new technologies has often proven to be effective. For example, the 5G system has accelerated the process of data exchange over long distances, speeding up service delivery. IoT technologies have been effective in optimizing resources and automating production processes in manufacturing and service sectors.

At the same time, challenges arise when introducing innovative technologies. These challenges include technical issues, integration problems, and support concerns. For instance, the cost of new technologies and their integration into the system, as well as the need for technical support, are considered the main problems.

Assessment of the Effectiveness of Introducing 5G Technology by O‘zbektelekom

In 2023, O‘zbektelekom implemented the new 5G technology. This study aimed to evaluate the effectiveness of the new technology and analyze it based on economic

indicators. The research included pilot projects, statistical analysis of user experience, and service delivery speed.

METHODOLOGY

Pilot Projects: Testing 5G technology in limited areas, measuring service delivery speed, and collecting user feedback.
User Experience: Measuring user satisfaction through surveys and interviews.
Service Delivery Speed: Comparing the speed of service before and after the introduction of 5G technology.

Sources:

- **Reports from Technology Developers:** Functional capabilities and performance indicators of 5G technology.
- **Company's Internal Analyses:** Economic and service delivery indicators measured before and after the implementation of the technology.
- **User Surveys:** Acceptance of the technology among users and their satisfaction levels.

Initial situation in 2022, final situation in 2023 – Results.

RESULTS

The introduction of 5G technology in 2023 increased service speed by 30%. This improvement in network performance and faster service delivery also increased user satisfaction.

TABLE 2: Change in Service Delivery Speed

Year	Service Delivery Speed (Mbps)	Change (%)
2022	50	-
2023	65	+30%

The implementation of 5G technology in 2023 increased service delivery speed by 30%, providing higher-speed network operation and faster service delivery to users. This significant improvement in service speed also increased user satisfaction.

TABLE 3: Stability of Inter-Network Communications

Year	Stability of Inter-Network Communications (Total Connections/Interruptions)	Change (%)
2022	0.80	-
2023	0.95	+18.75%

The implementation of 5G technology improved the stability of inter-network communications by 18.75%. This result enhanced the quality of communication between networks and reduced system interruptions, significantly improving network stability and reliability.

TABLE 4: Customer Satisfaction

Year	Customer Satisfaction (%)	Change (%)
2022	70%	-
2023	85%	+21.43%

Customer satisfaction increased by 15%, reflecting the higher satisfaction of users with 5G technology and the quality of services provided. With the help of this new technology, customer trust in the quality of service increased.

TABLE 5: Challenges in Technology Integration

Challenge	Description	Solutions
High Costs	High cost of technology implementation	Optimizing costs and developing financial resource allocation strategies
Technical Difficulties	Technical issues related to new technology	Enhancing technical support and updating the technology

During the process of integrating 5G technology, issues such as high costs and technical problems were resolved. By optimizing costs and strengthening technical support, these issues were addressed, ensuring the successful implementation of the technology.

The introduction of 5G technology increased the service delivery speed of “O‘zbektelekom” by 30%, further stabilized inter-network communications, and improved customer satisfaction by 15%. The challenges encountered during the integration process, such as high costs and technical difficulties, were successfully overcome. Through 5G technology, the company not only improved network speed and stability but also ensured the provision of high-quality services to its customers.

The successful experience of implementing 5G technology can be applied to expand the technology in other regions and to modernize existing technologies. It is recommended to strengthen advanced technical support and strategic planning to anticipate and resolve the challenges that may arise during the integration of new technologies.

CONCLUSION

The introduction of innovative technologies today plays a key role in improving efficiency not only in developed but also in developing economies. These technologies make a significant contribution to the growth of communication enterprises and the overall economy, enhancing competitiveness. The examples and statistical data presented in this article demonstrate that the proper and effective implementation of digital technologies can significantly increase economic efficiency. Moreover, the integration of innovative technologies in developing countries like

Uzbekistan opens up new opportunities for economic growth. Overall, the wide adoption of innovative technologies in the economy will be an important factor in ensuring future economic stability.

REFERENCES

1. McKinsey Global Institute. (2016). Digital Globalization: The New Era of Global Flows. McKinsey & Company.
2. World Bank. (2019). Digital Economy for Central Asia: Realizing the Potential of the Digital Economy in Uzbekistan. World Bank.
3. OECD. (2020). The Digital Transformation of SMEs. Organisation for Economic Co-operation and Development.
4. Brynjolfsson E. & McAfee A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W.W. Norton & Company.
5. Schwab K. (2017). The Fourth Industrial Revolution. Crown Business.
6. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2021). Technology and Innovation Report 2021: Catching Technological Waves. United Nations.
7. Uzelac V. & Cuckovic M. (2018). Innovation and Economic Growth: Evidence from Europe. Croatian Economic Survey, 20(2), 5-36.
8. Uzbekistan State Committee on Statistics. (2020). Uzbekistan's Economy and Social Development. Committee on Statistics Publications.

VATANPARVARLIK TARBIYASI – HARBIYLARNI HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING ZARUR SHARTI

Normetov Tohirjon Xamitovich

QK xizmatchisi

Chirchiq OTQMBY Gumanitar fanlar

kafedrasida katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlar va harbiylar huquqiy madaniyatning shakllanish jarayonida umumiy madaniyatning insof, sha'n, rostgo'ylik, qadr-qimmat va ezgulik kabi elementlari, vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yoshlar tarbiyasi haqida fikrlar keltirilgan. ni hal qiluvchi kuch sifatida tayyorlashni o'z oldiga ustuvor vazifa sifatida qo'yadi.

Kalit so'zlar: *Vatanparvarlik, milliy g'oya, ma'naviyat, etika, estetika, vatanparvarlik ruhiyati, komil shaxs, sadoqat, g'urur, ishonch.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье в процессе формирования правовой культуры молодежи и воинов приводятся представления о воспитании молодых людей, способных взять на себя ответственность за судьбу и будущее нашей страны, такие элементы общей культуры, как честность, честь, честность, достоинство и доброта делают обучение как решающую силу приоритетом.

Ключевые слова: *Патриотизм, национальная идея, духовность, этика, эстетика, патриотический дух, совершенная личность, верность, гордость, доверие.*

ABSTRACT

In this article, in the process of forming the legal culture of youth and soldiers, ideas are presented about the education of young people who are capable of taking responsibility for the fate and future of our country; such elements of general culture as honesty, honor, honesty, dignity and kindness make learning a decisive force priority.

Key words: *Patriotism, national idea, spirituality, ethics, aesthetics, patriotic spirit, perfect personality, loyalty, pride, trust.*

KIRISH

Mustaqil mamlakatimiz bugun tub islohotlar davrini boshidan kechirmoqda, huquqiy demokratik davlat qurish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining asoslarini yaratish ana shu islohotlarning muddaosini anglatadi.

O‘zbekistonda yangi jamiyat va milliy davlat qurish, vatanparvar, huquqiy madaniyati yuksak yoshlarni tarbiyalash talabini ilgari surdi. Shu bois bizning yo‘limiz - milliy mustaqillikni mustahkamlash, rivojlangan dunyo tajribasini o‘zlashtirib, ijtimoiy faol, yuksak ma‘naviyatli insonlar, erkin fuqarolar jamiyatini qurish hisoblanadi. Buning uchun esa, birinchi navbatda ta‘lim-tarbiyaga e‘tiborni kuchaytirish, milliy tarbiyani ongu shuurga singdirib, chin vatanparvar, yetuk salohiyat va aqliy iqtidorga ega odamlarni voyaga yetkazish lozim bo‘ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yoshlar har qanday davlat yoki jamiyat rivojining kafolati hisoblanadi. Sababi qaysi davlat yoki jamiyat yoshlar salohiyatining yuksalishiga yetarli imkoniyat yaratib, undan to‘g‘ri foydalana olsa, bunday davlatning istiqboli porloq bo‘ladi. Jamiyat va davlatning dinamik o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi muhim ijtimoiy qatlam sanalmish, yoshlarga islohotlarning maqsadini o‘rgatish muhim. Chunki, yoshlar o‘zlarining qarashlari, qiziqishlari, qadriyat va manfaatlari orqali jamiyatdagi o‘zgarish hamda islohotlarni anglab, idrok etib, unda bevosita qatnashishga tayyor bo‘lib boradi. Yoshlarning hayotiy pozitsiyasi va uning ijtimoiy qiyofasining qandayligi bevosita davlat yoki jamiyat taraqqiyotiga bog‘liq bo‘lsa, yoshlarning vatanparvarligi, harakatchanligi, dunyoqarashi va axloqiy barkamolligining shakllanishi esa xalq, mamlakat taqdirini belgilaydi.

Ayniqsa, yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuvi muammosi barcha davrlarda ham alohida davlat va xalqlar uchun muhim ahamiyat kasb etib kel moqda. O‘tgan asrning ikkinchi yarmida yoshlar muammosi global xarakter kasb etib kelmoqda, sababi butun yer sharining sivilizatsiyasi dunyo yoshlarining ijtimoiy yo‘naltirilganligiga bog‘liqligi ilmiy isbotlangan.

Ana shu nuqtai nazardan, ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush tarzini yaratish uchun davlatning turli millat vakillaridan iborat fuqarolarini yagona maqsad sari yetaklovchi vatanparvarlik tarbiyasini ustuvor yo‘nalish sifatida belgilovchi milliy g‘oyaga ehtiyoj bor edi. Va u konstitutsiyaviy asosda milliy g‘oya sifatida yaratildi ham.

Milliy g‘oyaning asosiy maqsadi aniq belgilab berildi. «Milliy g‘oya – deb ta‘kidlagan edi davlatimiz birinchi prezidenti Islom Karimov – birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo‘lishi zarur».

Ma‘lum bo‘ladiki, milliy g‘oya yoshlarni vatanparvar, huquqiy faol va huquqiy madaniyatli bo‘lib shakllanishining boshlang‘ich manbai sanalmish Vatanga fidoyilik, el-yurtga sadoqat yoxud odamgarchilik kabi ustuvor ijtimoiy fazilatlarining

shakllanishini shart qilib qo'yadi. Zotan, huquqiy madaniyat umumiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Huquqiy madaniyatning shakllanish jarayonida dastlab umumiy madaniyatning insof, sha'n, rostgo'ylik, qadr-qimmat va ezgulik kabi elementlari paydo bo'ladi. Ushbu elementlarsiz huquqiy madaniyat yaxlit yuzaga kelmaydi. Ijtimoiylashuv natijasida yoshlar ezgulik va adolat, inson sha'ni va uning toptalishi hamda erkinlik va qullik kabi qonuniyatning mavjudligini anglab idrok etishadi. «Nima yaxshiyu nima yomonligini» tushunib yetishda esa ularga aynan huquq sohasi yordam beradi. Ana shu nuqtai nazardan vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarda huquqiy madaniyatini yuksaltirishda muhim asos vazifasini bajaradi. Yoshlar ongida vatanparvarlik g'oyasini shakllantirmasdan turib ularda huquqiy madaniyatni yuksaltirish kutilgan natijani bermaydi. Sababi vatanparvarlik tarbiyasi mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yoshlarni hal qiluvchi kuch sifatida tayyorlashni o'z oldiga ustuvor vazifa sifatida qo'yadi. Bu esa yoshlar huquqiy madaniyatining yuksaltirishga asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

Islom Karimov: «O'z hayoti, o'z taqdirini ona O'zbekistonimiz bilan chambarchas bog'lab, kelajak sari katta ishonch bilan intilayotgan bolalar –bu mening bolalarim. Bunday azmu shijoatli, ko'zlari yonib turadigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega, dunyo maydonida o'z tengdoshlari bilan bellashuvga qodir bo'lgan yoshlarni himoya qilishga, ularga madad berishga, ularga har qanday amaliy sharoit va imkoniyat tug'dirib berishga men doimo tayyorman»deya mamlakatimizda vatanparvarlik tarbiyasi asosida yoshlarimizning huquqiy madaniyatining yuksalishi uchun keng huquqiy va ijtimoiy- iqtisodiy imkoniyatlar yaratilganini ta'kidlagan edi.

Mamlakatimizning rivoji va islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan yoshlarning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati darajasiga bog'liq. Yoshlarning siyosiy faolligi, ularning chinakam fuqaroviy munosabati, vatanparvarlik, demokratik islohotlarga intiluvchanligi qo'yilgan maqsadlarga tezroq erishishining muhim omili sanaladi. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining asosidir. U jamiyatdagi turli hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, yoshlarning, barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda undagi intizomni ta'minlovchi va mustahkamlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri sanaladi.

Milliy yuksalish jarayonida vatanparvarlik tarbiyasi va huquqiy madaniyatning ahamiyati zarurligi anglab yetilishi natijasida, bugun O'zbekistonda dunyoni

yangicha idrok etadigan, haq-huquqi uchun kurashadigan o‘z taqdirini xalqi, vatani taqdiri bilan bir deb bilib, faoliyat ko‘rsatayotgan yangi avlod shakllanmoqda.

Yoshlar ajdodlar ma’naviy merosi va umumbashariy qadriyatlar, aqliy kashfiyotlarni ham teng o‘zlashtirmoqdalar. Qalbida milliy iftixor tuyg‘usi, Vatan muhabbati jo‘sh urgan bilimdon, dono, tadbirkor yoshlar har bir mamlakatning salohiyati, kelajagini belgilaydigan buyuk kuchdir. Jamiyatda elni safarbar etuvchi vatanparvar, yetuk insonlar qancha ko‘p bo‘lsa, taraqqiyot imkoniyati ham shunchalik ko‘p bo‘ladi va ayni vaqtda yurt tinchligi, siyosiy, iqtisodiy barqarorlik kafolati yuzaga keladi.

Shuning uchun ham bizda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi qabul qilinib, u izchil amalga oshirilmoqda. Jamiyatdagi barcha qatlam vakillarining, xususan yosh avlodning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ya’ni, aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratish milliy dasturning maqsadi sifatida belgilangan.

Qonunlar bo‘lsa-yu, biroq undan foydalanilmasa, bundan manfaat bo‘lmaydi. Xuddi shuning uchun birinchi prezidentimiz Islom Karimov erkin fuqaro ma’naviyatining birinchi sharti sifatida o‘z haq-huquqini tanish va buning uchun kurashishni asosiy masala qilib qo‘ydi. Erkin shaxsda mulohaza qilish qobiliyati rivojlanadi, u o‘z Vatani taqdiri haqida o‘ylaydi. Haq gap nima, haqiqat qayerda ekanligini fahmlaydi, to‘g‘ri xulosaga ega bo‘ladi. Va, shu asosda bunday odam turli soxta g‘oyalar, g‘arazli ta’limotlarga berilmaydi. Chunki erkin shaxs taqlidchi emas, u yuzakilikka berilmaydi, zombi (manqurt) bo‘lolmaydi. Erkin shaxs o‘z huquq va erkinliklari bilan birga o‘zining burch va majburiyatlarini ham teng anglaydi va bunga amal qiladi.

Xulosa sifatida quyidagi fikrlarni keltirishni maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz. Vatanparvarlik tarbiyasi va yoshlar huquqiy madaniyati tushunchalari mohiyatan o‘zaro aloqador. Vatanparvarlik tarbiyasining muhimligi mamlakatimiz xavfsizligi, mudofaa quvvatini mustahkamlash, fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash zaruriyati bilan ham belgilanadi. Shu sababli, yosh harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta’lim-tarbiya ishlari oldida turgan ulug‘vor, mas’uliyatli vazifa bo‘lib qolmoqda. Mustaqil davlatimizning bugungi bosh vazifalaridan biri – yurtim, elim deb kuyib, yonib yashaydigan vatanparvar komil insonni tarbiyalashdir. Vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish va takomillashtirish insonning tug‘ilishidan to umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Chunki

vatanparvarlik tarbiyasi, avvalo, oiladan boshlanadi. Bunda ota-ona o‘z farzandlariga ajdodlarimiz tarixi, ularning qahramonligi, jamiyatdagi obro‘-e‘tibori haqida hissiyot bilan gapirib bermog‘i, shu asosida yosh avlodda Vatan tuyg‘usini uyg‘otmog‘i kerak. Haqiqiy sevish, vatanparvarlik – shu ulug‘ Vatanni sevish, xalq uchun xizmat qilish, jonini fido ettirish. Qayerda bo‘lsa ham Vatan, xalq manfaatlari uchun fidakorona kurashuvchi kishigina haqiqiy vatanparvardir. Haqiqiy vatanparvar inson takabburlikka, faqat o‘z manfaatini o‘ylovchi shaxs bo‘lishga mutlaqo yo‘l qo‘ymaydi va xalqidan o‘z manfaatini ustun tutmaydi, hamma vaqt xalq bilan bir jon, bir tan bo‘ladi. Agar harbiy xizmatchilar o‘z ona Vatanini sevmasa, unga sadoqat bilan qaramasa, haqiqiy barkamol inson bo‘la olmaydi. Insoniylikning eng muhim fazilati ham vatanparvarlikdir.

XULOSA

Tahlil natijalaridan ham ko‘rinadiki vatanparvarlik tarbiyasi yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishning asosiy manbai va zarur sharti hisoblanadi. Sababi birinchidan, yoshlar ongida huquqiy madaniyat shakllanishi uchun dastlab ularda vatanparvarlik, insof, sha‘n, rostgo‘ylik, qadr-qimmat va ezgulik, adolat kabi tushunchalar mantiqan shakllangan bo‘lishi talab etiladi; ikkinchidan, yoshlar tabiiy huquqning tamoyili sanalmish, o‘z huquqlarining boshqa shaxs huquqlari boshlangan doirada tugashini bilishi ham muhim sanaladi; uchinchidan, yoshlar huquq va erkinliklari bilan birga o‘z burch yoki majburiyatlarini ham teng asosda anglab, idrok etishlari muhim hisoblanadi; to‘rtinchidan, yoshlar ongida muayyan darajada huquqiy bilimni egallash natijasida amalda undan foydalana olish ishonchini qaror toptirish kerak; beshinchidan, huquqiy madaniyati yuksak yoshlar uni faqat o‘z shaxsiy manfaati yo‘lida emas balki davlat va jamiyat manfaati bilan uyg‘un tarzda amalga oshirishi asosiy mezon sifatida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – halq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. – T., 1998. – B. 15.
2. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T., 2015. – B. 22.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarori Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 227-modda). O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarori Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 227-modda).

PAREMIOLOGLARNING TIBBIYOT VA SALOMATLIKKA OID MAQOLLAR HAQIDAGI IZLANISHLARI TAHLILI

Abdullayeva Nozima Anvarxonovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

Nozima.anvarxonovna@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-6160-8252

ANNOTATSIYA

Maqolada ingliz va rus tilidagi tibbiyot hamda salomatlikka oid maqollarni o'rganib chiqqan tilshunos olimlar maqola, lug'at va ilmiy ishlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Mieder, Fialkova, Vudburn, salomatlik, tibbiyot, maqol, kasallik, sinonim maqollar

АННОТАЦИЯ

В статье будут проанализированы статьи, словарь и научные работы лингвистов, изучавших английские и русские пословицы о медицине и здоровье.

Ключевые слова: Мидер, Фиалкова, Вудберн, Здоровье, Медицина, пословица, болезнь, синонимы пословицы

ABSTRACT

The article analyzes the articles, dictionaries and scientific work of linguistic scientists who have studied English and Russian medical and health Proverbs.

Keywords: Mieder, Fialkova, Woodburn, Health, Medicine, proverb, disease, synonymous of Proverbs

KIRISH

Bugungi kunda tilshunoslikda maqol va matallar turli yo 'nalishlarda o'rganib kelinmoqda. Shulardan inson salomatligi va tibbiyotga oid maqollarning xalqlar hayotida ajralmas qism bo'lib xizmat qilishi shu sohani o'rganishda yana muhim mavzu borligini anglatadi. Bu mavzu bo' yicha turli olimlar tomonidan turli izlanishlar amalga oshirilgan. Ilmiy maqoladan to lug'at va dissertatsiya ishlarigacha xuddi shu mavzudagi izlanishlarni uchratish mumkin. Maqolada paremiolog olim Miederga tegishli bo'lgan tibbiyotga oid maqollar tahlil qilingan maqola, Fialkova tuzgan lug'at va Vudburn ilmiy ishi tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fuqarolik kodeksimizning 350-moddasiga binoan agar davlat organining hujjati chiqishi natijasida majburiyatni bajarish to'liq yoki qisman mumkin bo'lmay qolsa, majburiyat to'liq yoki uning tegishli qismi bekor bo'ladi.

Davlat organining majburiyat bekor bo'lishiga asos bo'lgan hujjati belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topilganida, agar taraflarning kelishuvidan yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha tartib kelib chiqmasa va majburiyatni bajarish kreditor uchun o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lsa, majburiyat tiklanadi degan qoida ham mavjud lekin. Bu holatni ham hisobga olishimiz majburiyatlarni bekor qilinish asoslari asosiy qoida sifatida chiqishi mumkin.

So'nggi asoslar sifatida fuqarolik qonunchiligimizda fuqaro vafot etishi va yuridik shaxs tugatilishi bilan majburiyatning bekor bo'lishidir. Agar majburiyatni qarzdorning shaxsiy ishtirokisiz bajarish mumkin bo'lmasa yoki majburiyat boshqacha tarzda qarzdorning shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, qarzdor vafot etishi bilan majburiyat bekor bo'ladi. Masalan, vakil vafot etsa, u tomonidan olingan majburiyat ham bekor bo'ladi. Agar majburiyatni bajarish shaxsan kreditor uchun mo'ljallangan yoki majburiyat boshqacha tarzda kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, kreditor vafot etishi bilan majburiyat bekor bo'ladi. Shuningdek, yuridik shaxs, ya'ni qarzdor yoki kreditor tugatilishi bilan majburiyat bekor bo'ladi. Lekin qonunchilik bilan tugatilgan yuridik shaxsning majburiyatlarini bajarish boshqa shaxs zimmasiga yuklatilgan bo'lsa majburiyat bekor bo'lmaydi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak, majburiyatlarning bekor bo'lish asoslarini fuqarolik huquqining nazariy masalalaridan kelib chiqib uch guruhga ajratishimiz mumkin. Bular taraflarning kelishuviga ko'ra bekor bo'lishi, taraflarning birining tashabbusiga ko'ra bekor bo'lishi va taraflarga bog'liq bo'lmagan asoslarga ko'ra bekor bo'lishi kabilar.

Ikkinchidan, Fuqarolik huquqida keltirilgan yuqoridagi asoslar hozirgi kungacha mavjud bo'lgan asoslar hisoblanib, keyinchalik huquqiy munosabatlar rivojlangani sari ko'payib oshib borishi mumkin. Bu holat esa yangi huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarishi bilan birga huquqiy asoslarni ham o'zgarishi va tahrirlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. V.R. Topildiev. Fuqarolik huquqi. Darslik. Umumiy qism. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022-y. -504-b.
2. V.R. Topildiev. Fuqarolik huquqi. Darslik. Umumiy qism. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022-y. -508-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 03/24/931/0402-son.
4. Younas, A. (2019). Legality Of Rule Of Law With Chinese Characteristics. SSRN Electronic Journal.
5. Younas, A., & Zeng, Y. (2024). Proposing Central Asian AI ethics principles: a multilevel approach for responsible AI. AI and Ethics, 1-9.

ABU ALI IBN SINONING IJTIMOIIY-FALSAFIY QARSHALARINING BA'ZI JIHATLARI

Qurbonov Farhodjon Xabibloyevich

Mustaqil tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot jarayonida Abu Ali ibn Sinoning hayoti va falsafiy qarashlari qisqacha yoritib berildi. X-XI asrlarda yashab ijod qilgan buyuk faylasuf va tabib Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida ruh, aql, ilohiy va lazzat tushunchalari tahlil qilindi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlarining ahamiyati bugungi kunda beqiyos ahamiyatga egadir. Faylasuf o'zining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynadi. Shu jumladan, bugungi kunda yurtimizda Ibn Sino ilmiy merosini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda.

***Kalit so'zlar:** Aql, axloq, baxt-saodat, lazzat, insoniylik, fazilat, nafs, sabr-toqat, saxiylik, g'ayratlilik.*

ABSTRACT

This study briefly covered the life and philosophical views of Abu Ali ibn Sina. The philosophical views of the great philosopher and physician Abu Ali ibn Sina, who lived and worked in the 10th-11th centuries, analyzed the concepts of soul, reason, divinity and pleasure. The significance of Ibn Sina's philosophical views today is invaluable. The philosopher, with his multifaceted productive creativity and rich heritage, played a major role in the development of world culture. In particular, today in our country much attention is paid to the study of Ibn Sina's scientific heritage.

***Keywords:** Intelligence, morality, happiness, pleasure, humanity, virtue, lust, patience, generosity, enthusiasm.*

KIRISH

O'rta asrlarda Sharq olamida yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosini chuqur muhokama qilish va anglash, uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o'rni va roliga baho berish bugungi kun falsafasining dolzarb masalalaridan biridir. Ana shu bebaho ilmiy merosni yanada teran tadqiq etish va ommalashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga yangi turtki berish, Sharqning ulug' allomalari tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlar zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot uchun naqadar dolzarb va zarur ekanini ochib berishning ahamiyati ham shunchalik muhimdir. Abu Ali ibn Sino O'rta asrlar madaniyati daholari qatoriga kiradi, ularni o'z ruhiyati, kuchi qomusiy aqli, ilmiy-

falsafiy intilishlari va talablari bilan uyg'onish davrining buyuk mutafakkirlari bilan qiyoslash mumkin. Ularning asarlarida ilmiy teranlik, tabiatni o'rganishdagi tajribaga asoslangan ijodiy yechim, falsafiy tahlil kengligi, mehnatkash inson manfaati haqida qayg'urish chuqur va uzviy bog'liqligi ko'zga tashlanadi. Ko'p tomli qomusiy "Shifo" hamda mashhur 5 kitobdan iborat "Tib qonunlari" asarlari buning yaqqol isbotidir. O'z asarlarida mantiqiy madaniyat yutuqlarini umumlashtirib hamda ularni o'zining shaxsiy yangiliklari bilan to'ldirilgan holda, Ibn Sino YUNESKO ning Bosh konferensiyasini XX sessiyasi qarorida ko'rsatib o'tilganidek, falsafa, mantiq, tibbiyot, tabiatshunoslik, sotsiologiya, adabiyotshunoslik, tilshunoslik she'riyati rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shib, dunyoning barcha mamlakatlarida ilm-fan taraqqiy etishiga katta ta'sir o'tkazgan Ibn Sino davridan keyin 10 asr vaqt o'tdi. Bu davr ichida falsafa va ilm-fan oldinga salmoqli qadam tashladi: falsafaning yuqori shakli-dialektik va tarixiy materializm vujudga keldi, fan atom sirini ocha oldi, hamda uning kuchini insonga xizmat qilishiga erisha oldi. Barcha tirik jonzotlarni maqsadli ravishda boshqarish imkonini beradigan irsiyat kodi topildi. Biologiya jonsizdan jonlini sintez qilish bo'sag'asida turibdi, tabobatda profilaktika va kasallikni davolashning o'ta yangicha uslublari va nazariyasi ishlab chiqildi, kosmik parvozlarda oddiy hodisaga aylandi va boshqa ko'plam inson ongi shu tariqa rivojlandi. Bugungi kunda Ibn Sinoning qarashlaridagi ko'plab narsalar zamonaviy tushunchalarga hamohangligi va dolzarbligi bilan ajralib turadi. Uning go'yalari zamonaviy ilmiy bilimlar xazinasiga ham kiritilmoqda. Uning olamning abadiyligi hamda materiya buzulmasligini ta'minlovchi atributlar haqidagi g'oyalari, tabiiy qonuniyat, hodisalarining sababli bog'liqligi va umumiy o'zgaruvchanligi, olamni anglash va boshqa g'oyalari bunga misoldir.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Mustaqilligimiz tufayli yurtimizda sharq allomalarining ilmiy merosini o'rganishga e'tibor kuchaytirilgan. Jahonning turli kutubxonalarida Abu Ali ibn Sino asarlarining qo'lyozmalari saqlanadi. Shu jumladan, yurtimizda O'zbekiston FASHI da alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo'lyozmasi mavjud. Ushbu maqola bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar jarayonida asosan arab tilida ابن, تهران, 1332, "تنبيهات و اشارات", سننا Jumladan foydalanildi adabiyotlardan yozilgan "Al-Ishorat va at-tanbihot" asari va bu asar asosida yozilgan muhokamalar va Ibn Sinoning ilmiy asarlarini tarjima qilib, bugungi kunda ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shayotgan buyuk tadqiqotchilarimizning ilmiy maqolalaridan keng foydalanildi. Ibn Sinoning g'oyalari rivojini va qarashlari evolyutsiyasini tushunish uchun uning 20 tomlik "Kitab al-Insaf" ("Adolatlilik kitobi") ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ming

afsuski, u yo'qolib ketgan. Kitobda taxminan 28 ming ta muammo ko'rib chiqilgan"1. Mazkur maqolada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nutqlari va asarlari tadqiqotning metodologik asosi sifatida olindi. Hozirgi kunda Ibn Sinoning ilmiy asarlari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan SH.S. Jurayevning maqolalari shuningdek, Abu Ali ibn Sinoning "Al-Ishorat va at-tanbihot" asarini o'rganishda tarixiylik metodi asosida tahlil qilindi. Maqolani yoritish jarayonida mantiqiylik, ob'yektivlik, tizimlilik metodlaridan foydalangan holda baxt-saodat masalasining qiyosiy tahlili ochib berildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ibn Sinoning, ayniqsa insonparvarlik konsepsiyasi o'ta dolzarb bo'lib, uning asosiy mazmuni ruhiy va jismoniy sog'liq haqida qayg'urishga qaratilgan. "O'tmishga ehtirom bilan qarash, Engels ta'rifi bilan aytganda, chinakam ma'rifatparvarlik belgisidir"2. Sharq meditsinasi IX – XI asrlarda o'z taraqqiyotining yuqori bosqichiga ko'tarilgan bir paytda Abu Ali ibn Sino tom ma'noda universal zakovati bilan ilm – fan rivojiga ulkan hissa qo'shdi desak yanglishmagan bo'lamiz. Olim o'z davrida turli sohalarda erishgan ilmiy yutuqlarni falsafiy umumlashtirish, ularni izchil bayon etish va tartibga solish bilan birga, fanning turli masalalarida ajoyib yutuqlarni qo'lga kirita oldi. Faylasuf o'z davri uchun ilg'or g'oyalarni olg'a surdi. Mutafakkirning serqirra ijodi, hayoti va ilmiy faoliyati keng o'rganilgan, dunyoning turli tillarida qator asar va maqolalar nashr etilgan. Ibn Sino deyarli barcha asarlarida jon, ruh, mumkin bo'lgan vujud kabi masalalarga doir asarlar yozgan. Jumladan, "Hayy ibn Yaqzon", "Qush" risolasi, "ash – Shifo" ning "Ilohiyot" qismi, "Nurlanish" kabilardir. Ibn Sino o'zining "Ash – Shifo" asarining "Ilohiyot" (Mahluqotlar va yaratish to'g'risida. Beshinchi sharh) qismida keltirishicha: "Insonlar tasavvurida maxluqot, ya'ni yaratilgan narsalar yaratuvchi deb atalmish narsa bilan bog'liqligi muhim ahamiyatga ega, chunki yaratuvchi maxluqotlarni yaratadi. Yaratuvchi yaratadi, bunyod etadi, ishlab chiqaradi, maxluqot(yaratilgan) esa yaratiladi, bunyod etiladi, ishlab chiqariladi. Bundan kelib chiqadiki, avval mavjud bo'lmagan narsa mavjud bo'lgan narsa tufayli shakllanadi. Yaratiluvchi narsalar mavjudlik va substrakt narsalar layoqatidan oldin bo'ladi. Jism boshqa bir jism bilan ko'plab sabablar masalan, vaqtli va fazoviy ketmaketlik ta'siri natijasida, sabab-oqibat munosabatiga kirishishi mumkin. Lekin biz ulardan borliq afzalliklaridan kelib chiqadiganini tekshirishimiz kerak, bunda ikkita jism bir vaqtda mavjud bo'lishligi istisno qilinmaydi. Agar biror jism boshqa bir jism tufayli shakllangan bo'lsa ham ikkinchining mavjudligi birinchi bilan shartlanmaydi. Ikkinchi jism mavjudlikka ega bo'lmasa, birinchi jism mavjud bo'lolmasdi. Ya'ni birinchisi ikkinchisi tufayli shakllangan. Ikkinchi jism esa birinchisi bilan shartlangan va uning mavjudligi

ikkinchisidan kelib chiqqan. Bunga misol qilib quyidagini keltirish mumkin: Men qo'limni harakatga keltirdim va kalit harakatlandi (buraldi)", yoki: so'ng kalit harakatlandi. Lekin quyidagicha aytish mumkin emas: "kalit harakatlandi va mening qo'lim harakatlana boshladi" (yoki: so'ng mening qo'lim harakatlana boshladi), vaholanki, qo'l va kalitning harakati bir vaqtda sodir bo'ladi. Bu mohiyatan ketma-ketlikning o'zidir. Jismlarning holati uning mohiyatiga muvofiq tarzda o'zi kelib chiqqan jism holatidan kelib chiqqan. Bu mohiyatan bog'liqlikdir. Jismlar noborliqdan so'ng mavjud bo'ladi, agar noborliq sababdan uzilib qolgan bo'lsa, u mavjudlikka ega bo'lmaydi. Boshqa narsa orqali shakllanuvchi jism mavjudli (borliq) ka ega bo'lmasa, mavjud bo'lmaydi. Mavjudlik (borliq) ning oqibati sababga bog'liqdir, sababning shakllanishi tabiat, biror bir tashqi omil yoki kimningdir irodasi tufayli ro'y beradi. Ushbu sabab dolzarb sababga aylanadi. Masalan, duradgorning bolg'aga, yog'ochga yoki yordamchiga ehtiyoji, insonning ozuqaga yoki yoz fasliga ehtiyoji kabidir. Agar sabab dolzarb sababga aylana olmasa va uning mohiyati shakllanmasa, oqibat kelib chiqmaydi. Agar tashqi to'siq bo'lmasa, yaratguvchi o'z-o'zicha mavjud bo'la olmaydi. Lekin u mohiyatiga ko'ra sabab bo'la olmaydi va oqibatning mavjudligi yuqorida keltirilgan holat mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Bunday holat paydo bo'lganda, tabiat kimningdir irodasi bo'ladimi, oqibatning mavudligi zaruratga aylanadi. Agar u bo'lmasa, noborliq (yo'qlik) zaruratga aylanadi. Agar jismlar holati turli xil sharoitda bir xil bo'lsa va oqibatga ega bo'lsa, ushbu oqibat abadiy undan kelib chiqadi. Agar jismni undan avval noborliq bo'lmaganligi uchun yaratilgan deb atamasak, jismlar nomi uning mohiyatini tushunishda qiyinchilik tug'dirmaydi. "Bir narsadan hech qanday qurol moddiyat va vaqt vositasisiz boshqa bir unga bog'liq jismning mavjudligi kelib chiqsa, buni yaratish (ilohiyot) deb ataymiz. Muvaqqat noborliqdan avval o'tgan narsa vositachiga ehtiyoj sezadi. Yaratish darajasi moddiylikdan va ma'lum vaqtda shakllanish darajalaridan yuqori turadi, deb e'tirof etadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ibn Sino o'zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari keyingi faylasuf olimlarning falsafiy ta'limotlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Buyuk faylasuflarimiz ilgari surgan fikrlari bugungi kunda o'z isbotini topmoqda. Buyuk yurtdoshlarimizning o'zlarining ilmiy nazariy tadqiqotlari, tajribalarida tabiatdagi barcha hodisalar muayyan tabiiy qonuniyat asosida yuz beradi, tashqi kuchning ta'siri uni izdan chiqarishi mumkin, degan xulosaga keladi. Bu bugun o'z isbotini topgan haqiqatdir. Insoniyat tabiatdan foydalanishda tabiat qonunlariga emas, aksincha, shaxsiy manfaatlariga asoslanib

faoliyat ko'rsatishi oqibatida tabiatdagi muvozanatning sezilarli darajada buzilgani, ya'ni, dunyoning turli burchaklarida tabiiy ofatlar: suv toshqinlari, zilzilalar, o'rmon yong'inlari va boshqa shu kabi talofatlarning ro'y berayotgani hech kimga sir emas. Inson tabiiy muhitga ta'sir etar ekan, uning o'zi ham "aks ta'sir"ga duch kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Abu Ali Ibn Sino. "Al-ishorat va at-tanbihot" (Nasriddin at-Tusiy sharhi) Qohira 1365. – B 338
3. Диноршоев М. Абу Али ибн Сина. Избранные произведения: – Душанбе, Ирфон, 1980
4. Jurayev, S. S. O. G. L. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA BORLIQ MASALASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 12-14.
5. O'G'Li, J. S. S. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 11-14.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATINI FOSH ETISH BO‘YICHA AYRIM XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Muxammadqulov Shohruhbek Erkin o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi “Tezkor-qidiruv faoliyati kafedrası”
mustaqil tadqiqotchisi
sh.muhammadqulov@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan firibgarlik jinoyatini fosh etish bo‘yicha ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlikni fosh etishda tezkor xodimlarning tergovchi, surishtiruvchilar bilan xamkorlik jihatlari va xususiyatlariga oid muammolar, ushbu soha bo‘yicha mutaxassislarning hamkorlikni samarali olib borish borasida fikrlariga asoslanib ushbu jinoyatlarni fosh etish bo‘yicha tegishli xulosa va taklif tafsiyalar berilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan firibgarlik, kiberjinoyat, kiberfiribgarlik, ijtimoiy tarmoq, axborot makoni, bank plastik kartasi, elektron manzil, akkaunt.*

ABSTRACT

In this article, the experience of some foreign countries in the detection of fraud crimes committed using information technologies, as well as the problems related to the aspects and characteristics of cooperation of operatives with investigators and investigators in the detection of fraud committed using information technologies, and the effective cooperation of experts in this field based on their opinions, relevant conclusions and suggestions on exposing these crimes were given.

Keywords: *Fraud committed through information technologies, cybercrime, cyberfraud, social network, information space, bank plastic card, electronic address, account.*

KIRISH

Bugungi kunda jahonda, axborot asri deb nomlangan biz yashayotgan davr o‘ziga xos o‘zgaruvchanligi, turfa xilligi, mintaqalar va mamlakatlar o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvning tezlashuvi va kuchayishi bilan xarakterlanadi. Asrimizning o‘ziga xosligi shundaki, inson hayoti va faoliyati uchun eng muhim bo‘lgan boyliklar qatorida axborot qayta-qayta tilga olinmoqda. Hattoki, axborot omili dunyoda kechayotgan jarayonlarga ta’sir o‘tkazuvchi, uni bir tomondan ikkinchi, boshqa

tomonga burib yuborish xususiyatiga ega bo'lgan birlamchi vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi asosiy omil ekanligidan kelib chiqib, muayyan mamlakatning strategik rejalarini amalga oshirishda undan unumli foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, axborot oqimlarining ortib borishi, kuchayishi va ta'sir doirasining kengayishi o'ziga xos, kutilmagan natijalarni keltirib chiqarmoqda. Axborot sub'ektlari tomonidan muayyan davlatning, jamiyatning dunyoqarashi, ongi va tafakkurini o'zgartirishga bo'lgan urinishlar soni ortmoqda;

Ikkinchidan, bir davlatning ikkinchi bir davlatga nisbatan aniq bir maqsadni ko'zlab tazyiq o'tkazishini qo'llab-quvvatlashda axborotning texnik va mafkuraviy imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Kiberxurujlar vositasida davlatlarning moliyaviy muassasalari, xavfsizlik va boshqa turli idoralarning saytlarini buzib kirish, zarar etkazish, mamlakatni obro'sizlantirishning asosiy vositasi sifatida ko'rilmoqda;

Uchinchidan, muayyan davlat, shaxs, jamiyat, millatning faqat o'ziga tegishli bo'lgan xususiyatlari, madaniyati, an'analaridan begonalashtirish orqali o'zining g'oyaviy ta'sir doirasiga tushirishga bo'lgan urinishlar jahonda gegemonlikka bo'lgan intilishlarning asosiy vositasi sifatida qaralmoqda;

To'rtinchidan, olib borilayotgan harbiy operatsiyalarni axborot orqali qo'llab-quvvatlash natijasida haqiqiy vaziyatni soxtalashtirish, jamoatchilik fikrini o'zgartirish, kam mablag' sarflab ulkan natijalarga erishishning zamonaviy usul va vositalaridan keng foydalanilmoqda;

Beshinchidan, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashish, mamlakatdagi mavjud tabiiy resurslarni noqonuniy o'zlashtirish, muayyan davlat hududini o'zlashtirish hisobiga o'zining geografik territoriyasini kengaytirish jarayonida mamlakatda mavjud konstitutsion tuzumni izdan chiqarishda axborotning noqonuniy vositalari qo'llanilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Global axborot makonida qaysidir davlat ta'sir o'tkazuvchi, qaysidir mamlakat esa tashqi ta'sirlardan himoyalovchi rolini bajarmoqda. SHunday ekan, jahon global axborot makonida o'z qat'iy pozitsiyasini saqlay olgan mamlakatgina o'zining kelajak rejalarini, strategik dasturlarini amalga oshira oladi. Ushbu paradoksning mohiyatidan kelib chiqib, axborot texnologiyalarining eng zamonaviy vositalarini qo'llay olgan, o'zining strategik dasturlarini axborot ko'magida amalga oshirayotgan

davlatlar tajribasini o'rganish, o'zlashtirish taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Axborot siyosatini samarali olib borishning rivojlangan davlatlar tajribasi deganda asosan ichki va tashqi siyosatini olib borishda axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanuvchi AQSH va bir qator Yevropa davlatlarini keltirish mumkin.

Global axborot makonida «katta o'yinchi» maqomiga erishgan mamlakatlar etarlicha. Ammo, ular orasida AQSHning axborot sohasidagi siyosati mamlakatning etakchiligini ta'minlovchi asosiy vositalaridan biri ekanligi mutaxassislar tomonidan tez-tez tilga olinadi. AQSH hukumati esa (qaysi prezident bo'lmasin) etakchilik maqomi o'zida ekanligini aytishdan charchamaydi va ular ushbu etakchilik dunyoga tinchlik va farovonlikni ta'minlashga yo'naltiriladi deb ta'kidlashadi. Mamlakatning 42-prezidenti B Klinton o'z nutqlaridan birida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: «Bizning xavfsizlik strategiyamizning bosh maqsadi dunyoning barcha mintaqalarida demokratiyaning o'rnatilishiga erishishdir. Zero, demokratik davlatlar bir-biriga hujum qilmaydi»¹⁷. Aksariyat ilmiy manbalarda ham yuqoridagi kabi AQSH o'zining tashqi siyosatini dunyoda demokratiyani mustahkamlashga da'vogarlik qilishi ko'rsatilgan. Shu jumladan, mamlakatning axborot sohasidagi davlat siyosati ham birinchi o'rinda mamlakat ichida va tashqarisida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilishi keltirilgan.

Rossiyalik olim P. Karasev o'tgan asrning 90 yillarida dunyoga keng tarqatilib boshlagan global tarmoq hisoblanmish "internet"ning ushbu mamlakat tomonidan yaratilishi va mamlakat aholisining aksariyat qismi internet xizmatlari bilan ta'minlanishi ortida ham yuqoridagi da'volar asos qilib ko'rsatilganligini ta'kidlaydi. Olimning fikriga ko'ra, "internet deb atalmish global tarmoqqa egalik qilish AQSHga so'zsiz dunyo etakchiligini mustahkamlash va siyosiy manfaatlarini amalga oshirish imkonini berdi"¹⁸.

Siyosatshunoslik fanlar doktori O. Sudorgin global tarmoqning har qanday davlat chegarasini biror-bir to'siqsiz bosib o'tuvchi, boshqacha aytganda, makon va zamon tushunchalarini tan olmaydigan tizim sifatida e'tirof etadi. Mazkur tarmoqning faoliyati bir davlat tomonidan nazorat qilinishi esa uning kuch-qudrati va salohiyatining eng yuqori darajada ko'rsatish imkonini beradi. Unga ko'ra, "Internetni nazorat qiluvchi tashkilot to'g'ridan-to'g'ri AQSH hukumatiga hisobdordir. Ushbu tashkilot internetda nom va manzillarni muvofiqlashtiruvchi

¹⁷ Clinton, Bill. 1994 State Of The Union Address // The Washington Post [Web-source] URL: <http://www.washingtonpost.com/wp-srv/politics/special/states/docs/sou94.htm>.

¹⁸Карасев Павел Александрович. Политика безопасности США в глобальном информационном пространстве. Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. Москва - 2015. С-28.

xususiy notijorat muassasasi (Internet Corporation for Assigned Names and Numbers – ICANN) hisoblanadi”¹⁹. Ma’lumotlarga ko‘ra, an’anaviy OAVdan uzoqlashish va internet imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish sayyoramiz aholisining asosiy mashg‘ulotiga aylanib ulgurgan. Aniqroq aytadigan bo‘lsak AQSHning o‘zida fuqarolarning aksariyati kundalik faoliyatiga daxldor barcha masalalarda internetga murojaat qiladi. “AQSHning internet auditoriyasi 170 milliondan ortiq kishini yoki umumiy aholining 69-74% foizini tashkil qiladi. 96% foiz internet foydalanuvchilari elektron xat orqali ma’lumot almashadi, 83% foizi viruslarga qarshi kurashadi, 75% foizi internet do‘konlardan mahsulot xarid qiladi va h.k.”²⁰.

AQSH hukumati nafaqat o‘z fuqarolariga internet xizmatlari ko‘rsatishdan manfaatdor, balki, xorijiy mamlakatlarga zamonaviy axborot xizmatlari ko‘rsatish orqali o‘zining ta’sir doirasini ushlab turish, kengaytirish imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanib kelmoqda. Internetning zamonaviy texnologiyalari yordamida xorijiy auditoriyani o‘ziga jalb qilish turli vositalar yordamida amalga oshiriladi.

D. Zerkal AQSHdagi axborot oqimini boshqarishning ikki asosiy yo‘nalishini ko‘rsatadi: “birinchisi xalqaro maydondagi voqealarni yoritish bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi - ichki siyosat masalalaridir”²¹. Hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar jamoatchilik o‘rtasida turli anglashilmovchiliklarni keltirib chiqarmasligi, xalqda norozilik kayfiyatining paydo bo‘lmasligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu ikki muhim yo‘nalish turli darajadagi ichki va xalqaro jarayonlarda mamlakatning pozitsiyasini fuqarolar tomonidan nafaqat qo‘llab-quvvatlash, balki uning ishtirokchisi va targ‘ibotchisi sifatidagi faolligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ma’lumki Qo‘shma Shtatlar tomonidan mamlakat tashqarisida turli harbiy amaliyotlar muntazam amalga oshirib kelinadi. Mazkur amaliyotlarning legitimligini asoslash, milliy manfaatlariga mosligini jamoatchilikka etkazish ko‘p jihatdan axborot ko‘magiga muhtoj bo‘ladi. Shu ma’noda milliy OAV hukumatning xalqaro maydondagi harbiy va boshqa ko‘rinishdagi amaliyotlarini milliy xavfsizlikni ta’minlash, dunyoga demokratik qadriyatlarni kengroq yoyish nuqtai-nazaridan asoslash borasida kuchli targ‘ibotga ehtiyoj sezadi. Mazkur jarayonlarni boshqarish mahalliy OAVning turli ko‘rinishdagi tashqi operatsiyalarni vatanparvarlik va amerikacha erkinlikni dunyoga targ‘ib qilish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

¹⁹Судоргин О. А. Современная информационная политика государства: мировой опыт и российская практика: автореф. дисс. д. п.н. М., 2011. С. 140.

²⁰Судоргин О. А. Современная информационная политика государства: мировой опыт и российская практика: автореф. дисс. д. п.н. М., 2011. С. 140.

²¹ Д.А. Зеркаль. Информационная политика государства: Зарубежный опыт управления средствами массовой информации. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/31277/1/trsick_2014_2_20.pdf.

AQSHlik siyosatshunos G. Doris OAVning mamlakat hayotidagi o‘rni va rolini quyidagicha tasvirlaydi: «OAV nafaqat har bir amerikalik dunyoqarashining asosiy manbai, balki jamiyat bo‘ylab axborot tarqatishning eng tezkor usuli, shuningdek, talqin qilishning eng ishonchli usulidir»²². Darhaqiqat, AQSHda axborot tarqatish va qabul qilishning o‘ziga xos tizimi shakllangan. Uning muhim xususiyati shundaki, mamlakat fuqarolari ularga tarqatilayotgan axborotni olishda o‘zlari ishonchli deb bilgan manbadan olish imkoniyatiga egalar. Manbalarning soni va ko‘lami fuqarolarning axborotga bo‘lgan barcha ehtiyojlarini qondiradi.

Mamlakatda axborot olishning tez va ishonchli manbalari axborot siyosatining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Shu o‘rinda mamlakat aholisi va jahonning aksariyat mamlakatlari uchun axborot tarqatuvchi asosiy manbalardan biri «CNN effekti» iborasi haqida ham ma’lumot berish ehtiyoji tug‘ilmoqda. O‘tgan asrning 80 yillarida CNN (Cable News Network) telekanali jahonda birinchilardan bo‘lib 24 soatlik axborot tarqatish rejimiga o‘tgan. Telekanalning yana bir o‘ziga xosligi voqea va hodisalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri namoyish qilishi bilan bog‘liq. Kuzatuvchilarga dunyoda kechayotgan eng muhim voqealar, harbiy to‘qnashuvlarni voqea joyidan namoyish qilinishi o‘z davrining shov-shuvli hodisasi sifatida qaralgan.

D Bikovning ta’riflashicha: «Qaerda va qanday vaziyat bo‘lishidan qat’iy nazar muhim voqeliklarni eksklyuziv yoritish telekanal translyasiyasining asosiy tamoyillaridan biri edi va hozir ham shunday bo‘lib qolmoqda»²³. Qo‘shma Shtatlarning sobiq davlat kotibi J.Beyker CNN haqida shunday yuqori baho bergan edi, «Eng asosiysi u (CNN nazarda tutilmoqda) kuchli siyosatchilarning o‘z pozitsiyalariga ega bo‘lishga majbur qiladi. Chunki u voqealar rivojini juda tez yoritadi. Siz real vaqt rejimidasiz. O‘ylashga esa vaqt yo‘q»²⁴.

Biz Qo‘shma Shtatlarning birgina nufuzli telekanali «CNN effekti»ning imkoniyatlarini tahlil qilib, mamlakatning axborot siyosati sohasidagi erishgan natijalari, ta’sir ko‘lami va auditoriyasi haqida umumiy tasavvurga ega bo‘ldik. E’tiborli tomoni shundaki, CNN auditoriyasining kengligi, dunyo mintaqalaridagi muxbirlari soni, texnik imkoniyatlari tomonidan dunyoda ikkinchi o‘rinda qayd etilgan. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha birinchi o‘rinni Buyuk Britaniyaning BBC telekanali egallaydi.

²² Дьякова Е. Г., Трахтенберг А. Д. Социокультурные механизмы установления повестки дня // Науч. ежегодник Ин-та философии и права Урал, отделения Рос. академии наук. 2001

²³ Быков Д. В. CNN – новости, которые изменили мир // Медийные стратегии современного мира. Материалы VIII Международной научно-практической конференции (Сочи, 1–3 ноября 2014 г.). – Краснодар : Кубанский государственный университет, 2014. – С. 126–133.

²⁴ Baker III J. A. The Politics of Diplomacy: Revolution, War & Peace, 1989–92. – New York: G. P. Putnam’s Sons, 1995. – 687 p.

Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarning deyarli barchasi axborot siyosatining barcha yo'nalishlarida samarali faoliyat olib borish tajribasiga ega bo'lib ulgurgan. Ular erishayotgan natijalarning zamirida shubhasiz, amaldagi qonunchilikning takomili, uning sifatli ijrosi mavjudligi ayni haqiqat. Ushbu davlatlar eng avvalo, axborot makonida davlatning, jamiyatning va eng asosiysi har bir shaxsning xavfsizligini ta'minlash, axborot olish va tarqatish huquqini muhofaza qilishga strategik vazifa sifatida qarashgani natijadorlikni ta'minlagan. Yana bir asosiy jihat shuki, barcha Yevropa mamlakatlarida axborot siyosatiga bo'lgan yondashuvlar uyg'unligidir. Har bir mamlakat o'zining milliy manfaatlarini ta'minlash qatorida umumiyevropa manfaatlarini ro'yobga chiqarish strategiyasi axborot siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilab qo'yilgan. Mazkur g'oyalarni amalga oshirishda Yevropa Ittifoqining o'рни va roli beqiyosdir. Yevropani yagona ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etgan mintaqaga aylanib borishi ushbu hududdagi axborot tizimlarining rivoji bilan ham bog'liq ekanligi aksariyat mutaxassislar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Yevropa Ittifoqining mintaqada yashovchi xalqlar, davlatlar o'rtasidagi umumiy axborot makonini yaratishga bo'lgan intilishlari o'tgan asrning 80-yillarida o'z natijasini ko'rsata boshladi. Buning bir qancha sabalarini keltirish mumkin. Birinchidan, mintaqadagi bir-biriga yaqin madaniyat, ta'lim va ijtimoiy munosabatlarning uyg'un qiyofasi voqealar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchidan, o'zaro umumiy qarashlar, boshqa qit'alarda sodir bo'layotgan keng ko'lamlı ziddiyatlar, iqtisodiy bo'hronlarning Yevropada sodir bo'lishining oldini olish maqsadi bilan bog'liq.

Rossiyalik tadqiqotchi Yu.Kurshaning qayd etishiga ko'ra, «Axborot makonida Yevropa birligini saqlash maqsadida 1993-yilda Yevropa jamoat teleradiokompaniyalari yagona umumiyevropa ko'p tilli kanalini, bugungi kunda Evronyus (Euro news)ni tashkil etishdi, uni faqat Yevropa Ittifoqida 8 million kishi tomosha qiladi»²⁵. Yevropa Ittifoqi va Euro news o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra, mintaqa ichida va tashqarisida Yevropaning nufuzini targ'ib qilish, mintaqa xalqlarini boshqa hudud axboriy tahdidlardan himoya qilish, yevropa xalqlarining birligi va hamjihatligini keng yoritish, YeI ga a'zo mamlakatlar manfaatlarini birdek himoya qilish kabi vazifalar telekanal zimmasiga yuklatilgan.

BBC (British Broadcasting Corporation) Britaniya teleko'rsatuv, radioeshittirishlar korporatsiyasi Buyuk Britaniya axborot siyosatini olib borish, mamlakat ichida va tashqarisida mamlakatning nufuzi, obro'-e'tiborini yuksaltirishda eng yuqori darajada faoliyat yuritib kelmoqda. 1922 yilda, bundan bir asr oldin o'z

²⁵ Ю. В. Курешева. Политика ес в информационной сфере: европейская идентичность и культурное разнообразие. Вестник Санкт-Петербургского университета. Сер. 9. 2008. Вып. 1. Ч. II. С-317.

xabarlarini radioeshittirishlar orqali tarqata boshlagan mazkur media-korporatsiya hozirgi davrga kelib, dunyoning o'nlab davlatlariga o'z axborot xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. BBC 1932 yildan boshlab mamlakatdan tashqariga xabarlar tarqata boshlagan va mazkur harakatlarini ingliz tilli xalqlarni birlashtirish g'oyasi asosida tashkil etgan. 2010 yilga qadar BBC Britaniya tashqi ishlar vazirligi (Foreign Office) qaramog'ida faoliyat olib borgan. Bundan anglash mumkinki, tashqi dunyoga ta'sir o'tkazish ustuvor ahamiyat kasb etgan. O'tgan 80 yilga yaqin vaqt mobaynida radiokanal qaysi davlatlarda xabar tarqatgan bo'lsa o'sha davlatlarga britanacha turmush tarzi, madaniyati va qadriyatlarini singdirib borgan. Bu esa mamlakatning nufuzi, xalqaro maydondagi obro'-e'tiborining keskin yuksalishini ta'minlagan. Ikkinchi jahon urushi davrida BBC deyarli barcha Yevropa tillarida o'z ma'lumotlarini taqdim qilgan. Radioeshittirishlarning chegarasi va ko'lami urushdan keyin ham kengayib bordi. Korporatsiyaning radioeshittirishlari kuzatuvchilarining hozirgi kundagi soni ma'lumotlarga qaraganda, taxminan 351 million kishini tashkil etmoqda.

BBC korporatsiyasining eng katta yutuqlaridan biri shuki, u faqat radioeshittirishlar bilan cheklanib qolmadi. O'tgan asrning o'rtalarida OAVning zamonaviy ko'rinishlari rivojlanib borishi va televideniening shakllanishi natijasida korporatsiya o'zining turli mavzu va yo'nalishlarda telexizmatlarini taklif etdi. 1953 yil bitta kanal, 1964 yildan boshlab esa ikkinchi kanal o'z faoliyatini boshladi. Ayni davrga kelib, 10 ta telekanal o'z faoliyatini davom ettirmoqda.

BBC telekanallarning asosiy yutug'i sifatida, ular biror hukumat tashkiloti manfaatlariga xizmat qilmasligini mutasaddilar ko'pincha tilga olishadi. Ya'ni, axborot tarqatishda muayyan OAV o'zini moliyalashtiruvchi davlat yoki nodavlat tashkiloti manfaatlariga xizmat qiladi. BBC esa boshqacha yo'l tutgan. Kabel televidenie va sun'iy yo'ldosh orqali xabarlarni ko'ruvchi barcha xonadonlardan yig'iladigan badal pullari telekanalning asosiy moliyalashtiruvchi manbasidir.

BBC korporatsiyasining yana bir muhim yutug'i sifatida «raqamlashtirish» jarayonlariga yuqori sur'atlar bilan o'tganligi bilan bog'liq. Bu o'z navbatida Britaniya hukumati tomonidan 2022 yilda qabul qilingan kiberxavfsizlik strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlarga mos keladi. Fikrimizni dalillash maqsadida strategiyaning quyidagi ma'lumotlarini keltirib o'tamiz: «Raqamli asrning imkoniyatlari va muammolarini eng yaxshi tarzda boshqara oladigan mamlakatlar kelajakda xavfsizroq, tahdidbardosh va farovonroq bo'ladi. Buyuk Britaniya raqamli

jihaddan eng ilg'or davlatlardan biri bo'lib, mamlakat ichida hamda xorijda ulkan texnologiyalarni rivojlantirish dasturiga ega»²⁶.

Britaniya hukumati tomonidan ishlab chiqilib, qabul qilingan raqamli dasturlar mamlakatning jahonda barcha yo'nalishlardagi ustunligini ta'minlashida axborot ko'magiga tayanishini anglatadi. Jumladan, eng yirik axborot tarqatuvchi uyushma sifatida BBCning imkoniyatlarini yanada oshirishiga huquqiy va amaliy zamin yaratadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, uyushmaning erishayotgan ijobiy natijalari zamirida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishi yotadi. Bugun axborot tarqatish va olishning muhim vositasi «ijtimoiy tarmoqlar» ekanligi hech kimga sir emas. Korporatsiyaning ijtimoiy tarmoqlardagi kuzatuvchilar soni hayratlanarli darajada ko'p. Raqamlarga murojaat qilamiz: «Facebook tarmog'ida 49 million, Twitter tarmog'ida 10 million, Instagram da esa 8,7 million kishi dunyo bo'ylab BBCning yangiliklari va boshqa mazmundagi xabar va lavhalarini kuzatib boradi»²⁷. BBC ijtimoiy tarmoqlardagi kuzatuvchilari soni bo'yicha dunyoda yaqqol etakchi.

E'tiborimizni tortgan yana bir jihat shuki, korporatsiyaning barcha yosh senzi va jamiyat hayotining turli yo'nalishlaridagi alohida telekanallarining mavjudligidir. Quyida ularning vikipediya manbasidan olingan yo'nalishlari ko'rsatilgan:

- [«BBC Three»](#) — yoshlar uchun maxsus kanali
- [BBC Four](#) — madaniyat va ta'lim kanali
- [CBBC](#) — bolalar uchun kanal
- [CBeebies](#) — bolalar uchun kanal
- [BBC News](#) — axborot-tahliliy kanal
- [BBC Parliament](#) — parlament kanallaridir»²⁸.

Mazkur telekanallarni dunyoning barcha mintaqasidan turib sun'iy yo'ldosh orqali tomosha qilish mumkin. Bu o'z navbatida, Britaniya axborot siyosatining o'zining madaniyati, mafkurasi, milliy xususiyatlarini targ'iboti yo'lidagi aniq natijalarga qaratilganligini ko'rsatadi.

Axborot siyosatini to'g'ri va samarali tashkil etishning Germaniya tajribasi ham jahonda alohida o'ringa ega. Ikkinchi jahon urushidan mag'lubiyat va misli ko'rilmagan darajada talofot bilan chiqqan Germaniya o'zining sanoati, iqtisodiyoti, siyosiy boshqaruvining demokratik umume'tirof etilgan tamoyillar asosida tashkil etishi bilan bog'liq islohotlar natijasi uzoq kuttirmadi. Germaniya qisqa muddatlarda

²⁶ National Cyber Strategy 2022 Pioneering a cyber future with the whole of the UK. https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/1053023/national-cyber-strategy-amend.pdf.

²⁷ https://www.ofcom.org.uk/_data/assets/pdf_file/0023/175271/bbc-news-review-bakamo-full-report.pdf.

²⁸ wikipedia.org/wiki/Би-би-си.

barcha sohalarda jahonning etakchi mamlakatlari qatoriga qo‘shildi. SHubhasiz, mamlakatning erishgan natijalari uning birinchi navbatda axborot ko‘magiga tayanganligi bilan xarakterlanadi. Chunki, o‘z fuqarolarini mamlakatdagi izchil o‘zgarishlar sari ruhlantirish, hamda, jahon arenalariga chiqishda axborot siyosatining samarali olib borilishi muayyan darajada vosita sifatida qaraldi.

“Tashkilot faoliyati Germaniyaning «Bundestag»i tomonidan qabul qilingan, bir muddat bekor qilingan va 2005 yilda qayta o‘zgartirilgan "Germaniya eshittirishlari to‘g‘risida"gi qonun (Deutsche-Welle-Gesetz) bilan tartibga solinadi”²⁹. Qonun chiqaruvchi oliy organ tomonidan belgilab qo‘yilgan huquqiy asosga ko‘ra, tashkilotning vazifasi “Germaniyaning Yevropa madaniyatiga mansub millat va erkin demokratik huquqiy davlat sifatida namoyon etish”³⁰, barcha jabhalarda erishilayotgan ijobiy o‘zgarishlarni muntazam yoritib borish, nemis tili va madaniyatini dunyoda ommalashtirish, taraqqiyot va demokratiyani rivojlantirishga ko‘maklashishdan iborat. Qonunda belgilab qo‘yilgan va e‘tiborimizni tortgan quyidagi jumlaning keltirmoqchimiz. “Nemis to‘liqini Germaniya Federativ Respublikasining tashqi madaniy siyosatining dirijyorlaridan biri» deb belgilab qo‘yilgan”³¹.

Yevropaning aksariyat mamlakatlari kabi Fransiya ham tashqi makonda o‘zining pozitsiyasini mustahkamlashga alohida ahamiyat bergan. Ushbu yo‘nalishda harbiy harakatlar olib borish bilan bir qatorda, fransuz tili va madaniyatini targ‘ib qilishga ham jiddiy e‘tibor qaratilgan. Bu orqali, Yevropada va jahonda fransuz tilida gaplashuvchi insonlarni ko‘paytirish, milliy tilni jahon tillaridan biriga aylantirish bosh maqsad sifatida qaralgan. Mazkur yo‘nalishdagi yirik loyihalardan biri “Frankofoniya” (fransuzcha - l'Organisation internationale de la Francophonie (OIF) fransuz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar ittifoqining tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu loyiha fransuz tilida muloqot qiluvchi 54 mamlakatning madaniyati, milliy xususiyatlari fransuz manfaatlari asosiga qurilgan deyishga asoslar etarli. Shu bilan birga, xalqaro maydonda Fransiya raqib bo‘lgan boshqa yuqorida nomlari keltirilgan mamlakatlarga nisbatan Fransiyaning strategik ustunligini ta‘minlagan.

²⁹ Немецкая волна // Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. — М. : Большая российская энциклопедия, 2004—2017

³⁰ Немецкая волна // Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. — М. : Большая российская энциклопедия, 2004—2017

³¹ Немецкая волна // Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. — М. : Большая российская энциклопедия, 2004—2017

REFERENCES

1. Clinton, Bill. 1994 State Of The Union Address // The Washington Post [Web-source] URL: <http://www.washingtonpost.com/wp-srv/politics/special/states/docs/sou94.htm>.
2. Карасев Павел Александрович. Политика безопасности США в глобальном информационном пространстве. Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. Москва - 2015. С-28.
3. Немецкая волна // Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. — М. : Большая российская энциклопедия, 2004—2017
4. Немецкая волна // Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. — М. : Большая российская энциклопедия, 2004—2017
5. Журавлёва Нина Николаевна. Информационная политика государства по продвижению национальной культуры за рубежом (на примере России и Франции). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. Санкт-Петербург 2008. С-22.
6. Rahmonova Sanoat Shuhrat kizi. (2024). HARMONY OF EDUCATION AND TRAINING. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(4), 366–375. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5154>.
7. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(4), 394–399. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10969679>
8. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi, & Sodiqova Durdoni Abdu Soli qizi. (2024). THE ROLE OF THE FAMILY IN YOUTH EDUCATION. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(4), 664–674. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5265>
9. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi, & Yo'ldasheva Marjona Muhammad qizi. (2024). ДОЛЗАРЬ ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНЫХ И ГУМАНИТАРНЫХ НАУК. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(4), 767–777. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11066266>
10. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi. (2024). USE OF SUSTAINABLE INNOVATION METHODS IN FIGHTING AGAINST THE INFLUENCE OF "POWER CULTURE". МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 36–48. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5481>

11. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi, & Yo'ldasheva Marjona Muhammad qizi. (2024). ДОЛЗАРБ ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНЫХ И ГУМАНИТАРНЫХ НАУК. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(4), 767–777. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5312>
12. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi. (2024). THE ROLE OF SPIRITUALITY IN THE FORMATION OF HUMAN WORLD VIEW. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(6), 135–144. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/6315>

РАНГТАСВИРДА ГЎЗАЛЛИК - БАРКАМОЛ ЁШЛАРНИ ЭСТЕТИК ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ

Каландаров Шамсиддин

УрДУ ТСМГ кафедра ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада рангтасвир йўналиши талабаларини рангтасвирчи расом сифатида ўргатишда Тасвирий санъатда эстетик тарбиянинг роли таҳлил қилинган. Мамлакатимиз мустақилликка эришгандан сўнг миллий-эстетик кадриятлар ва маънавий меросимизга бўлган муносабат тубдан ўзгарди. Чунки, кадрият ва тарихий мерос миллат маънавиятини юксалтирувчи муҳим мезон ҳисобланади. Чунончи, халқимизнинг фалсафий-эстетик тафаккурини белгиловчи гўзаллик мезонлари ана шу жабҳанинг таркибий қисмидир.

Калим сўзлар: *рангтасвир, услуб, санъат, тасвирий санъат, авангард, усул, оқим, йўналиш, авангардизм, абстракционизм, ижод, реализм, оқим, ҳиссий, кубистик, минималистик, фалсафий, рамзий, зоявий, воқелик.*

ABSTRACT

The article analyzes the role of aesthetic education in visual arts in training painting students as painters. After the independence of our country, the attitude towards our national aesthetic qualities and spiritual heritage changed radically. Because value and historical heritage is an important criterion that raises the nation's spirituality. For example, the criteria of beauty that determine the philosophical and aesthetic thinking of our people is a component of this aspect.

Keywords: *painting, style, art, fine art, avant-garde, method, flow, direction, avant-garde, abstractionism, creativity, realism, flow, emotional, cubist, minimalist, philosophical, symbolic, ideational, reality.*

КИРИШ

Мамлакатимиз истиқлолга эришгач, жамиятда шахс эстетик маданиятининг шаклланиши ва ривожланишига ижтимоий-сиёсий ва маънавий ислохотлар негизида алоҳида эътибор қаратилди. Шахсни ҳар томонлама комил инсон қилиб тарбиялаш, ҳар бир фуқаро онгида миллий гоёни чуқур идрок этиб, мустақилликни мустаҳкамлаш ишига жалб этиш масаласи кун тартибига қўйилди. Юртбошимиз таъкидлаганидек: «ҳар қайси ижодкор ўз асарларида ана шу ўлмас гоёларни бош мақсад қилиб қўйса, уларни бадиий маҳорат билан ифода эта олса, ҳеч шубҳасиз, адабиёт ҳам, маданият ва санъат ҳам том

маънода маънавий юксалишга хизмат қилиб, ўзининг ижтимоий вазифасини тўлик адо этишга эришган бўлади»³².

Гўзаллик ижтимоий-маънавий ҳодиса бўлиб, у ижтимоий ҳаётда фавқулодда аҳамият касб этувчи ҳамда нарса-ходисаларнинг шаклан ва мазмунан уйғунлиги асосида намоён бўлувчи инсонда ёқимли туйғу, завқ, кучли ҳайратни ҳосил қиладиган қадриятдир.

Одатда гўзаллик хушнудлик кайфияларини ҳосил қиладиган нарса-ходисалар мажмуи, завқ бағишловчи ҳодиса сифатида тушунилади. Бу гўзалликка нисбатан содда, жўн ва юзаки тушунишдир. Аслида гўзаллик шундай хусусиятга эгаки, у ёқимлилик туйғусига боғлиқ ҳолда, одамларнинг бирлашувига, уларда ижтимоий-ахлоқий фазилатларнинг шаклланишига ҳамда маънавий жараёнларнинг барқарорлашувига олиб келади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Гўзалликни яратилиши хусусида икки хил қараш мавжуд. Биринчиси инсон тафаккури ва меҳнатининг маҳсули натижасида яратиладиган гўзаллик бўлиб, бунда ақл, тафаккур, билим ва ҳиссиёт устувордир (санъат ва бадий ижод намуналари, илмий асарлар ва кашфиётлар, моддий неъматлар ва маънавий қадриятлар ва ҳ.к.)- Иккинчиси - инсон салоҳиятидан ташқарида юзага келадиган, унинг тафаккури ва билимининг маҳсули бўлмаган гўзаллик бўлиб, унда макон ва замон салмоқли ўринни эгаллайди (пурвиқор тоғлар, чексиз уммонлар, осмон жисмлари ва ҳ.к.).

Гўзалликни идрок этиш, хис қилиш ҳамда яратишнинг мураккаблиги шундаки, у аввало билишнинг маҳсули. Воқеликдаги ҳар қандай нарса-

ходисанинг гўзаллиги унинг ишончлилик, ҳаққонийлик, улуғворлик, туғёнйлик ва реаллиги билан белгиланади. Инсонлар гўзаллик ҳақидаги дастлабки маълумотни бешта сезгининг энг ривожланган тури бўлмиш кўриш сезгиси орқали ўзлаштиради. Ундан сўнг эшитиш, таъм билиш, ҳид билиш ва тана сезгиси орқали гўзалликни хис этадилар. Бироқ, мазкур бешта сезги ҳам гўзалликнинг моҳиятини тўлақонли англашиш учун етарли эмас.

Рассом у ёки бу картинасини яратишни қаламда бошлайди. Шундан кейингина ушбу сарфат асари ранглар жилоси орқали томошабинга эстетик ҳузур бахш этади. Бошқача қилиб айтганда, чизматасвир, рангтасвирсиз ҳеч бир рассом ўз асарини етук ҳолга келтира олмайди.

³² Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008. - 158 б.

Рангтасвир машғулотлари буюмларни тўғри тасвирлаш, борлиқни идрок этиш, қои, онг ва сезги органларини шакллантиришда нафақат бўлажак рассомга, балки турли касб соҳасидаги кишиларга зарурдир.

(Жйғониш даврининг буй и к рассом ва олими Леонардо да Винчи оълининг «Рангтасвир қонунлари» номли асарида, жумладан, шундай деган эди: *«Ёшлар, ўзларини илм-фан, тасвирий санъатда синамоқчи бўлсалар, аввало расм чизишни мукамал билмоқлари лозимдир»*.³³

Рангтасвир асосан бўёқлар воситасида матога, девор юзасига, шунингдек, бошқа жойларга ишланади. Тасвирнинг мазмуни, характери ва шунга ўхшаш барча хусусиятлари бўёқлар орқали ифодалаб берилса, бунга рангтасвир санъати дейилади. Тасвирий санъатнинг бу турида ижодкорнинг ички кечинмалари, асарда акс эттирижаётган воқеа мазмуни рангларни бир-бирига ўз меъёрида қўшиб ишлатиш натижасида намоён бўлади. Масалан, қизил ва қора бўёқларни қўшиб ишлатилиши фожеани акс эттирса, оч мовий ва яшил рангларни ўзига хос боғлашлар натижасида тинч ва осойишталик ҳолатлари тасвирланиши мумкин. Рангтасвир санъати жозибали ва қизиқарлилиги билан нафақат ўзлаштиришда, ҳатто уни ўқий билиш, идрок эта билишда ҳам ўқувчидан жиддий билим ва малака талаб қилади. Нина Михайловна Кевичнинг «Эстетикадан факултатив курс»да рангтасвир санъатини назарий жиҳатдан ўргатишнинг айрим муаммоларига қаратилган бўлиб, бунда шундай далилларга дуч келамиз.

«Рангтасвирни ўрганиш босқичларининг ҳарбирида ҳиссий ва кўрсатмали материалнинг роли жуда ҳам муҳим, чунки рангтасвирда тасвирий кўрсатмасиз таълим ва тарбия жараёнини ташкил қилиш мумкин эмас. Фақат кўрсатмалилик иши (репродукцияларни1 намоёиш қилиш) яхши йўлга қўйилгандагина кузатувчанлик, фаол ва юмшоқлик билан кузатиш малакалари ҳосил бўлади, бу эса расмларни идрок этиш ва таҳлил қилиш тажрибасида зарурдир».

Н. М. Кевичнинг юқоридаги таърифларига яна шуни қўшимча қилиш жоизки, бугунги техник тараққиёт турли рангли филмлар яратиш имкониятига эга, шунингдек видеотасвирларга олиб, таълим жараёнида фойдаланиш мумкин. Аммо шуни ҳам айтиб ўтиш керакки, ҳеч қандай рангли филм, видео ёки компьютер тасвирлари ҳақиқий рангтасвир санъат асаридаги руҳий, табиий ва бошқа профессионалликка хос имкониятларни тўла-тўқис ёритиб бера олмайди.

Баркамол авлод тарбиясида гўзалликнинг аҳамияти

Ҳар бир ота-она ўз фарзандини тарбияли, нафосатли, ақлли, бақувват ва мард бўлишини истади. Эстетик руҳда тарбиялаш, унинг қиёфасига - ҳис-

³³ Ориф Муинов Рангтасвир Уқув кулланма Т. Шарк 2007

туйғуларига, иродасига самарали таъсир қилади. Илмий дунёқарашни маънавий қиёфасини шакллантиради, ҳаётни билиб бориш имкониятини туғдиради. Эстетик руҳда тарбиялаш ғоят мураккаб ва кўп қиррали жараён бўлиб, гўзалликни тушинибгина қолмай, балки уни яратишга қодир бўлган баркамол авлодни камолга етказиш мақсадини ҳам кўзда тутаяди.

4. Niyat, A. (2023). Revised Constitution our happiness community. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(06), 137-146.
5. Tashkulov, D. (2022). Legal Guarantees of Freedom of Conscience under the Newly Adopted Law of the Republic of Uzbekistan "On Freedom of Conscience and Religious Organizations". *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(12), 210-216.
6. Khabibjonov, U., & Sakibayeva, T. (2024). The structure of girls international assessment system. The role in the country's economy and education system. *Science and innovation*, 3(B7), 55-59.
7. Burkhanovich, K. N. (2023). Personal freedom and formation of social institutions in Uzbekistan. *Confrencea*, 6(6), 449-464.
8. Madaminjonovich, M. K. (2024). Judicial system in the constitution and legislation of the Republic of Uzbekistan. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 4(01), 90-93.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XITOIY XALQ RESPUBLIKASIDA PATENT HUQUQI OBYEKTLARINI HUQUQIY HIMOYA QILISH TARTIBI

Bahtiyor Abdunazar o‘g‘li Soyibnazarov

Erkin tadqiqotchi, Toshkent

bakhtiyorsoyibnazarov233@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bugun zamonaviy dunyoda mamlakatning dunyo reytingidagi mavqei harbiy va siyosiy qudrat, ishlab chiqarish hajmi bilan bir qatorda, uning ixtirochilik va intellektual faoliyat natijalarini yaratish qobiliyati bilan belgilanmoqda. Innovatsion texnologiyalarni yaratish va qo‘llash qobiliyati ayni vaqtda nafaqat ilmiy-innovatsion yuksalish, balki mamlakatning jahon iqtisodiyotida samarali ishtiroki va uning aholisi munosib turmush darajasi uchun zarur shartlardan biri hisoblanmoqda. Shu boisdan ham mamlakatlarda intellektual mulk obyektlarini yaratilishi har jihatdan rag‘batlantirilib, himoya qilib kelinadi. Quyidagi maqolada intellektual mulk huquqida hamisha dolzarb bo‘lib qolayotgan mavzulardan biri hisoblanadigan patent huquqi obyektlarining huquqiy himoyalash tartibini O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi qonunchiligi doirasida tahlil qilib o‘tamiz.

***Kalit so‘zlar:** patent, patent idorasi, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, huquqiy himoya.*

ABSTRACT

Today in the modern world, position of the countries in the world ranking is determined by not only its military and political power, production volume, as well as its ability to create the results of inventive and intellectual property. At the same time, the ability to create and use innovative technologies is considered one of the necessary conditions not only for scientific and innovative growth, but also for effective participation of the country in the world economy and a decent standard of living for its inhabitants. Therefore, the creation of intellectual property objects in the countries is encouraged and protected in every way. In the following article, we will analyze the procedure of legal protection of objects of patent law, which is one of the topics that remain relevant in intellectual property law, within the framework of the legislation of the Republic of Uzbekistan and the People’s Republic of China.

***Key words:** patent, patent office, invention, utility model, industrial model, legal protection.*

KIRISH

Ma'lumki, intellektual mulk huquqi fuqarolik huquqining o'ziga xos sohalaridan birini tashkil etadi. Professor O.Oqyulov intellektual mulk huquqi ham quyidagi o'ziga xos institutlarga bo'linishini ta'kidlaydi:

- Patent huquqi (sanoat mulki huquqi ham deb ataladi);
- Mualliflik va turdosh huquqlar (qisqacha, mualliflik huquqi);
- Tijorat siri huquqi;
- Fuqarolik muomalasi qatnashchilari va ularning tovarlarining (xizmatlari, ishlari) individuallashtirish (farqlash) vositalariga bo'lgan huquq (qisqacha, farqlash vositalariga bo'lgan huquqlar deb ham aytish mumkin).

Biz esa ushbu maqola orqali intellektual mulk huquqining asosiy institutlaridan biri bo'lgan patent huquqi institutining bir qismini, ya'ni paten huquqi obyektlarining huquqiy himoya qilinishi tizimini milliy qonunchiligimiz va Xitoy Xalq Respublikasi qonunchiligi va amaliyotini qiyosiy tahlil qilgan holda o'rganamiz. Xitoy Xalq Respublikasi bugungi kunda intellektual mulk huquqi obyektlarini yaratishda eng ilg'or davlatlardan biri hisoblangani, shuningdek, Butunjahon Intellektual mulk Tashkiloti bergan statistik ma'lumotlarga ko'ra, butun dunyo bo'yicha patentlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ariza beruvchi va patent oluvchilar soni bo'yicha 2022-yilda birinchi o'rinni olgani bois ham Xitoy tajribasini o'rganishni ma'qul deb topdik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuniga asosan ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari hamda O'zbekiston Respublikasining "Seleksiya yutuqlari" to'g'risida"gi Qonuniga asosan seleksiya yutug'i – o'simliklarning yangi navlari va hayvonlarning yangi zotlari patent orqali huquqiy muhofazaga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1082-moddasi ikkinchi qismida ixtiro, foydali model, sanoat namunasiga nisbatan qo'yiladigan, patent olish huquqini vujudga keltiradigan talablar hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi Intellektual Mulk Departamentining bunday hujjatni taqdim etish tartibi va 1092-moddaning ikkinchi qismida seleksiya yutug'iga patent olish huquqini vujudga keltiradigan talablar hamda bunday patentni berish tartibi qonun bilan belgilab qo'yilishi nazarda tutilgan.

Hozirgi vaqtda butun dunyoda sanoat mulkining ana shu obyektlarini muhofaza qilishning patent tizimi e'tirof etilgan va amal qilib kelmoqda. Muhofaza qilishning patent shaklining mazmun-mohiyati shundan iboratki, ixtiro, foydali model yoki sanoat namunasining muallifi yoxud u vakil qilgan boshqa shaxs texnika yutug'iga

bo‘lgan mualliflikni va undan foydalanishga bo‘lgan huquqni mustahkamlash uchun vakolatli davlat organiga muhofaza hujjati, ya’ni ixtiro, sanoat namunasi, foydali model uchun patent berishni so‘rab talabnoma topshiradi. Patent “patent egasi” deb nomlanuvchi patent olgan shaxsning sanoat mulki obyektiga bo‘lgan mualliflik huquqini va undan foydalanishga bo‘lgan mutlaq huquqini tasdiqlaydi. Patent munosabatlari ular ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari aniq reglamentlanganligi bilan ajralib turadi. Obyektни ro‘yxatga olish va ixtiro yaratilganidan keyin birlamchi patent huquqlarini mustahkamlash birmuncha rasmiyatchilikni talab qiladi va shunisi bilan mualliflik huquqidan farq qiladi. Buni ixtiro muallifini aniq belgilash va ixtironi boshqa shaxsning xuddi shunday yoki shunga o‘xshash ijodidan aniq farqlash zarurati bilan izohlash mumkin. Binobarin, takrorlab bo‘lmaydigan va asl nusxa hisoblangan adabiyot yoki san’at asaridan farqli o‘laroq, ixtiro takrorlanishi mumkin. Texnika ijodiyoti sohasidagi yangi munosabatlarni tartibga solish uchun fuqarolik qonunchiligining alohida kichik tarmog‘i – intellektual mulk instituti va uning subinstituti — patent huquqi shakllantirilgan. Patent huquqi ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari yaratishda hamda ulardan foydalanishda yuzaga kelgan mulkiy va ular bilan bog‘liq shaxsiy nomulkiy huquqlarni tartibga soladi.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining real sharoitlarini, intellektual mulk sohasidagi xalqaro bitimlarni, shuningdek mamlakatimizning patent-axborot jihatidan ta’minlanganlik darajasini inobatga olgan holda O‘zbekistonda patenlashning mustaqil tizimi yaratildi. Qolaversa, patent huquqining obyektlari haqida so‘z borganda ularning har biri patentga layoqatlilikning alohida talablari va o‘zaro farqli muhofaza muddatlariga egaligini ham ta’kidlab o‘tish lozim. Shu sababdan har bir obyekt alohida o‘rganish va e’tiborni talab qiladi. Shuningdek, patent huquqi obyektlarini huquqiy jihatdan himoya qilish uchun Xitoy davlati qonunchiligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Xitoyda patent himoyasini olish uchun ixtirochi yoki ixtiro egasi Xitoy patent idorasiga ariza topshirishi kerak. Xitoy Davlat intellektual mulk idorasi (SIPO) patent talabnomalarini qabul qiluvchi va ko‘rib chiqadigan davlat organi hisoblanadi. Bu o‘rinda intellektual mulkni himoya qilish choralari faqat patentga talabnoma topshirish bilan cheklanmaydi. Huquqiy, texnik, ma’muriy va hatto siyosiy jihatlarni qamrab olgan umumiy intellektual mulk strategiyasini amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ixtiroga patent berilishi uchun muhim talablardan biri uning “yangi” bo‘lishi, ya’ni patentga talabnoma berilgan sanadan oldin ommaga ma’lum bo‘lmasligidir. Shuning uchun ixtiro egasi ixtironi dunyoning istalgan nuqtasida bozorga chiqarish, sotish yoki boshqa yo‘l bilan ommaga ma’lum qilishdan oldin patentga talabnoma topshirishi kerak.

Dunyo miqyosida patent va patent huquqi rivojlangan davlat – Xitoyda patent huquqi obyektlari bilan bog‘liq munosabatlar “Patent huquqi to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi. Xitoy patent qonuni uchta alohida sohani qamrab oladi:

1. Ixtiro patenti xorijda yoki Xitoyda ilgari nashr etilmagan bo‘lishi va patentga ariza berilgunga qadar Xitoyda ishlatilmagan bo‘lishi kerak. Mavjud texnologiya bilan taqqoslaganda, ixtiro patenti afzalliklarga ega bo‘lishi lozim.

2. Foydali model patentlari ixtiro patentlariga juda o‘xshash bo‘lib, foydali modellar faqat yangi shakl yoki strukturaviy jismoniy xususiyatlarga ega mahsulotlarni himoya qiladi. Foydali model tizimiga ega Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlar qatorida Avstriya, Belgiya, Daniya, Finlyandiya, Germaniya, Italiya va Niderlandiya va boshqalar kiradi. AQSh va Buyuk Britaniyada foydali model tizimi mavjud emas. Xitoy tizimida keng tarqalgan amaliyot – bu foydali model va ixtiro patentini parallel ravishda topshirish, keyin esa ixtiro patenti rasman berilganidan keyin foydali modeldan voz kechishdir.

3. Dizayn patenti chet elda yoki Xitoyda nashr etilmagan bo‘lishi va Xitoyda ishlatilmagan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, dizayn patenti boshqa shaxsning oldingi huquqlariga zid bo‘lishi mumkin emas. “Xitoyda ishlatilmagan” iborasi mahsulot Xitoyda ommaviy ravishda ishlatilmaganligini anglatadi. Umumiy qoidaga ko‘ra, agar kompaniya ro‘yxatga olish uchun ariza berishdan oldin o‘z mahsulotlarini Xitoyda sotsa, bu patentning “yangiligini” yo‘q qiladi.

Xitoyda patent huquqlarini qonuniy himoya qilish tartibi ixtirochilarning huquqlarini himoya qilishni ta‘minlash uchun bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- Patent talabnomasini topshirish
- Ekspertiza
- E‘lon qilinishi
- Patent berish
- Texnik xizmat ko‘rsatish
- Amalga oshirish va huquqiy himoya
- Yaroqsiz deb topish va qayta ekspertizadan o‘tkazish
- Apellatsiya

Yuqoridagi bosqichlar ketma-ketlikda amalga oshirilgach, talabnoma beruvchida ko‘rsatilgan intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqlar paydo bo‘ladi va ushbu huquqlarni tasdiqlovchi patent hujjati beriladi. Mazkur hujjat patent egasining patent olingan obyektning uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy foydalanishidan himoyalash imkonini beradi.

Xitoy qonunchiligida esa “Patent huquqi to‘g‘risida”gi Qonunning 42-moddasida ixtirolarga patent huquqining amal qilish muddati yigirma yilni, foydali modelga patent

huquqining amal qilish muddati o‘n yilni, namunalarga patent huquqining amal qilish muddati ariza berilgan kundan e‘tiboran o‘n besh yilni tashkil etishi nazarda tutilgan. Agar ixtiroga patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan kundan boshlab to‘rt yil o‘tgandan keyin va mohiyatan ekspertiza so‘ralgan kundan boshlab uch yil o‘tgandan so‘ng berilgan bo‘lsa, Davlat kengashi huzuridagi Patent ma‘muriyati departamenti patent egasining iltimosiga ko‘ra ixtiroga patent berishning asossiz kechikishi uchun patent to‘lashi mumkin, ammo patent muddati bo‘yicha kompensatsiya talabnoma beruvchi sabab bo‘lgan asossiz kechiktirishga nisbatan qo‘llanilmaydi. Xitoyda sotish uchun ruxsatnoma olingan yangi dori vositasiga tegishli ixtiroga patent uchun yangi dori vositasini sotishga ruxsat berishga sarflangan vaqtni qoplash maqsadida Davlat kengashi huzuridagi Patent ma‘muriyati boshqarmasi patent egasining iltimosiga binoan, patentning amal qilish muddati bo‘yicha kompensatsiya to‘lashi mumkin, lekin kompensatsiya muddati besh yildan oshmasligi kerak, shuningdek, patentning amal qilish muddati yangi dori vositasini sotishga ruxsat berilgandan keyin esa o‘n to‘rt yildan oshmasligi kerak.

Xitoy qonunchiligida agar patentdan patent egasining ruxsatisiz foydalanish natijasida, ya‘ni patent egasining patent huquqining buzilishi natijasida nizo kelib chiqsa, u tomonlarning maslahatlashuvi orqali hal qilinishi nazarda tutilgan. Lekin tomonlar bir-birlari bilan maslahatlashishni istamasalar yoki murosaga kelolmasalar, patent egasi yoki manfaatdor tomon mediatsiya tartib-taomilini qo‘llashi yoki ma‘muriy organdan ushbu masalani hal qilish uchun patent yarmarkalarini talab qilishi mumkin. Chunonchi, bizning qonunchilikka ham ushbu normani kiritisa bo‘ladi, ya‘ni taraflar mediatsiya tartib-taomiliga rioya qilishidan yoki vakolatli organga murojaat qilishidan avval bir-birlari bilan kelishishlari yoxud yuridik shaxslar esa talabnoma tartibida harakat qilishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida vakolatli organda va sudda ushbu boradagi nizolarning kamayishiga va patent huquqi bilan bog‘liq qonun buzilish holatlarining tezroq va samaraliroq bartaraf etilishiga xizmat qilishi mumkin.

Xitoydagi “Patent huquqi to‘g‘risida”gi Qonunning 68-moddasida esa agar biror shaxs boshqa shaxsning patentini o‘ziniki qilib o‘tkazsa, u qonunga muvofiq o‘z fuqarolik javobgarligini o‘z zimmasiga olishi bilan bir qatorda, patentni qo‘llash bo‘yicha mas‘ul bo‘lim tomonidan tuzatishni buyirishi va buyruq e‘lon qilinishi hamda noqonuniy daromad musodara qilinishi va noqonuniy daromadning besh baravaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima solinishi mumkinligi nazarda tutilgan. Qolaversa, noqonuniy daromad bo‘lmasa yoki noqonuniy daromad 50 000 yuandan kam bo‘lsa, 250 000 yuandan ko‘p bo‘lmagan jarima solinishi mumkin.

O‘zbekistonda ham patent huquqi obyektlarini huquqiy himoya qilishning ma‘muriy tartibi, xususan, patent berishni rad etish, uni haqiqiy emas deb topish, shuningdek patent egasining litsenziya shartnomasini tuzishdan bosh tortishi bilan bog‘liq nizolarni hal qilishni nazarda tutilgan. Patent huquqi obyektlarining huquqiy himoya qilishning ma‘muriy protsedurasi O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi Intellektual Mulk Departamentining Apellatsiya kengashi tomonidan hal qilinadi.

Apellatsiya kengashi:

- Departamentning talabnomada ko‘rsatilgan sanoat mulki obyektlari xususidagi qarori ustidan;
- Sanoat mulki obyektlari va seleksiya yutuqlariga patent berilganligiga qarshimanfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan;
- Sanoat mulki obyektlari va seleksiya yutuqlari patentlarining haqiqiylikiga qarshi berilgan apellatsiyalarni ko‘rib chiqadi.

Xitoyda esa patent huquqi obyektlarini ma‘muriy tartibda himoya qilish maqsadida Davlat Kengashi huzuridagi Patent ma‘muriyati departamenti patent egasi yoki manfaatdor shaxsning iltimosiga binoan butun mamlakat bo‘ylab sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan patentning buzilishi to‘g‘risidagi nizoni ko‘rib chiqishi mumkin. Mahalliy xalq hokimiyati qoshidagi patent ma‘muriyati bo‘limi patent egasining yoki manfaatdor shaxsning iltimosiga binoan patent buzilishi to‘g‘risidagi nizoni ko‘rib chiqsa, u o‘zining ma‘muriy hududida xuddi shu patent huquqi buzilgan holatlarni birlashtirishi va ko‘rib chiqishi yoki bir xil patent huquqining mintaqalararo buzilishi bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqish uchun yuqori darajadagi mahalliy xalq hokimiyati bo‘limining patent ma‘muriyatiga murojaat qilishi mumkin. Qolaversa, milliy qonunchiligimizda agar sud patent huquqlari buzilgan deb topsa, javobgar fuqarolik va jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Fuqarolik javobgarlikning asosi aybning mavjudligi, javobgar tomonidan patent huquqlarini buzish faktidan kelib chiqadigan zarar va huquqbuzarning noqonuniy xatti-harakatlari va yetkazilgan zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishdir. Zarar deganda yetkazilgan haqiqiy zarar va boy berilgan foyda tushuniladi.

Patent huquqi obyektlarini huquqiy jihatdan mohofaza qilish maqsadida fuqarolik sanksiyalari bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni ham ko‘zda tutadi. Jinoyat kodeksining 149-moddasiga asosan, intellektual mulki obyektiga nisbatan mualliflik huquqini o‘zlashtirib olish, hammualliflikka majburlash, shuningdek, tafakkur mulki obyektlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ular rasman

ro'yxatdan o'tkazilganga yoki e'lon qilingunga qadar muallifning roziligisiz oshkor qilish jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan qiyosiy tahlillardan kelib chiqib xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, patent huquqi borasida rivojlangan davlat hisoblangan Xitoy qonunchiligini tahlil qilgan holda, qonunchiligimizga tegishli o'zgartirishlar kiritish va patent huquqi obyektlarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, patent huquqining huquqiy muhofazasi boshqa shaxslar tomonidan buzilgan taqdirda ushbu masalani sudga hal qilish mexanizmini ishlab chiqish va bu borada qonunchilikni takomillashtirish darkor. Ya'ni patent huquqini buzish bilan bog'liq nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmi sifatida Xitoyda bo'lgani kabi taraflar muzokarasini o'tkazish, yuridik shaxslar o'rtasida esa talabnoma yuborish tartibi asosida hal qilishni intellektual mulk bilan bog'liq moddiy qonunlarda va protsessual qonunchilikka kiritish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 8-fevraldagi PQ-4168-son qarori.
2. Raxmatov A.I., Yakubova I.B. Patent huquqi. Darslik. – T.: YUMOM nashriyoti. 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Baktaria press, 2013.
4. Intellektual mulk huquqi. Darslik. Ma'sul muharrirlar: yu.f.d, prof., O.Oqyulov, yu.f.f.d. (PhD), dotsent N.E.Gafurova // Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2019.
5. Fuqarolik huquqi, 2-qism. Darslik. Mualliflar jamoasi. Toshkent davlat yuridik universiteti, 2023-yil.
6. Patent Litigation in China from a Comparative Perspective. Jason Ma. U. OF PENNSYLVANIA EAST ASIA LAW REVIEW [Vol. 10]
7. Louis S. Sorell, A Comparative Analysis of Selected Aspects of Patent Law in China and the United States, 11 Pac. Rim L & Pol'y J. 319 (2002). Available at: <https://digitalcommons.law.uw.edu/wilj/vol11/iss2/3>
8. China's technological performance as reflected in patents Ulrich Schmoch. Birgit Gehrke. Scientometrics (2022) 127:299–317 <https://doi.org/10.1007/s11192-021-04193-6>
9. Xiaoning Long, C., & Wang, J. (2019). China's patent promotion policies and its quality implications. Science and Public Policy, 46(1), 91–104. H

10. Patent Law of the People's Republic of China.
http://www.npc.gov.cn/zgrdw/englishnpc/Law/2007-12/13/content_1383992.htm
11. Prud'homme, D. (2015). China's shifting patent landscape and state-led patenting strategy. *Journal of Intellectual Property Law and practice*, 10(8), 6
12. Research on Patent Law Education of Science and Engineering College Based on Scientific and Technological Innovation. Hongzhen Lin. *Advances in Social Science, Education and Humanities Research*, volume 345. International Conference on Advanced Education and Social Science Research (ICAESSR 2019)
13. Overview of Chinese Patent Law October 19 - 22, 2004; 35th International Congress of the PIPA Toyama, JAPAN. Authors: Mr. Bonan Lin – Zhongzi Law Office, Beijing, China Mr. Jon Wood: Eastman Chemical Co., Kingsport, TN USA Ms. Soonhee Jang – Eli Lilly and Co., Indianapolis, IN US

BADIIY TARJIMANING TARJIMASHUNOSLIKDAGI MOHIYATI

Shoira Rustamovna Xodjayeva

Mustaqil izlanuvchi, Toshkent, Uzbekiston

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy tarjimaning adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikda tutgan o'рни, uning mustaqil fan sifatida shakllanishi, boshqa fanlar bilan munosabatlari va bog'liqligi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, badiiy tarjimadagi ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalari, badiiy tarjimonning portreti, tarjimadagi tarjima qilinmaslik muammosiga bo'lgan munosabatlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: *badiiy tarjima, ekvivalentlik, adekvat tarjima, moxir tarjimon, tarjima muammosi.*

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация о роли художественного перевода в литературоведении и переводоведении, его становлении как самостоятельной науки, его отношениях и связях с другими дисциплинами. Также отражены понятия эквивалентности и адекватности в художественном переводе, портрет литературного переводчика, отношение к проблеме непереводимости в переводе.

Ключевые слова: *художественный перевод, эквивалентность, адекватный перевод, квалифицированный переводчик, проблема перевода.*

KIRISH

Ma'naviy va intellektual kamolotga erishish jarayonida badiiy asarlarlar o'qish nihoyatda katta ahamiyatga egadir, chunki badiiy kitoblar mutolaasi inson ongi va tafakkurini oshirishga va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. "Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q".

Bundan tashqari yosh kitobxonlar uchun jahon bolalar adabiyotining gultoji xisoblanmish Joan Rouling qalamiga mansub Garri Potter haqidagi 7 ta kitob ham ilk bor 2015-yilda ingliz tilidan bevosita o'zbek tiliga o'girildi. Ushbu fantastik-sarguzasht roman eng xaridorgir kitoblar ro'yhatidagi old pog'onardan ko'p yillardan beri tushmay kelmoqda.

Shu bilan bir qatorda o'zbek mumtoz va zamonaviy asarlari dunyo tillariga tarjima qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2019-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi "Navoiy va Bobur asarlarini xorijiy tillarga taglama va badiiy tarjima qilish masalalari" mavzusida respublika konferensiyasini

o'tkazdi. Bu badiiy tarjimonlarga bo'lgan talab tobora oshib borayotganligini va badiiy tarjima har qachongidan ham dolzarb ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan murojatida tarjimaning madaniy hayotimizdagi ahamiyatini ta'kidlab shunday dedi: "Yurtimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo'lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo'yicha o'ziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohida ta'kidlash lozim. O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, (ularni) tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega".

ADABIYOTLAR METODOLOGIYASI

Tarjima faoliyati ko'p asrlik boy tarixga ega bo'lishiga qaramasdan, tarjimashunoslik mustaqil fan sifatida 1930-yillarda shakllandi va tarjima nazariyasining ilmiy asoslari tuzildi. Tarjimashunoslik, xususan badiiy tarjima bo'yicha juda ko'p olimlar izlanishlar olib borganlar (J.Ketford, P.Nyumark, S.Bassnett, L.Venuti, G.Gachechiladze, A.Shveytser, R.Minyar-Beloruhev, V. Komissarov, G'.Salomov, Q.Musayev, Sh.Sirojiddinov, G. Odilova va boshq.) va tarjimashunoslikdagi muammolarni hal qilish maqsadida uni izchil va sistematik tarzda o'rganishga qo'l urdilar.

Badiiy tarjima soxasining yetuk mutaxassisi A.Popovichning ta'kidlashicha, badiiy tarjima nazariyasi tor ma'noda to'rtta fanga – qiyosiy tilshunoslik, qiyosiy stilistika, adabiy komparativistika nazariyasi va adabiyot nazariyasiga asoslanadi. Badiiy tarjima o'z nazariyasi va amaliyoti egaligiga qaramasdan, undagi muammolar komparativistlar uchun katta tadqiqot maydonini tashkil etadi. Ma'lumki, badiiy tarjimaning asosiy vazifasi madaniyatlararo va adabiyotlararo muloqotni rivojlantirishga ko'maklashishdir. Badiiy tarjima jarayonida ushbu fanlarning faol ishtiroki sifatli tarjima maxsulini yaratadi.

Asosiy qism: Ayrim g'arbiy olimlarining aytishlaricha, tarjimashunoslik bilan semiotika o'rtasida yaqin aloqa mavjud. Tarjimashunos olim T.Xoks tarjima jarayonida e'tiborga olish kerak bo'lgan birinchi narsa bu tarjima lingvistik faoliyatning markaziy elementi ekanligi va shu sababdan uni semiotikaga bog'lash to'g'riroq bo'lishini aytib o'tgan.

Badiiy tarjimaning bir qator fanlar bilan bog'liqligi tarjima maxsuliga albatta ta'sir qiladi. Amaliyotda tez-tez uchrab turadigan muammo bu tarjimadagi adekvatlik va ekvivalentlik tushunchalarini chalkashtirishdir. A.D.Shveytserning fikriga ko'ra,

adekvatlik tillararo kommunikativ aktning kechishi bilan bog'liqdir, ya'ni tarjima jarayonining kommunikativ sharoitlarga mos kelishini aniqlaydi.

Sh.Sirojiddinov, G.Odilovalarning ta'kidlashicha, adekvat tarjima ekvivalentlikning oliy darajasi bo'lib, unda asliyatning janriy-stilistik talablari, barcha lisoniy va g'ayrilisoniy (ekstralingvistik) omillar hisobga olingan, maksimal darajada hissiyot va asliyat ruhi saqlangan bo'ladi. Har bir adekvat tarjima, albatta, ekvivalent bo'ladi, ammo har bir ekvivalent tarjimani adekvat deb bo'lmaydi.

V.Komissarovning fikriga ko'ra, har qanday til belgisi odatda uch hil munosabatni, ya'ni semantik, sintaktik va pragmatik munosabatlarni o'zida mujassam etadi. Birinchisi – til belgisining u anglatadigan predmet bilan aloqasini aks ettiradigan, ikkinchisi – til belgisini mazkur tizimga aloqador boshqa belgilar bilan bog'lab turadigan, va uchinchisi – til belgisi bilan muloqot jarayonida undan foydalanuvchi shaxslar o'rtasidagi aloqani muayyan qiladigan munosabatlardir. Shunday qilib, til belgisi semantik (denotativ), sintaktik va pragmatik ma'nolari bilan ajralib turadi.

Q.Musayev fikriga ko'ra, pragmatik omillar ekvivalentlikning tarkibiy unsuri hisoblanib, ularning qayta yaratilishi tarjimaning asliyatga kommunikativ to'la-to'kis mosligini vujudga keltiradi. Natijada tarjima muqobil uslubiy xususiyat kasb etib, uni o'qigan kitobxon asliyat sohibi asar mutolaasidan oladigan taasurot darajasida ta'sirlanadi.

Tarjima bu jarayon va faoliyat natijasi sifatida ma'lum bir retseptorga, ya'ni til madaniyatining tipik vakiliga qaratilgan bo'ladi. Tarjima akti pragmatik jihatdan ikki yo'nalishga qaratilgan. Birinchidan, tarjima asliyat matnini to'liq takrorlashdan iborat bo'lsa, ikkinchidan, u pragmatik jihatdan retseptorga qaratilgan bo'ladi. Asliyat matni va tarjimaning bir-biriga o'xshashlik darajasi tarjimonning manba matnidan ma'lumotni moslashtirish jarayonida ega bo'lgan erkinlik darajasiga bog'liqdir deya ta'kidlaydi Ye.Ogneva. Tarjimonning erkinlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tarjima matni asliyat matnidan shunchalik uzoq bo'ladi va asliyat matnining mazmuni va shakli tarjimada kam darajada aks ettiriladi, shuningdek, kitobxon asliyat matni haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, tarjimada tarixiylik va milliylik ifodasi, frazeologik birliklar, xos so'zlar, obrazli va xissiy-ta'sirchan so'zlarning tarjimasi tarjimon uchun bir qator qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Ammo ba'zi bir olimlarning fikriga ko'ra, tarjimada ayrim so'z va iboralarning tarjima qilinmaslik xodisasi uchrab turadi. Faylasuf va tilshunos olim V.Gumboldt falsafasiga ko'ra, "har qanday tarjima, albatta, imkonsiz vazifani hal qilishga urinishdek tuyuladi. Negaki, har bir tarjimon o'z xalqining didi va tili hisobiga o'z asliyatiga yoki o'z xalqining o'ziga xosligiga

juda qattiq yopishib olib, ikki tuzoqdan biriga tushib qolishi muqarrar. Ularning orasidagi narsaga erishish nafaqat qiyin, balki imkonsizdir". Uning fikricha, har bir tarjimon ertami kechmi tarjimasini imkonsiz bo'lgan vasiyatga duch keladi va bu xodisa har bir til noyob ekanligi bilan izohlanadi.

V.Gumboldt izidan F.Shleyermaxer, E.Sepir, T.Uorf, U.Uinter kabi bir qator tilshunos olimlar uning nazariyasini qo'llab quvvatladilar. Ushbu olimlarning pessimistik qarashlari ular yozgan adabiyotlarda aks ettirilgan. F.Shleyermaxer tillar o'rtasida ideal ekvivalentlikka erishish imkonsizligini ta'kidlasa, amerikalik tilshunos va antropolog olim E. Sepir "har bir tilning belgilar tizimi noyobligi tufayli tarjima jarayonida asl ma'no yo'qolmasligining iloji yo'q" deb yozadi.

T.Uorf ta'kidlashicha, tarjimaning imkonsizligi nafaqat texnik, balki falsafiy muammodir. U.Uinter esa tarjimonni nusxa ko'chirmoqchi bo'lgan haykaltaroshga qiyoslaydi va uning mehnati asl nusxa bilan hech qachon bir xil bo'la olmasligini ta'kidlaydi.

V. Benyamin esa, aksincha, tarjima har qanday holatda ham, hattoki imkonsiz deb topilganda ham, amalga oshirilishi kerakligini va dolzarbligini yo'qotmasligini e'tirof etadi.

P.Riker "tarjima qilinish va qilinmaslik" xodisasi o'rniga "asliyat matniga sodiq qolish yoki qolmaslik" tushunchalarini qo'llash afzalligini ko'rsatadi. U "nazariy jihatdan tarjima imkonsiz deb topilgan taqdirda ham, u amaliyotda tarjima qilinishi mumkinligini, lekin buning evaziga tarjima asliyatga sodiq qolgan qolmaganligiga gumonlar paydo bo'lishini" ta'kidlagan.

J. Katzning fikriga ko'ra, bir tilda ifodalangan matn, boshqa tilda ham til vositalari yordamida o'z ifodasini topishi mumkin. Hech bir tilning vositalari orqali ifodalab bo'lmaydigan so'zninggina tarjimasini yo'qdir.

Bundan ko'rinib turibdiki, badiiy tarjimon har qanday murakkab vasiyatda ham o'quvchiga asl ma'noni yetkazish imkonini topishi kerak. Tarjima jarayonida tarjimon ham yozuvchi, ham shoir va hammuallif vazifasini bajarmog'i lozim. Ushbu murakkab jarayon tarjimondan ulkan bilim va malaka, ijodiy izlanish va matn mazmunini chuqur anglash bilan bir qatorda badiiy asar muallifining ijodiy uslubini saqlab qolishni talab qiladi. Tarjimon muallif uslubini saqlashi muhimligi xususida G'. Salomov shunday deydi: "Uslub badiiy asarning umumiy jarangosi va koloriti, obrazni tahlil qilish usuli, san'atkorning voqelikka bo'lgan munosabati, prinsipidir. Bular badiiy jarayonning yakunlovchi bosqichida shaklning asosiy tomonlarini yaxlit aks ettiruvchi xususiyat sifatida asarda zohir bo'ladi. Uslubni muallifning umumiy ijodiy bisotidan ajratgan holda, ko'r-ko'rona asarning lisoniy xarakteristikasiga aylantirib qo'yish mumkin emas. Obraz bilan uslub o'zaro chambarchas bog'langan.

Ularning bir-biriga bog'liqligi, o'zaro taqozodorligi yozuvchining voqelikni badiiy aks ettirishiga asoslanadi".

Badiiy tarjimonning shaxsiga to'xtaladigan bo'lsak, biz biror bir badiiy asarni mutolaa qilganimizda, uni badiiy tarjimonning nuqtai nazaridan kelib chiqib tasavvur qilamiz. Badiiy asarlar kitobxonlarning qalbidan joy olishi badiiy tarjimonning dunyoqarashi kengligiga, saviyasining yuqoriligiga, mahoratiga bog'liq bo'ladi, chunki badiiy tarjimon muallif va o'quvchining o'rtasida vositachi, misoli bir ko'prik vazifasini o'taydi. Badiiy tarjima san'atning bir turi sanalgani bois, u tarjimondan ijodkorlik iste'dodini talab qiladi.

Y. Lotmanga ko'ra, badiiy matnni to'g'ri va chuqur interpretatsiyasi tarjimondan asarda tasvirlangan va asar muallifi ijod qilgan davrlarni yaxshi bilishni, shuningdek, asar yaratilishining falsafiy va ijtimoiy-tarixiy shartlarini bilishni talab qiladi, ya'ni matndan tashqari strukturalarni ham qamrab oladi.

XULOSA

Badiiy tarjimaning eng muhim tamoyillaridan biri bu tarjimada har bir gapga alohida emas, balki yaxlitning bir qismi sifatida yondashish lozim va uni boshqa qismlar bilan birgalikda ko'rib chiqish kerak. Shu sababdan tarjimon har bir gapning faqat aniq ma'nosini izohlamasdan, "badiiy obraz yaratish, umumiy kayfiyat, atmosfera va qahramonlarning tafsivi ustida ishlashi kerak. Bunda mos so'zlarni, sintaktik strukturalarni va boshqa elementlarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy tarjima muammolarini hal qilish bir necha sabablarga ko'ra muhim ahamiyatga ega. Eng avvalo, bu turli xalqlarning madaniy va adabiy merosini asrab-avaylash, ularning asarlarini global auditoriya uchun taqdim etishga yordam beradi. Bunda tarjimonlar asliyat matnining ohangini va uslubini saqlab qolish, uni maqsadli tilning madaniy kontekstiga moslashtirish, asliyat matniga sodiq qolish va ekvivalentlikni ta'minlash, adabiy asarning yaxlitligi saqlash kabi ko'plab qiyinchiliklarga duch keladilar. Ushbu muammolarni hal qilish madaniyatlararo muloqotni mustahkamligini ta'minlaydi va lingvomadaniy xilma-xillikni targ'ib qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. B. – 16.
2. Попович А. Проблема художественного перевода. – Москва: Высшая школа, 1980. – С. 33.

3. Швейцер А. Д. К проблеме лингвистического изучения процесса перевода // Вопросы языкознания. М., 1970. № 4. 216 с. – 118 с.
4. Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. – М.: Международные отношения, 1980. Стр.-101.
5. Комиссаров В. Н. Общая теория перевода. Проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых: учеб. пособие. – М.: ЧеРо, 1999. С.-134.
6. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. С.65-67.
7. Schleiermacher F. On the Different Methods of Translating. – L.: Routledge, 2000. P.43-63.
8. Sapir E. Selected Writings of Edward Sapir in Language, Culture and Personality. Edited by David G. Mandelbaum. – Berkeley: University of California Press, 1949. P.162-165.
9. Whorf B. L. Language, Thought, and Reality. Selected Writings of Benjamin Lee Whorf. Edited by John B. Carroll. – NY.: MIT Press, 1956. P. 214-215
10. Katz J.J. The Philosophy of Language. – New York: Harper & Row, 1966. 326 p.
11. Jamila Rustamova. (2024). FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK HOUSEHOLD WORDS IN LINGUISTICS. Conferencea, 40–46. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/3348>
12. Begmatova, Buzakhro Marufjanovna, and Sarvinoz Sayfullaevna Kasimova. "STUDY OF THE PROBLEM OF PREDICATIVITY AND ATTRIBUTION IN LINGUISTICS."
13. Begmatova, B. M., Mutalova, G. S., & Kasimova, S. S. (2023). The Direct Object And Its Use In Arabic Language. Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal, 10(1), 3601-3609.
14. Teshaboyeva, Ziyodakhon Qodirovna. "A Cognitive Study of “Baburname”’S Translations and Principle of Compiling a Textual Dictionary." Journal of Pharmaceutical Negative Results (2022): 1994-2006.
15. Inomiddin Imomov. English Speaking Nation: Uzbekistan. Journal WATESOL Newsletter. 2022/11/30. Pages 22-25
16. Qosimova, S. S. (2022). Analysis Of Inflectional Terms In The Study Of Hamiduddin Dariri. Journal of Positive School Psychology, 6(3), 2200-2203.
17. RUSTAMOVA, J. (2024). SYSTEM CONNECTIONS IN THE SEMANTIC STRUCTURE OF KITCHEN VOCABULARY. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(1), 28–30. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/25546>

18. Jamila Rustamova. (2024). FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK HOUSEHOLD WORDS IN LINGUISTICS. Conferencea, 40–46. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/3348>

19. Касымова, С. С. (2012). Способы изложения синтаксических отношений в произведении «Мукаддима» Хамидуддина Дарири. Вестник Челябинского государственного университета, (12 (266)), 127-131.

SHARQ VA G‘ARB TAFAKKURIDA “ISHQ” VA “MUHABBAT” TUSHUNCHALARI KOMPARATIVISTIKASI

Ruzmatova Gulnoz Mirakhrarovna

“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti professori,

falsafa fanlari doktori

gulnoz68@mail.ru

ruzmatovagulnoz1968@gmail.com

+998 90 345 71 80

ORCID: 0000-0001-7046-1732

ANNOTATSIYA

Insoniy munosabatlarning cho‘qqisida muhabbat tuyg‘usi yotadi. Mazkur masalaga murojaat qilmagan mutafakkir topilmasa kerak. Ayniqsa, g‘arbu sharq ulamolarining muhabbat haqidagi ta’limotlarini qiyosiy o‘rganish bu hodisaning rang rang qirralarini ochishga yordam beradi. Mazkur maqolada muhabbatga oid bildirilgan qarashlarning komparativistik tahliliga diqqat qaratiladi. Jahon adabiyotida, falsafasida muhabbat muammosi uzoq davrlardan beri muhokama qilib kelinadi.

***Kalit so‘zlar:** ishq, muhabbat, eros, insoniylik, ruhiyat tahlili, ijodiy ibtido, insoniy tuyg‘u, sevish san’ati.*

ABSTRACT

At the peak of human relations lies the feeling of love. There is hardly a thinker who has not addressed this issue. In particular, a comparative study of the teachings of Western and Eastern scholars about love helps to reveal the colorful aspects of this phenomenon. This article focuses on the comparative analysis of the views expressed about love. The problem of love has been discussed in world literature and philosophy for a long time.

***Key words:** love, love, eros, humanity, psychological analysis, creativity, human feeling, art of love.*

KIRISH

Inson ehtirolari - g‘aroyib va o‘lmas. Ular avloddan-avlodga yangilanib boradi va shu bilan birga o‘zga davr sharoitida o‘z yaxlitligini saqlaydi. Qadimgi davrdagi insonlar: “men insonman va insonga tegishli bo‘lgan hech bir qanday menga begona emas...”, deganlar. Darhaqiqat, bunda ular his-tuyg‘ular va havaslarni, pinhona niyat va ehtirolarni nazarda tutganlar. Ruhiyatga doir ushbu harakatlar noyobdir, zero, bunday harakatlar hayvonot olamida mavjud emas. Insonning hayotiy dramasi aynan

“ehtiroslar lazzati”da ochib berilgan. Ular orasida muhabbat dastlab chaqirilgandek tuyuladi. Zotan butun insoniyat muhabbatsiz bir kun ham yashay olmagan bo‘lar edi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Insonning ruhiy rivojlanish jarayoni murakkab hamda ko‘p qirrali bo‘lib, asrlar davomida ko‘plab buyuk mutafakkirlar e‘tiborini o‘ziga tortib kelgan. Ular bu jarayonda uchraydigan qiyinchiliklar va qonuniyatlarni o‘rganishga harakat qilgan. Bunday mutafakkirlar qatorida Abu Ali ibn Sinoning ham o‘rni alohida ahamiyatga ega. Uning ruh, jon va tana haqidagi g‘oyalari diqqatga sazovor. Ruh – qadimgi faylasuflarimiz va mashoyixlarimiz nuqtai nazaricha – bir latif (g‘oyat nozik) javhar, balki oliy bir biologik quvvat, amr olamidan nuzul bo‘lgan Rahmoniy nafas. Tiriklik, hayot jism va ruh tanosubiyatidan hosil bo‘lgan [1, 13]. Tana mavjudligi muhiti har taraflama uning faoliyatiga ta’sir qiladi. Bu muhit quyidagicha tasvirlanadi: ya’ni insonning tana, ruh, aql, qalb va uni o‘rab turgan aura, koinot (muhit) birlamchi vazifani o‘tasa, ikkilamchisi – bu oila, jamiyat, qo‘ni-qo‘shni, mahalla va vatandir.

Bizni o‘rab turgan muhit makroolam bo‘lsa, inson shu muhitda mikroolam vazifasini ado etadi. Ya’ni shu muhit insonga o‘z ta’sirini o‘tkazadi va teskari holat inson ham o‘z navbatida shu muhitga o‘z ta’sirini o‘tkaza oladi. Uning shaxs sifatida kamol topishida bevosita jamiyat mavjud bo‘lishi asosiy shart bo‘lsa, komillik sari intilishida aura, qalb va ruhning xizmati kattadir. Demak, Ibn Sino tanani ruhning kamoloti uchun vosita yoki omil sifatida qaragan bo‘lsa, ya’ni ruhning kamoloti uchun tanani asosiy vosita deb bilgan. Bu uz navbatida inson kamolotida muxim mezondir, chunki botiniy va zoxiriy barkamollik mana shu omillarga bog‘liq [2, 56].

Islom an’analarida ishq tushunchasiga deyarli barcha bilim sohalarida so‘z san’atidan tortib falsafa ilohiyot va hatto huquq sohalarida ham murojaat qilingan. Ishqqa oid iboralar tasavvuf an’anasining barcha namoyandalari faoliyatida bor. Ibn Sino o‘zining «Risolai ishq» nomli asarida insoniy muhabbatning darajalari haqida gapiradi. Uni to‘rt pog‘onaga ajratadi. “Bilginki zokirlar 4 tabaqaga bo‘linadilar. Ba’zilari mayl va xohish martabasidadirlar, ba’zilari iroda ko‘rsatish martabasidadirlar, boshqalari esa muhabbat martabasidadirlar undan qolganlari esa ishq martabasidadirlar” [3]. Ibn Sino har bir darajaning ta’rifini beradi. Tasavvuf ahliga qaysinisiga osmonga ko‘tarilish nasib qilsa o‘sha to‘rtinchi martabaga chiqqan bo‘ladi. Zokirlar agar to‘rtinchi martabaga yetib bormasalar ularning ruhi yuqoriga ko‘tarila olmaydi. Va endi biz bu to‘rt martabani quyidagicha sharx qilamiz toki

soliklar (solik-tasavvuf tariqatiga kirgan odam) bilsinlarki har qaysilari qaysi martabada ekanliklarini. Birinchi martaba shunday martabaki, zokir xilvatxonada o‘tirib tili bilan zikr qiladi.

Endi bu bozorda bo‘ladimi, biror narsani sotib olyaptimi farqi yo‘q, bari bir uni dilida zikr bor. Bunday zikrni ta’siri kamroq. Lekin bu foydadan xoli emas. Ikkinchi martaba shundadirki, zokir zikrdadur va unng dili g‘oyibdadur. Va u til bilan o‘zini shu narsaga hozirlagan va zokirlarning ko‘pchiligi mana shu martabada bo‘ladilar va qiyinchilik bo‘lsa ham riyozat chekib mana shu martabaga erishishga harakat qiladilar. Uchinchi martaba - zikrning dilida cho‘zib diliga joylab, qalban egallab oladi. Bunday holatda u zikr qilmasdan tura olmaydi va agar biror soatga tashqi tomondagi biror ishga bir zaruriyat bilan mashg‘ul bo‘lishga majbur bo‘lsa, qiyinchilik bilan o‘sha ish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Xuddi ikkinchi martabada o‘zini dilini qiyinchilik bilan zikr aytishga hozirlagandek. Uchinchi martabada o‘zini dilini tashqariga olib chiqish bilan shug‘ullanadi. Va bu hodisa yaqinlik maqomi deyiladi. Bu gapni shunday kishilar biladiki, agar uni mahbubi bo‘lsa ya’ni bir-birini yaxshi ko‘rgan odam biladi. Shuning uchunki muhabbat hamisha mahbubini zikr qilish bilan ovvora bo‘ladi va zikrsiz o‘z mahbubiga yetisha olmaydi. Har kuni u boshqalar bilan o‘zining mahbubasini maqtasa yoki boshqalar o‘zining mahbubasini uning o‘ziga maqtashlarini xohlaydi. Va agar u boshqalarning gaplarini va boshqalarning ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishni xohlasa juda qiyinchilik bilan o‘sha ishga kirishardi. Chunki uning dilida mahbubi bor. To‘rtinchi martabada diliga kirgan narsa davom etadi. Xuddi uchinchi martabada bo‘lganidek dilida uni saqlab qoladi. Mashhur to‘rtinchi martabada u diliga joylashadi. Endi dilga o‘tirgan mashuq bilan boshqa mashuq o‘rtasida ancha farq bor. Ey darvish shunday vaqt keladiki, oshiq o‘zining mashuqiga shunchalik berilib ketadiki mashuqasining nomini ham unutib qoyadi. Shunday darajaga yetadiki mashuqdan boshqa hech nima uni esiga kelmaydi. Mana shu muqaddimadan ma’lum bo‘ldiki, birinchi martabadagi mayl, xohish, tamoyilni paydo qiladi. Ikkinchi martabada iroda paydo bo‘ladi va shunda intilish paydo bo‘ladi. Uchinchi martabada muhabbat paydo bo‘ladi. To‘rtinchi martabada muhabbat ishq maqomiga yetib boradi.

Ey darvish, kimki biror kishi bilan suhbat qurishni xohlasa, avval suhbatlashishga ishtiyoq paydo bo‘ladi. Va mana shu ishtiyoq ko‘paysa va unga o‘tib qolsa, u irodaga aylanadi. Agarda irodasi ham ko‘payib ketsa muhabbatga aylanadi, nihoyat muhabbat juda ham ko‘payib ketsa o‘sha muhabbat ishqqa aylanadi. Demak, ishq muhabbatning yuqori darajasi bo‘lib, muhabbat irodasining ham yuqorisidir.

Munosabat va aloqalarning xilma-xil bo‘lishini ta’kidlaydi hamda haqiqiy sevgi bilan yuzaki sevgining farqini ko‘rsatishga urinadi. U, avvalo sevgi tushunchasiga

ta'rif berib, sevgi hamma jonli maxluqlarda mavjud bo'ladi, - deydi. Lekin Ibn Sino inson sevgisining boshqa sevgilardan farqini ko'rsatib, bu haqda chuqur falsafiy fikr yuritadi. Masalaga bevosita yondashishdan oldin kishidagi kuchlarning birligi ma'lum naf-foyda keltirishini isbotlamoqchi bo'ladi. Uning fikricha, hayotda har qanday kuchning ta'siri bo'ladi. Masalan, kishi daraxtni yaxshilab parvarish qilsa, u yaxshi o'sadi va chiroyli bo'ladi, kishi diqqatini tortadi. Kishi aql bilan ish qiladi va shuning bilan birga, u nutq qobiliyatiga ega. Inson hayvondan shu tomonlari bilan farq qiladi. Kishi nutqining kuchi shundaki, u boshqa kishilarga ham ta'sir qila oladi. Shunday qilib, kishi ma'lum maqsad yo'lida kurashadi, harakat qiladi. U yanada ko'proq muvaffaqiyatlarga erishish uchun tinmay harakat qiladi, yangilik izlaydi, uni amalga oshiradi.

Ibn Sino kishining tashqi go'zalligini ko'rib, uni sevishga intiluvchilarni tanqid qiladi. U go'zallikni tashqi ko'rinishdagi chiroylilikdan boshqacharoq, kengroq mazmunda tushuntiradi. Ibn Sinoning fikricha, kishi tashqi ko'rinishda unchalik chiroyli bo'lmasa-da, yaxshi xulqli, yaxshi xarakterli, aqlli bo'lsa, u har qanday go'zallardan go'zaldir. Bu fikr muayyan darajada rus adibi A.P.Chexov va boshqa faylasuflarga ham tegishli ekanligini e'tirof etamiz. Agar kishi go'zal chehrani ko'rib, unga havas bilan qarasa, bu hali haqiqiy sevgi emas. "Agar kishi shaxs chiroyini aql va farosat bilan ko'ra olsa va uni sevsa, bu insoniylikning yuqori darajasidir. Bu – insonning buyuk timsoli hisoblanadi. Ana shunday odamni mard va dono, nafosat didi yuksak, deb haqli ravishda aytish mumkin" [4, 86], - qayd qilgan.

Ibn Sino hayvonlardagi hirs bilan odamlardagi ongli, yuksak insoniy sevgining farqini keskin ajratadi. Olim ta'kidlaydi: odamda ilm, bilim kuchi bo'lishi kerak, kishi aql va farosat bilan harakat qilishi lozim. Hayvonlar esa bundan mahrum. Kishi aql-idrok bilan harakat qilsa, uning ishqi doimiy bo'ladi, agar u hayvoniy hirsga berilsa, buzilib ketadi. Ibn Sinoning fikricha, kishida bu ikki xil xususiyat bo'lishi mumkin. Lekin shunda ham kishidagi aql va bilim hayvoniy hirsga yo'l bermasligi kerak, aql va tadbirkorlik hamisha tantana qilishi lozim. Shundagina odam haqiqiy inson bo'ladi, baxtli yashaydi [5, 86]. Xulosa qilib aytish mumkinki, "Risolai ishq" bu davrda yaratilgan ijtimoiy-axloqiy asarlardan biri hisoblanib, sharq falsafasi tarixidagi o'ziga xos falsafiy hodisadir. Xususan, asarning manba sifatidagi ahamiyati ham qimmatli. "Risolai ishq" asarida Ibn Sino ilg'or g'oyalarni ilgari sura oldiki, bu O'rta asr Sharq falsafasi uchun muhim bosqich bo'ldi. Ibn Sinoning "Risolai ishq" asari nafaqat axloqiy asar, balki Sharq falsafiy tafakkurida yaratilgan qimmatli manba bo'lib ham xizmat qiladi. Uning nusxalarini manba sifatida o'rganish, tarjima qilish va tahlil qilish juda dolzarbdir. Chunki ajdodlarimiz me'rosi va qadriyatlarini, ular qoldirgan ilm-u amal bugungi kunimizning poydevori bo'lmog'i lozim.

Tadqiqotchi olimi Xodjayeva Fotimaning izlanishlariga tayanib [6], yana bir sharq mutafakkiri Ahmad G‘azzoliyning falsafiy qarashlarining asosiy mavzusi Allohga bo‘lgan muhabbat, ishq mavzusidir. Ahmad G‘azzoliy mulohazalariga ko‘ra, ruh adam olamidan vujudga kelgan. Ishq mavjudlik chegarasida uni o‘ziga ulov qilish uchun kutib turardi. Ikki vujudning mijoz qanday bo‘ladi bilmadim. Ruhning o‘zi kelgan joyga uning sifati bo‘lib ishq keldi. Joyni bo‘sh ko‘rib, unga joylashib oldi. Ishqning tomonga ega bo‘lishi to‘g‘risida har xil qarashlar bor. Ammo ishqning haqiqati shuki, uning tomoni bo‘lmaydi, u tomonga ega bo‘lishlikdan pokdir. Haqiqiy ishqqa tomon kerak bo‘lmaydi. Ammo yana bilmaymanki, u egallanilayotgan paytda suv qaysi yerga qarab oqadi? “Sultonning uloviga o‘ziniki bo‘lmasa ham boshqa kishi rikobdorlik qiladi, ammo ziyoni tegmaydi”, deydilar. Bu gapimiz bir ishoradir. Ba’zida ko‘zagar yoki zargar shogirdiga hunar o‘rgatayotganda uning qo‘lidan tutib o‘rgatadi. Shundan keyin u bu ishga usta bo‘ladi. Ba’zida esa qimmatbaho dur-u marjonlarni hali uning qiymatini tushunmaydigan shogird qo‘liga berishning zarari yo‘q. Ustozning ustomon qo‘li unga bularni teshishni o‘rgatadi. Buqalamunning bir ajoyib nayrangi borki, u xuddi suvga o‘xshab hamma narsaning rangini o‘ziga olib, ko‘zga tashlanmaydi.

Alloma ta’kidiga ko‘ra, kishi qalbini g‘ayrdan xoli topsa, qalb oynasi tiniq bo‘lsa, surat paydo qiladi va ruhning safosida sobit bo‘ladi. Qachonki, u ruhning ishroq yog‘dusida o‘zini yoki ma’shuqning nomini yoki sifatini ko‘rsa, bu uning komillik nuqtasi bo‘ladi. Bu vaqtni talab qilmaydi. Vaqt uning nazarida bir hijob bo‘ladi va uni ishroq yog‘dusi yutib yuboradi. O‘zi unga aylanadi va o‘zining o‘rnida uni ko‘radi [6, 56].

Ba’zan, ruh deydi Ahmad G‘azzoliy ishq uchun bir zamin bo‘ladi. Undan ishq daraxti o‘sib chiqadi. Ba’zan esa Zot bo‘ladi va o‘zidan sifatni qoim qiladi. Goh ruh va ishq bir xonadagi ikki sherik kabi eshikdan yo unisi yoki bunisi navbat bilan chiqadi. Gohida esa ishq zot bo‘lsa, ruh unga sifat bo‘ladi va ruhning qandayligi unga bog‘liq bo‘ladi. Ammo buni odamning o‘zi tushunolmaydi. Negaki, bu barcha bashariy sifatlarni mahv qilinganidan keyingina isbot bo‘ladi. Bu isbotga erishgan ahli isbot esa barcha bashariy sifatlarni mahv qilishdan oldingi holni to‘g‘ri deb bilmaydilar.

Alloma mulohazalariga ko‘ra, ba’zida ishq osmon-u ruh yer bo‘ladi va o‘sha vaqt nimani taqozo qilsa yerga o‘sha yomg‘ir yog‘adi. Ba’zida esa ishq bir urug‘, ruh esa yer bo‘ladi va urug‘dan nima chiqsa, o‘sha bo‘ladi. Ba’zan ishq kondagi gavhar bo‘ladi, ruh esa kondek bo‘ladi va ishq qaysi gavharga o‘xshasa, ruh o‘shaning koniga aylanadi. Ba’zan esa ishq ruhning osmonidagi quyosh bo‘ladi va ruh o‘sha quyoshda toblanadi. Gohida ishq ruhning havosida bir uchar yulduz bo‘ladi va ruhni

kuydiradi. Gohida ruhning oti ustidagi ziynatlangan egar bo‘ladi va ruh unga minib oladi. Gohida esa ruhning sarkashliklariga jilov bo‘lib, uni o‘zi xohlagan tomonga buradi. Ba’zida qahrli boqqan ma’shuqning zanjiri bo‘lib, ruhni bog‘lab oladi, ba’zida esa ruhning vaqtida zaharli sharob bo‘lib, unga alamli azob beradi va o‘ldiradi.

Nemis sharqshunosi X.Ritter ta’kidlaganidek, tasavvufiy ishq dunyoviy ishqdan shu bilan farq qiladiki, u muhabbat hayoti sohasiga transsendent, mutlaq obyektini o‘z ichiga oladi. Shu tufayli muhabbatning qadr-qimmati oshadi va bundan buyon unga yuksaklik, ustunlik talab etiladi, bundan tashqari, boshqa barcha hissiy ishtiyoqlar ustidan mutlaq hukmronlikni qo‘lga kiritadi. Shunday qilib, ruh ishqiy hayotining intensifikatsiyasi, differentsiatsiyasi va noziklashuvi ro‘y beradi, bunda muhabbat haqiqiy qalb san’atiga aylanadi, uning o‘yinchilari hissiy tajriba va hissiy ishqiy fe’l-atvorning barcha imkoniyatlarini o‘zlashtirish va ifodalashga qodir bo‘ladilar [6, 57]. Ahmad G‘azzoliyning e’tirofiga ko‘ra, oshiq bo‘lmagan qalb bo‘shliqdan iborat, uning tanilishi ishq bilan bo‘ladi. Bu jihatdan insondagi har bir a’zo bir ishni qilishini tilga keltirganidan keyin qalbning ishq va oshiqlik uchun yaratilgani, boshqa bir ish uchun bo‘lmaganligi tushuniladi. Xulosa qilib aytganda, Ahmad G‘azzoliy qarashlardagi bosh mavzulardan biri bu qalb bo‘lib, inson shahriga hukmronlik qiluvchi hukmdordir. Tavhidni saqlash vazifasi butunlay qalbning burchidir. Qalb vazifasini muhabbat ustiga qurgan G‘azzoliy fikricha, oshiq bo‘lmagan qalb bo‘shliqda bo‘ladi, uning tan olinishi faqat muhabbat orqali erishiladi. G‘azzoliy fikricha, tavhid va ishq bir narsadir. U shuningdek, o‘z qarashlarida qalbning darajalari va yuksalishi, ruh va ruhning borligini ta’kidlagan hamda sirni qalbning bir darajasi deb hisoblagan.

Muhabbat shahvoniylik manbai sifatida hissiylikka ega. Biroq u barham topmaydi. Unda hadsiz ko‘proq nimadir bor. Ruhlar ittifoqi, shaxsni o‘z-o‘zini tanqid qilishi. Shuning uchun qadimgi yunonlar muhabbatning turli shakllarini ajratib ko‘rsatganlar. Ular, jumladan, Erot - ilohiylashtirilgan shahvat. Yoxud muhabbat - bu beparvolik bilan aniqlangan ehtiros. Muhabbatning mayl ekanligi muqarrar asoratlarsiz nazarda tutilgan. U muhabbatni halokatli oqibatlersiz diqqatga sazovor mayl sifatida e’tirof etgan. Umuman olganda, inson subyektivligi aql, ehtiros va irodaning o‘zaro bog‘lanishi sifatida tushuniladi. Muhabbatning o‘zi nima? U shahvatdan, ibodat lazzatidan qanday farq qiladi? Eros, ya’ni shahvat - bu pinhonalik. Balki bu eng buyuk, to‘xtatib bo‘lmas ehtiros, birlashishga bo‘lgan iztirob azobi, o‘limga mahkum bo‘lgan insonlarning qandaydir mangulik sari sirli intilishidir? Qadimgi kosmogoniyalarda Eros - bu olamni yaratish mexanizmini harakatga keltiruvchi dastlabki spontan kuchli ehtiros sanalgan. Inson hayot hadya etuvchi ona

tabiat, borliqning abadiy malikasi siymosi, aytaylik, davrning boshlanish pallasidagi mistik ibodatlarining ajralmas qismi bo'lgan. Zotan uning ibodati turli shakllarda namoyon bo'ladi - ba'zan asketik, ba'zan zo'ravon, orgiastik.

Inson muhabbat borasida qanday fikr yuritadi? U o'z jismini qadrlaydimi? Buni qandaydir bir muqaddas idish yoxud yomon niyatlar joylangan idish sifatida qabul qiladimi? U shahvatning universalligini his qiladimi yoki uning faqat birgina jihatini bilarmikan? Jumladan, yunon falsafasi va san'atida insonning tabiati, uning qiyofasi, jismi - hech bir shak-shubhasiz, barchasi mukammallik va uyg'unlik timsoli sifatida ifodalangan. Va u tabiat farzandi yaratgan durdona sifatida qabul qilinganligi bois, yunon san'ati inson tanasini ehtirosga yo'g'rilgan jo'shqinlikda aks ettirishga, ifodalashga intildi.

Ellinlar san'ati nafosati bu borada ochiq-oydin o'z fikr-mulohazasini bildirdi. "Qadimgi Yunoniston san'ati, - deya ta'kidlaydi Aleksey Gastev, - bu hissiy san'at, bizga tajribada berilgan olamni kuzatish va tahlil qilish san'atidir. San'at safsataga asoslangan chizmalardan, ramziylikdan xalos qilinadi, u belgiga emas, balki narsaga aylanadi, u o'z-o'zidan qimmatli bo'ladi – haykallar ma'budlarni tasvirlagani uchun mavjud edi, biroq yunon ma'budlari o'z majudliklari uchun haykallar oldida muayyan ma'noda qarzdorlar: yunon haykaltaroshi Xudoning marmar tanasini yaratdi, u unga amr qildi va uni xuddi o'zi xohlaganidek yasadi". Qadimgi faylasuflar inson ruhi haqida o'z fikrlarini bildirganlar. Ular insonning qadr-qimmati, uning har qanday xususiyatlarining maqsadi borasida so'z yuritdilar. Muhabbat buni xudolar tomonidan tabarruk qilingan teran tuyg'u sifatida qabul qildi. Afrodita sevuvchilarga bosh-qosh bo'lib, ular jismlarning yaqinlashishiga va ruhiy jozibaga hayot quvonchi sifatida oq fotiha berdi.

Qadimgi yunonlar ongida jismoniy va ruhiy muhabbat o'rtasida asta-sekin tafovut paydo bo'la boshladi. Hissiy mayl inson tanasining go'zalligi borasidagi tasavvurni aks ettiradi. She'riy kechinmalar yanada individuallashib bordi. Aflotun inson intilayotgan huzur-halovatni muayyan darajada cheklash lozim, deya e'tirof etgan. Arastu esa, undan farqli o'laroq, tananing rohatlanishi harqalay ezgulik, deya hisoblagan.

Badiiy va ilmiy adabiyotlarda muhabbatning turli shakllarini, jumladan barcha narsani qamrab oluvchi tuyg'uning xususiyatlarini ochib berishga ko'plab urinishlar bo'lgan. Dunyoviy muhabbat ko'plab qiyofalarni kasb etadi. Fransuz yozuvchisi Stendal shahvatning ko'plab belgilarga ega ekanligiga e'tibor qaratdi. U hatto muhabbatning to'rt turini aniqlashga uringan. Uning tasnifida birinchi bo'lib muhabbat – bu ehtiros. Jumladan, u XVIII asr fransuz faylasufi Per Abelyarning Eloizaga bo'lgan fojiali muhabbat qissasini bayon qilar ekan, qissa yakunida

sevishganlar muhabbatining Eloizaning ibodatxonaga ketishi bilan zavol topganini misol keltiradi.

Muhabbatning yana bir turi - bu mayl. Ushbu tuyg'uning misollarini Stendal XVIII asrda yaratilgan yodnomalar va asarlardan topgan. U ayniqsa jismoniy muhabbatni alohida o'rganib chiqqan. Muhabbat barcha insonlarga tanish tuyg'u bo'lib, u o'rmonga qochib ketayotgan yosh va go'zal dehqon ayolni kutishda namoyon bo'ladi, deya mushohada yuritadi adib. Muhabbatning uchinchi turi shunday. Va nihoyat, his-tuyg'uning yana bir turlaridan biri Stendalning so'zlariga ko'ra - bu shuxratparast muhabbat.

Muhabbatga teran tuyg'u sifatidagi tipologiyasiga nisbatan boshqacha yondashuvlar ham mavjud. Aytaylik, birodarlik muhabbati. Erix Frommning fikricha, bu, uning barcha turlari negizida yotuvchi muhabbatning asosiy turi. Birodarlik muhabbati mas'uliyat hissi, g'amxo'rlik, hurmat, boshqa insonni bilish, unga ko'maklashish istagini anglatadi. Aynan shunday muhabbat borasida Bibliyada: "O'z yaqin kishingni, xuddi o'zingni sevgandek seva bil" deyilgan. Birodarlik muhabbati barcha insonlarga bo'lgan muhabbatdir. Aynan ushbu o'ziga xoslikning yetishmasligi - uning o'ziga xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi.

Zaiflar, kambag'allar va musofirlarni sevish birodarlik muhabbatining ibtidosidir. U o'z farzandini va boshpanasini sevadi - buning qanday yutuq ekanligini Xudo biladi. Hayvon ham bolalarini sevadi va ularga g'amxo'rlik qiladi. Zaif inson o'z xo'jayinini sevadi, chunki uning hayoti xo'jayiniga bog'liq. Bola o'z ota-onasini sevadi, chunki u ularga muhtoj. Biroq, chinakam muhabbat esa hech qanday maqsadni ko'zlamaydigan insonlarga nisbatan xizmat qiladi.

Fromm tomonidan tasvirlangan muhabbatning yana bir turi - bu onalik muhabbatidir. Bu bolaning hayoti, uning ehtiyojlari to'g'risidagi so'zsiz bayonot. Biroq, bolaning hayotini tasdiqlashning ikki tomoni bor. Ulardan biri g'amxo'rlik va mas'uliyatdir. Boshqa faqat tejash orqasida ketadi. Bu bolada hayotga muhabbat uyg'otadigan munosabat bo'lib, unga kenja o'g'il yoki kenja qiz kabi hayot yaxshi ekanligini his qiladi. Bu ikki tomon olamning yaratilishi haqidagi Injil hikoyasida aniq ifodalangan. Xudo olamni va insonni yaratgan. Bu oddiy tashvish va mavjudlikni tasdiqlashga mos keladi. Biroq Xudo bu minimal talabdan oshib ketadi. Yaratilishning har bir kunining hikoyasi quyidagi so'zlar bilan tugaydi: "va buning yaxshi ekanligini Xudo ko'rib turibdi".

Zamonaviy madaniyatda muhabbat - bu hissiyotlarning kuchayishi, insonni to'satdan qarshilik ko'rsatib bo'lmaydigan tuyg'u qamrab olgan holat, deya hisoblangan. Ular har bir erkakni Odam Atoning bir bo'lagi, va har bir ayolni - Momo Havoning bir bo'lagi deb emas, balki faqat ushbu ikki insonning o'ziga xos

xususiyatlarini payqaganlar. Erotik muhabbat barcha insonlar o'rtasida emas, balki faqat aniq insonlar o'rtasida mavjud bo'lgan individual, g'oyat shaxsiylikni talab qiladi.

Shuningdek, yana shunday turdagi muhabbatni, ya'ni o'zining o'ziga bo'lgan muhabbatini e'tirof etish mumkin. Garchi hech kim muhabbat tushunchasini turli xil narsalarga nisbatan tatbiq etishga mone'lik qilmasa-da, va o'zga insonlarni sevish fazilat hisoblangan bo'lsa-da, biroq o'zini-o'zi sevish gunohdir, degan fikr keng tarqalgan. Inson o'zini-o'zi qanchalik ko'p sevsa va boshqalarni shunchalik kam sevsa, o'z-o'zini sevish xudbinlik bilan bir xil deya taxmin qilinadi. Mazkur nuqtai nazar g'arb tafakkurida chuqur tomir yozgan. Kelvin, xususan, insonning o'zini-o'zi sevishini "vabo" deya talqin qiladi. Shu tariqa, muhabbat va xudbinlik bir-birini inkor qiluvchi tushunchalar bo'lib, ulardan biri kuchliroq bo'lsa, ikkinchisi esa kuchsizroq bo'ladi. Inson agar o'zini sevsa, bu yomon, demak, xudbin bo'lmaslik – yaxshi. Biroq, o'z-o'zini sevish va o'zga insonlarga bo'lgan muhabbat o'rtasidagi tub qarama-qarshilik to'g'risidagi tezis psixologik kuzatuvlar bilan tasdiqlanadimi? Inson o'z shaxsiy hayotini, baxtini, erkinligini rivojlantirishni tasdiqlashi undagi seva bilish qobiliyatiga, ya'ni g'amxo'rliqi, hurmati, mas'uliyati va bilimiga asoslanadi. Agar inson samarali sevgiga qodir bo'lsa, u ham o'zini sevadi. Agar u faqat boshqalarni sevishga qodir bo'lsa, u umuman sevishga qodir emas.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, muhabbat aslida inson qalbidagi barcha tirik mavjudotlarga bo'lgan muhabbat his-tuyg'usidir. Qalb ko'zi orqali inson butun borliqda yashiringan ruhiy go'zallikni his qiladi. Qalb ko'zi bilan ilg'agan narsalarni oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Olam go'zalligi aslida borliqdagi barcha narsalarda, mavjudotlarda yashiringan Allohning jamolidir. Shunday qilib, Allohga bo'lgan haqiqiy e'tiqod bu aslida Allohga bo'lgan muhabbatdir. Faqat Allohga bo'lgan muhabbat orqali insonda yashiringan ijodiy qobiliyat yuzaga chiqadi. Inson o'z hayoti davomida ko'pgina narsalarga mehr ko'yishi, ko'p narsalar bilan shug'ullanishi mumkin, lekin bu narsalarning barchasida chegara bor.

Bu so'fiylarning barchasi Allohga muhabbat, muhabbat, ishq haqida gapirgan bo'lsalarda, Ahmad G'azzoliyning ishq maktabi butunlay boshqacha bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Ahmad G'azzoliyning ishq tushunchasi doirasida ushbu tushunchaga qo'ygan ma'nosi na insonning Allohga muhabbati, na Xudoning insonga muhabbatidir. U "mutlaq sevgi" haqida gapiradi va uning qarashlaridagi "oshiq" yo inson, yoki Xudo, yoki shayton. Aynan ushbu xususiyat va chuqur ma'nolar G'azzoliydan oldingi so'fiylarda ham, zamondosh so'fiy shayxlarida ham uchramaydi.

Ibn Sino, Ahmad G‘azzoliy va Erix Frommni muhabbat haqidagi nuqtai nazarlarining tahlili keng ruhiy, ma’naviy va sotsiologik nazariya bilan bog‘lanadi. Muhabbatning Ibn Sino, Ahmad G‘azzoliy va Fromm ta’limotlaridagi talqini insondagi insoniylikni ochishga, umumiy tuyg‘u shaxsiy barkamollikni boyitishga yo‘naltirilgan.

Erix Frommning fikriga ko‘ra, tafakkur darajasidagi muhabbat shaxsiy o‘ziga xos dunyoni tushunishni anglatadi; faoliyatda - ijodkorlik va o‘zligini namoyon qilishni bildiradi; ehtiros darajasida – bu o‘zga inson, tabiat va butun insoniyat bilan yagonalik hissidir. Muhabbat, mutafakkirlarning fikricha, bu insondagi faol kuch-quvvatdir. Bu kuch insonni insondan ajaratadigan har qanday to‘siqni qo‘porib tashlaydi, ularni bir-biriga yaqinlashtiradi. Muhabbat – shaxsning eng umumiy tarzda o‘z-o‘zini namoyon qilish shaklidir. Muhabbatning mazmuni butun dunyoning umumiy ibtidosida namoyon bo‘ladi.

Demak, muhabbatli inson hayotga qiziquvchan, xushfe‘l, hayratlanish qobiliyatini yo‘qotmagan shaxsdir. Bunday odamlarning ichki ruhiy holati faqat ijobiy bo‘lib, har qanday qiyinchiliklarga dosh berishga qodirdir. Jamiyatning inqiroz holatlarida bunday shaxslar odamlarga dalda berib, jamiyatda ruhiy ko‘tarinkilik holatini ta‘minlaydilar. Bunday shaxslarni Erix Fromm jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchi, deydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавхид асрори. – Т., 1999.
- [2] Серебряков М.Б. Трактат Ибн Сины (Авиценны) о любви. – Тбилиси: Мецниереба, 1975.
- [3] Ибн Сино. Рисолаи ишқ / М.Қодиров таржимаси (Қўл ёзма ҳуқукида).
- [4] Ибн Сино. Рисолаи ишқ. – Техрон, 1952.
- [5] Рахимов С. Ибн Синонинг педагогик қарашлари. – Т.: Ўқитувчи, 1967.
- [6] Ходжаева Ф.Н. Аҳмад Ғаззолий тасаввуфий қарашларининг фалсафий асослари: фалсафа доктори ...дисс. – Бухоро, 2023. 131-б
- [7] Fromm E. *Sevish san'ati* // *Jahon adabiyoti*. -2004. - 4-son.
- [8] Fromm E. *Psychoanalysis i Dzen Buddizm*. –М.: Politizdat, 1990.
- [9] Ruzmatova G. *Eastern melodies in the text of Plato* // *International Journal of Recent Technology and Engineering*. Vol. 8, Issue-2S6, July, (2019). –P. 444-448. IJRTE. ISSN: 2277-3878.
- [10] Ruzmatova G. *Comparativist analysis of Representations about Will in View of Friedrich Nietzsche and Jalaliddin Rumi* // *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, Vol. 24, Issue 04, 2020. ISSN: 1475-7192. –P. 3215-3227.

[11] Rakhimdjanova D.S. Features of the freedom issues in the Plot's philosophy. International Journal of Advanced Science and Technology. Vol. 28, No. 16. (2019), pp. 1560-1564. ISSN: 2005-4238 IJAST.

[12] Рузматова Г. Рухият таҳлили фалсафаси. –Тошкент: Нишон-ношир, 2014. - 240 б.

[13] Ruzmatova G.M. Konfutsiychilik axloqiy negizlarida olamiy tartibot // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, илмий, оммабоп журнал. – 2023. 11-12-sonlar. – В. 916-923. / Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>.

[14] Ruzmatova G.M. Comparative studies of the Oriental and Western antropology // ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (128), 191-195. Philadelphia, USA / Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-12-128-13> / Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS/>

MIRZO ABDULQODIR BEDILNING “ CHOR UNSUR ” ASARINING ONTOLOGIK JIHATLARI

Zokirov Mirzo

Tadqiqotchi

email: zokirov0796@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mutafakkir Mirzo Bedilning asarlarini o'rganish, shunindek, dolzarb mavzulardan biri ekanligi, faylasufning asarlari va ularni o'rganish katta ahamiyatga molik ish tutayotganligi inobatga olib, Miroz Abdulqodir Bedilning “ Chor unsur ” asarini o'rganish va bizni o'rab olgan olam haqidagi qarashlarning o'ziga xosligi haqidagi falsafiy mohiyatiga bog'liq masalalariga e'tibor qaratilgan.

***Kalit so'zlar:** Vahdat al-vujud, sufiylik, mikrokosmos, makrokosmos, suv, olov, yer, havo, borliq, ilohiylik.*

ABSTRACT

In the article, taking into account that the study of the thinker Mirzo Bedil's works is one of the current topics, the works of the philosopher and their study are of great importance, Mirzo Abdulqadir Bedil's work "Chor unsur" is the study and the vision of the world that surrounds us. Attention is paid to the problems related to the philosophical nature of uniqueness.

***Key words:** Wahdat al-Wujud, Sufism, microcosmos, macrocosmos, water, fire, earth, air, existence, divinity.*

KIRISH

O'zbek xalqining vatandosh siymosi, Sharq madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, o'z zamondoshlari va ilm ahllari tomonidan taqdirlanib, Abulma'oni laqabi bilan shuhrat qozongan Hindistonning ulug' shoiri va faylasufi Mirzo Abdulqodir Bedilning diniy-falsafiy va ahloqiy, hamda borliq haqidagi qarashlari o'z davrida ham, hozirgi kunda ham o'rganishi dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Mirzo Bedil asarlari islom dinining tasavvufiy ruhida, falsafiy ruhda, hinduviylik ruhida yozilgan bo'lib uning barcha ijodlari axloqiy jihatdan juda yuksak baholanadi. Shuning uchun biz Bedil asarlarini chuqur o'rganib ta'limga va yosh avlod tarbiyasiga yo'naltirishimiz darkor. “Chor unsur”da Mirzo Abdulqodir Bedilning ontologik mavzularni tadqiq etishi sufiylik falsafiy an'alarida chuqur ildiz otgan. Ontologiya falsafaning borliq tabiati, voqelik va olamning asosiy tuzilishi bilan bog'liq bo'limi so'fiy metafizikasining markaziy jihati bo'lib, Bedil o'z ijodida u bilan keng shug'ullangan. Bedilning “Chor unsur” asaridagi ontologik tadqiqi

soʻfiylarning borliq birligi (“Vahdat al-vujud”) tushunchasini oʻz ichiga olgan, bu tamoyil barcha mavjudot mohiyatan yagona ekanligini va barcha mavjudotlar ilohiy manba orqali birlashganligini koʻrsatadi³⁸. Bu kontseptsiya sheʼriy va metaforik til orqali barcha narsalarning oʻzaro bogʻliqligi haqida noyob nuqtai nazarni taklif qilgan. Bundan tashqari Bedil inson qalbining tabiati va uning ilohiylik bilan munosabatini chuqur oʻrganishi, individual borliqning umuminsoniy borliq bilan bir-biridan ajralib turishi va shu bilan birga uzviy bogʻliqligi haqida fikr yuritgan. Bu izlanish ruhning sayohati va uning ilohiy manbaga qaytishi haqida fikr yuritishni oʻz ichiga oladi. Bundan tashqari, Bedilning ontologiyaga yondashuvi, ehtimol, bilim va idrok tabiati haqidagi munozaralarni oʻz ichiga oladi. U insonning voqelik haqidagi tushunchasi bizning inʼikoslarimiz va tajribalarimiz orqali qanday shakllanayotganini, ruhiy tushuncha mavjudlikning asl mohiyatini chuqurroq tushunishga qanday olib kelishi mumkinligini oʻrgangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bedilning “Chor unsur” asaridagi ontologik munozaralari soʻfiy adabiyotiga xos boʻlgan timsol va allegoriyaga boy boʻlishi, voqelik, borliq va ilohiylik mohiyatini chuqur anglab yetilgan. Bedil bu asari orqali tasavvufdagi falsafiy-tasavvufning boy anʼanalariga hissa qoʻshadi, borliq va uning asosiy masalalari boʻyicha chuqur fikr yuritadi. “Chor unsur”dagi ontologik mavzulardan tashqari, Mirzo Abdulqodir Bedilning yondashuvi haqiqatning tabiati, voqelik va inson bilishining chegaralari haqidagi savollarga javob berishi mumkin. Bedil ruhiy olamning abadiy tabiatidan farqli ravishda, jismoniy olamning oʻtkinchiligi tushunchasini ham tadqiq qilgan. Dunyoviy mavjudotning vaqtinchalik tabiati va ilohiylik haqidagi bu fikr soʻfiy falsafasida keng tarqalgan mavzu boʻlib, uning ishida aks etgan. Qolaversa, Bedilning “Chor unsur” asaridagi ontologik tadqiqoti insonning olamni anglashga urinishlariga xos boʻlgan paradoks va ziddiyatlarni koʻrib chiqqan. U oddiy idrok etib boʻlmaydigan voqelikni anglashda inson tili va tafakkurining cheklanishini oʻrganishi, haqiqiy tushunchaga ega boʻlishda mistik tajriba va sezgi rolini taʼkidlaydi. Nihoyat, Bedilning asari chuqur allegorik va ramziy boʻlib, koʻp maʼno qatlamlarini taqdim etib, oʻquvchilarni tafakkur va introspektiv sayohatga chorlaydi. Uning murakkabligi va nozikligi bilan ajralib turadigan sheʼriy uslubi oʻquvchini yuzaki qarashga va oʻzi qoʻygan chuqur falsafiy savollar bilan shugʻullanishga undaydi. Umuman olganda, “Chor unsur” nafaqat adabiy asar, balki chuqur ekzistensial savollarni oʻrganish uchun sheʼriyatdan foydalanadigan falsafiy risoladir.

³⁸ Shalola B. Sattorova. (2023). HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL ROOTS OF MIRZO BEDIL. International Scientific and Current Research Conferences, 1(01), 94–96

“Chor unsur”da Abdulqodir Bedil Mirzoning ontologik izlanishlari, ehtimol, sufiylik ta’limotining metafizik jihatlarini qamrab olgan bo’lib, jismoniy va ma’naviy sohalar o’rtasidagi murakkab munosabatlarni o’z ichiga oladi. Uning ishi jismoniy va metafizika alohida emas, balki bir butunning qismlari bo’lgan dunyoqarashni aks ettiruvchi moddiy olam va ma’naviy tajribalar o’zaro bog’liqligini o’rganishi mumkin.³⁹ Bedilning metafora va timsolga boy she’riyatida ilohiylik dunyoning barcha jabhalarida namoyon bo’ladi, degan sufiylik e’tiqodini ko’rsatib, chuqur ma’naviy haqiqatlarni yetkazish uchun tabiiy obrazlar va kundalik tajribalardan foydalanadi. Bu yondashuv so’fiylarning hayotning har bir jabhasida ma’naviy ahamiyatga ega bo’lishga, hamma narsada ilohiy huzurni ko’rishga urg’u berishiga mos keladi. Bundan tashqari, Bedilning ishi, ehtimol, ruhning ma’rifat va ilohiylik bilan birlashish sari o’zgaruvchan sayohatiga bag’ishlangan. Sufiylik falsafasida markaziy o’rinni egallagan bu sayohat nafsni yengish, borliqning chuqur haqiqatlarini anglash va ilohiy mohiyat bilan ruhiy birlik yoki aloqadorlik holatiga erishishni o’z ichiga oladi. Bedilning “Chor unsur” orqali qo’shgan hissasi shunchaki she’riy yoki adabiy yutuqni emas, balki o’quvchilarni voqelik mohiyati, ruhiy sayohati, borliqning chuqur ma’nolari haqida fikr yuritishga chorlovchi chuqur falsafiylikni ham qamrab oladi. Uning ijodi so’fiylik adabiy va falsafiy an’alarining muhim qismi bo’lib qolmoqda va bugungi kunda ham o’quvchilar ilhomlantiradigan va e’tiroz bildiradigan tushuncha va mulohazalarni taqdim etadi. Tasavvufda o’z-o’zini kashf qilish sari sayohat ko’pincha ilohiy va koinotni tushunishga parallel ravishda ko’riladi. Ushbu introspektiv sayohat Bedil ijodida muhim mavzu bo’ladi. Bu erda o’zlik mikrokosmosi koinotning makrokosmosini aks ettiradi. Bundan tashqari, Bedilning “olamni bilish”ga yondashuvi, ehtimol, inson bilimining chegaralanganligi va inson aqli yetmaydigan sirlar haqida mulohazalarni o’z ichiga oladi. Koinotning kengligi va murakkabligi oldida bu kamtarlik so’fiy adabiyotida keng tarqalgan mavzu bo’lib, u erda yakuniy tushunish ko’pincha ilohiylikka qoldiriladi.⁴⁰ “Chor unsur”dagi she’riyat va nasr ham bilim, hikmat va harakat o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni o’rgangan. Bedil koinotni tushunish nafaqat aqliy izlanish, balki insonning dunyo bilan qanday yashashi va o’zaro munosabati uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligini muhokama qilgan. Umuman olganda, Bedilning “Chor unsur” asari koinotni anglashga intilishning chuqur tasavvufiy mulohazalar va koinotdagi inson tajribasiga oid mulohazalarni o’zaro uyg’unlashtirib turadi. Bu asar so’fiy adabiyotining boy an’alariga hissa qo’shadi, u borliq va bilim sirlarini she’riyat, falsafiy shaklda ochib beradi.

³⁹ I.M.Muminov. Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari – Toshkent, 1958

⁴⁰ Muhammadiyeva O. Bedil and the philosophy of moral values, - Tashkent, “New edition” 2016, page 27

Bundan tashqari, Bedilning ishi, ehtimol, ruhning ma'rifat va ilohiy bilan birlashish sari o'zgaruvchan sayohatiga bag'ishlangan. Sufiylik falsafasida markaziy o'rinni egallagan bu sayohat nafsi yengish, borliqning chuqur haqiqatlarini anglash va ilohiy mohiyat bilan ruhiy birlik yoki aloqadorlik holatiga erishishni o'z ichiga oladi.

REFERENCES

1. Muhammadiyeva O. Bedil and the philosophy of moral values, - Tashkent, "New edition" 2016, page 27
2. Ja'far Muhammad. Abulma'oniyy ma'naviyati (Bedil hayoti va falsafiy qarashlariga chizgilar) <https://kh-davron.uz/kutubxona.html>. 27-bet.
3. I.M.Muminov. Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari – Toshkent, 1958
4. Shalola B. Sattorova. (2023). HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL ROOTS OF MIRZO BEDIL. International Scientific and Current Research Conferences, 1(01), 94–96
5. Abd-al-G'ani, Life and Works of Abdul Qadir Bedil, Lahore, 1960.

ARAB UYG‘ONISH DAVRIDA RIFOAT AT-TAXTOVIYNING TUTGAN O‘RNI

Sherxanov Sul-tonmurod Davronboy o‘g‘li

Turan xalqaro universiteti o‘qituvchisi

sultonmurodsherxanov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sharq dunyosining yirik mutafakkiri Rifoat at-Taxtoviyning arab uyg‘onish davrida tutgan o‘rni haqida so‘z boradi. Rifoat at-Taxtoviyning siyosiy, diniy va falsafiy g‘oyalari tahli qilinadi. Rifoat at-taxtoviyy o‘z zamonasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni chuqur anglagan holda dolzarb muammolarni o‘rtaga qo‘ydi.

Kalit so‘zlar: *Rifoa at-Taxtoviyy; Sharq faylasufi, “Rifoa sayohati”; “Parij ziyoratidan sof oltin olinishi”; Erkinlik; Adolat.*

ABSTACT

This article talks about the role of Rifaat al-Takhtawi, a great thinker of the Eastern world, in the Arab renaissance. Political, religious and philosophical ideas of Rifaat al-Takhtawi are analyzed. Rifaat al-Takhtawi, having a deep understanding of the changes taking place in his time, brought up the current problems.

Keywords: *Rifoa al-Takhtavy; Oriental Philosopher, "Rifoa's Journey"; "Getting Pure Gold from the Pilgrimage to Paris"; Freedom; Justice.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о роли Рифаата ат-Тахтави, великого мыслителя восточного мира, в арабском возрождении. Анализируются политические, религиозно-философские идеи Рифаата ат-Тахтави. Рифаат ат-Тахтави, глубоко понимая перемены, происходящие в его время, поднял актуальные проблемы.

Ключевые слова: *Рифоа ат-Тахтави; Восточный философ, «Путешествие Рифоа»; «Получение чистого золота из паломничества в Париж»; Свобода; Справедливость.*

KIRISH

Misr ma‘rifatparvarlik harakatining ilk vakillaridan bo‘lmish Rifoa Badaviy Rafi at-Taxtoviyy 1825-yilda xadiv Muhammad Ali davrida Fransiyaga boradi. Al-Ahzar madrasasida tahsil ko‘rgan, to‘la-to‘kis diniy ma‘lumotga ega bu shayx Parijda fransuz tilini o‘rganadi, madaniyati bilan tanishadi, ayniqsa Vol‘ter, Russo,

Montesk`e asarlari unda chuqur taassurot qoldiradi. 1830-yil iyul inqilobining guvohi bo`ladi va o`ziga tegishli xulosalar chiqaradi.

Misrga qaytib kelgach, ilm-ma`rifat tarqatish sohasida keng ko`lam olgan harakatga qo`shiladi va uning taniqli namoyandalaridan biriga aylanadi.

Shu kezlari Misrda “al- Vaqoi al-Misriya” nomi bilan ilk bor arab tilida ro`znoma chop etila boshladi. Shayx unga muxarrirlik qila boshlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

At-Taxtoviyy va uning atrofidagi ilg`or ziyolilarning faoliyati ko`magida Yevropa tillaridan 2000 dan ziyod asarlar arab tiliga o`giriladi. Ular orasida fan-texnika, madaniyat, san`at, xarbiy ish, qurilish, ta`lim-tarbiya va boshqa ko`plab sohalarga bag`ishlangan asarlar, o`quv qo`llanmalari, qomuslar tarjima qilindi va nashr etildi. Bular hammasi kelajak arab ziyolilarning shakllanishiga katta turtki bo`lgan. Fransiya sayohatidan olgan taassurotlarini “Rifoa sayohati”⁴¹ nomli asarida aks ettirib, Rifoa at-Taxtoviyy o`zini ilg`or mulohazalarini to`la namoyon qildi. Bu asarning to`la nomi “Parij ziyoratidan sof oltin olinishi”dir (“Taxlis al-ibriz fi talxis Bariz”(1834)). Bunda muallif Fransiyani Misr uchun ibratli manba va o`rnak sifatida tan olib, u yerda o`rnatilgan tartiblar, urf-odatlar, ta`lim tizimi, qo`yilgan ilmiy ishlar darajasi va uslublari, jamiyatning siyosiy tashkil etish tarkibi haqida so`z yuritadi.

At-Taxtoviyy musulmon dunyosini jahon ma`naviy madaniyati o`chog`i deb hisoblasada, lekin fransuz maorif tizimi afzalligini tan oladi va Yevropa ta`lim tizimini o`z mamlakatida qo`llanilishi, ayniqsa, o`quv yurtlarda ratsionalistik fanlar kiritilishi zarurligini isbotlaydi. Asarda Fransiyadagi mavjud siyosiy institutlar, liberal harakati va konstitutsion boshqarish haqida batafsil yoritiladi.

At-Taxtoviyy fikricha, Lyudovik XVIII ning konstitutsion xartiyasi “adolatli”dir. “Unda yozilgan ko`p narsalarni siz Qur`onda ham, sunnada ham topolmaysiz, lekin ular tushungan narsa, ya`ni adolat va qonuniylik davlat ravnaqi va xalqlar farovonligining vositasidir... “Adolatlik – tamaddunning asosidir”ligini siz ham tushuna olasiz. Fransuzlar “erkinlik” so`zini biz “adolatlik” tushunchasining ma`nosini tushunganimizdek tushunishadi”⁴². Shu tariqa at-Taxtoviyy “erkinlik” degan yangi tushunchani anglashga harakat qildi va siyosiy g`oya sifatida talqin etdi.

Keyinchalik 70-nchi-yillarda at-Taxtoviyy “erkinlik” tushunchasini besh ko`rinishdagi inson mavjudligining muhim omili erkinlik insonning tabiiy xolati sifatida, o`zini tutish erkinligi, e`tiqod erkinligi, fuqaroviy va siyosiy erkinligi sifatida

⁴¹Bu asar haqida qarang: Н.Кахарова “Путешествие в Париж Рифаа ат-Тахтави”. Душанбе 1968г.

⁴² Qarang: Левин З.И. Развитие основных течений общественно-политической мысли в Сирии и Египте М.1972. 28 б.

tahlil qildi.⁴³ At-Taxtoviyy xartiyaning asosiy bandlariga batafsil o‘z sharhini beradi. Birinchi bandining (“Hamma qonun oldida barobardir”) sharhida undagi bor tamoyilni yuqori baholaydi: bu tamoyil adolatli jamiyat o‘rnatish, tahqirlanganga yordam berish, past tabaqali insonga o‘z intilishlarini qoniqtirish, qonun oldida u ham baland turganligini sezish uchun qaratilgandir. At-Taxtoviyy insonlarning qonun oldida barobarligini tan oladi va bu, uningcha, sharq hukmdorlarining o‘zini nazorat qilmasligiga chek qo‘yadi. At-Taxtoviyy Muhammad Ali ga chin dildan xizmat qilsada, uning fikricha Oliy hukm xudodandir, qo‘l ostidagilar so‘zsiz o‘z hukmdoriga itoat qilishi kerak, lekin hukmdor ham qonunga bo‘ysinishi lozimdir.

Fransiyadagi iyul inqilobiga bag‘ishlangan bobida at-Taxtoviyy 1789-yilda sodir bo‘lgan Ulug‘ fransuz inqilobi tarixi bilan tanishtiradi. Bu inqilob, at-Taxtoviyy fikricha, ikki partiyalarning to‘qnashuvi natijasidan kelib chiqqan. Ulardan biri, qirol-to‘la hokimlikka ega hukmdordir, degan fikrda bo‘lgan, boshqasi esa-qirol qonun ijrochisi bo‘lishi shartdir, deb xisoblagan. Albatta, Muhammad Ali davrida Misrdagi adolat va qonuniylik masalasi ma‘rifatli kishini qiziqtirishi tabiiy xoldir. “Fransuz qirol hoxlaganini qiladigan mutlaq hukmdor emas. U qachongacha har xil assambleyalar a‘zolari qabul etgan qonunlarga muvofiq ish tutsada qirolligicha qolishi mumkin... Parlament xalq huquqlarini himoya qiladi.”¹⁹ Kitobda Fransiya siyosiy hayoti, parlament va saylov tizimi haqida batafsil bayon etiladi. “Xalq hukumat boshqaruvida faol qatnashishi zarurdir” degan tezis at-Taxtoviyyning boshqa asarlarida ham o‘z aksini topadi. Shunday qilib at-Taxtoviyy arablardan birinchi bo‘lib hukmdorlar qonunga bo‘ysinishi kerakligini, ularning asosiy vazifasi xalq huquqlari ta‘minlanganligini nazorat qilishdir, degan g‘oyani ilgari suradi.

70-yillarda at-Taxtoviyy o‘z davri uchun yangi bo‘lgan tezisni – qonunlarni hayot talablariga muvofiqlashtirish kerakligini ko‘taradi. Bu shariatga ham taalluqligini ta‘kidlaydi. Keyinchalik shariatni o‘zgarayotgan sharoitlarga moslashtirish lozimligini islom islohchilari o‘zlarining asosiy tezisiga aylantirishdi. Fransuz xartiyasini talqin qilish borasida muallif Arab Sharqida birinchi bor fransuz inqilobi tamoyillarini Qur‘on va sunna bilan hamohangligini ko‘rsatishga harakat qilgan. Bunday harakatlar 40-yillardagi arab musulmon jamiyati uchun yangi bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar an‘anaviy shaklda qabul etilishi zarur bo‘lgan, G‘arbdagi yangi ijtimoiy – siyosiy fikrlar, tushunchalar o‘z vatandoshlari uchun naqadar muhimligini tushunib, at-Taxtoviyy ularni hadislar, oyatlar, islomiy atamalar orqali musulmonlar tasavvuriga singdirishga harakat qilgan. At-Taxtoviyy shunday xulosaga keladiki, Fransuz tafakkuridagi va arab an‘anasidagi erkinlik, tenglik, adolatlik, birodarlik tushunchalari bir ma‘noga egadir. U tabiiy huquqlar va shariat asoslari o‘rtasida deyarli farq yo‘q,

⁴³ 18 Qarang: Levin Z.I. O‘sha asar. 27 b.

Yevropa ijtimoiy tizimining shakllari musulmonlarga azaldan tanish va yaqin, islomga zid emasdir, deb ta'kidlaydi.

O‘z asarida at-Taxtoviy qaynab turgan Parij hayotini ta'riflab, uning teatrlari, kechki sayillari haqida o‘z taasurotlarini yozadi. Ayniqsa fransuz teatrlari uni hayratda qoldirardi. “U yerda hayotda sodir bo‘lishi mumkin – yaxshi va yomon, quvnoq va g‘amgin narsalarni aks ettirishadi. Odamlar ko‘rishadi, eshitishadi, kulgi va ko‘z yoshlari bilan bu tomosha orqali saboq olishadi. Fransuzlar iborasiga ko‘ra, teatr odob-ahloqni tanqid qiladi va tuzatadi; namoyish tugashi bilan pastga tushadigan pardada to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Teatr – odob maktabidir” deb yozilgandi.”⁴⁴

Umuman at-Taxtoviy Fransiyadagi madaniyat, fransuzlarning odob-axloqi, ularning hamma narsani mukammallashtirishga intilgan hususiyatlari haqida to‘lib-toshib, havas bilan aks ettirishga harakat qiladi. Fransuzlarning turmush tarzini tasvirlar ekan, “Fransuzlarning ovqatlanish tartibi”⁴⁵ qismida ularning ertalabki nonushtasi, kunduzi ovqatlanishi, tushligi haqida, stolda vilka, pichoq, qoshiqning turish tartibi, vino, choy ichish tartibi to‘g‘risida batafsil tushuncha beradi. “Parij istirohat bog‘lari”⁴⁶ qismida shahar istirohat bog‘lari, parklari go‘zalligi, u yerda fransuzlar yakshanba yoki boshqa kunlari kechqurun qanday dam olishlari, sayil qilishlari haqida so‘z yuritiladi. Parijda yashagan davrda at-Taxtoviy ko‘p falsafiy, ijtimoiy-siyosiy asarlar bilan qiziqqan. Falsafa sohasida u fransuz faylasufi, psixologi Kondil`yak (1715-1783) asarlari bilan yaqindan tanishgan, ayniqsa uning uch tomdan iborat bo‘lgan “Sezgilar haqida risola”si uning diqqat-e’tiborini jalb qilgan. At-Taxtoviy fikricha, Kondil`yak Aristotel` logikasini qayta ishlab chiqqan. XVIII asr fransuz faylasuflar orasida u Volter nomini hurmat bilan tilga oladi va uning ko‘pgina asarlarini o‘qigan. Fransuz belletrist va tarixchi faylasufi Monteske (1689- 1755) asarlarini katta qiziqish bilan o‘qigan, ayniqsa uning “Forsiy maktublar”, “Qonunlar ruhi” ta'sir etgan. Monteskeni at-Taxtoviy fransuz Ibn Xalduni, yoki Ibn Xaldunni musulmon Monteskesi, deb ataydi. J.J.Russoning “Ijtimoiy bitim” asariga yuqori baho beradi.

Umuman olganda at-Taxtoviy o‘z vatandoshlarini Yevropadagi bilimlarni o‘zlashtirishga da'vat etadi, uning fikricha, Yevropa fani Qur'on va islomga zidmasdir. Rifoa at-Taxtoviy she'rlar ham yozgan, ularda fransuz she'riyatining ta'siri seziladi. At-Taxtoviy mashhur fransuz gimni “Marselyeza”ni arabcha tarjimasini qilgan Rifoa at-Taxtoviy Misrda birinchi ayollar maktabini ochdi va u “Qizlar va o‘g‘illar uchun qo‘llanma” (1872) darsligini yozdi. Bu kitobda yoshlarni vatanparvarlik ruhida

⁴⁴ Qarang: Крымский А.Е. История новой арабской литературы. XIX –нач XXвв М. 1971. 166б.

⁴⁵ Qarang: Jamal Ad-Din Ash-Shayal. Rifaa Rafii at-Taxtaviy Navabig‘u al-fikri al-arabiy. N24 Qohira: - 72-bet.

⁴⁶ Qarang o‘sha asar. – 75-bet.

tarbiyalashga katta ahamiyat bergan. Ijtimoiy manfaatlarni inson o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yishi kerakligini ta'kidlagan. At-Taxtaviy Ali Muborak bilan birga o'quv dasturiga shahsni tarbiyalash zarurligi masalasini kiritishga harakat qilgan.

At-Taxtaviy zamondoshlari uning to'g'risida ko'p iliq so'zlar yozishgan, xush muomala, xush fe'l, ajoyib inson deb ta'riflashgan. Masalan, Solih Magdiy u haqda bunday yozgan: "Rifoa bag'ri keng, ochiq qo'l, Benazir notiq, odobli, kamtar va saxiy inson bo'lgan. U kam uxlar, ko'p ijod bilan shug'ullanar va tarjimalar qilardi..."⁴⁷. At-Taxtaviy arab madaniyati, uning tafakkuri rivojiga katta hissa qo'shgan uchun uni arab adabiyotida haqli ravishda "Misr madaniy tiklanishining yetakchisi"⁴⁸, deb atashadi.

XULOSA

Rifoa at-Taxtaviy xalq ommasi orasida ma'rifat va madaniyat tarqatish, arab matbuoti va kitob nashr etishni tashkil qilish, arablarni boshqa xalqlar, hususan, fransuz xalqining fan-texnikasi, adabiyoti, ijtimoiy-falsafiy tafakkuri bilan tanishtirish ishlari va ijodi bilan Misr ijtimoiy tafakkurining rivojlanishi va mahalliy ziyolilarining shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan yirik ma'rifatparvarlardan biri.

REFERENCES

1. Хорижий Шарқ халқларининг илғор ижтимоий фалсафий фикрлари тарихи очерки. – Тошкент: Фан, 1971.
2. Фалсафа. Аҳмедова М. таҳрири остида. – Тошкент: Шарқ, 2006.
3. Наджип Э. Международные мусульманские организации. – М., 1968.
4. Ислам и современность. – Тошкент, 2010.
5. Философия и религия на Зарубежном Востоке. XX век. – М., 1985.
6. Ислам в истории народов Востока. – М., 1978.
7. Sayyid Jamal ad-Din "al-Afghani" A Political Biography by NIKKI R. KEDDIE.
8. Hayreddin Karaman, "Cemaleddin Efgani", DİA, Ankara 1993, VII, 462.
9. Aziz Al-Azmeh, İslamlar ve Moderniteler (Çev.:Elçin Gen), İstanbul 2014, 162.
10. Hülya Küçük Sevil, İttihat Terakki Döneminde İslamcılık Hareketi 1908-1914 (Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Basılmamış Doktora Tezi), Ankara 2005, 59.

⁴⁷ Qarang: Jamal Ad-Din Ash-Shayal. Rifaa Rafii at-Taxtaviy Navabig'u al-fikri al-arabiy. N24 Qohira: - 1-bet.

⁴⁸ Rifaa at-Taxtaviy jisr al-xadara al-jadida, Bayrut. 1975.

ABU NASR FAROBIYNING IJTIMIY-SIYOSIY FALSAFASIDA ERKINLIK FENOMENINING TAHLILI

Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi

“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti

katta o‘qituvchisi, PhD

ruzmatova.dilnavoz@gmail.com

+998 90 805 71 80

ANNOTATSIYA

Maqolada sharq perepatetizm yo‘nalishi vakillaridan biri Abu Nasr al-Farobiyning ijtimoiy-siyosiy sohadagi fikrlarida erkinlikni tuslanishi va uning inson faoliyatidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, davlatning nomukammal ko‘rinishlarini turkumlarga bo‘lib, ularni har biriga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Faylasufning har bir turkumdagi johil shaharlarni o‘ziga xosliklari haqidagi qarashlarida erkinlikni roli o‘rganilgan. Uning nuqtayi nazari antic mumtoz falsafasining vakili Platon fikrlari bilan solishtirilgan. Ular o‘rtasidagi bog‘liqlik komparativistik metod orqali tahlil etilgan. Jamiyat to‘g‘risidagi qarashlari o‘rganilish jarayonida erkinlikni insonlarga ta’siri qay tarzda bo‘lishi haqidagi xulosalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: erkinlik, qalb, aql, erkin tanlov, iroda, taqdir, istak, azob-uqubat, lazzat, moddiylik, hokimyatsevarlik, shuhratparastlik, idrok, johil shahar, fozil shahar.

ABSTRACT

The article describes the interpretation of freedom and its place in human activity in the socio-political thoughts of Abu Nasr al-Farabi, one of the representatives of the Eastern Perepathetism direction. Also, the imperfect views of the state are divided into categories, and each of them is discussed separately. The role of freedom in the views of the philosopher on the characteristics of ignorant cities in each category is studied. His point of view has been compared with the thoughts of Plato, a representative of ancient classical philosophy. The relationship between them was analyzed using the comparative method. In the process of studying the views of the society, the conclusions about the influence of freedom on people were considered.

Key words: freedom, heart, mind, free choice, will, fate, desire, suffering, pleasure, materiality, power, ambition, perception, ignorant city, virtuous city.

KIRISH

Erkinlikni antik davrdagi tuslanishini ko‘rib chiqish jarayonida shunga amin bo‘lish mumkinki, uning sarmazmunligi o‘z davrining chegarasidan chiqib keyingi davrlarda ham aktual masala sifatida qoladi. Shuni hisobga olgan holda falsafa tarixidan sezilarli va o‘ziga xos o‘rin egallagan arab-musulmon falsafasini ham erkinlik fenomeni chetlab o‘tmagan. Ayniqsa, yunon klassik falsafasini o‘rgangan va ularning merosiga sharhlar qoldirgan sharq peripatetizmi vakillarini ta’kidlab o‘tish joiz.

Jumladan, arab-musulmon falsafasining ilk vakillaridan bo‘lgan Abu Nar Farobiy jahon falsafasi tarixida “sharq peripatetizmi” deb shartli nom olgan butun bir yo‘nalishni boshlab bergan mutafakkirlardan biridir. Bu atamada uning manbasi qayerdan olinganini his etish qiyin emas. Bu bilan Abu Nar Farobiy Arab xalifaligidagi falsafaning chegaralarini asosan Aristotelning ratsional-falsafiy, Platonning ijtimoiy-siyosiy tendensiyalariga tayangan holda belgilab bergan. Antik davr falsafa tarixidan ma’lumki, peripatetiklar aynan Aristotelning shogirdlari va izdoshlariga nisbatan qo‘llanilgan. U ma’ruzalarini doim shogirdlari bilan bog‘da sayr etib o‘tkazgan. Shu tufayli uning maktabi aynan perepatetizm⁴⁹ deb nom olgan. Maktabning boshqa nomi “Likey” (Λύκειον; O‘rta asr yoki an’anaviy lotin talaffuzida litsey), Aristotel dars bergan gimnaziya yonida joylashgan Apollon Likiy ibodatxonasi nomi bilan bog‘liq. Lekin Gegel o‘zining “Falsafa tarixi bo‘yicha ma’ruzalari”da bunga biroz boshqacha yondashib, Aristotel maktabi “peripatetik” deb nomlanganini uning sayr qilib dars o‘tishi bilan bog‘liq emasligi, Stagirit (Aristotel) uni sotib olib, u yerda maktab ochishdan oldin Likeyni Perikl sayr etish uchun atayin jihozlaganligini ta’kidlaydi⁵⁰. Aynan shu tufayli likey yoki perepatetizm nomlarini boshqa joylarda uchratish Aristotel qarashlari va merosi bilan bog‘liq mazmunga ega bo‘lgan ma’lumot sifatida gavdalanadi. Bundan tashqari, Farobiy jamiyatda qanday fazilatli insonlar yashashi haqidagi nuqtai nazariga tayanib, insonlarni fe‘l-atvorini yoritib bergan.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Sharq perepatetizmi falsafasining yirik namoyandasi, Platon va Aristotel asarlarining tahlilchisi Farobiy ijodi falsafiy, ijtimoiy, tarixiy adabiyotlarda, jumladan, falsafa tarixida ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan o‘ziga xos uslubda, o‘z zamonasiga mos ravishda atroflicha tahlil qilib berilgan. Bunga ko‘plab misollarni keltirishimiz va ularning durdona fikrlaridan bugungi kun talabiga to‘liq javob bera

⁴⁹ Peripatetizm, peripatetik maktab (yunon. peripateo-yurish, peripatetikos-sayr etish) - Aristotel tomonidan asos solingan falsafiy maktab bo‘lib, u ma’ruzalarni o‘qiyotganda tinglovchilari bilan bog‘da sar etib yurish kabi odati bo‘lgan.

⁵⁰ Гегель Г. Лекции по истории философии. - Гегель. Сочинения - Том X. - М., Партиздат, 1932. - С. 231-232.

oladigan yechimlarni ham topishimiz mumkin. Shuningdek, Farobiyning ijodini har tomonlama yorituvchi A.X.Kasimjanov [15], A.D.Azerbayev [10], N.V.Yefremova [14], Fr.Dieterici [1], M.Fakhry [2], M.M.Xayrullayev [16] va boshqa tadqiqotchilar ishlarini, risolalarini, maqolalarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan ijtimoiy-falsafiy tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, falsafa tarixiga, ruhiy tahlilga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda foydalanish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sharq perepatetizmini tizimlashtiruvchisi sifatida esa Abu Nasr Farobiy⁵¹ namoyon bo'ladi. U Aristotelning tirik qarashlarini ilib olgan va rivojlantirgan, mantiqiy bilimlarini o'z falsafasida qo'llagan. "Farobiy – barcha hayotiy tomonlarning hammasini o'ziga qamrab oluvchi falsafiy qarashlar tizimini topadigan birinchi sharq arab-musulmon falsafasining mutafakkiri sanaladi" [15, 219].

Shu bilan birgalikda erkinlik fenomeni Farobiyning siyosiy-ijtimoiy qarashlaridan ham joy olganini aynan shu boradagi falsafiy nuqtai nazaridan bilib olish mumkin. "Fuqarolik siyosati"⁵² risolasida u jamiyatdagi odamning tabiati bo'yicha darajalarga bo'linishi haqida og'iz ochadi. Shunda Farobiy o'zining qarashlarida jamiyat haqidagi tasavvurlarini Platon qarashlariga yaqinlashgan holatda shakllantiradi. U davlat va jamiyatni bir-biridan ajratadi. "Jama'a" (jamoat, jamiyat), "madina" (shahar) tushunchalarini qo'llaydi. Farobiy yuqorida aytganimizdek xuddi Platondan jamiyatni paydo bo'lish va rivojlanish sababini moddiy va ruhiy talablarini

⁵¹ Farobiy (taxallusi; to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Farobiy) (873, Farob shahri — 950, Damashq) – O'rta Osiyoning mutafakkiri va qomusiy olimi. Yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ'ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o'zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgani uchun "al Muallim assoniy" ("Ikkinchi muallim", Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" nomlariga sazovor bo'lgan.

⁵² Asl nusxada ushbu asar "Kitob as-siyasa al-madaniya" - kitob "Fuqarolik siyosati" deb nomlangan. As-siyasa al-madaniya atamasi "shahar siyosati", "fuqarolik siyosati" va "davlat boshqaruvi" atamalari bilan bir xil ma'noga ega. Platonning politeia atamasiga mos keladigan ikkinchi nom tanlanish uchun loyiq. Farobiy "fuqarolik siyosati" atamasini juda keng tushunadi: bu davlatshunoslik, axloq va tarbiya san'ati hisoblanadi.

Ushbu asar o'zining tuzilishi va mazmuni jihatidan "Fozil odamlar shahri" risolasiga, matnlarning so'zma-so'z mos kelishiga qadar juda o'xshaydi. Farobiyning yirik biografi Ibn Abu Useybi'a (1265-yilda vafot etgan) o'z "Uyun al-Anba Fi tabakat al-atibba' – "Shifokorlar darajalari to'g'risidagi ma'lumotlar manbalari" (nashr. Müller. - Königsberg, 1884, II jild, 138-139-betlar) nomli ishida yozishicha, Farobiy "Fozil odamlar shahri" risolasini Bag'dodda yozishni boshlagan va 942 yilda Damashqda tugatgan. Keyinchalik u ushbu asarni qayta ko'rib chiqqan va boblarga ajratgan va 948 yilda Misrda bo'lganida u kitobni oltita katta bo'limga ajratgan. "Fozil odamlar shahri" haqiqatan ham boblarga bo'lingan va Useybi'a yozgan ma'lumot bu risola to'liq matn bo'lib, "Fuqarolik siyosati" kitobi birinchi variant deb taxmin qilishga majbur qiladi. Xuddi shu fikrga ingliz olimi D.M.Dunlop ham keladi.

qondirishdagi insonlarning ehtiyojida ko‘radi. Lekin bu ikki mutafakkir qarashlarida farq mavjud. Platon o‘zining nuqtayi nazarida “davlat” tushunchasi bilan “jamiyat” tushunchasini aynanlashtirgan. Farobiy esa ular o‘rtasida sezilarli farq bor deya ta’kidlaydi. Jamiyat uning fikricha, davlatsiz ham o‘zi mustaqil mavjud bo‘la oladi. Ammo davlat jamiyatsiz barpo etila olmaydi. “Inson jamiyati”, “shahar”, “fozil shahar”, “shahar birlashmasining asosiy vakili”, “johil shahar” kabi tushunchalarni tahlili uning “Fozil odamlar shahri” nomli risolasida o‘tkazilgan.

Demak, Farobiyning jamiyat bilan bog‘liq fikrlarini ko‘rib chiqish jarayonida uning erkinlikni jamiyatdagi amaliy o‘rniga bo‘lgan munosabatini anglash qiyinchilik tug‘dirmaydi. Buni asosi esa uning “johil shahar” atamasi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tizimida ko‘rinadi. Uning nomukammal jamiyatlariga johil (*johiliya*), fosih (*fasiha*), o‘zgaruvchan (*mubadila*) va adashgan (*dalla*) kabi nomlanuvchi birlashmalar kiradi. Fozil shaharlarda esa hamma odamlar fazilatli bo‘lavermaydi. Ularning orasida Farobiy “ajriq” (*nauabit*)⁵³ deb atagan kishilar ham uchraydi, lekin ular shahar fuqarosi sanalmaydilar. Shu bilan birga shahar aholisi orasida “yovvoyilar” deb ataluvchilar ham istiqomat qiladi [14, 176-199].

Yuqorida keltirilgan birlashmalardan eng yomoni johil shahar hisoblanadi. Ular Farobiy talqin qilgan baxtga hech qachon erisholmaydiganlar, agar mobodo ularga u taqdim etilsa ham mutlaqo rad etadiganlar qatoriga kiradi. Mutafakkir ularni qadriyatlar haqida so‘z ochar ekan, ular o‘tkinchi xarakterga ega ekanligini ta’kidlaydi. Bunday vaqtinchalik qiymatga ega bo‘lgan qadriyatlar qatoriga sog‘liq, boylik, lazzat, o‘zboshimchalik va shuhrat kabilarni kirgizadi. Ularga qarama-qarshi keluvchilarni esa baxtsizlik deb qabul qiladilar [11, 179].

O‘z navbatida Farobiy johil shaharni olti xil turkumga bo‘lib tahlil etadi. Ularga zaruriyat shahri (*al-madina ad-daruriyya*), ayirboshlash shahri (*al-madina al-baddalya*), tubanlik shahri (*madinat al-xissa va-s-sukut*), shuhratparastlik shahri (*madinat al-karama*), hokimiyatsevarlik shahri (*madinat at-tagallyub*), jamoaviy shahar (*al-madina al-jama‘iyya*) yoki erkin shahar (*madinat al-axrar/al-xurriyya*) kabilar kiradi.

Platonning “Davlat”ida johil shaharning turlari va ularning sifatleri haqida aniq ma’lumotlar keltirilmaydi [13, 130]. Zaruriyat shahri aholisi intelktual mukammallikka, absolyutga intilmaydilar. Ular uchun tana istaklari va ehtiyojlari

⁵³ *Nauabit* – “tom ma’noda o‘shir”, “yosh avlod”, bu kontekstda “yetilmagan shaxslar” ma’nosida qo‘llaniladi. Bular turli davlatlarda tarqalgan va shu sababli haqiqiy baxtga erishish huquqlari va imkoniyatlaridan mahrum bo‘lgan individlardir. Ushbu individlar Ibn Bojida muhim rol o‘ynaydi, u ularni *guraba* – “chet elliklar” va *mutauahhidun* – “individlar” bilan tenglashtiradi. Farobiydan farqli o‘laroq, Ibn Bojining individi yolg‘izlikda va hatto nomukammal davlatlarda ham baxtga erishadi. Ibn Rushd Farobiyning qarashlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu yerda Diteritsining *Beamte* – “xizmatchi”, “amaldor” va boshqa joylarda *Stellvertreter des Könige* – “qirol, monarx o‘rinbosari” kabi tarjimasi aniq muvaffaqiyatsizdir.

barcha narsalardan ustun turadi. Ya'ni ular tanalarini saqlab, mavjudligini qo'llab-quvvatlab turishlariga zarur bo'ladigan ovqat, ichimlik, kiyim-kechak, uy-joy, jinsiy yaqinlik kabi narsalarga ega bo'lishlari uchun dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, talonchilik, san'at va hunar kabi faoliyatlarni olib boradilar [11, 179]. Agar keyingi ayirboshlash shahriga to'talib o'tadigan bo'linsa, unda Farobiyning qarashlari Platonning asaridagi oligarxiya hokimiyat turi haqidagi fikrlariga yaqinlashadi [13, 335]. Ushbu shahar aholisi uning qayerdan va qanday qilib kelishiga qaramasdan boylik to'plash bilan band bo'ladilar. Bu yerda ular uchun faqat moddiy ne'matlar qiziqish uyg'otadi. Ular moddiy boyliklarni zaruriyat shaharlaridan barcha usullar orqali qo'lga kiritadilar. Bundan tashqari bu usullar qatoriga yana ixtiyoriy ravishdagi kelishuvlar, ya'ni savdo-sotiq, ijara kabi yo'llar ham qo'shib boradi [11, 140].

Navbatdagi shahar bo'lgan tubanlik shahrida ham yuqoridagi shaharlardan farq qilmagan holatda o'zining tana va moddiy ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladilar. Ular moddiylikka boshqalar kabi zaruriyatdan, ochko'lik yoki xasislikdan, kibrdan emas, balki faqat lazzatlanishning o'zidagina kelib chiqib intiladilar. Ularga tananing zaruriyati va foydasi umuman qiziqitirmaydi. Lazzatlanishning o'zidan zavqlanadilar. Johil shaharlarda istiqomat qiluvchi aholi orasida ushbu birlashma doimo baxtli va istalinuvchi sanaladi. Chunki uni maqsadi zaruriy narsalar va boyliklarga erishilganidan keyingina amalga oshadi [11, 180].

Har ikki til tafakkuridagi daraxt va mevalar bilan bog‘liq fitonimlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, inson ijobiy xususiyatlarini aks ettirishda ko‘proq mevali daraxtlarga qiyoslanilsa, kishining salbiy qiyofasini ifodalashda esa asosan, daraxtning kesilgan tanasi, o‘tin yoki to‘nka bilan bog‘liq birliklar orqali ifodalanadi.

⁶⁸<http://www.uzbekshe‘rlari.uz>

Ushbu turdagi qiyosiy tadqiqotlar taqqoslangan tillarning milliy-madaniy xususiyatlarini, shuningdek ma’lum bir tilda so‘zlashuvchilarning milliy mentaliteti va dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Shunday qilib, fitonimik nominatsiyalar o‘zbek va turk tillarida insonning ichki dunyosi va tashqi ko‘rinishini belgilashda keng qo‘llanadi va ba’zi hollarda insonning har qanday xususiyatlariga (tashqi qiyofasi, aqliy qobiliyatlari, ichki hissiy holati, Yoshi, kasbi, ijtimoiy holati) o‘ziga xos standart bo‘lib xizmat qiladi.

Har ikki til tafakkuridagi daraxt va mevalar bilan bog‘liq fitonimlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, inson ijobiy xususiyatlarini aks ettirishda ko‘proq mevali daraxtlarga qiyoslanilsa, uning tashqi ko‘rinishi manzarali daraxt nomlariga qiyoslanadi. Insonning ijobiy yoki salbiy xarakterlari esa shirin va achchiq meva nomlari yordamida ham aks ettiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, gul, o‘t-o‘lan, sabzavot va poliz mahsuloti bilan bog‘liq nomlar orqali kishining ijobiy xarakter-xususiyatlarini ham, salbiy xarakter-xususiyatlarini ham ifodalashi mumkin. O‘simliklarning ushbu turlari bilan inson har kuni to‘qnash keladi va u inson ongida oson saqlanadi. Shu bois biror kishini ta’riflashda ulardan foydalanish juda qo‘l keladi. Insonlar muloqotida biror kishini ta’riflashda uning nozik jihatlarini gavdalantirish va yaqqolroq namoyon etishda gul, o‘t-o‘lan, sabzavot va poliz ekini nomlari alohida o‘rin tutadi.

Har ikki tilda inson ijobiy xususiyatlarini aks ettirishda ko‘proq gullardan foydalanilsa, kishining salbiy qiyofasini ifodalashda esa, asosan, o‘t-o‘lan va poliz ekinlari nomi bilan bog‘liq fitonimlarga murojaat qilingan.

O‘zbek tilida esa behi orqali inson tasvirlanmaydi, “qorni qopday” yoki “tarvuz yutib olganday” o‘xshatishli birikmalaridan foydalaniladi. Bunga qardosh tillar orasidagi farq sifatida qarash mumkin.

Turk xalqi lingvomadaniyatida zaytun fitonimi katta o‘rin tutadi. Zaytun qora bo‘lishi bilan birga, ham foydali ham mazali bo‘lgani uchun “zeytin gibi” o‘xshatishli birikmasi qorachadan kelgan, istarali qizlarni ta’riflashda ishlatiladi.

Shuningdek, quruq meva nomlari har ikki xalq lingvomadaniyatida keng foydalaniladigan inson obrazini ifodalovchi fitomorf birliklar hisoblanadi. Fıstık yong‘og‘i kishilar orasida sevgilisini yoxud yosh bolani erkab chaqirishda “fıstıgım” shaklida qo‘llanadi, shirinligiga qiyoslanadi. Xalq orasida “çekirdekten yetişme” iborasi ham keng tarqalgan bo‘lib, tug‘ma iste‘dodli insonga ko‘ra nisbatlanadi. Bu fitonim çekirdek-pista bo‘lib, turk xalqi yashash tarzining ajralmas qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Deyimler Sözlüğü. – İstanbul: İnkilap Kitabevi, 1995. 1205- S.
2. Esenal M. Türkçe Sözlük. – Ankara. 2010.
3. Kemal Y. Türkçe Sözlük. – Ankara. 2010. 1088- S.
4. Ortaç Y. Türkçe Sözlük – Ankara, 1999. 206- S.
5. Türkçe Sözlük. I-II. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basım Evi, 1988. 745-S
6. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. 153- B.
7. Ахметова Э. Названия овощей и фруктов в татарском языке // Автореф. канд. филол. наук – Казань, 2012. 229- С.
8. Бурганова Н. О татарских народных названиях растений // Вопросы лексикологии и лексикографии – Казань, 1976.141- С.

MORTIMER ADLERNING FAOL O'QISHNING METOD VA USULLARI VA ULARNING TANQIDIY FIKRLASHDAGI O'RNI

Suyunova Noila G'ayrat qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti "Falsafa va mantiq" kafedrası magistranti

suyunovanoila03@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Mortimer Adlarning faol o'qish metod va usullari batafsil ijodiy va falsafiy tahlil qilinadi. Mortimer Adlarning mutolaa qilishning yangi metodlari xususiyatlarining ahamiyatini hozirgi davr nuqtai nazardan ochib beriladi, shuningdek ushbu maqolada Mortimer Adlarning faol o'qish usullari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi ijobiy rolga alohida diqqat qaratiladi.

Kalit so'zlar: *faol o'qish, analitik o'qish, Sokratik usul sintopik o'qish, sintopikon, Aristotel-tomistik an'ana, tanqidiy fikrlash*

МЕТОДЫ И МЕТОДЫ АКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ МОРТИМЕРА АДЛЕРА И ИХ МЕСТО В КРИТИЧЕСКОМ МЫШЛЕНИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье творчески и философски подробно анализируются способы и методы активного чтения Мортимера Адлера. Раскрывается важность особенностей новых способов чтения Мортимера Адлера с точки зрения текущей эпохи, чему в данной статье уделяется особое внимание. Акцентируется внимание на положительной роли методов активного чтения Мортимера Адлера в развитии критического мышления.

Ключевые слова: *активное чтение, аналитическое чтение, сократический метод, синтопическое чтение, синтопикон, аристотелевско-томистическая традиция, критическое мышление..*

MORTIMER ADLER'S METHODS AND METHODS OF ACTIVE LEARNING AND THEIR PLACE IN CRITICAL THINKING

ABSTRACT

This article, Mortimer Adler's active reading methods and methods are analyzed in detail creatively and philosophically. The importance of the features of Mortimer Adler's new methods of reading is revealed from the point of view of the current era, and in this article, special attention is paid to the positive role of Mortimer Adler's active reading methods in the development of critical thinking. is focused.

Key words: *active reading, analytical reading, Socratic method, syntopic reading, syntopicon, Aristotelian-Thomistic tradition, critical thinking.*

KIRISH

Mortimer Adlarning faol o'qish usuli kitobni yanada samaraliroq o'qishga asos bo'lib xizmat qildi. Sababi uning mutolaa haqidagi nodir maslahatlari hozirgi global svilizatsiyalar davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ammo ba'zi olimlarning fikrlariga ko'ra Mortimer Adlarning analitik o'qishi cheklangan tizim deb baholanmoqda. Shundan kelib chiqqan holda Mortimer Adlarning faol o'qish metodini tanqidiy va falsafiy nuqtayi nazardan baholashga zarurat tug' ilmoqda. Albatta bu metodning xususiyatlari va kamchiliklari, boshqa shu turdagi metodlardan farqli jihatlarini to'liq asoslash va qiyoslash orqali yuzaga chiqadi deb hisoblaymiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqori sifatli o'qish qobiliyati insonga intellektual rivojlanish, targ'ibotni farqlash, manipulyatsiyani tan olish va soxta hokimiyatlarga berilmaslik qobiliyatini beradi. Har qanday biznes singari, o'qish ham tayyorgarlikni talab qiladi. Nasser Jose Monir aytganidek "o'qish mavzusiga juda ko'p hissa bor, lekin faqat Mortimer Adlerdan mavzu muntazam va har tomonlama yoritilgan, bu uchun asosiy janrlar amal qiladi. Adler to'rt darajali vertikal o'qish (elementar) bilan matritsa ishlab chiqdi, analitik va sintopik), ortib borayotgan chuqurlik va gorizontalar o'qishning oltita janri bilan (she'riyat, teatr, Nasr, tarix, fan va falsafa)"⁶⁹. Mortimer Adlarning faol o'qish metod va usullari, tasnifi umuman olganda to'g'ri mutolaa qilish haqidagi yondashuvlari 1940-yilda eng ko'p sotilgan "How to Read a Book" (Kitoblar qanday o'qiladi) nomli kitobida tasvirlab berilgan. Avvalo Mortimer Adlarning ilmiy merosining o'rganilish va tadqiq etilgan doirasini tahlil qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu kitobda Adler o'qish darajalarini to'rtga bo'lgan edi. Analitik o'qishni Felipe Bezerra de Castro Oliveira o'z maqolasida tadqiqotning markaziga qo'yib tahlil qilgan bo'lsa⁷⁰, Justin Taylor o'z maqolasida ushbu kitobni o'qib bo'lgach o'zi uchun alohida belgilab qo'ygan bo'lim ham aynan analitik o'qish edi. Bu bo'lim analitik o'qishning uchta asosiy bosqichi mavjud, buni ya'ni uchta asosiy savolda ko'rish mumkin: 1) Bu kitob umuman nima haqida? 2) Nima haqida batafsil va qanday

⁶⁹ NASSER, José Monir. Lendo Mortimer Adler como Mortimer Adler nos ensina a ler. In: ADLER, Mortimer J.; DOREN, Charles Van. Como ler livros: o guia clássico para a leitura inteligente. Tradução de Edward H. Wolff e Pedro Sette-Câmara. São Paulo: É Realizações, 2010. p. 13.

⁷⁰ MORTIMER J. ADLER E O MÉTODO DA LEITURA ANALÍTICA. Felipe Bezerra de Castro Oliveira. Kinesis, Vol. XII, dezembro 2020, p.65

qilib aytilmoqda? 3) Bu haqiqatmi? Bu nima? ⁷¹. Katerina Domenegini esa o'z maqolasida quyidagilarni ta'kidlagan edi. "Kitobni qanday o'qish kerak" va "Har bir odam" risolasining tandemda o'qilishi o'quvchiga o'z xohish-irodasini va tanlash erkinligini ta'minlaganligi haqidagi da'voni ilgari surdi. Bu qo'shimcha ta'lim manbalari shartli bo'lmasdan, o'z-o'zini takomillashtirishga intilgan auditoriyani oxir-oqibat har qanday "cheklangan" raqamdan tashqariga chiqish uchun qulay vositalar to'plami bilan ta'minlaydi. Adler uchun haqiqatdan ham muhim bo'lgan narsa, qancha kitobni o'zlashtira olishi emas, balki bir hovuch kitob o'qishga bo'lgan e'tibor va yaxshi o'qishga e'tibor qaratish, o'quvchilar bilan yakkama-yakka munozaraga kirishishini talab qiladi. "buyuk kitoblar" dasturlari haqiqiy madaniyatni taklif qilmaydi yoki uni yuqoridan yuklamaydi, lekin ular kuchli individuallik targ'ib qilinadi."⁷² Asosiy e'tibor kitob va o'quvchi o'rtasidagi suhbat va o'quvchining "javob gapirish" harakati yoki uni qabul qilishiga qaratilgan. Mazkur kitob o'qish bosqichlaridan tortib, tushunish va tanqidiy tahlil qilish strategiyalarigacha bo'lgan mutolaa san'ati haqidagi fikrlari ilk nashr etilgan paytdagidek bugun ham dolzarb deb hisoblaymiz. Adler bir vaqtning o'z to'rtta usulda o'qishni o'rgatadi. Analitik tarzda, muallifning asosiy g'oyasini chiqarish. Sintetik tarzda, muallifning fikrlari rivojlanishini kuzatish. Adlarning qarashlariga ko'ra har bir kitobxon o'z hukmini shakllantirishi juda muhim. Kitobda turli janrdagi adabiyotlarni o'qish bo'yicha maslahatlar berilgan - ilmiy asarlardan tortib, badiiy matnlargacha. Adlarning ta'kidlashicha, o'qish san'ati –bu hech qanday tashqi yordamsiz o'qiladigan materailda aks etgan belgilar ustida ishlash bilan aqlning mustaqil ravishda o'z-o'zini yuqori darajaga olib chiqishidir." Tinglash mavjud bo'lgan o'qituvchidan o'rganish bo'lsa, o'qish mavjud bo'lmagan o'qituvchidan o'rganishdir. Agar o'qituvchiga savol bersangiz, u sizga, odatda, javob qaytaradi. Agar u aytgan javob sizni o'ylantirsa, bosh qotirib o'tirmasdan uni nimani nazarda tutganini so'rashingiz mumkin. Biroq agar kitobga savol beradigan bo'lsangiz, unga o'zingiz javob berishga majbursiz. Shu jihatdan kitob xuddi tabiat yoki olam kabidir. Agar uni so'roqqa tutsangiz, u fikrlash va tahlil qila olish darajangizga qarab sizga javob qaytaradi. Izlanuvchan o'quvchi kitobni to'rt usulda o'qiydi:

1. analitik. Bu yerda kitobxon kitobning tuzilishini tushunishi, mazmuni va asosiy mavzulariga e'tibor berishi kerak;

2. izohlovchi. Ushbu bosqichda asosiy so'zlarni tushunish, asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatish va matnni kitobxon o'z so'zlari bilan takrorlay olishi muhimdir;

⁷¹ <https://www.thegospelcoalition.org/blogs/justin-taylor/how-to-read-book-rules-for-analytical/>

⁷² An "Invitation to Learning": Mortimer Adler's How to Read a Book, Everyman's Library, and the Ideal of a "Common Culture". Caterina Domeneghini. Literary Imagination, Volume 25, Issue 1, March 2023, Pages 1–16, <https://doi.org/10.1093/litimag/imad011> Published: 07 July 2023

3.baholovchi. Ushbu bosqichda kitobxon muallif bilan bahslashishi va u noto'g'ri bo'lgan joylarni topishi mumkin deb taxmin qiladi. Avvaliga kitobxon ushbu uchta usuldan ketma-ket foydalanadi, keyin ularni birgalikda ishlatishni o'rganadi. Birinchi ikkita usul (analitik va sharhlovchi) bir-biriga bog'liq, chunki ular matnni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Oxirgi baholash usuli kitobxonning matn tuzilishi va uning asosiy fikrlarini ko'rganida qo'llaniladi. Kitobni to'liq va to'g'ri tushunish uni to'liq o'qish orqali amalga oshiriladi.

4.sintopik o'qish. Adler bitta kitobni o'qishni cheklangan o'qish va bir xil mavzuga oid bir nechta kitoblarni o'qishni qiyosiy o'qish deb tasniflaydi. Kengaytirilgan tushunish uchun ko'pincha lug'atlarga, dayjestlarga murojaat qilish kerak, ba'zan esa boshqa buyuk asarlarni o'qish kerak. Bundan tashqari, ba'zi kitoblarni tushunish uchun shaxsiy tajriba kerak bo'ladi.

1-usul: analitik. Ushbu usuldan muvaffaqiyatli foydalanish uchun to'rtta qoidaga amal qilinadi. Kitobning turi va mavzusi aniqlanadi. Kitobxon o'z oldida turgan kitobga qarab unga o'qishning ma'lum bir usulini qo'llaydi.

Sarlavha, sarlavhalar, kirish va referat kitobxonga kitob mavzusi va maqsadi haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Kitobning asosiy g'oyasini iloji boricha qisqacha ifodalashga harakat qilinishi zarur. Yaxshi kitob mantiqiy va yaxlit bo'lib, uning barcha qismlari o'zaro bog'liqdir. Agar kitobxon asosiy fikrni noto'g'ri ifodalasa, unda u kitobni muallif niyat qilganidan boshqacha qabul qilishi mumkin. Kitobning tuzilishini aniqlash kerak bo'ladi (u qanday qismlardan iborat va jami nechtasi bor) va barcha qismlar orasidagi bog'lanishni kuzatish lozim. Harakatlar algoritmi quyidagicha:

-kitobda nechta qism borligini va ular nima haqida ekanligini aniqlash (qisqacha fikrni shakllantirish);

-har bir bobda kichik mavzuda nechta qism borligini va ular nima haqida ekanligini aniqlash; Bir qarashda, bu zerikarli va qiyin ko'rinadi, lekin vaqt o'tishi bilan izlanuvchan kitobxon bu harakatlarni avtomatik ravishda o'z aqlida bajara boshlaydi.

Kitob muallifi hal qilmoqchi bo'lgan muammolarni ajratib ko'rsatadi. Muallif kitobda savollar tug'diradi va ularga aniq javoblar beradi. Ba'zan ular kitobda aniq tasvirlanmagan, o'quvchi ularni o'zi topishi kerak.

2-usul: Izohlash. Qoidaga ko'ra, bu usul kitobni ikkinchi marta o'qiyotganda qo'llaniladi. Muallif bilan bir xil tilda gaplashishni boshlash zarur. Buni amalga oshirish uchun o'quvchiga quyidagilar kerak bo'ladi:

-matndagi asosiy so'zlarni ajratib ko'rsatish;

-muallif tomonidan berilgan kontekstda ularning aniq ma'nosini tushunish.

Muallif alohida ma'noga ega bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi so'zlardan foydalanishi mumkin. Ularni yaxshilab o'ylab ko'rish va tushunish kerak, bu holda matnni tushunishning keyingi darajasiga erishish mumkin emas;

Kontekst o'quvchiga notanish atamaning ma'nosini uning atrofidagi so'zlar yordamida aniqlashga yordam beradi. Muallif atamalardan tashqari ularning sinonimlaridan ham foydalanishi mumkin. Ba'zan atamalar so'z bilan emas, balki butun iboralar bilan ifodalanadi. O'quvchi o'zini qanday sinab ko'rishi mumkin: agar u kalit so'zlarni ajratib ko'rsatgan bo'lsa va ularning ma'nosini yaxshi tushunsa, u muallif bilan bir xil tilda gapiradi.

Asosiy jummalarni ajratib ko'rsatish orqali muallifning asosiy gaplarini topilishi kerak. Bu yerda tushunish kerakki, eng muhim gaplar qiyinchilik tug'diradigan jummalarda mavjud. O'quvchi ushbu jummalarning ma'nosini tushunganiga ishonch hosil qilishi va ularni o'z so'zlari bilan takrorlashga harakat qilishi zarur. Agar buni qila olmasa, ularning ma'nosini tushunmagan hisoblanadi. O'quvchi o'zining tushunganini tekshirishning yana bir usuli bor: bayonotni o'z tajribasi bilan tasvirlashga harakat qilishi yoki o'xshashlik chiza olish zarur hisoblanadi. Muallifning dalillariga amal qilinadi. Argumentlar faktlar yoki aksiomalarga asoslanishi mumkin, ulardan keyingi xulosalar chiqariladi. Vijdonli muallif bo'lim oxirida argumentda kamchiliklarga yo'l qo'ymaydi, u o'quvchiga matnni boshqarishni osonlashtirish uchun muhim fikrlarni umumlashtiradi va ta'kidlaydi. Muallif berilgan savollarning qaysi birini to'liq ochib bera olganligini, mulohaza yuritish jarayonida qanday yangi savollar paydo bo'lganligini va ular ochilganmi yoki yo'qligini o'quvchining o'zi aniqlab olishi kerak. Bu qoida nafaqat oldingilarini birlashtiradi, balki o'qishning birinchi usulini ikkinchisi bilan bog'laydi.

3-usul: baholash. Izlanuvchan kitobxon tahliliy va izohli usullarda to'xtab qololmaydi, chunki o'qish jarayoni faqat matnni tushunish bilan cheklanmaydi. Asar yoki kitobni o'rganib chiqqandan so'ng, o'quvchi muallif tomonidan aniqlangan savol yoki muammo bo'yicha o'z fikrini shakllantirishi kerak. O'quvchi o'zining mavqeyini o'zining bilimidagi bilimlar asosida ham, shunga o'xshash masala bo'yicha mualliflarning fikri asosida ham aniqlashi mumkin. O'qish - bu muallif va o'quvchi o'rtasidagi dialog, agar qoidalarga muvofiq o'tkazilsa, konstruktiv bo'lishi mumkin. Ushbu qoidalarni ikki guruhga bo'lish mumkin: umumiy tamoyillar va tanqidning o'ziga xos parametrlari.

O'quvchi muallifning g'oyalari va dalillarini yaxshi tushunganiga ishonch hosil qilishi va butun kitobni tahlil qilmasdan uni hukm qilmaslik kerak. Tanqidni nafaqat kelishmovchiliklar orqali bildirish mumkin balki, e'tirof etishi mumkinki, muallif

o'quvchiga muammoga yangicha nuqtai nazarni ko'rsatgan va ba'zi nuqtalarda unga e'tiroz bildirishga asos bergan.

Agar o'quvchi haq ekanligiga ishonchi komil bo'lmasa, bahslashmasligi kerak. Munozaradagi yakuniy so'z o'quvchida qoladi. Esda tutish kerakki, asosiy maqsad o'zini o'zi tasdiqlash emas, balki haqiqatni aniqlashdir. O'quvchining haqiqiy g'alabasi - bu yangi bilimlarni o'zlashtirish. O'quvchi o'z nuqtai nazarini himoya qilayotganda, faktlar va mantiqiy xulosalarga amal qilishi, tanqidi uchun sabablar keltirishi, haqiqat va fikr o'rtasidagi farqni bilishi lozim. O'quvchining fikri o'qigan narsasiga va haqiqatga bergan bahosiga asoslanadi. U matndagi muammoning ko'rinishini xolisona baholashga harakat qilishi shart.

4. Sintopik o'qishning o'zi besh bosqichga bo'linadi. Sintopik o'qishning birinchi bosqichi: muhim paragraflarni topish. Albatta, bunda tahliliy o'qish o'quvchining qo'lidan kelishini va agar u xohlasa o'z mavzusi uchun muhim bo'lgan har bir kitobni o'qiy olishi taxmin qilinadi. Lekin unda birinchi darajali ahamiyatga mavzu emas, balki kitoblarning o'zi chiqishi kerak. Shuning uchun ham bu vaziyatda mazkur ketma-ketlik teskari o'giriladi. Sintopik o'qishda o'quvchining o'qiydigan kitoblari emas, balki u o'qiydigan mavzu birinchi darajali ahamiyatga ko'tariladi. Shuning uchun bu darajada qilinishi kerak bo'lgan birinchi ish bu muhim deb hisoblagan kitoblarni taftish qilib o'qish bo'ladi. Bu yerda o'quvchining maqsadi kitoblardagi o'z tadqiqoti uchun eng muhim va mos bo'lgan paragraflarni topishdir. Bu kitoblarning hech biri mavzuga to'la mos bo'lishi ehtimoldan yiroqdir. Garchi bunday bo'lsada (lekin bu kamdan-kam sodir bo'ladi), kitobni tezda o'qib chiqish kerak. Bunda bosh maqsad - bu aynan shu kitobni o'qish emas, balki o'quvchining o'z muammosiga javob topish, mavzu haqida bilib olish ekanligini esdan chiqarmasligi kerak. Bu bosqichni oldin ta'riflangan - kitobning nima haqida ekanligini aniqlashga xizmat qiluvchi taftish qilib o'qish bilan birdaniga olib borilishi mumkin, degan xayolga boriladi. Ko'p hollarda shunday. Lekin doim ham shunday bo'ladi, deb hisoblash noto'g'ri. Kitobni dastlabki taftish qilishdan maqsad bu o'quvchining o'zi tadqiq etishni xohlaydigan mavzuga chuqurroq kirish ekanligini eslab o'tish o'rinli bo'ladi. Toki bir mavzuda o'z manbalar ro'yxatini taftish qilib chiqmaguncha o'sha mavzuni qoniqarli darajada tushunish mumkin emasligini yuqorida aytib o'tilgan edi. Shunday ekan, muhim kitoblarni aniqlash bilan bir paytning o'zida ularning ichidagi muhim paragraflarni aniqlashga urinish ko'pincha befoyda yakunlanadi. Agar tadqiq etayotgan mavzuda anchagina bilimga ega bo'lgan mahoratli o'quvchi bo'lmasa, bu vazifalarni alohida bajargan yaxshi. Hisobga olinishi kerak bo'lgan yana bir muhim narsa bu sintopik o'qish davomidagi dastlabki kitoblar va bir mavzuda anchagina kitob o'qigandan keyin yo'ldan chiqadigan keyingi kitoblar orasidagi farqdir.

Keyinroq o'quvchining oldidan chiqadigan kitoblarga kelganda, u mavzu haqida anchagina keng tushunchaga ega bo'ladi, bunda yuqoridagi ikki vazifa birlashtirilishi, ya'ni "siz yangi paydo bo'lgan kitoblar orasidan muhimlarini ajratib olish bilan bir paytning o'zida ulardagi muhim paragraflarni ham aniqlashni boshlashingiz mumkin. Biroq dastlab ular bir-biridan qat'iy ajratilishi kerak."⁷³

Mortimer Adlarning to'g'ri mutolaa qilish konsepsiyasi barcha o'quvchilar duch keladigan muammolarni hal qiladi. Lekin CogZest rahbari, "Kognitiv mahsuldorlik kitoblari" muallifi, Simon Freyzer universitetining ta'lim bo'yicha yordamchi professori Luc P. Beaudoin esa Adlarning qarashlarini tanqid qiladi. "Nima uchun biz allaqachon yaxshi ishlayotgan o'qish kabi biror narsani yaxshilashga harakat qilyapmiz? Chunki axborotni qayta ishlash yanada samaraliroq bo'lishning kalitidir va u ko'nikmalar, maqsadlar, munosabat va e'tiqodlarni o'z ichiga oladi. Texnologiya va Internet o'quvchilar uchun Adler orzu qila olmaydigan yangi muammolar va imkoniyatlarni keltirib chiqaradi. Ma'lumot turli xil shakllarda mavjud (masalan, an'anaviy elektron kitoblar, e-pub kitoblari, animatsiyalar, skrinshotlar, podkastlar, audiokitoblar, videolar, vebinarlar va ma'ruzalar). O'qish - bu faqat ma'lumotni qayta ishlashning alohida holati. Resurslarni qayta ishlash uchun Adler kitobidan ko'ra ko'proq umumiy, texnologiyaga asoslangan, bilimga asoslangan kognitiv tizim kerak.

Resursning yaxshi yoki sifatli bo'lishi nimani anglatishini diqqat bilan umumlashtirishga harakat qiling va ehtimol siz tarkibni baholash juda qiyin muammo ekanligini tushunasiz. Adlarning sxemasi diqqatga sazovordir, ammo u yetarli emas. Adlarning mutolaa qilish konsepsiyasining yana bir cheklovi shundaki, u bilimlarni qayta ishlashimizning eng muhim yashirin sabablaridan birini aniqlay olmaydi: ma'lumotlardan samarali foydalanuvchi bo'lish. "Kitobni qanday o'qish kerak" kitobining qismlari o'z vaqtida foydali bo'lgan. Yuqoridagi tanqid uning kitobini baholashga yordam beradi va bu turdagi kitobda nimani izlash kerakligini aniqlashga yordam beradi."⁷⁴

Umuman olganda Mortimer Adlarning tanqidiy tahlili va tarbiyaviy g'oyalariga falsafiy, ma'rifiy va adabiy an'analarning kombinatsiyasi ta'sir ko'rsatdi. Uning ishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan ba'zi asosiy g'oyalar va ta'sirlar bizning nazdimizda quyidagilar:

-Aristotel-tomistik an'ana: Adlarga donolikka intilish, ta'limning ahamiyati va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga urg'u beradigan falsafaning Aristotel-tomistik an'anasi chuqur ta'sir ko'rsatdi. Ushbu an'ana Adlarning bilim tabiati, aqlning

⁷³ Kitoblar qanday o'qiladi. Mortimer J. Adler, Charlz Van Doren. Tarjimon J. Qodirov. - Toshkent: yangi asr avlodi, 2022. 424-b

⁷⁴ <https://cogzest.com/2014/09/review-of-how-to-read-a-book-by-mortimer-adler/>

roli va intellektual fazilatlarni tarbiyalashda ta'limning ahamiyati haqidagi qarashlarini shakllanishida muhim rol o'ynadi.

-G'arb dunyosining buyuk kitoblari: "G'arbiy dunyoning Buyuk kitoblari" turkumining muharriri sifatida Adler adabiyot, falsafa, fan va tarixning klassik asarlarini o'rganishga qaratilgan liberal san'at ta'limi g'oyasini qo'llab-quvvatladi. Asosiy matnlar va g'oyalar bilan shug'ullanish muhimligiga urg'u Adlarning ta'lim falsafasini shakllantirib, har tomonlama va intellektual jihatdan qiziquvchan shaxsning rivojlanishini ta'kidladi.

-klassik liberalizm: Adlarga individual erkinlik, oqilona izlanish va demokratik fuqarolikni targ'ib qilishda ta'limning ahamiyatini ta'kidlaydigan klassik liberalizm tamoyillari ta'sir ko'rsatdi. Uning ta'lim g'oyalari, shu jumladan buyuk kitoblarga asoslangan asosiy o'quv dasturini targ'ib qilish ushbu liberal qadriyatlarni va ularning bilimli va ma'lumotli fuqarolarni tarbiyalashga ta'sirini aks ettiradi.

-Sokratik usul: Adler tanqidiy fikrlash va intellektual izlanishni rag'batlantirish uchun savollar berish va dialektik dialogga kirishishni o'z ichiga olgan Sokratik so'rov usuliga asos soldi. U Sokratik metod elementlarini o'zining ta'limiy yondashuviga qo'shib, ma'lumotni passiv qabul qilishdan ko'ra g'oyalar va matnlar bilan faol aloqani ta'kidladi.

-Ta'limni isloh qilish harakatlari: Adler o'z faoliyati davomida turli xil ta'lim islohotlari harakatlarida qatnashgan, o'quv dasturlari, pedagogika va baholash amaliyotidagi o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlagan. Uning g'oyalariga ilg'or ta'lim nazariyalari, shuningdek, ta'lim tengligi va imkoniyatlarini targ'ib qilish bo'yicha harakatlar ta'sir ko'rsatdi.

Umuman olganda, Adlarning tanqidiy tahlili va ta'lim g'oyalari turli xil ta'sirlar, jumladan falsafiy an'analar, adabiy asarlar, ta'lim nazariyalari va ijtimoiy harakatlar bilan shakllangan. Uning bilimga intilish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va liberal san'at ta'limini rivojlantirishga sodiqligi bugungi kunda o'qituvchilar va olimlar bilan rezonanslashishda ya'ni u Adlarning g'oyalari hali ham kuchli bog'langan va mavjudligini anglatadi. O'qituvchilar va olimlarga ta'sir qiladi, chunki ular ular o'z ishlari va e'tiqodlari uchun mazmunli, dolzarb va qimmatli hisoblanadi.

Mortimer Adlarning to'g'ri mutolaa qilish haqidagi g'oyalari "Kitoblar qanday o'qiladi" kitobida asoslanganini hisobga olib ayni shu mazmundagi boshqa kitoblardan quyidagi muhim xususiyatlari bilan ajralib turadi deb hisoblayman:

1. Kompleks yondashuv: Adlarning kitobi boshlang'ich o'qishdan sintopik o'qishgacha bo'lgan turli darajadagi o'qishni qamrab oluvchi o'qish jarayonini

tushunish uchun keng qamrovli asos yaratadi. U nafaqat o'qish mexanikasini, balki tushunish, tahlil qilish va talqin qilish strategiyasini ham qamrab oladi.

2.Umrbod donolik: dastlab 1940 yilda nashr etilgan va 1972 yilda qayta ko'rib chiqilgan "Kitobni qanday o'qish kerak" kitobi vaqt sinovidan o'tdi va o'qish va tanqidiy fikrlash uchun tegishli va keng hurmatga sazovor qo'llanma bo'lib qoldi. Uning tamoyillari va texnikasi turli janrlarda, fanlarda va vaqt oralig'ida qo'llaniladi.

3.Adlerning yozish uslubi: Adlerning yozish uslubi aniq, ixcham va tushunarli bo'lib, murakkab g'oyalar va tushunchalarni keng auditoriyaga tushunarli qiladi. Kitob foydalanuvchilar uchun qulay bo'lib, o'quvchilar o'zlarining o'qish amaliyotlarida qo'llashlari mumkin bo'lgan amaliy maslahatlar va misollar bilan yaratilgan.

4.Faol o'qishga urg'u berish: faqat tushunish yoki tez o'qish texnikasiga qaratilgan o'qish haqidagi ba'zi kitoblardan farqli o'laroq, Adler matnni so'roq qilish, baholash va tanqidiy jalb qilishni o'z ichiga olgan faol o'qish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv o'quvchilarni yanada mulohazali va zukko o'quvchi bo'lishga undaydi.

5.Klassik va zamonaviy manbalarning integratsiyasi: klassik va zamonaviy manbalarga asoslanib, Adler ko'plab adabiy, falsafiy va ilmiy an'analardan tushunchalarni birlashtiradi. Turli xil istiqbollarni sintez qilish orqali kitob har qanday mafkura yoki metodologiyadan ustun bo'lgan o'qishga yaxlit yondashuvni taklif etadi.

6.Amaliy mashg'ulotlar va misollar:Adlerning faol o'qish g'oyasi o'quvchilarga kitobda muhokama qilingan tamoyillar va usullarni qo'llashga yordam beradigan amaliy mashqlar va misollarni o'z ichiga oladi. Ushbu mashqlar asosiy tushunchalarni mustahkamlaydi o'quvchilarga o'qish ko'nikmalarini mashq qilish va takomillashtirish imkoniyatlarini beradi.

Umuman olganda, Mortimer Adlerning "Kitoblar qanday o'qiladi" asari aqlli o'qish uchun abadiy va keng qamrovli qo'llanmani taklif etadi, bu uni o'qishni tushunishni, tanqidiy fikrlashni va umumiy intellektual rivojlanishni rivojlantirishga intilayotgan har bir kishi uchun qimmatli manbaga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. NASSER, José Monir. Lendo Mortimer Adler como Mortimer Adler nos ensina a ler. In: ADLER, Mortimer J.; DOREN, Charles Van. Como ler livros: o guia clássico para a leitura inteligente. Tradução de Edward H. Wolff e Pedro Sette-Câmara. São Paulo: É Realizações, 2010. p.

2. An “Invitation to Learning”: Mortimer Adler’s How to Read a Book, Everyman’s Library, and the Ideal of a “Common Culture”.Caterina Domeneghini.Literary Imagination, Volume 25, Issue 1, March 2023, Pages 1–3, <https://doi.org/10.1093/litimag/imad011> Published:07 July 2023
3. MORTIMER J. ADLER E O MÉTODO DA LEITURA ANALÍTICA. Felipe Bezerra de Castro Oliveira.Kinesis,Vol.XII,dezembro 2020,p.65.
4. <https://www.thegospelcoalition.org/blogs/justin-taylor/how-to-read-book-rules-for-analytical/>
5. <https://cogzest.com/2014/09/review-of-how-to-read-a-book-by-mortimer-adler/>.
6. Kitoblar qanday o’qiladi.Mortimer J.Adler,Charlz Van Doren.Tarjimon J.Qodirov.-Toshkent:yangi asr avlodi,2022.

TURK VA O‘ZBEK MADANIYATIDA QARINDOSHLIK ATAMALARINING O‘RGANILISHI VA LUG‘ATLARDA QO‘LLANILISHI

Sabirova Zuxra Shakirovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Turkshunoslik oliy maktabi o‘qituvchisi

Tel: +998 99 886-60-40

E-pochta: kasimova.z@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqola turk va o‘zbek tillarida qarindoshlik atamalari va ularning leksik-semantik xususiyatlari masalalariga bag‘ishlanadi. Turklarda tug‘ishganlik va qondoshlik masalasida ota tomonning mavqei hamisha yetakchi bo‘lib kelgan va bu tilshunoslikda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning lingvistik qiymatining sababi insonning yaqinlari, qavm-qarindoshlari bilan o‘zini anglashning uzluksiz jarayonida yotadi. Bir tomondan, u so‘z boyligining barcha yangi qatlamlarini qamrab oladi, boshqa tomondan, turli darajadagi til darajalariga kirib boradi.

Turk tilida qo‘llaniladigan ota tomonidan qarindoshlik nomlari ma‘no jihatdan tahlil qilinadi va bu orqali inson qiyofasini ifodalashda til imkoniyatlarining kengligi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Til, inson qiyofasi, qavm-qarindosh, aqrabolik nomlari, obraz, uy, avlod, ajdod.*

АННОТАЦИЯ

Данная научная статья посвящена вопросам терминов родства и их лексико-семантических особенностей в турецком и узбекском языках.

У турков позиция отцовской стороны всегда была ведущей в вопросах родства и родства, и это не утратило своего значения в языкознании. Причина его языковой ценности кроется в непрерывном процессе самосознания человека со своими родственниками и друзьями. С одной стороны, оно охватывает все новые пласты лексики, с другой – проникает на разные уровни языка.

Отцовские имена, используемые в турецком языке, анализируются с точки зрения значения, и благодаря этому рассматривается широта языковых возможностей в выражении человеческого образа.

Ключевые слова: *Язык, человеческий облик, люди-родственники, родственные имена, образ, дом, поколение, предок.*

ABSTRACT

This scientific article is devoted to the issues of kinship terms and their lexical-semantic features in the Turkish and Uzbek languages. In Turks, the position of the

father's side has always been the leader in matters of consanguinity and consanguinity, and this has not lost its importance in linguistics. The reason for its linguistic value lies in the continuous process of self-awareness of a person with his relatives and friends. On the one hand, it covers all new layers of vocabulary, on the other hand, it penetrates to different levels of language.

Paternal names used in the Turkish language are analyzed in terms of meaning, and through this, the breadth of language possibilities in expressing the human image is considered.

Keywords: *Language, human form, people-relatives, kinship names, image, house, generation, ancestor.*

KIRISH

Qarindoshlik atamalari dunyoning barcha mamlakatlarida aloqa vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Madaniy o'zgarishlarning rivojlanishi bilan turk va o'zbek qarindoshlik atamalari o'rtasida qiyosiy analiz yanada muhim o'rin egallaydi. Qarindoshlik atamalari bugungi kunga qadar juda ko'p tahlil etilgan, ammo izlanuvchilar tomonidan qarindoshlik atamalarining klassifikatsiyasi bo'yicha yagona nuqtai nazarga kelinmagan. Hozirgi kunga qadar uchta nuqtai nazar mavjud edi. Birinchi fikr: Qarindoshlik atamalari umumlashtiruvchi va tor qarindoshlik atamalariga bo'linadi. Ikkinchi fikr: qarindoshlik atamalari va salomlashish o'rtasida farq yo'q. Uchinchi fikr: salomlashish qarindoshlik atamalarining bir qismi.

Madsad va vazifa: Mazkur maqolada qarindoshlik atamalarining murojaat shakllari bilan bog'liq ismlarning turk va o'zbek tillari lisoniy manzarasini ifodalovchi vosita ekanligini dalillash maqsadida o'zbek va turk tilidagi aqrabolik atamalarining qo'llanilishini tahlil qilish vazifasi qo'yilgan.

Usullar: Maqola mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va mulohaza: Bugungi kun ahli olimlari qarindoshlik atamalarini tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, madaniyat, antropologiya va etnologiya bilan bog'laydi. Ijtimoiy tilshunoslik fan sifatida 60-yillarda Yevropa va Amerikada paydo bo'ldi. Ijtimoiy hayotda til va muloqot ijtimoiy tilshunoslikning asosiy obyekti bo'lgan; va uning mazmuni makrodan mikrogacha o'zgarib bordi va ilmiy va obyektiv tadqiqotlarni yaratdi Sin Roger Braun va Albert Gilman (1960) "Pronouns of Power and Solidarity" [4:78] qarindoshlik mavzulari bo'yicha samarali tadqiqotlar olib borishdi va ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritishdi. Margaret Ford 1964 yilda Amerika ingliz tilida Murojaatnomasini nashr etdi va amerika ingliz tilisi qarindoshlik atamalaridan so'rov va hujjatli tadqiqotlar usulida foydalanish modellarini chuqur tadqiq qildi. X. W. Sheffiler (1985) qarindoshlik atamalarini o'rganish jarayonida

deyarli ko'rilmagan qarindoshlikni o'rganishda nazariya va usulda ingliz qarindoshlik atamalarini o'rganish uchun sxemalar shaklini qabul qildi. [5:54] Qarindoshlik atamaları bo'yicha tadqiqotlar boy va sermahsul bo'lib, 1979-yildan beri ko'plab fonograflar nashr etilmoqda.

Turkiy qarindoshlik terminologiyalari antropologlar va tilshunoslar tomonidan avvalgi tadqiqotlarda turkiy-mo'g'ul, sibir avlodi, omaha va boshqalar deb har xil tasniflangan. Shubhasiz, barcha turkiy tillarni qamrab oladigan o'zgarimas qarindoshlik tizimini da'vo qilish qiyin, chunki zamonaviy turkiy qarindosh tizimlar nafaqat prototurk yoki qadimgi turkiy tizimdan, balki vaqt o'tishi bilan ham o'zlaridan farq qilgan. Ushbu hujjat yaxshi tasdiqlangan qarindosh-urug'larning omon qolishlariga asoslanib, prototurk tilidan hozirgi kungacha bo'lgan qarindoshlik tizimidagi o'zgarishlarni kuzatish urinishlarini taqdim etadi. Qarindoshlik terminologiyasi lug'atning eng xalqaro qatlamlaridan biri bo'lib qolishi tan olingan. Barcha tillar qarindoshlik terminologiyasiga ega bo'lganligi sababli, lug'at tarkibiy qismi bu universal deb hisoblanadi, ammo u jamiyatdan jamiyatgacha farq qiladi.

Jahon ijtimoiy va madaniy geterogen (batafsil ma'lumot uchun Boikova va Rybakov 2006). Qarindoshlik va ijtimoiy tuzilish haqidagi o'z asarida Spenser [5:96] Osiyolik ko'chmanchilik, musulmon oilasi va zamonaviy shahar jamiyati bilan bog'liq bo'lgan turk qarindoshlik tizimiga baho beradi. Shunga qaramay, oila va jamiyatning tuzilishi qarindoshlik tizimiga qaraganda tezroq o'zgaradi. Bu nima uchun asrlar davomida ko'chmanchi-qabilaviy turmush tarzini saqlab kelgan qirg'iz, qozoq kabi turkiy xalqlar o'zlarining qarindoshlik tuzilishini Sovet va postsovet davridan keyingi modernizatsiya qilinishiga qaramay deyarli saqlab qolganliklarini aniqlab beradi. Biroq, an'anaviy qarindoshlik tasnifini yo'qotgan tillarda, tushuncha jamiyat uchun avvalgi ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa ham, so'z o'zgartirilmaydi. Bu turk maqolida juda yaxshi aks etgan: Amca baba yarisidir "Amaki - yarim otadir", bu klassifikatsion tizimga xos bo'lgan $F = FB$ tenglamasini ta'kidlaydi, zamonaviy turk qarindoshlik tizimi esa F va FB terminologik jihatdan ajratib turadi. Cho'l xalqlari tarixan Omaha qarindoshlik turi bilan ajralib turardi. Ushbu tizimda xuddi shu atama otaning va akaning akasi uchun, onaning va onaning singlisi uchun ishlatiladi. Qarama-qarshi amakivachchalar aka-uka va opasingillar bilan tenglashtirilgan. [2:75] Ammo ichki va tashqi omillar ta'sirida an'anaviy tuzilma o'zgardi. Qarindoshlik tizimidagi bu o'zgarishlarni tavsiflash va turkiy xalqlar orasidagi qarindoshlik xilma-xilligining sabablarini ko'rsatish uchun ushbu tizimning besh mezoniga asoslangan batafsil tahlil qilish kerak. 1. Turkiy qarindoshlik tizimining asosiy mezonlari. Turkiy qarindoshlik munosabatlarining asosiy omillari bir joydan, bir nasab guruhiga mansub bo'lish va bitta ko'chada yashashga asoslangan. Bularning barchasi ular

uchun ijtimoiy va iqtisodiy birdamlikni ta'minlaydi. Qarindoshlik tizimi odatda naslga va nikohga asoslanadi, ammo qarindoshlik aloqalari quyidagi mezonlarga ko'ra tavsiflanishi mumkin: (1) ikki bog'lanish, (2) o'zaro kelishuv, (3) avlod, (4) yosh, (5) jins. 1. Bifuratsiya: Turkiy qarindoshlik nasl-nasabga asoslanganligi sababli, otaning qarindoshlari uchun atamalar ko'proq o'ziga xosdir, onalik tomoni esa ko'proq klassifikatsiyaga ega, masalan Kir. eje "otaning xolasi, katta opa-singil", akaning 'amakisi, katta akasi', ene 'otaning buvisi'. Onalar tomonidan qarindoshlar odatda aniq atamalar bilan chaqirilmaydi, lekin ularni boshqaruvchi tomonidan aytiladi, masalan Kir. tay-eje 'onaning xolasi', tay-ake 'onaning amakisi', tay-ene 'onaning buvisi'. Bu farq ikki nisbiy chiziqning teng bo'lmagan sifatidan kelib chiqadi. Shunday qilib, barcha Yevrosiyo xalqlaridagi qarindoshlikni tashkil etish tizimi patrulainel bo'lib ko'rinadi.⁷⁵

Bugungi kungacha turkiy qarindoshlik atamaları ustida rus olimlari va o'zbek tilshunoslari bir qancha ishlar olib borgan bo'lib, masalaga doir tadqiqotlarni quyidagi yo'nalishlarda ko'rishimiz mumkin: umumturkiy tillar doirasida, ularning leksik-gramatik, morfologik, etnolingvistik, qiyosiy-tarixiy aspektida o'tkazilgan tadqiqotlar. Masalaga doir tadqiqotlar tilshunoslar tomonidan olib borilgan bo'lsada, ularning ko'pchiligi umumturkologiyaga bag'ishlangan yoki bir taraflama yondoshilib qisman ma'nolari ochib berilgan bo'lib, umumturkiy tildagi qarindoshlik atamalarining qiyosi to'g'risida ishlar olib borilgan. Turkologiyada olib borilgan ishlarning ko'pchiligi turkiy tillardagi atamalarni bir-biriga qiyos qilish yo'li bilan tekshirib chiqqanlar. O'zbek tilida ham qarindoshlik atamaları xususida bir qancha ishlar olib borilgan bo'lib ular: O'zbek tilidagi qarindoshlik terminlarining leksik– semantik xususiyatlarini tavsif qilishga bag'ishlangan I. Ismoilovning monografiyasida ham, avvalgi ishlardagidek qarindoshlik atamalarining tavsifi va leksik-semantik xususiyatlari, kontekstda anglatgan ma'nolari tahlil qilingan, xolos. Shuningdek, M. Saidovanning nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tili va uning shevalarida amal qilayotgan rang-barang va juda qadimiy tarixga ega bo'lgan, ammo hali sof lingvistik jihatdan tadqiq qilinmagan qarindoshlik terminologiyasining qiyosiy-tarixiy genezisini Namangan shevalarida o'rganilgan.⁷⁶ Ushbu ishda qarindoshlik nomlariga faqat atama sifatida qaraydi. Aslida turkiy tilda qarindoshlik rishtalari va qarindoshlarning nomlanishi qadimdan shakllangan aniq tamoyillar asosida belgilanadi. Bu borada tilshunos olimlar o'nlab tadqiqot olib borishgan. L.P. Patapovning "Qo'ng'iroq o'zbeklari o'rtasidagi oilaviy munosabatlarga oid

⁷⁵ Nurullayeva K. Xitoy va turkiy tillarda qarindosh urug'chilik atamalarining qiyosiy tahlili. Scientific and technical journal of Namangan Institute of Engineering and technology. 2020

⁷⁶ Saidova M. Namangan o'zbek shevalaridagi uda, jiyon terminlarining etimologiyasi va leksik-semantik xususiyatlari. Cyberleninka. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. -B.156

materillar: bu ish ham faqat tor doirada ishlab chiqilgan. Narziyeva ham o‘z monografiyasida qon-qarindoshlik nomlarining faqatgina komponent tahlili ustida ish olib borgan. O‘zbek tilshunosligida ham bu masala to‘g‘risida qisman ochib berilgan bo‘lib, qavm-qarindoshlikni anglatuvchi ota, ona, bola, o‘g‘il, qiz, nabira kabi qon-qarindoshlik atamalarigina leksikologiya tarixi bilan bog‘lab tekshiriladi va misol tariqasida ko‘rsatib o‘tiladi yoki o‘zbek tili va uning shevalaridagi qavm-qarindoshlik atamalarini tekshirish, jiddiy ilmiy ish olib borish kerakligi, uning tilshunoslikdagi ahamiyati to‘g‘risida to‘xtab o‘tiladi. O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda yaratilgan ilmiy ishlarda ham faqat bir tomonlama yondashilgan.

Vaqtning o‘tishi, o‘zbek xalqi hayotida yuz bergan zo‘r iqtisodiy, siyosiy, madaniy o‘zgarishlar tilimizning lug‘at tuzilishini ham o‘zgartirdi, ko‘pgina qon-qarindoshlik atamaları eskirdi, iste'moldan doirasidan chiqdi, bir turkum atamalarning ma'no doiralari kengaydi va o‘zgarishga uchradi. Ma'lumki, o‘zbek xalqi o‘zining tarixiy taraqqiyot jarayonida turli sistemadagi tillarda gapiruvchi ko‘pgina xalqlar bilan birga hayot kechirdi, aralashdi. Shularning tilimiz murakkab sharoitda shakllandi va uning lug‘at tuzilishi, shu jumladan, qonqarindoshlik atamaları ham boshqa tillarning leksik elementlarini atamalarini o‘zichiga olgan holda rivojlandi va taraqqiy etdi. Lekin, unga qaramay, tilimizning asosiy qon-qarindoshlik atamaları saqlanib qolindi va ma'no ottenkasi yanada kengaydi. Turkiy qarindoshlik atamalarining asosan uchta ildizi qarindoshlik atamalarning kelib chiqishini ko‘rsatadi: Qarindosh (ota tomondan), Tai-tog‘iy (ona tomondan), Quda yoki ayollarga nisbatan qudag‘ay (nikoh orqali bog‘langan). Keyinchalik bu tasnif o‘zgarib ularning etimologiyasi quyidagicha bo‘ladi:

- 1.Ota urug‘i-qarindosh(suyak söök)
- 2.Ona urug‘i –tag‘i
3. Nikoh orqali bog‘langan urug‘-qain.⁷⁷

Qadimda barcha turkiylarda ota urug‘i odam vujudining negizi bo‘lgan “suyak”ka nisbat berilgan va bu urug‘ning barcha vakillari bir-biriga nisbatan og‘ayni (og‘a-ini) sanalgan, ularning qoni bir bo‘lib qarindosh hisoblangan. Birbirlari bilan ota tomondan yaqin bo‘lgan kishilar o‘zoro yoshi kattasini og‘a kichigini esa ini deb chaqirgan. Ota turkiyzabonlarda, xususan o‘zbeklarda ham ulug‘ nom sanalib kelinadi.”Suyak “(söök, syook) so‘zi esa qadimda familiya tushunchasini bergan. O‘zbek tilidagi qarindoshlik atamaları va nomlarining kelib chiqishi va ma’nosiga ko‘ra asosan uchta katta guruhga bo‘linadi:

- I. Qon-qarindoshlik atamaları
- II. Nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik atamaları

⁷⁷ Mirzayeva A. Qarindoshlik atamalarining lug‘atlarda qo‘llanilishi. Intereuroconf.com. 2022.

III. Yaqinlik nomlari .

I. Qon-qarindoshlik nomlariga quyidagilar: ona, ota, opa, aka, uka, singil, xola, tog'a, amma, amaki, buvi, buva, nabira kabi atamalar;

II. Nikohdan keyin paydo bo'ladigan atamalarga esa: er, xotin, kuyov, kelin, boja, pochcha, ovsin, qaynona, qaynota, qaynsingil, qaynog'a, quda, quda xola, quda buva, o'gay ota, o'gay ona, o'gay bola kabilar;

III. Yaqinlik nomlariga: yuqoridagi ikki guruhdan butunlay farq qiladi. Bular tutingan so'zi bilan kelib, tutingan ota+m, tutingan ona+m, tutingan o'g'li+m kabi ifodalagan atamalar kiradi. Atamalarning birinchi guruhiga mansub atamalar o'z guruhidagi atamalar bilan birgalikda juftlashgan holda ko'plik, jamlik ma'nolarini ifodalaydi: ota bola, opa-singil, aka-uka, ota-ona, ota-bobo, amma-xola, tog'a-jiyan kabi, hamda o'ziga affikslarni qabul qilib, yangi ma'noli so'zlarni hosil qiladi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, qavm-qarindoshlik atamalari dunyoning barcha mamlakatlarida muhim aloqa vositasi sifatida qo'llanilgan. Qarindoshlik atamalari lug'at fondining eng xalqaro qatlamlamlaridan biri bo'lib qolishi tan olingandir. Hamma tillar qon-qarindoshlik atamalariga ega bo'lganligi tufayli, lug'at tarkibiy qismi universal hisoblanadi, lekin jamiyatdan jamiyatgacha farq qiladi. Qarindoshlik tizimi odatda naslga va nikohga asoslanadi, ammo qarindoshlik aloqalari quyidagi mezonlarga asoslanadi: o'zaro kelishuv, avlod, yosh, jins va shular asosida qarindoshlik tizimi paydo bo'ladi. Qarindoshlik tizimlari, bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi, ammo bir-biriga o'xshash emas. Shuni ta'kidlash kerakki, qarindoshlik ma'nosini ifodalovchi leksemalarning yaratilish davri juda qadim ibtidoiy jamoa tuzum davrlariga borib taqaladi. Davr mahsuli sifatida qarindoshlar orasidagi munosabatlarni ifodalab keladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ismoliyov.I.A. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari Toshkent. O'zbekiston SSR "FAN" nashriyoti.1966.
2. Engels.F. Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi, Toshkent. 1956.
3. Mahmud Koshg'ariy."Devoni lug'ati turk",I-III tom,Toshkent.1960-1963.
4. Shoabdurahmonov.Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari,Toshkent. 1962.
5. Покровская.Л.А.Термены родства втюркских языках, В кн: "Историческое развитие лексики тюркских языков" М.,1961.

NIZOMIY VA NAVOIY SO‘Z HAQIDA

Tursunmurodov Shohruh Uralovich

GFA o‘qituvchisi

shohruhtursunmurodov1994@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-2392-9045>

ANNOTATSIYA

So‘z va til islom falsafasida juda katta ahamiyatga egadir. Chunki o‘n sakkiz ming olamning paydo bo‘lishi Tangri taoloning birgina so‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan. Shuning uchun mumtoz adabiyot namoyandalari o‘zlarining asarlarida so‘z va uning inson hayotidagi ahamiyati haqida juda ko‘p fikrlarni bildirganlar. Maqolada Nizomiy va Navoiy so‘z haqida qarashlari haqida fikr yuritamiz.

Kalit so‘zlar: so‘z, til, shoir, tahlil, xulq-atvor, nasihat, bob.

ABTRACT

Words and language are very important in Islamic philosophy. Because the creation of eighteen thousand worlds was connected with a single word of God Almighty. That’s why classical literature representatives expressed a lot of opinions about the word and its importance in human life in their works. In the article, we will discuss the views of Nizami and Navoi on the word.

Key words: word, language, poet, analysis, behavior, advice, chapter.

АННОТАЦИЯ

Слова и язык очень важны в исламской философии. Потому что создание восемнадцати тысяч миров было связано с одним словом Всевышнего. Именно поэтому представители классической литературы в своих произведениях высказали множество мнений о слове и его значении в жизни человека. В статье мы обсудим взгляды Низами и Навои на слово.

Ключевые слова: слово, язык, поэт, анализ, поведение, совет, глава.

KIRISH

“So‘z” deganda shoirlar insonni hayvondan ajratib turadigan nutqni, tafakkurni, o‘zaro aloqa vositasi – tilni, badiiy adabiyot va umuman yozma va og‘zaki ijodni, tilning kishi xulq-atvori, odobiga ta’siri, tarbiyaviy ahamiyatini nazarda tutganlar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, inson ixtiyoridagi ijodiy ne‘mat til qadriyatiga yuksak baho berilgan, undan o‘z o‘rnida to‘g‘ri va foydali ishlar uchun foydalanish haqida pand va nasihatlar asosiga qurilgan mushohadalar yuritilgan [1,21].

Xususan, Shayx Nizomiy Ganjaviy “Xamsa” turkumidagi birinchi dostoni “Maxzan ul-asror”da ikki (27 bayt va 66 bayt) maxsus boblarni so‘z fazilati va

ta'rifiga bag'ishlagan.

“Maxzan ul-asror”ning muqaddima boblaridan hamddayoq so‘zning naqadar ilohiy kuch ekanligini ta’kidlab o‘tgan shoir shunday deydi:

Bog‘i saxoni etibon toza ul,
So‘z qushini ayladi ovoza ul.
Tilni etib mevayi bog‘i ajab,
So‘z duriga tutdi quloqdin sadaf [2,25].

“So‘z fazilati bayonida” shoir olamning yaratilish asosida so‘z yotganini, Tangri Taolo avvalo so‘zni yaratib, undan so‘ng u orqali barcha moddiyatni yaratganini, hilvat pardasini keyin ochganini, so‘zga birlamchi jilo berganini ta’kidlab, toki Odamning taniga jon so‘zsiz kirmaganligini shunday bayon etadi:

Junbushi avvalki, qalam oldi ul,
So‘zdin olib harf, shakl soldi ul.
Pardayi xilvatni keyin ochdilar,
So‘zga u birlamchi jilo sochdilar.
To suxan ovozayi dil qilmadi,
Ul tani xokiyga bu jon kirmadi.
Keldi qalam, borligin og‘oz etib,
So‘zga shu olam ko‘zini rost etib [3,51].

Alisher Navoiy ham “Hayrat ul-abror”da so‘zning ilohiyoligi haqida shunday deydi:

Dahr muqayyad bila ozodasi,
Borcha erur “kof” ila “nun” zodasi...
So‘zdin o‘lukning tanida ruhi pok,
Ruh dog‘i tan aro so‘zdin xalok.
Tirguzub o‘lganni kalomi fasix,
O‘ziga jonbaxsh laqab deb Masix [3,38].

Nizomiy ushbu bobda so‘z bo‘lmaganda johonni sharhlab bo‘lmasligini, ishqni lug‘at desak, so‘z bir jon ekanligini aytib, biz so‘zdan iboratmiz, tanimiz esa bir buzuq ayvondir deydi:

Bo‘lmasa so‘z, sharhi jahon bo‘lmagay,
So‘z necha aytilsa-da, o‘ksilmagay.
Ishq lug‘ati ichra suxan jonimiz,
Biz suxanu tan buzuq ayvonimiz [4,51].

Alisher Navoiyning fikricha ham: “So‘z gavharning sharafi” balandligiga sabab uning butun olam qudrati tarafidan tuhfa etilganidir. U “to‘rt sadaf gavharning durji” – ya’ni to‘rt unsur (suv, havo, o‘t, tuproqdan hosil bo‘lgan inson zotinig bosh

xususiyatini belgilaydi, inson nutqi bilan inson, nutq uni barchadan afzal etadi. So‘z, nutq – ruh, qolip ichidagi jon, hayot, harakat demak, til faqat aloqa quroli, insonni mumtoz etgan ne‘matgina emas, balki inson uchun azob-iztiroblar keltiradigan narsa ham, zero til – kishi boshiga ko‘p falokatlar keltiradi, “ruhni halok etadi”. Navoiyning masalaga qanchalik chuqur qaraganini his etish qiyin emas. O‘zbek shoiri fikrini davom ettirib yozadikim, so‘zning kuchi benihoya ulug‘, “kalomi faseh (go‘zal so‘z) o‘lganni tiriltirishi ham mumkin. Shohning bir og‘iz so‘zi, deydi Navoiy, “bedod” – zulmga sabab bo‘ladi, ammo o‘rtada jallod badnom bo‘ladi. So‘z mas‘uliyati qanchalik baland ekanini, odamlar taqdiri, kishilarning hayoti bir so‘z bilan hal etilishi – yo baxtga muyassar, yo abadul-abad badbaxt bo‘lishini, so‘z odamlarini jonfidolikka, ulug‘ maqsadlar sari ko‘rashga safarbar etishini qayd etgan. Navoiy, ayni vaqtda so‘zning estetik ta‘sir ko‘chini ko‘rsatishni unutmagan. Shoir qiziq misol keltiradi: “G‘uncha og‘izlik sanami no‘shlab” go‘zalni ko‘rsang, uning xush surati, zebo qaddu qomati kishini lol qoldirsa-da, zohiran uning chiroyli suratdan uning farqi yo‘q. Lekin, agar shu chiroy, husnga yarasha malohatli, jonsitam nutqi ham bo‘lsa, u:

*Solg‘usi jinsi bani odamg‘a o‘t,
Ne bani odam, bari olamg‘a o‘t.
Har dam etib elni halok o‘rtagay,
Balki bashar xaylini pok o‘rtagay [5,34].*

Mana shu yerda Navoiy badiiy adabiyot, ya‘ni “fasohatli so‘z”ning so‘zu gudozidan hiqoya boshlab, she‘rning, shoir so‘zining qudratini ustalik bilan qayd etadi. Bunda ham nozik yo‘l topg‘an: boya o‘zi ta‘rif etgan o‘sha go‘zal so‘zga chechanligi bilan olam ahlini mastu sarxush eta oladi, ammo u Navoiy g‘azalini o‘qisa-chi. Unda:

*Kim anga alfoz o‘lub otash fishon,
Ўзбекистон Республикасининг “2023-йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида”ги Қонунининг 2023-йил учун

Ўзбекистон Республикасининг республика бюджетидан биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчиларига ажратиладиган бюджет маблағларининг чекланган миқдорлари 32-бандида Ўзбекистон Республикаси Олий Судига жами 1 273 817,7 млн. сўм, жумладан, жорий харажатлар учун 1 190 290,0 млн. сўм, объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмаларга 83 527,7 млн. сўм ажратилиши белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Олий Суди ҳузуридаги судлар фаолиятини таъминлаш департаментининг 2023 йил учун эълон қилган ҳисоботига кўра, судлар фаолиятини молиялаштириш учун 2023 йилда 1 трлн. 381 млрд. сўм (бюджетдан - 1 трлн. 289 млрд. сўм, жамғармадан – 91 млрд. сўм) ажратилган бўлиб, бу миқдор 2022 йилга нисбатан 243 млрд. сўмга кўп демакдир (1 трлн. 138 млрд. сўм, бюджетдан – 1 трлн. 92 млрд. сўм, жамғармадан – 46 млрд. сўм).

Маълумотлар асосида таҳлилни амалга оширсак, биргина иқтисодий судлар томонидан бутун суд тизимига қилинган харажатларнинг 51 фоизи компенсация қилиниши маълум бўлади. Фуқаролик ишлари бўйича судларни ҳам қўшганда суд тизимига қилинган харажатларнинг 127 фоизи компенсация қилинади. Ушбу таҳлилий рақамлар ҳам иқтисодий судларда давлат божи ставкаларини камайтириш лозимлигини билдиради.

V. Хулоса

Юқорида келтирилган камчиликларни қонунчиликка ўзгартиришлар киритиш орқали бартараф қилиш мумкин бўлиб, бу орқали тадбиркорлик субъектларининг суд орқали ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш осонлашади. Ортиқча сарсонгарчиликларнинг олди олиниб, тадбиркорлик субъектларига қўшимча рағбатлар пайдо бўлади ҳамда одил суд тизимига бўлган ишончлари янада ошади.

VI. Фойдаланилган адабиётлар

1. “Пути развития института судебных расходов: сравнительно-правовой анализ”, Шмотин Кирилл Сергеевич - <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-razvitiya-instituta-sudebnyh-rashodov-sravnitelno-pravovoy-analiz>;
2. О‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi - <https://lex.uz/uz/docs/-6333240>.

O‘ZBEKISTONDA SUV SIYOSATI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Dilrabo Baxronova,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori
<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0000-0002-2012-7426>

dbaxronova@uzswlu.uz

Nodir Abdushahidov,

Xitoy Changan universitetining PhD tadqiqotchisi

Malohat Jo‘rayeva

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti professori

ANNOTATSIYA

O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi, ko‘plab boshqa mamlakatlarda bo‘lgani kabi, tabiiy resurslarga, ayniqsa suv resurslariga chambarchas bog‘liqdir. Suv siyosatining samarali amalga oshirilishi mamlakatning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda suv siyosatining tarixiy asoslari, hozirgi holati va kelajak istiqbollari keng tahlil qilingan. Suv resurslarining boshqaruvi va ulardan samarali foydalanish borasidagi asosiy muammolar, iqlim o‘zgarishi va transchegaraviy suvlar masalalari muhokama qilinib, ularning yechimi bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan. Shuningdek, suvni tejash, suv ta‘minoti va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha qonunlar o‘rganilib, tavsiyalar berilgan.

***Kalit so‘zlar:** suv siyosati, suv resurslari, suvni tejash, suv ta‘minoti, qonun hujjatlari, barqaror rivojlanish*

WATER POLICY IN UZBEKISTAN: PROBLEMS, SOLUTIONS AND PROPOSALS

Dilrabo Bakhronova,

Professor at the Uzbekistan State University of World Languages

Nodir Abdushahidov,

PhD Researcher at Chang'an University

Malohat Jurayeva,

Professor at the Bukhara Engineering-Technological Institute

ABSTRACT

Uzbekistan's socio-political and economic development, like that of many other countries, is closely tied to its natural resources, particularly water. The effective

implementation of water policy is a key factor in ensuring the country's sustainable development. This article provides a comprehensive analysis of the historical foundations, current state, and future prospects of water policy in Uzbekistan. Key challenges in managing and efficiently utilizing water resources, including climate change and transboundary water issues, are discussed, with practical solutions proposed. Additionally, the legal frameworks concerning water conservation, supply, and management system improvements are reviewed, with recommendations for further development.

Keywords: *water policy, water resources, water conservation, water supply, legislation, sustainable development.*

ВОДНАЯ ПОЛИТИКА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Дилрабо Бахронова,

Профессор Узбекского государственного университета мировых языков

Нодир Абдушахидов,

PhD аспирант Университета Чанъань

Малохат Жураева,

Профессор Бухарского инженерно-технологического института

АННОТАЦИЯ

Социально-политическое и экономическое развитие Узбекистана, как и многих других стран, тесно связано с природными ресурсами, особенно с водными. Эффективная реализация водной политики является важным фактором в обеспечении устойчивого развития страны. В данной статье всесторонне проанализированы исторические основы, текущее состояние и перспективы водной политики в Узбекистане. Рассмотрены ключевые проблемы управления водными ресурсами и их рационального использования, в том числе вопросы изменения климата и трансграничных вод. Предложены практические решения этих проблем. Также изучены законы, касающиеся водосбережения, водоснабжения и совершенствования систем управления, с рекомендациями по их улучшению.

Ключевые слова: *водная политика, водные ресурсы, водосбережение, водоснабжение, законодательство, устойчивое развитие.*

KIRISH

Insoniyat o'tmishi guvohlik beradiki, har qanday jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarda uning rivojlanishi va tanazzuliga olib keladigan turli xil voqea-hodisalar

yuz bergan va yuz bernoqda. Tarixda bo‘lib o‘tgan yong‘inlar, o‘lat, vabo, yoki bugun biz zamonaviy terminda “pandemiya” deb atayotgan turli baxtsiz hodisalar bunga misol bo‘la oladi. Shu qatorda tabiiy resurslar insoniyat taraqqiy etishi va pasayishida ulkan ahamiyatga ega. Xususan, jamiyatdagi hodisalarning tizimli rivojlanishi yoki uning parchalanishida suv resurslari, ularni boshqarish va foydalanish siyosati borgan sari muhim e‘tibor berishni talab qilmoqda. Xo‘sh, mavzu asosidagi bizga juda tanish “siyosat” o‘zi nima? Uning “suv resurslarini nazorat qilish va undan foydalanish” jarayoniga qanday aloqasi bor?

Siyosat termini arabcha سياسة (siyāsa) so‘zidan olinib, asl ma‘noda *otlarni parvarishlash, tarbiyalash va ularni boshqarish* bilan bog‘liq tushunchani anglatgan. Ibtidoiy zamonlardan boshlab otlar insonlarning asosiy transport vositasi va sodiq yo‘ldoshi hisoblangan, zotdor otlarni tarbiyalash va ularga g‘amxo‘rlik qilish uchun maxsus bilim va boshqaruv texnikalariga ega bo‘lish muhim sanalgan. Shu sababli, o‘tgan davrlarda va hozirgi kunda ham otlarni o‘rgatish jarayoni alohida yondashuv va tayyorgarlikni talab qiladi. Bu termin keyinchalik jamiyat va davlatni boshqarish jarayoniga nisbatan kengaytirilib, yunoncha πολιτικά (politika)⁸² tushunchasiga ayni ma‘nosida qo‘llanila boshladi. Bugungi kunda siyosat keng qamrovli termindir, davlatni boshqarish san‘ati, hukumat tizimi, davlat hokimiyatining ichki va tashqi faoliyati, shuningdek, siyosiy tashkilotlar va harakatlarning hokimiyatga munosabati kabi jarayonlarni qamrab oladi, siyosiy manfaatlar va ularning amaliyotda amalga oshirilishini belgilovchi ustuvor yo‘nalishlarni ifodalaydi.

X.T. Odilqoriev va D.H. Razzoqovning ta‘kidicha, siyosatning asosiy maqsadi jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirish orqali mustahkam yaxlitlik, xavfsizlik, barqarorlik va tinchlikni ta‘minlashdir [5, 108]. Ushbu maqsadga erishish uchun siyosat nazariy va amaliy vazifalarni amalga oshiradi. Siyosatning birlamchi vazifasi ijtimoiy muammolarni hal etish, jamiyat xavfsizligini mustahkamlash va barqaror rivojlanishni ta‘minlash yo‘lida ilmiy asoslangan dasturlar, qonun va qarorlarni ishlab chiqishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy muammolarni hal qilishda suv resurslarini boshqarish va ulardan oqilona foydalanish siyosati – **suv siyosati** – tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida ham suv siyosati davlatning barqaror rivojlanishi uchun strategik masala sifatida belgilangan [1]. Ushbu maqola aynan suv siyosati tushunchasi va unga oid dolzarb masalalarni tahlil qilishga qaratilgan.

Globallashgan zamonamizda mamlakatimizda suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish siyosatini talab qilishining to‘rtta sababi bor. Bular:

⁸² Πολιτικά (politika) termini yunoncha polis (shahar) so‘zidan yasalgan bo‘lib, “shahar ishlari” ma‘nosini beradi. U haqida birinchi marta rasmiy ravishda miloddan avvalgi V asrda Arastu tomonidan yaratilgan Πολιτικά (Siyosat) nomli asarda yoritib berilgan.

- 1) Ilmiy-texnika taraqqiyoti va xalq xo‘jaligining rivojlanishi;
- 2) Oziq-ovqat muammosining kuchayib borishi;
- 3) Tabiatda mavjud bo‘lgan suv sifatiga tabiiy va texnogen omillar ta‘sir ko‘rsatayotganligi;
- 4) Yaqin kelajakda dunyoda suv tanqisligi xavfining kuchayishi, buning natijasida mintaqaviy va xalqaro mojarolarning yuzaga kelishi;
- 5) suv resurslarini boshqarish (nazorat qilish) va undan oqilona foydalanishning yildan yilga dolzarblik kasb etishi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish siyosatini ishlab chiqish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Suv tanqisligi tobora kuchayayotgan hozirgi paytda suv muammolarining sabablarini to‘g‘ri aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish zarur vazifa ekanligi tez-tez ta‘kidlanmoqda.

Ko‘pincha suv resurslarini boshqarish deganda, suvni kerakli joyga lozim vaqtda va talab qilingan miqdorda etkazib berish tushuniladi. Biroq, bundan tashqari Suv xo‘jaligi vazirligining asosiy faoliyatiga doir maxsus yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ularga quyidagi kabilar kiradi: yagona suv balansi va Davlat suv kadastrini yuritish; transchegaraviy va ichki daryolar, soylar suvlarini samarali boshqarish hamda tabiiy ko‘llar, suv inshootlari va yer osti manbalarida yetarli suv zaxirasini yaratish orqali mamlakat suv xavfsizligini ta‘minlash; irrigatsiya va melioratsiya tizimini rivojlantirish, iqtisodiyotning barcha sohalaridagi iste‘molchilarni suv bilan uzluksiz ta‘minlash; raqamli texnologiyalarni keng qo‘llagan holda suv resurslarini boshqarish va suv hisobini yuritishning shaffof tizimini yo‘lga qo‘yish; sohaga resurs tejoychi zamonaviy texnologiyalarni, ilm-fan yutuqlari va nou-xaularni keng joriy etish; suvdan foydalanish va suvni boshqarishga bozor mexanizmlarini keng joriy qilish orqali suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish; suvdan unumli foydalanish va suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni tashkil etish; suv xo‘jaligi obyektlarining xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil etish; transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalalari bo‘yicha davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish [1]. Ko‘rinib turibdiki, Farmonda Suv xo‘jaligi vazirligi uchun Suv siyosati yuritishning dolzarb yo‘nalishlari belgilab berilgan bo‘lib, quyida ushbu faoliyatga doir yo‘nalishlarga ayrim fikrlarimizni bildirib o‘tmoqchimiz:

Suv xavfsizligini ta‘minlash: Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan transchegaraviy va ichki suv manbalarini boshqarish, tabiiy ko‘llar va yer osti manbalarida yetarli suv zaxirasini yaratish orqali mamlakat suv xavfsizligini ta‘minlash juda dolzarb masala. Bu yo‘nalish suv resurslarining samarali boshqarilishi va kelajak avlodlar uchun

barqaror suv ta'minotini kafolatlashni nazarda tutadi. Suv xavfsizligi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va ekologik muvozanatini saqlash uchun ham zarurdir.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash: Sohada raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, suv resurslarini boshqarish va hisob-kitob tizimini shaffof qilish, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun muhim qadam hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar resurslarni yanada aniqroq nazorat qilish va suvdan tejamkor foydalanishga yordam beradi.

Bozor mexanizmlarini joriy qilish: Suv resurslarini boshqarishda bozor mexanizmlarini keng joriy qilish taklifi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa resurslar samaradorligini oshirish va suvdan foydalanishda iqtisodiy omillarni hisobga olish orqali suv yetishmovchiligi muammosini hal qilishga ko'maklashadi.

Ilmiy izlanishlar va innovatsiyalar: Sohaga zamonaviy texnologiyalar, ilmiy izlanishlar va innovatsiyalarni kiritish bilan bog'liq ishlarga e'tibor qaratilishi, kelajakda samarali va unumli suv resurslarini boshqarish tizimini yaratishga asos bo'ladi. Bunda nou-xaularni keng joriy etish orqali suv xo'jaligida samaradorlikni yanada oshirish mumkin bo'ladi.

Davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish: Transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo'yicha davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish mintaqaviy barqarorlik va suv resurslari ustidan to'g'ri siyosat olib borish uchun juda muhim. Bu nafaqat ekologik, balki siyosiy ahamiyatga ham ega. Demak, Suv xo'jaligi vazirligi o'z oldidagi vazifalarni bajarish orqali mamlakat suv resurslarini optimal boshqarishni ta'minlaydi, ekologik va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi va hk.

Bu sohadagi yana bir muhim hujjat O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi [2] hisoblanadi, uning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan: suv resurslarini prognozlashtirish, ularning hisobini yuritish va ma'lumotlar bazasini shakllantirish tizimini takomillashtirish hamda shaffofligini ta'minlash; suv xo'jaligi obyektlarini (ichimlik va oqova suv tizimidan tashqari) modernizatsiya qilish va rivojlantirish, yirik suv xo'jaligi obyektlarini boshqarishni raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirish, elektr energiyasi va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish, sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash; suv omborlari, sel-suv omborlari va boshqa suv xo'jaligi obyektlarining xavfsizligini hamda ishonchli ishlashini ta'minlash; suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suvdan foydalanish va suv iste'moli hisobini yuritishda "Smart Water" ("Aqlli suv") va shu kabi raqamli texnologiyalarni joriy qilish; qishloq

xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda suv tejevchi sug‘orish texnologiyalarining joriy qilinishini yanada kengaytirish va davlat tomonidan rag‘batlantirib borish, ushbu sohaga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish va hk [2].

Aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha 2020 – 2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlari mamlakat suv resurslarini barqaror boshqarish, modernizatsiya va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan. Ushbu konsepsiyaning dolzarbligi mamlakatdagi suv resurslarining cheklanganligi, iqlim o‘zgarishlari va transchegaraviy suv omborlarining strategik ahamiyati bilan bog‘liq. Konsepsiyada raqamli texnologiyalar, xususan, “Aqlli suv” tizimining joriy etilishi suv hisobini shaffof va samarali yuritish imkonini beradi. Bu esa suv resurslarining adolatli taqsimlanishi va isrof bo‘lishining oldini olishda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi [9].

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish orqali suv xo‘jaligi obyektlarining modernizatsiyasi va energiya tejamkor texnologiyalarni kiritish masalalari ham katta ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligida suv tejevchi texnologiyalarning davlat tomonidan rag‘batlantirilishi suvdan unumli foydalanish va ekin maydonlarini sug‘orish tizimlarini takomillashtiradi.

Konsepsiyada transchegaraviy suv resurslari masalalarida davlatlararo hamkorlik va muvozanatni saqlash bo‘yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqish lozimligi ta’kidlangan, bu esa mintaqaviy barqarorlik va resurslardan birgalikda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Umuman olganda, mazkur konsepsiya suv resurslarini samarali boshqarish, iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror suv bilan ta’minlash va ekologik barqarorlikni saqlashda muhim hujjatlardan biridir. Konsepsiyani uning ustuvor yo‘nalishlari va tegishli davrga mo‘ljallangan maqsadli parametrlari va ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, har uch yilda tasdiqlanadigan O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirish strategiyalari orqali bosqichma-bosqich amalga oshirish ham Farmonda belgilab qo‘yilgan.

Kaliforniya universiteti suvsiyosatshunos olimlari Jay R. Lund va M.S.Israel suv resurslarini boshqarish nafaqat texnik-muhandislik masalasi, balki muhim siyosiy jarayon ham ekanligini ta’kidlaydilar [6, 193-204]. Ularning fikricha, suv resurslarini boshqarishning siyosiy xarakteri shundan iboratki, bu jarayonni faqat texnik yondashuv bilan cheklab bo‘lmaydi. Suv resurslarini boshqarishni siyosiy nuqtai nazardan baholash va ushbu resurslardan foydalanishni siyosiy jihatdan bahsli yoki qarama-qarshi manfaatlarga ega bo‘lgan jarayon sifatida ko‘rish zarur (masalan, transchegaraviy daryolar, suv havzalaridan foydalanishda manfaatlar to‘qnashuvi

kabi). Bunday yondashuvda suv nazorati suv resurslarini boshqarishning markaziy predmeti hisoblanadi. Demak, *suv siyosati yoki suv resurslarini boshqarish siyosatini quyidagicha ta'riflash* mumkin: fuqarolar, jamiyat va tabiatning suvga bo'lgan ehtiyojlarini turli davrlarda zarur miqdor va sifatda qondirish maqsadida muayyan davlat tomonidan olib boriladigan boshqaruv siyosati. Bu siyosat ilmiy, tashkiliy, texnik, huquqiy, ekologik va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish hamda nazorat qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, sho'rolar davrida O'zbekistondagi suv siyosati asosan yirik paxta markazini barpo etishga yo'naltirilgan edi. O'sha davrda "Tabiatni xalqqa bo'ysundiraylik" kabi shiorlar va "Sug'orish uchun suv manbalaridan imkon qadar ko'proq foydalanish, uning miqdori cheksizdir" degan noto'g'ri qarashlar shakllandi. Paxta monopoliyasining salbiy oqibatlari nafaqat O'zbekiston aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashda jiddiy qiyinchiliklarga olib keldi, balki almashlab ekish tizimi izdan chiqdi, yer unumdorligi kamaydi va suv resurslari tanqisligi yanada kuchaydi.

L. Pereyra va V. Duxovniyning ta'kidlashicha, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, suv siyosatining o'tish davri qator muammolar bilan kechgan. Mamlakat yirik suv infratuzilmasi, jumladan, katta inshootlar, noyob nasos stansiyalari, to'g'onlar va kanallarni meros qilib oldi. Biroq bu infratuzilmaning eskirganligi va suv ta'minoti hamda taqsimlash tizimlarining yaroqsiz holga kelishi yangi muammolarni keltirib chiqardi [7].

2000-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Kofi Annan, XXI asrda suv tanqisligi global miqyosda sog'liqni saqlashning yomonlashishi va oziq-ovqat xavfsizligining keskin pasayishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlagan edi [8]. BMT tasnifiga ko'ra, O'zbekiston suv tanqisligini boshdan kechirayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatning kelajakdagi suv resurslariga mintaqaning asosiy daryolarini oziqlantiruvchi muzliklarning tez erishi, iqlim o'zgarishining boshqa jihatlari, shuningdek, suvga bo'lgan ehtiyojning o'sishi va sanoatning rivojlanishi ta'sir ko'rsatadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, suv ta'minotining 10-20 foizga qisqarishi sug'oriladigan yerlar maydoni va aholi bandligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ning pasayishiga olib kelishi ehtimolini oshiradi. Sug'orma dehqonchilik, kommunal va sanoat sektorlarini hamda atrof-muhitni muhofaza qilish ehtiyojlarini qondirish uchun suv resurslarining samarali boshqarilishi mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'rischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisida Markaziy Osiyoda suv taqchilligi masalasi bo'yicha bildirgan quyidagi fikrlari bu sohada

amalgama oshirilishi kerak bo'lgan qator dolzarb muammo va vazifalar oldimizda turganligini ko'rsatadi: "Muzliklarning erishi, tabiiy ofatlar, shuningdek, shiddatli demografik o'sish, urbanizatsiya jarayonlari va sanoatlashuv natijasida yuzaga kelayotgan texnogen omillar tufayli mintaqada suv va ekologiya bilan bog'liq vaziyat yomonlashib borayotgani va uning oqibatlari alohida xavotir uyg'otmoqda. Hamkasblarim yaxshi biladi, Markaziy Osiyoda suv taqchilligi muammosi o'tkir va muqarrar tus oldi hamda bundan buyon u tobora chuqurlashib boraveradi. Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, Markaziy Osiyoning ayrim mintaqalarida 2040-yilga borib suv resurslariga bo'lgan ehtiyoj uch barobar oshadi. Vaqt o'tishi bilan iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, hozirning o'zidayoq mintaqa davlatlari suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yiliga 2 milliard dollargacha mablag' yo'qotmoqda" [3].

Yuqoridagi o'rganganlarimizni umumlashtirib, O'zbekistonda suv xo'jaligini boshqarishdagi asosiy tahdid va muammolarni quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

1. Iqlim o'zgarishi va transchegaraviy munosabatlar tufayli suv resurslariga tahdidlar. Mintaqada yuz berayotgan global iqlim o'zgarishi, xususan, Amudaryo va Sirdaryo havzalari muzliklarining tez erishi, suv oqimlarining kamayishiga olib kelmoqda. Prognozlarga ko'ra, iqlim o'zgarishi oqibatida 2030-yilga kelib O'zbekistonning sug'orish uchun foydalaniladigan suv resurslari miqdori 10-15% gacha qisqarishi mumkin. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi transchegaraviy suv resurslarini taqsimlash masalalari, xususan, Toshkent va Dushanbe, Toshkent va Ashxobod, Toshkent va Kobul o'rtasidagi muzokaralar suv taqsimoti bo'yicha kelishmovchiliklarning oldini olishga qaratilmoqda. Bu esa mamlakat suv xo'jaligiga tahdid tug'diruvchi asosiy omillarni oldini olish, o'zaro kelishuv asosida ish yuritishni ta'minlaydi.

2. Suv xo'jaligining institutsional muammolari. Suv resurslarini boshqarish bo'yicha mas'ul tashkilot va idoralar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning samaradorligini past darajadan yuqori darajaga olib chiqish, bu resurslardan samarali foydalanishga to'sqinlikning oldini olishga yordam beradi. Shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida suv narxlarini belgilash va suvdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini joriy etish masalalari ham dolzarbdir. O'zbekistonda suv taqsimoti va uning boshqaruv tizimini isloh qilishda davlat-xususiy sheriklik va bozor tamoyillariga asoslangan yondashuvlarni kuchaytirishga erishilmoqda.

3. Suv xo'jaligining texnologik muammolari. O'zbekistonning ko'plab suv inshootlari, shu jumladan eskirgan nasos stansiyalari va sug'orish tizimlarini tizimli modernizatsiya qilish. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, suvni tejashga

yo‘naltirilgan “Smart Water” texnologiyalari, raqamli boshqaruv tizimlari va energetik samarador usullarni keng joriy etish suv resurslarini tejash va boshqarishda sezilarli darajada samaradorlikka erishishga imkon beradi. Masalan, O‘zbekistonning ayrim qishloq xo‘jaligi hududlarida tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish natijasida suv sarfini 40% gacha qisqartirish mumkinligi asoslab berilmoqda.

4. Kadrlar va tadqiqot muammolari. Suv xo‘jaligi sohasidagi malakali mutaxassislar yetishmovchiligi va ilmiy tadqiqotlarning kamligi sektorning samaradorligiga to‘sqinlik qilmoqda. O‘zbekiston suv xo‘jaligida innovatsion va zamonaviy yondashuvlarni keng joriy qilish, mutaxassislar malakasini oshirish hamda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirishda ba‘zi yutuqlar qo‘lga kiritilayotgan bo‘lsa-da, hali bu tizimda global samarador natijalarga erishilmadi. Xususan, suv tejash va samarali boshqarish texnologiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni moliyalashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirish dolzarb vazifadir.

Iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan muammolar O‘zbekistonda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatiga, suvning sifati va miqdoriga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Iqlim isishi oqibatida suv resurslarining kamayishi nafaqat qishloq xo‘jaligi, balki ichimlik suv bilan ta‘minlash tizimiga ham tahdid tug‘diradi. Shu bilan birga, suv resurslarining iqlim o‘zgarishi natijasida kamayishi O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga va aholi turmush darajasiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham mustaqilikning o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ekologiya va suv masalasiga to‘xtalib, “Bugun bizning oldimizda turgan yana bir muhim masala – ekologik muammolar va suv tanqisligidir. Tarozining bir pallasida o‘sib borayotgan qurilishlar, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi turgan bo‘lsa, ikkinchi pallasida har birimiz uchun eng zarur bo‘lgan suvni tejash, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi turibdi” [4], deb ta‘kidlagani bu muammolarning dolzarbligi va davlat diqqat-markazda turganligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoning suvga bo‘lgan talabi asosan transchegaraviy daryolar – Amudaryo va Sirdaryo hisobidan qondiriladi. O‘zbekistonda suv muammolarining oldini olmaslik mamlakatimizda suv tanqisligiga olib kelishi mumkin [8]. Shu sababli, O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish sohasidagi siyosatni ishlab chiqishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1) Transchegaraviy hamkorlikni rivojlantirish va suvni tejash dasturlarida ko‘rsatilgan Yo‘l xaritalarida belgilangan vazifalarni vaqtida va samarali bajarish;

2) Suv siyosati va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, shu jumladan sohaga bozor tamoyillarini rivojlantirish;

3) Aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishiga erishish uchun samarali siyosat ishlab chiqish, oilada, maktabgacha va boshqa ta'lim tizimlarida "suv – muqaddas" tushunchasi ostida darslar tashkil qilish, suvni tejash va ifloslantirmaslik yuzasidan OAVlarda ta'sirli va jozibador rolik, ko'rsatuvlar sonini ko'paytirish, suvga munosabatni aniqlash maqsadida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

4) Sug'orma dehqonchilikda suvni tejash chora-tadbirlarini amalga oshirish va iqtisodiyot tarmoqlari uchun moslashuvchan taqsimot mexanizmlarini yaratish, to'laqonli tomchilab sug'orish tizimiga o'tish, tomchilab sug'orishda yetakchi Ispaniya kabi rivojlangan davlatlar tajribasini amalda qo'llashni ko'paytirish;

5) Suv resurslarini davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish va kompleks boshqarish tamoyillarini joriy etish; infratuzilmani tubdan modernizatsiya qilish va suv xo'jaligini rivojlantirish; suv resurslarini doimiy hisoblash va hisobga olish tizimini takomillashtirish;

6) Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, kadrlarning ilmiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirish va loyiha tashkilotlarining natijador yangiliklarini samarali qo'llash;

7) Suv omborlarini qurish va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xalqaro ekspertlarni jalb qilish; suv xo'jaligi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, fan yutuqlarini keng joriy etish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) keng joriy etish.

Yuqoridagi chora-tadbirlar va vazifalarning amalga oshirilishi mamlakatimizda suv siyosatining rivojlanishini ta'minlaydi va kelajakda suv tanqisligining oldini olishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

[1] "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07-may 2024-yildagi PF-74-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/docs/-6913766>

[2] "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 10.07.2020-yildagi PF-6024-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-4892953>

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta‘sischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/6662>

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/6637>

[5] Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Darslik. – Toshkent, 2012.

[6] Lund J. R. & Israel, M. S. (1995). Water transfers in water resources systems Journal of Water Resources Planning and Management, 121(2), 193-204.

[7] Управление орошением для борьбы с процессами опустынивания в бассейне Аральского моря. Оценка и инструменты / Общ. ред. Л. С. Перейра, В. А. Духовного, М. Г. Хорста (часть 2. Бассейн Аральского моря: прошлое, настоящее и будущее) <http://www.cawater-info.net/bk/improvement-irrigated-agriculture/files/dukhovny-pereira.pdf>

[8] Abdushakhidov N.B., Madhab Rijal. (2024) *Effective Use of Water Resources for Sustainable Water Security in Uzbekistan*. AMERICAN Journal of Engineering, Mechanics and Architecture/ Volume 2, Issue 4, ISSN (E): 2993-2637.

[9] *Emerging Trends in Smart Societies Interdisciplinary Perspectives (2024)* / Edited By Worakamol Wisetsri, Philip Clingan, Rocky J. Dwyer, Dilrabo Bakhronova Copyright 2024.

UDK 796.01

YETKAZIB BERISHLAR ZANJIRIDA OQIM JARAYONLARINI BOSHQARISHDA TIZIMLI YONDASHUV

G.A. Samatov

Toshkent davlat transport universiteti "Transport tizimlarini boshqarish"
fakulteti " Transport logistikasi " kafedrası mudiri, professor,

transportlogistikasi@mail.ru

+998908269056

M. S. Burixojayeva

Toshkent davlat transport universiteti "Transport tizimlarini boshqarish"
fakulteti "Transport logistikasi" kafedrası katta o'qituvchisi

maloxatburixadjaeva@gmail.com

+998971957779

ANNOTATSIYA

Hozirda yetkazib berishlar zanjirini tizimli boshqarish tadqiqotning istiqbolli yo'nalishiga aylanib bormoqda, uning tuzilishi mahsulot, xizmat, axborot va intellektual oqimlarning integratsiyasi va o'zaro moslashuvi sharoitida rivojlanishda davom etmoqda, bu esa o'z navbatida fanlararo tahlil uchun yangi imkoniyatlarni ochib boradi. Logistikadan farqli o'laroq asosiy nazariy va uslubiy asoslar allaqachon tizimlashtirilgan, integratsiyalashgan, yetkazib berishlar zanjirini tizimli boshqarishda (asosan ko'p darajali, yetkazib berishlar zanjirlarida) bu jarayon faqat o'z rivojlanishini boshlamoqda. Shuning uchun ushbu maqolada yetkazib berishlar zanjirlarini optimallashtirish masalalari va ishonchlilik, barqarorlik, moslashuvchanlik nuqtai nazaridan ularga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda nazariyalar, usullar va modellar, iqtisodiy ko'rsatkichlar, mavjud atamalar va ta'riflar tahlil qilinadi. Operasion, taktik va strategik menejmentning o'zaro bog'liqligiga asoslangan logistika tizimlarini tizimli boshqarishni shakllantirishga yondashuv taklif etiladi.

Kalit so'zlar: "Yetkazib berish" tushunchasi, integratsiya, SCM (yetkazib berishlar zanjiri boshqarish), moddiy oqim, xizmatlar oqimi, uyg'unlashtirish, eksponensial, benchmarking, yuk tashish logistikasi, logistika tushunchasi, oqim tushunchasi, ta'minotni boshqarish uslublari, ,chegirma, zanjir samaradorligi.

KIRISH

Integratsiya tushunchasi logistika va yetkazib berish zanjirini boshqarishning uslubiy bazasining asosi bo'lganligi sababli, logistika integratsiyasini tasniflashning

mavjud xususiyatlarini ta'kidlash o'rinlidir. Quyidagi qavs ichida ko'rsatilgan to'rtta asosiy xususiyatni va ularga mos keladigan integratsiya variantlarini Chepurin [2013] aniqlaydi:

- o'zaro ta'sir turi (muvofiqlashtirish, hamkorlik, uyg'unlashtirish),
- yetkazib berishlar zanjirida joylashish (ichki, tashqi, kombinasiyalangan),
- integratsiya darajasi (individual operatsiyalar va vazifalari, ta'minot zanjiri ishtirokchilari),

- yetkazib berishlar zanjirida rivojlanish iyerarxiyasi (gorizontal, vertikal).

Oxirgi tasniflash mezonni birlashtirilgan integratsiya turi (gorizontal va vertikal integratsiya shakllarining kombinatsiyasi), shuningdek umuman quyidagi tasniflash mezonlari bilan to'ldirilishi mumkin:

- yetkazib berishlar zanjiridagi darajalar soni (ikki va uch bosqichli tuzilma),
- integratsiyalashgan logistika tizimlarining turi (chiziqli, konsentratsiya, tarqatish, kombinasiyalangan tuzilishga ega),

- hisobga olingan oqimlar soni (bir guruh: moddiy, xizmat, moliyaviy yoki xodimlar, ikki guruhli: moddiy va moliyaviy va boshqa mumkin bo'lgan kombinatsiyalar, uch guruhi va to'rt guruhi).

Taklif etilayotgan tasniflash mezonlarini hisobga olgan holda, tizim tahliliga asoslangan ko'p darajali yetkazib berishlar zanjirlarini boshqarishning umumlashtirilgan strategiyasini rejalashtirish jarayoni ko'rib chiqiladi. Dastlab, tadqiqot obyekti kirish va chiqishlarga ega "qora quti" sifatida qaraladi. Keyin tizimning parchalanishi amalga oshiriladi (1-rasm). Logistika tizimini tahlil qilish asosida uning barcha elementlari yoki quyi tizimlari, ular orasidagi aloqalar, ularga tegishli kiruvchi va chiquvchi oqimlar topiladi.

Tahlil jarayoni tarkibiy modelni qurish bilan yakunlanadi, unda birlashtirilgan sxemaga ega tizimlarning xususiyatlarini hisobga olish kerak, uning maxsus holatlari eng oddiy tizimlarga (a-s, s-d va boshqalar mos keladi. 1-rasm), ikki va uch bo'g'inli tuzilishga ega tizimlar (a-c-d, b-c-d va boshqalar.) yoki ishlab chiqarish va tarqatish tizimlariga xos bo'lgan tuzilishga ega (c-d/e, a-c-d/e va boshqalar.) [Lukinskiy va boshq., 2016]. Mualliflarning fikriga ko'ra, parchalanish yordamida har qanday logistika tarmog'i alohida oddiy logistika zanjiri (OLZ) sifatida taqdim etilishi mumkin.



1-rasm. Ko‘p darajali yetkazib berishlar zanjirlarida xarajatlarni hisoblashning umumlashtirilgan modeli

Keyingi bosqichda tizimning sintezi amalga oshiriladi, uning maqsadi tizimning oqilona tuzilishini topish va uning alohida elementlari parametrlarining maqbul qiymatlarini aniqlashdan iboratdir. Sintezni ishonchlilik, barqarorlik va moslashuvchanlik uchun texnik talablar qondiriladigan bunday tizim qurilishiga bog‘liq bo‘lgan muhandislik vazifasi sifatida ham talqin qilish mumkinligi sababli, cheklovlarni hisobga olgan holda, masalan, Xarris-Uilson modeli kabi ideal modellarni takomillashtirish kerak (1-rasm).

Ishtirokchilarning manfaatlarini va ularning integratsiya qilish istagini aks ettiruvchi shaxs EOQ modelidan o‘zgartirilgan modelga o‘tish oddiy logistika zanjiri (OLZ) konsepsiyasini amalga oshirishga imkon beradi [Lukinskiy va boshq., 2011]. Masalan, logistika sohasida uchinchi shaxslar deb nomlangan asosiy vositachilar tomonidan taqdim etilgan qo‘shimcha aloqalarni kiritish logistika zanjirining kengayishiga olib keladi. To‘liq yoki qisman tashishni, omborda yuklarni qayta ishlashni, shuningdek, axborot va moddiy oqimlar bilan bog‘liq boshqa xizmatlarni amalga oshiradigan 3 PL provayderlarini hisobga olish ishtirokchilarning rolini belgilash va logistika oqimlarini kompleks boshqarishni talab qiladi. Tizimni kengaytirish natijasida ko‘p darajali yetkazib berish zanjirlarida xarajat modeli uchun maqbul parametr qiymatlarini topish muammosini hal qilish, bunda ishtirokchilarni shaxsiylashtirish, yetkazib berishda uchinchi tomonning manfaatlarini hisobga olgan holda oqimlarni uyg‘unlashtirish, turli xil parametrlarning ko‘pligi va javoblarni topish variantlarining noaniqligi tufayli deyarli har doim qiyinroq bo‘lib chiqadi. Shuning uchun, qiyin holatlarda, analitik yadraning shakllanishi EOQ modeliga asoslangan oddiy logistika zanjirlaridan boshlanadigan modellashtirishga murojaat

qilish mumkin. Oddiy logistika zanjirlarining barcha ishtirokchilarini: xizmatlarning bir qismini autsorsing qilish mumkin bo'lgan yetkazib beruvchilar, iste'molchilar, vositachilarni shaxsiylashtirish, ishtirokchilar o'rtasida xarajatlarni taqsimlash va ularni mahsulot narxidagi qo'shilgan qiymat va pulning vaqt qiymatini hisobga olgan holda taqdim etish zarurati tug'iladi [Lukinskiy, 2008].

Ushbu g'oyalar moddiy (ya'ni YeOQ modeli) va moliyaviy oqimlarni (chiquvchi va kiruvchi to'lovlar) integratsiyasi uchun asos bo'lib, G.L. Brodeskiy, S.E. Barikin, A.G. Butrin, S.A. Karpunin, V.V. Lukinskiy larning tadqiqotlarida ishlab chiqilgan. [Brodesky, 2008; Butrin, 2003; Lukinskiy, 2012; Lukinskiy va Panova, 2017]. Moddiy va axborot oqimlarining integratsiyasi yetkazib berishlar zanjirini boshqarish modellari va usullarini shakllantirishning nisbatan yangi yo'nalishidir bu muallifning ishlarida o'z aksini topgan [Lukinskiy, 2012b]. O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, axborot oqimlari, hujjatlar tahlili, tegishli xarajatlar bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar, to'ldirilgan barcha turdagi qurilmalar (RFID-ombordagi skanerlar va sensorlar) atrof-muhit haqida qo'shimcha ma'lumot olish va ishonchli boshqaruv qarorlarini qabul qilish orqali taqdim etilishi mumkin.

Natijada, moddiy va axborot oqimlarining integratsiyasi va uyg'unlashtirish xarajatlarning pasayishiga, tanqislik bilan bog'liq xarajatlarning kamayishiga olib keladi, shuningdek yetkazib berish zanjirining ishonchliligini oshiradi. Materiallar va axborot oqimlarining integratsiyasini tavsiflovchi logistika modellari va usullaridan tashqari, yetkazib berish zanjirlarida kadrlar oqimini boshqarish uchun vositalar ishlab chiqilmoqda [Budrina va boshq., 2006]. Shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi oqimlar bilan uyg'unlashtirish xizmatlar oqimlari logistika modellari va usullari nuqtai nazaridan ham tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Barcha oqimlarni birlashtirish variantlaridan biri "**qamchi samarasi**" ni tahlil qilish kontekstida taqdim etilishi mumkin [Sergeyev, 2014], uning ta'sirini baholash va salbiy oqibatlarini tekislash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. [Lukinskiy va boshq., 2016].

B.A. Anikin, V.V. Dibskaya, V.S. Lukinskiy, L.B. Mirotin, Yu.M. Nerush, O.D. Prosenko, Yu.I. Rijikov, V.I. Sergeyev, S.A. Uvarov va boshqa mualliflar tadqiqotida logistika ilmiy bazasining modellari va usullarini tizimlashtirishga bir necha bor urinishlar qilingan. Masalan, "logistika nazariyasining modellari va usullari" [Lukinskiy va Lukinskiy, 2007] kitobida XIX asr oxiridan XXI asr boshlarigacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi logistika va yetkazib berishlar zanjirini boshqarishning asosiy modellari keltirilgan tasnif berilgan. Modellar va usullar evolyusiyasining xronologik jadvaliga Pareto V., Veber A., Xarris F., Uilson R., Taft, Ye., Raymond, F., Laundxardt, V., Reyli, U.D., Kantorovich, L.V., Dansig, Dj. (Vud

M.), Xichkok, F.L., Kupmans, T. I., Xolt, Ch., Forrester, Dj., Vinters, P., Fetter, R., Smaykey, E., Bauersoks, D., Mossman, F., Braun, R. kabi mualliflar kiradi.

Logistika va yetkazib berishlar zanjiri boshqaruvining ilmiy bazasini rivojlantirishning xronologik tavsifiga yana bir yondashuv Rikalinaning [2016] tadqiqotlarida keltirilgan. Muallif logistika faoliyatining quyi tizimlarida (moddiy va texnik ta'minot, omborxonasi, ishlab chiqarish jarayoni, transport va ta'mirlash obyektlari, inventarizatsiyani boshqarish, sotish faoliyati) qo'llaniladigan 145 ta usulning maqsadlariga ko'ra (rejalashtirish, prognozlash, qiyosiy, optimallashtirish) tasnifini taqdim etadi. Modellar va usullarning tavsiya etilgan tasniflari logistika boshqaruvining asosiy logistika tushunchalari va g'oyalari (to'liq logistika xarajatlari tushunchasi, biznes jarayonlarini reinjiningi, integratsiyalashgan logistika, yetkazib berishlar zanjirini boshqarishning logistika kontsepsiyasi) asoslanadi. Bu esa aksariyat amerikalik mualliflarning J.R.Stok va D.M. Lambert Druker, P.F., Kirkman, B.L., Bauersoks, D.Dj., Lyuis, X., Kalliton, V., Stil, D., Klark, G., Rayt, Dj., Shapiro, D. L., Porter, M, Xammer, M, Champi, D. [IRMA, 2016] ilmiy ishlarida ko'rsatilgan.

Logistika tizimlarining barqaror rivojlanishi uchun fanlararo kontsepsiya va metodologiyani shakllantirishning asosiy bosqichi nafaqat logistika, menejment va marketing modellari va usullarini, balki ularning ilmiy nazariyalarini ham tizimlashtirish kerak. Mahalliy mualliflar tomonidan taklif qilingan shartli va umumiy «intizomlar» bo'yicha modellar, usullar va nazariyalarni tizimlashtirish qiziqish uyg'otadi (1-jadval), [Lukinskiy va Lukinskiy, 2007; 2016].

1-Jadval.

Logistikaning ilmiy bazasini tashkil etuvchi fanlar [Lukinskiy va Lukinskiy, 2007; 2016]

Yil	Mualiflar	Shartli ravishda kiritilgan "fanlar"	Shartli ravishda kiritilgan va umumiy fanlar soni
1996	S.A.Uvarov	Kibernetika, axborot nazariyasi, qarorlar nazariyasi, topologiya, o'yin nazariyasi, omillarni tahlil qilish, umumiy tizimlar nazariyasi	7(3)
1997	V.I.Sergeyev	Matematika (7), operatsion tadqiqotlar (9), texnik kibernetika (10), iqtisodiy kibernetika va Iqtisodiyot (20)	46(4)
2001	V.Ye.Nikalaychuk	Usullarning uchta guruhi (iqtisodiy va matematik, prognozlash usullari 23 (3) va norasmiy usullar), ulardan birinchisi uchta umumiy fanga (matematika, iqtisod va kibernetika) asoslangan	23(3)

		bo‘lib, ular o‘z navbatida 23 ta shartli ravishda kiritilgan "fanlarni" o‘z ichiga oladi	
2001	A.D.Chudakov	Usulning 2 (2) guruhidan iborat iqtisodiy va matematik usullar: shartli ravishda kiritilgan ikkita "fan" ga asoslangan algoritmik va evristik usullar. (iqtisodiy kibernetika va optimal yechimlar nazariyasi)	2(2)
2009	Yu.V.Malevich	Marketing, menejment va logistikaning asosiy usullari 18 (4) hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar sinfiga qarab tizimlashtiriladi (masalan, marketingda sakkiz turdagi vazifalar hal qilinadi: bozor tadqiqotlaridan qaror qabul qilishgacha; menejmentda oltitasi-korxonaning joylashuvi va ishlab chiqarish tuzilishini tanlashdan kompaniya rejalashtirish vazifalari (ehtiyotlar, ishlab chiqarish dasturi, moliyaviy rejalashtirish va boshqalar.) inson resurslarini boshqarish; logistikada to‘rtta-individual funktsiyalar va operatsiyalarni qamrab oladigan modellar va usullardan tortib, butun yetkazib berishlar zanjirini qamrab oladigan modellar va usullargacha	18(4)

Malevich [2009]ning tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan muammolarga ko‘ra, alohida qo‘llaniladigan sohaga tegishli bo‘lgan har biri muammolar birinchi sinfiga kiradi. Biroq, muallifning fikriga ko‘ra, muammolarning ikkinchi sinfini aniqlash mumkin, ularni hal qilish har bir yo‘nalishning modellari va usullari o‘rtasidagi chegaralarni xiralashtirishni talab qiladi, bu ularning mumkin bo‘lgan kombinatsiyalarida (marketing yoki menejmentda logistika yoki logistika marketingda) aks etadi. Tarqatish markazining koordinatalarini aniqlash kabi murakkabroq muammolarni (3-sinf) hal qilishda uchta ilmiy yo‘nalish uchun umumiy usullar qo‘llaniladi - qaror qabul qilish, prognozlash va boshqalar [Malevich, 2009].

Logistika nazariyasining modellari va usullarini tasniflashga o‘xshash yondashuv (hal qilingan muammolar sinflari bo‘yicha) ilgari taklif qilingan [Lukinskiy, 2007]. Mualliflar tomonidan taqdim etilgan parchalanish hal qilinishi kerak bo‘lgan uchta muammolar sinfidan iborat:

- 1) tashqi muhitdan cheklovlarsiz, noaniqlik sharoitida,
- 2) xavf va noaniqlik sharoitida,
- 3) cheklovlarni xisobga olgan xolda (raqobat).


O‘z navbatida, har bir sinfdan uchta tur mavjud:

- 1) ushbu sinfning modellari va usullari individual logistika operatsiyalari yoki funktsiyalarini qamrab oladi,

- 2) ikki yoki undan ortiq operasiyalar va funktsiyalar,
- 3) butun logistika tizimini qamrab olish uchun mo'ljallangan, va ikkita guruhdan foydalaniladi.
 - a) optimallashtirishsiz,
 - b) optimallashtirish proseduralaridan foydalanish.

Integratsiyalashgan logistika evolyusiyasining hozirgi bosqichida mahsulotni ishlab chiqarish, ishlab chiqarishni boshqarish, talab, moddiy oqimlarni qaytarish, iste'molchilar bilan o'zaro munosabatlar, mijozlarga xizmat ko'rsatish, buyurtmalarni bajarish, yetkazib berishda asosiy biznes jarayonlarini birlashtirishga logistika, menejment va marketing sohasida katta e'tibor qaratilmoqda. [Lukinskiy va Panov, 2017].

Keyinchalik tahlil qilish va qo'shish uchun istiqbolli nazariyalar nafaqat logistikaning operasion komponenti uchun asos bo'lgan nazariyalarni (navbat nazariyasi, o'yin nazariyasi, inventarizasiyani boshqarish nazariyasi, qarorlar nazariyasi, tiklanish nazariyasi, ishonchlilik nazariyasi), balki bir qator nazariyalarni ham o'z ichiga oladi. Ulardan foydalanish ishlab chiqarishni tavsiflashga imkon beradi va buyurtmalarni bajarish jarayonlari, pul oqimlari, shuningdek tegishli ma'lumotlar, xodimlar va xizmatlar oqimlari (Markovis portfeli nazariyasi, resurslar nazariyasi, shuningdek agentlik munosabatlari nazariyalari, innovasiyalarning tarqalishi, manfaatdor tomonlar, istiqbollor, tranzaksiya xarajatlari, ma'lumotlarning to'yinganligi, risklarni boshqarish, foydalilik, modellashtirish, tizim cheklovlari).



MU-model va usul, T-Tavsiflovchi, E-Evristik, IM-Iqtisodiy va matematik, YeBZKB-Yetkazib berishlar zanjiri kompleks boshqarish.

2-rasm. Yetkazib berishlar zanjirini kompleks boshqarish nazariyalari, modellari va usullarini tizimlashtirish

Ko‘rib chiqilgan nazariyalar turli xil fan toifalariga (fundamental, amaliy, ijtimoiy, falsafiy) mansubligi nuqtai nazaridan tizimlashtirilishi mumkin (4-rasm). Integratsiyalashgan yetkazib berish zanjirini boshqarish masalalari kompyuter fanlari, operatsiyalarni tadqiq qilish, buxgalteriya hisobi, iqtisodiyot, moliya, muhandislik, informatika, tilshunoslik, falsafa, psixologiya, sosiologiya, statistika, inson resurslarini boshqarish va boshqa fanlarni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli fanlarni qamrab oladi. Modellar va usullar to‘plami (MiM, 4-rasm). Bu xususiyat logistika individual funksional sohalarda keyingi integratsiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin (2-rasm), ular turli fanlarning metodologiyasiga asoslangan edi.

Shuning uchun, masalan, asosiy funktsiyalarni amalga oshirish quyidagi amaliy fanlarning fanlararo vositalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi:

- logistika va marketing (mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, sifat standartlarini qo‘llab-quvvatlash, sotishdan keyingi xizmat), asosan marketing (talabni prognoz qilishda);

- logistika (buyurtma proseduralarini boshqarishda);

- operasion va ishlab chiqarishni boshqarish (ishlab chiqarish tartib-qoidalarini qo‘llab-quvvatlashda);

- strategik va ishlab chiqarishni boshqarish (moddiy resurslarni sotib olishni boshqarishda).

Ba’zi qo‘llab-quvvatlovchi funktsiyalarni bajarish (mahsulotni ishlab chiqish va tijoratlashtirish, qaytish oqimini boshqarish) kompaniya darajasida biznesni rejalashtirish, loyihalarni boshqarish, atrof-muhitni boshqarish va boshqalar bilan munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, moddiy, axborot, moliyaviy, xizmat ko‘rsatish va kadrlar oqimini boshqarishning ilmiy asoslari birinchi navbatda logistika, menejment va marketing nazariyasining modellari va usullaridan iborat:

- transport modellari (tayinlash muammosi, oraliq nuqtali transport modeli va boshqalar);

- tarmoq modellari (eng qisqa yo‘l, maksimal oqim muammosi, usullarni qidirish tarmoqni rejalashtirish, minimal xarajatlar oqimini topish muammosi va boshqalar);

- deterministik va ehtimolli dinamik dasturlash modellari (takroriy oldinga va orqaga algoritm, investisiya muammosi, maqsadga erishish ehtimolini maksimallashtirish va boshqalar);

■ resurslarni boshqarish boshqarishning deterministik va ehtimolli modellari (statik model, iqtisodiy buyurtma hajmining dinamik vazifalari, inventar darajalarini doimiy nazorat qiluvchi model, ko‘p bosqichli modellar va boshqalar);

■ markov qarorlarini qabul qilish jarayonlari (cheklangan sonli bosqichli dinamik dasturlash modeli, cheksiz sonli bosqichli model va boshqalar);

■ navbat tizimlari (o‘lim va ko‘payish modellari, navbat tizimining umumiy modeli, maxsus tizimlar va boshqalar);

■ aniqlik, xavf, noaniqlik va boshqalar sharoitida mos ravishda o‘yinlar va qaror qabul qilish nazariyasi;

■ imitasion modellashtirish (Monte-Karlo usuli, diskret modellashtirish, tasodifiy sonlarni yaratish, tasodifiy jarayonlarni modellashtirish, dinamik modellashtirish va boshqalar);

■ o‘rtacha ko‘rsatkichlar dinamikasi usuli (holatlarning o‘rtacha sonining chegaralangan xatti-harakati, aralash tipdagi tenglamalar, «yirtqich-o‘lja» tipidagi muammolar va boshqalar);

■ prognozlash usullari (oddiy va eksponensial (namunali) tekislash, mavsumiylikni hisobga olgan holda ko‘p faktorli trend modellari, prognozlar sintezi va boshqalar).

Zamonaviy sharoitda (logistika funktsiyalarining murakkabligini oshirish, ko‘p darajali yetkazib berishlar zanjirlarini shakllantirishda logistika operatsiyalari sonini ko‘paytirish, yetkazib berishlar zanjiri boshqaruvi mafkurasiga ko‘ra, logistika biznes jarayonlarini integratsiya qilish zarurligini hisobga olgan holda), integratsiyalashgan yondashuvlar logistika faoliyatini tahlil qilish va baholashdan foydalaniladi. Ular tadqiqotning yangi yo‘nalishi - barqaror yetkazib berishlar zanjiri boshqaruvi YeBZB (angl. sustainable supply chain management, SSCM) [de Goes, 2016]. shakllanishining natijasidir.

Ushbu yo‘nalishdagi asosiy yondashuvlardan biri logistika rejasini amalga oshirishning logistika tizimining asosiy funktsiyalari va maqsadlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadigan, shuningdek, yo‘nalishlarni aniqlashga imkon beradigan asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) yordamida yetkazib berishlar zanjiri boshqaruvini **benchmarking** asosida taqqoslab harakatlarini amalga oshirish uchun baholashdir. (ya’ni indeks va qiyosiy usullardan foydalangan holda) [Dibskaya, 2014; Lukinskiy va boshqalar, 2011].

Asosiy ko‘rsatkichlarning tarkibi va tuzilishi bo‘yicha yagona nuqtai nazar shakllanmaganiga qaramay, samarali nazorat qilish uchun minimal ko‘rsatkichlar to‘plamidan foydalanish tavsiya etiladi (inglizcha: nazorat qilish, rejalashtirish, audit, boshqaruv hisobi, ma’lumotlar bazasini yaratish logistika operatsiyalari, yetkazib

berishlar zanjirlaridagi barcha oqimlarni nazorat qilish) birinchi darajali ko'rsatkichlarga taalluqliy va "barqarorlik" tushunchasini ochib beradi. [Sergeyev, 2014; Kristofer, 2005]:

Ishonchlilik	"7r" qoidasini hisobga olgan holda "mukammal buyurtma"
Yetkazib berishlar zanjiri javob darajasi	Buyurtmani bajarish siklining davomiyligi
Buyurtmani bajarish dinamikasi	Yetkazib berish zanjirining moslashuvchanlik darajasi, yetkazib berish zanjiridagi xavfning xarajat o'lchovi
Xarajatlar	Yetkazib berishlar zanjiri boshqaruvi bilan bog'liq xarajatlar (ish haqi, xom ashyo narxi, logistika xarajatlari)
Mulklar (aktivlar)	Asosiy kapitalning rentabelligi, pul muomalasi siklining davomiyligi

M.N. Grigoriyev, A.P. Dolgov, S.A. Uvarov mualliflarning asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini shakllantirishga bo'lgan yondashuvlari umumiy xarajatlar, logistika xarajatlari, buyurtmani bajarish muddati, logistika xizmati sifati, logistika davrlarining davomiyligi, unumdorlik, logistika infratuzilmasiga investisiyalar samaradorligini ta'kidlash tavsiya etiladi [Grigoriyev va boshq., 2006]. Logistika qarorlarini o'lchash vositalarining samaradorligini tizimlashtirishga individual yondashadi. V.V. Dybskaya, E.I. Zaysev, V.I. Sergeev, A.N. Sterligov, V.V.Lukinskiy, T.G. Shuljenko [Dibskaya va boshqalar, 2008, Lukinskiy va Shuljenko, 2011].

Umumiy asosiy samaradorlik ko'rsatkich (KPI) lardan tashqari, texnik vositalar, xodimlar va boshqa texnik jihozlar tomonidan bajarilgan logistika ishlari hajmining tahlilini aks ettiruvchi shaxsiy samaradorlik ko'rsatkichlari (masalan, PIi i PIe) ham mavjud. Dibskeya 2014 tadqiqotiga ko'ra ularning soni ham aniqlanmagan, tafsilotlar darajasi ishlatiladigan korporativ axborot tizimlariga (KAT) bog'liq bo'lishi mumkin. V.V Lukinskiy va boshqalar [2011], asosiy samaradorlik ko'rsatkich soni (KPI), samaradorlik ko'rsatkichlari (PIi) va samaradorlik (PIe) mos ravishda 4 dan 8 gacha va 8-47 gacha o'zgarishi mumkin.

Logistika faoliyatining turli ko'rsatkichlaridan foydalanish samarasi korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlarida namoyon bo'ladi. Shu sababli, 1920 yillarda taklif qilingan DyuPon modeli yordamida amalga oshiriladigan biznes rentabelligini an'anaviy miqdoriy baholash. (ingl. The DuPont System of Analysis,, natijada investisiyalar rentabelligi ko'rsatkichi bo'lgan DyuPon formulasi, ROI) yoki uning yakuniy ko'rsatkichi - kapital rentabelligi (ROI) bilan kengaytirilgan variantlari, logistika qarorlarining korxonalar samaradorligiga ta'sirini hisobga olish bir qator

mualliflar tomonidan o'zgartirilgan. [Dibskaya va boshq., 2017; Lukinsky va boshqalar, 2016]. Logistika korxonalarining funksional imkoniyatlarining murakkablashishi, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifatining kengayishi bilan korxonalarining xarajatlari va samaradorligini baholash modellari va kontsepsiyalari 70 yillarda rivojlangan. Mualliflar o'zlarining ilmiy ishlarida nafaqat moliyaviy va operasion samaradorlik ko'rsatkichlarini, balki pulsiz ko'rsatkichlarni ham birlashtirish zarurligini aks ettira boshlaganlar. [Kerr., 1975]. Moliyaviy istiqbolni, moliyaviy bo'lmagan istiqbol (mijoz, ichki biznes, innovasiya va o'rganish) bilan qanday qilib yagona samaradorlik ko'rsatkichlari kartasiga birlashtirish g'oyasini ilgari surgan amerikalik tadqiqotchilar R.S. Kaplan va D.P. Norton [1992, 2003] yondashuvni 90 yillarda taklif qilgan. Mualliflar tomonidan taklif etilgan muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi (MKT)ni istiqbolli baholash (moliya, mijozlar, ichki biznes jarayonlari, o'qitish va rivojlantirish) bilan to'ldirishiga qaramay, ushbu konsepsiya kompaniyalar faoliyatini va yetkazib berish samaradorligini baholash usuliga o'xshaydi, chunki rasmiylashtirish strategik, taktik va operasion uchta darajada amalga oshiriladi. Bu barcha ko'rsatkichlarning bir xil ahamiyatini anglatadi, buni konsepsiyada ishlatiladigan "muvozanatli" so'zi tasdiqlaydi.

Uning ishlatilishi kompaniyalarga moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlarni kiritish orqali o'lchov tizimlarini kengaytirishga imkon berdi, natijada boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborot bazasini kengaytirishga yordam berdi. Ammo bu yondashuvning yetarlicha mukammalligiga qaramay, mualliflar uni o'zgartirish uchun o'z tadqiqotlarini davom ettirdilar. Xususan, muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi (MKT) tarkibiga qo'shilgan iqtisodiy qiymat ko'rsatkichini kiritish tavsiya etildi (ing. iqtisodiy qo'shilgan qiymat, IQK), bu sof foyda va uni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan kompaniya kapitalining qiymati o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan [Atkinson i Enshteyn, 2000]. Uning asosiy qo'llanma sifatida Moliya istiqboliga kiritilishi muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi (MKT) ko'rsatkichlarini maqsadli tizimga olib kelish imkonini berdi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash munkinki, ushbu modellar va usullarning kombinatsiyasi, shuningdek yetkazib berishlar zanjirlarida logistika funktsiyalarining ajralmas xususiyatini aks ettiruvchi zamonaviy nazariyalarning minimal to'plamidan foydalanish murakkab tizimlarni tavsiflashda va hisoblash tajribalarini o'tkazishda natijalarning aniqligi va ishonchliligi darajasini oshirishga yordam beradi va modellashtirishda kompyuterga ishlov berish soddalashtiriladi. Yetkazib berishlar zanjirini kompleks boshqarishga ko'rib chiqilgan yondashuv yetkazib berishlar zanjirlarida logistika funktsiyalarini maqbul boshqarish bo'yicha qarorlarni qabul

qilishning umumlashtirilgan metodologiyasi va nazariyasini ishlab chiqish, shuningdek ularning atrof-muhitning bezovta qiluvchi ta'siriga chidamliligini tahlil qilish va baholash uchun asos bo'lishi mumkin. Buni aniqlashtirish uchun logistikaning funksional yo'nalishlarini, asosiy va qo'llab-quvvatlovchi logistika funktsiyalarini qayta ko'rib chiqish, logistika xarajatlarini hisoblash tamoyillarini, rentabellik standartlarini, logistika provayderlari narxlarini modernizatsiya qilish va tuzilish xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali transport va ombor infratuzilmasini rivojlantirish tamoyillarini umumlashtirilgan logistika xarajatlari modelidan shakllantirish kerak bo'ladi. Samarali yechimlarni tanlash uchun modellarning oqilona murakkabligini ta'minlaydigan maxsus kompyuter dasturlaridan foydalangan holda yangi analitik apparatni ishlab chiqish amaliy vazifalarga analitik bog'liqliklarga yaqinlashish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, ularning maqsadi, qoida tariqasida yurtimizda logistika xarajatlarini global o'rtacha darajaga tushirishdan iboratdir.

REFERENCES

1. Бродецкий, Г.Л. (2008), *Управление запасами*, Эксмо, Москва, Россия Бударина, Е.В., Лукинский, В.С. и Счисляева, Е.Р.(2006), *Логистические методы и модели управления кадрами в условиях усиления культурных и глобальных тенденций в международном бизнесе*, Изд-во Политехн. унта, Санкт-Петербург, Россия
2. Бутрин, А.Г. (2003), «Теория и методология управления потоковыми процессами на промышленном предприятии», Дисс. доктора экон.наук, Экономика и управление народным хозяйством: логистика, Челябинск, Россия Григорьев, М. Н., Долгов, А. П. и Уваров, С. А. (2006), *Логистика*, Гардарики, Москва, Россия
3. Дыбская, В. В. и Сергеев, В. И. (2017), *Логистика*, Часть 1, Юрайт, Москва, Россия Дыбская, В.В., Зайцев, Е.И., Сергеев, В.И. и Стерлигова, А.Н. (2008), *Логистика: интеграция и оптимизация логистических бизнес-процессов в цепях поставок*, Эксмо, Москва, Россия
4. Дыбская, В. В. (2017), *Проектирование системы распределения в логистике*, ИНФРА-М, Москва, Россия Каплан, Р. С. и Нортон, Д.П. (2003), *Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию*, Пер.с англ. Павловой, М., Олимп Бизнес», Москва, Россия
5. Лукинский, В. В., Барыкин, С. и Карпунин, С. (2012а), «Модели управления запасами на основе интеграции финансового и материального потоков в цепях поставок», *Аудит и финансовый анализ*, № 1, С. 103-113

6. Лукинский, В. В., Ким, В. и Николаев, К. (2012б), Оценка влияния информационно-коммуникационных технологий на логистические затраты», *Логистика и управление цепями поставок*, № 6(53), С. 60-67
7. Лукинский, В. С., Лукинский, В. В., Плетнева, Н. Г., Воробьева, Н. И. и Маевский, А. Г. (2017а), *Управление запасами в цепях поставок*, Часть 1, Юрайт, Москва, Россия Лукинский, В. С., Лукинский, В. В., Плетнева, Н. Г., Воробьева, Н. И. и Маевский, А. Г. (2017б), *Управление запасами в цепях поставок*, Часть 2, Юрайт, Москва, Россия
8. Лукинский В. С. и Панова Ю.Н. (2017), «Формирование основ интегрированного управления цепями поставок», Перспективы развития логистики и управления цепями поставок, Сергеев, В.И. (ред.), VII Международная научная конференция, Москва, Россия, 18 апреля 2017 г., С. 328- 340
9. Лукинский, В. С. и Панова, Ю.Н. (2017г), «Имитационное моделирование стратегий управления запасами», *Имитационное и комплексное моделирование морской техники и морских транспортных систем*, IV Международная Научно-Практическая Конференция, Санкт-Петербург, Россия, 28 июня 2017, С. 71- 75
10. М.С. Буриходжаева “МЕТОДЫ УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ И УЛУЧШЕНИЯ КАЧЕСТВА УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ "Экономика и социум" №12(103) 2022
11. Юлдашева С, БўриходжаеваМ “Повышение эффективности таможенной деятельности в развитии международного экономического сотрудничества “ INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" 2022/9/10 (87-91)
12. М.С.Бўрихаджаева «МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИДА АВТОМОБИЛ ТРАНСПОРТИ КОРИДОРЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ» *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3(1/2), Jan., 2023й ст 338-345
13. М.С.Бурихаджаева **МАРКЕТИНГОВЫЙ ПОДХОД В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ** *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3(4/2) апрель 2023 (653-661 бет)
14. M.S.Bo'rixadjayeva. (2023). **PEDAGOGIKNING KASBIY MAHORATINI SHAKLANTIRISH INTERFAOL USULLARI** . *World Scientific Research Journal*, 12(2), 128–133. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2541>

15. Bo‘rixadjayeva, M. S. (2023). YANGI O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY TAFAKKURNI SHAKLLANISHINING USULLARI. World scientific research journal, 12(2), 134-138.
16. Bo‘rixadjayeva, M. S. (2023). BUGUNGI KUN YOSHLARNI HAYOTIY BARDOSHLILIGI–MUAMMOLARNI YENGISH MANBAI SIFATIDA. World scientific research journal, 12(2), 139-143.
17. М. С. Бўрихаджаева.»Ўзбекистон Республикаси Транспорт-Логистика Тизимини Ривожлантириш» Miasto Przyszłości Kielce 2024 №45 (625-629 стр)
18. M. Burikhodjaeva, Sh.R. Sharapova. [IMPROVING THE SUPPLY CHAIN IN LOGISTICS](#).(Yetkazib berishlar zanjirlarini boshqarish va logistika.) The Peerian Journal (2024). №33 / 37–42st. Retrieved from.

VIBRATIONAL DYNAMICS OF ATOMS IN A ONE-DIMENSIONAL CRYSTAL LATTICE

Muminov Islomjon Arabboyevich

Fergana State University,

Doctor of philosophy in physics and mathematics (PhD)

ima220790@mail.com

Axmedov Aloviddin Nomonjon o'g'li

Academic Lyceum of Fergana Polytechnic Institute,

teacher of physics.

ABSTRACT

A crystal is composed of a periodic arrangement of atoms and molecules that vibrate around their equilibrium positions due to thermal motion at finite temperatures. When atoms are displaced from these positions, they experience a restoring force that follows Hooke's law and is proportional to the displacement. This study analyzes the vibrational dynamics of a one-dimensional lattice, where the atoms are modeled as masses connected by springs with a force constant. The motion of atoms in this system is governed by the equations of motion, and the resulting lattice vibrations are examined in the context of phase velocity, sound velocity, and Brillouin zones. The analysis is further extended to a lattice consisting of two different kinds of atoms, leading to the formation of distinct acoustic and optical modes. The dispersion relations and the role of wave vectors defined by cyclic boundary conditions are explored, with emphasis on the periodic nature of the ω - q curve and the significance of the first Brillouin zone.

Keywords: *Crystal lattice, lattice vibrations, Hooke's law, one-dimensional lattice, phase velocity, sound velocity, Brillouin zone, dispersion relation, wave vector, cyclic boundary conditions, acoustic mode, optical mode.*

INTRODUCTION

A crystal consists of a periodic arrangement of atoms and molecules. However, the atoms or molecules of a crystal vibrate around the equilibrium positions at finite temperatures because of their thermal motion. When a atom is displaced from its equilibrium position, the atom is subject to a restoring force depending on the displacement. The restoring force follows Hooke's law and is proportional to the displacement. When each atom vibrates randomly, each atom suffers random forces and its vibration is immediately damped. On the other hand, if each atom vibrates with a small relative displacement from the neighboring atoms, then the vibration will

continue with its small vibration energy. For simplicity we consider the one-dimensional lattice shown in Fig.1, where the mass of the atoms is M and the distance between the nearest neighbor atoms (lattice constant) at equilibrium is a . We assume that the interatomic forces act on neighboring atoms only and that the atoms are connected to each other by a spring constant (force constant) k_0 . Defining the displacement of the atoms from their equilibrium positions by $u_0, u_1, u_2, \dots, u_n, u_{n+1}, \dots$, the equation of motion of n th atom

$$M \frac{d^2}{dt^2} u_n = -k_0(u_n - u_{n-1}) - k_0(u_n - u_{n+1}) \quad (1)$$

As stated above, when the displacement of each atom is independent, an atom will be subject to a strong force from the neighboring atoms and the




Fig. 1. Displacement of atoms from their equilibrium positions (lattice vibration) displacement is damped. Therefore the lowest excitation energy of the lattice vibration corresponds to a wavelike displacement, keeping the displacement of neighboring atoms almost in phase, when we see neighboring atoms. In such a case we may write the solution of (1) as

$$u_n = A \exp[i(qna - \omega t)] \quad (2)$$

where $q = \omega/v_s = 2\pi/\lambda$ is the wave vector, ω is the angular frequency, v_s is the velocity of sound, and λ is wavelength. Inserting (2) into (1), we obtain

$$M\omega^2 = -k_0(e^{iqa} + e^{-iqa} - 2) = 4k_0 \sin^2\left(\frac{qa}{2}\right) \quad (3)$$

From this we have following relation:

$$\omega = 2 \sqrt{\frac{k_0}{M}} \left| \sin\left(\frac{qa}{2}\right) \right| \quad (4)$$

When the wavelength is much longer than the lattice constant ($qa \ll 1$), the phase velocity v_s is given by

$$v_s = \frac{\omega}{q} = \sqrt{\frac{k_0}{M}} a \frac{\sin(qa/2)}{(qa/2)} \cong \sqrt{\frac{k_0}{M}} a (qa \ll 1) \quad (5)$$

METHODS

This result indicates that a lattice vibration with long wavelength has a constant phase velocity $v_s = \sqrt{k_0/Ma}$, which corresponds to the sound velocity. Figure 2 shows the calculated curve from (4), where we see that the $\omega - q$ curve is a periodic function with a period of $2\pi/a$. The whole dispersion curve is the repetition or displacement of the curve in the period $-\pi/a \leq q \leq \pi/a$, and thus this feature enables us to discuss lattice vibrations in that period. The region of the period is called the first Brillouin zone, and the second Brillouin zone is shown in Fig. 2. The second, third and other Brillouin zones are equivalent to the first Brillouin zone, which is shown in Sect. 1.4 in detail in connection with the reduced zone scheme. Where there are N atoms, N degrees of freedom of motion exist. Adopting cyclic boundary conditions we can define wave vectors by $q = 2\pi n/(Na)$, where $n = (-N/2 + 1) \sim (+N/2)$, giving rise to N values of the wave vectors. The above defined wave vectors are obtained from the cyclic boundary condition such that the displacement u_n of (2) is equivalent for $n = 0$ and $n = N$.

Next, we consider a lattice consisting of two kinds of atoms with masses M_1 and M_2 . The atomic distance of the atoms of mass M_1 is a and the same is true for the atoms M_2 . When the nearest-neighbor interaction is assumed, the equations of motion are written as in the case of the one-dimensional lattice stated above as

$$\left. \begin{aligned} M_1 \frac{d^2}{dt^2} u_{2n+1} &= k_0(u_{2n} + u_{2n+2} - 2u_{2n+1}) \\ M_2 \frac{d^2}{dt^2} u_{2n} &= k_0(u_{2n-1} + u_{2n+1} - 2u_{2n}) \end{aligned} \right\} \quad (6)$$




Fig. 2. Dispersion curve of one-dimensional lattice vibration for the atoms M_1 and M_2 . We assume once again wave-type solutions of the same type as before. In addition we may expect another type of solution where atoms of even order and odd order are displaced in the reverse direction to each other, and thus atoms of even

order form a wave and odd order atoms form another wave. To satisfy these vibration types we express the displacement as

$$u_{2n+1} = A_1 e^{i\{(2n+1)(qa/2) - \omega t\}}, u_{2n} = A_2 e^{i\{(2n)(qa/2) - \omega t\}} \quad (7)$$

Inserting these equations into (6), we obtain following relations:

$$\left. \begin{aligned} (M_1 \omega^2 - 2k_0)A_1 + \{2k_0 \cos(qa/2)\}A_2 &= 0 \\ (M_2 \omega^2 - 2k_0)A_2 + \{2k_0 \cos(qa/2)\}A_1 &= 0 \end{aligned} \right\} \quad (8)$$

We easily find that the condition $A_1 = A_2 = 0$ correspond to all atoms at a standstill, and therefore we have to find solutions such that both A_1 and A_2 are not zero simultaneously. This condition is satisfied by requiring the determinant of the simultaneous equations with respect to A_1 and A_2 in (8) to be zero, giving rise to

$$\begin{vmatrix} (M_1 \omega^2 - 2k_0) & 2k_0 \cos(qa/2) \\ 2k_0 \cos(qa/2) & (M_2 \omega^2 - 2k_0) \end{vmatrix} = 0. \quad (9)$$

This equation is regarded as a quadratic equation with respect to ω^2 , and the solutions ω_-^2 and ω_+^2 are given by

$$\omega_-^2 = \frac{-k_0}{M_1 M_2} \left[(M_1 + M_2) \sqrt{(M_1 + M_2)^2 - 4M_1 M_2 \sin^2 \left(\frac{qa}{2} \right)} \right], \quad (10a)$$

$$\omega_+^2 = \frac{k_0}{M_1 M_2} \left[(M_1 + M_2) \sqrt{(M_1 + M_2)^2 - 4M_1 M_2 \sin^2 \left(\frac{qa}{2} \right)} \right]. \quad (10b)$$

It is evident from (10a) and (10b) that ω_- and ω_+ approach zero and a constant not equal to zero as $q \rightarrow 0$. Taking account of the fact that the




Fig. 3. Angular frequency versus wave vector relations for the two vibration modes of a lattice consisting of two kinds of atoms angular frequency is positive, ω_- and ω_+ are plotted as a function of the wave vector q for several values of $\alpha = M_1/M_2$ as a parameter in Fig. 3, where we define $1/M_r = 1/M_1 + 1/M_2$. Let us consider the two branches ω_- and ω_+ in the long wavelength limit. For $q = 0$, (8), (10a) and (10b) lead us to the following results:

$$\left. \begin{aligned} \omega_- &= 0 \\ \frac{A_1}{A_2} &= 1 \\ \omega_+ &= \sqrt{2k_0 \left(\frac{1}{M_1} + \frac{1}{M_2} \right)} \equiv \sqrt{\frac{2k_0}{M_r}} \\ \frac{A_1}{A_2} &= -\frac{M_2}{M_1} \end{aligned} \right\} \quad (12)$$

RESULTS

When we put $M_1 = M_2$, the ω_- branch gives the same result as a lattice consisting of one kind of atom, corresponding to a sound wave, and thus called the acoustic branch, the acoustic mode of vibrations or the acoustic phonon. Since the acoustic branch satisfies the condition ($A_1 = A_2$), the neighboring atoms move in the same direction and thus the relative displacement is zero in the long wavelength limit. On the other hand, the ω_+ branch satisfies $A_1/A_2 = -M_2/M_1$ and thus different atoms are displaced in the opposite directions to each other, resulting in zero of the center of mass motion. The ω_+ branch exhibits a relative displacement between the different atoms and induces an electric field when the atoms are ionic. The induced electric field interacts strongly with the external electromagnetic field and absorbs the external waves. This often occurs in the infrared region, leading to it to be called the optical branch, optical mode of lattice vibrations or the optical phonon. Figure 6.4 shows a schematic illustration of the atomic displacement for (a) the acoustic mode (acoustic phonon) and (b) the optical mode (optical phonon), where we see the difference in the displacement between the two modes of lattice vibrations.




Fig. 4. Schematic illustration of two types of lattice vibrations: (a) acoustic mode (acoustic phonon) and (b) optical mode (optical phonon)

The acoustic mode in the limit of $qa \ll 1$ gives the following relation:

$$\omega_- \cong \sqrt{\frac{2k_0}{(M_1 + M_2)}} aq \quad (qa \ll 1) \quad (13)$$

and thus the sound velocity (phase velocity) is given by

$$v_s = \frac{\omega_-}{q} = \sqrt{\frac{2k_0}{(M_1 + M_2)}} a \quad (14)$$

which corresponds to (5).

DISCUSSION

In ionic crystals unusual reflectivity has been observed in the infrared wavelength region of $20 - 100\mu\text{m}$. For example, the reflectivity of NaCl exhibits maxima around $40\mu\text{m}$ and $60\mu\text{m}$, where the angular frequencies of light for the corresponding wavelengths are $\omega = 2\pi c/\lambda \sim 4 \times 10^{13} \text{ s}^{-1}$ and their wave vectors are $q = 2\pi/\lambda \sim 10^3 \text{ cm}^{-1}$, which are much smaller than the wave vector at the Brillouin zone edge $\pi/a \simeq 10^8 \text{ cm}^{-1}$. From the energy and momentum conservation rules, such high energy excitation in the small wave vector region is easily found to correspond to the optical phonon branch ω_+ .

In general, as stated previously, the optical mode of lattice vibration appears in a crystal with two or more atoms in a unit cell. Since there exist one longitudinal and two transverse acoustic modes, a crystal with s atoms in a unit cell gives rise to $3(s - 1)$ optical modes of lattice vibration.

REFERENCES

1. Ashcroft, N. W., & Mermin, N. D. Solid State Physics. Saunders College. (1976).
2. Kittel, C. Introduction to Solid State Physics (8th ed.). Wiley. (2005).
3. Born, M., & Huang, K. Dynamical Theory of Crystal Lattices. Clarendon Press. (1954).
4. Dove, M. T. Introduction to Lattice Dynamics. Cambridge University Press. (1993).
5. Maradudin, A. A., Montroll, E. W., Weiss, G. H., & Ipatova, I. P. Theory of Lattice Dynamics in the Harmonic Approximation (2nd ed.). Academic Press. (1971).
6. Ziman, J. M. Principles of the Theory of Solids (2nd ed.). Cambridge University Press. (1972).
7. Srivastava, G. P. The Physics of Phonons. Taylor & Francis. (1990).

8. Grosso, G., & Parravicini, G. P. Solid State Physics. Academic Press. (2014).
9. Arabboyevich, M. I. (2023). MAGNIT MAYDONDAGI ELEKTRONLAR HARAKATI, LANDAU KVANTLASHISH SHARTLARI. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 1(6), 20-24.
10. Arabboyevich, M. I., & Alijon o'g'li, M. A. (2023). IDEAL GAZLARDA KVANT STATISTIKASI TAHLILI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(20), 235-237.
11. Muminov, I. A., & Muminova, M. (2023). QATTIQ JISMLARNING KRISTALL PANJARALARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 1314-1317.
12. Arabboyevich, M. I., & Nabijon o'g, S. U. B. (2022). QATTIQ JISM KRISTALLARINI O'STIRISH NAZARIYASI. *Scientific Impulse*, 1(3), 696-698.
13. Mo'minov, I., & Jasurbek, T. (2022). NAZARIY MEKXANIKANING TARIXI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(19), 601-605.
14. Ахмедов, Б. Б., Муминов, И. А., & Хошимов, Х.А.У. (2022). РАЗМЕРНОЕ КВАНТОВАНИЕ В ПОТЕНЦИАЛЬНОЙ ЯМЕ ПРЯМОУГОЛЬНОЙ ФОРМЫ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 1032-1036.
15. Muminov, I. A., Axmedov, B.B., & Махмудов, А. А. О. G. L. (2022). YARIMO'TKAZGICH ASOSIDAGI TURLI STRUKTURALI NANOTRUBKALAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 517-523.
16. Вахромович, А.В., & Alijon o'g'li, M.A. (2022). YARIMO'TKAZGICH ASOSIDAGI TURLI STRUKTURALI NANOTRUBKALAR Muminov Islomjon Arabboyevich.
17. Muminov, I. A., Akhmedova, S.Y.K., Sobirjonova, D.A.K., & Khomidjonov, D. K. U. (2021). HETEROSTRUCTURES OF ANTIMONIDE-BASED SEMICONDUCTORS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 952-959.
18. Ахмедов, Б. Б., & Муминов, И. А. (2021). УРАВНЕНИЯ ШРЕДИНГЕРА ДЛЯ ДВУМЕРНОГО ВОЛНОВОГО ВЕКТОРА. *EDITOR COORDINATOR*, 537.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYIN SIYOSIY IDEALIZM MAFKURASI QULASHINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI

Qodirov Xusanjon Usmonjon o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, XX asr 2-yarmidagi xalqaro munosabatlardagi siyosiy idealizm tanazzulga uchrashining falsafiy asoslarini ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Bundan tashqari, maqola global siyosatda axloqiy va ma'naviy mulohazalarga e'tibor qaratishdan ko'ra, sovuq urush, globallashuv va millatchilikning kuchayishi kabi tarixiy voqealar ta'sirida ko'proq pragmatik va realistik yondashuvlarga o'tish oqibatida xalqaro munosabatlarda siyosiy idealizm rolining pasayishi sabablarini, turli ilmiy ishlar va materiallardan xulosa qilib ochib berish ko'zda tutadi.

Kalit so'zlar: *Siyosiy idealizm, kollektiv xafsizlik, kuch dinamikasi, xalqaro siyosat, geosiyosiy haqiqatlar .*

ABSTRACT

This article analyzes the philosophical foundations of the decline of political idealism in international relations in the late of the 20th century from a socio-political point of view. In addition, it examines the reasons for the decline of the role of political idealism in international relations due to the transition to more pragmatic and realistic approaches under the influence of historical events such as the Cold War, globalization and the rise of nationalism, rather than focusing on moral and spiritual considerations in global politics, and aims to summarize through various scientific works and the materials.

Key words: *Political idealism, collective security, power dynamics, International Politics, Geopolitical realities*

KIRISH

Asrlar mobaynida, siyosiy idealizm diplomatik munosabatlarni o'zgartiruvchi va millatlar o'rtasida o'zaro birlashuviga ta'sir etuvchi sifatida xalqaro munosabatlarda makaziy rolni o'ynab kelayotgan edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ikkinchi jahon urushidan keyin, siyosiy idealizm da sezilarli darajada pasayish sodir bo'ldi. Bu o'zgarishga bir qancha faktorlar sabab bo'lib, xususan, yangi global kuchlar dinamikasining vujudga kelishi, mafkuraviy g'oyalarning o'zgarishi va zamonaviy

konfliktlar yechimining murakkabligi kabilarni bunga misol sifatida ko'rsatish mumkin.

Tarixiy kontekst

Siyosiy idealizm qulash sabablarini yaxshiroq tushunish uchun, ikkinchi jahon urushi davrini o'z ichiga olgan tarixiy kontekst nuqtai nazaridan yondashish muhim hisoblanadi. Urush oqibati o'laroq namoyon bo'lgan katta talafotlar va urushdan keyingi Amerika Qo'shma Shtatlari hamda Sovet Ittifoqi o'rtasidagi sovuq urushlar xalqaro munosabatlarda yangi davrni ochib berdi va ushbu davr, kuch uchun kurash, g'oyaviy tarqoqliklar va milliy manfaatlarining yuqori darajada ahamiyat kasb etishi bilan sifatlanadi. Amerikalik siyosatchi olim Jon Mershaymer o'zining «Buyuk kuch siyosatining halokati» kitobida takidlaganidek: «Barcha davlatlarning taqdirlari - xoh ular katta, xoh kichik kuchlar bo'lsin, birinchi navbatda, eng katta qudrat va salohiyatga ega bo'lgan davlatlarning qarorlari hamda harakatlari bilan belgilanadi» [2]. Masalan, 1945-1990 yillar oralig'ida, dunyoning barcha hududidagi siyosat Sovet Ittifoqi va Aqshning o'rtasidagi chuqur raqobatdan ta'sirlangan. Sovuq urushga olib kelgan 2 ta jahon urushlari ham butun dunyodagi hududiy siyosatga bir xil ta'siri bor edi. Bu to'qnashuvlarning har biri buyuk kuchlar siyosati bo'lib, yer sharining har bir qismiga uzun soyasini solib turgan, ya'ni o'z ta'sirini o'tkazib turgan. Ushbu davr, millatlar o'rtasida tinchlikni targ'ib qilishni maqsad qilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) singari turli xil xalqaro institutlarning vujudga kelishini ham boshdan kechirdi, lekin bular amalda, idealistik g'oyalarning qulashiga zamin yaratdi xolos. Chunki, BMT kuch siyosati dunyosida ishlaydi, bunda davlatlar o'z milliy manfaatlarini ko'zlaydi va kuch dinamikasi qarorlar qabul qilishni shakllantiradi. Pragmatizm va davlat manfaatlariga qaratilgan bunday e'tibor siyosiy idealistlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan axloqiy va umuminsoniy qadriyatlar haqidagi idealistik g'oyalarni chetlab o'tadi. Shuningdek, BMT milliy suverenitet tamoyilini qo'llab-quvvatlaydi, ya'ni davlatlar o'z ichki va tashqi siyosatini o'zi belgilash huquqiga ega sanaladi. Davlat suverenitetiga bunday urg'u berish BMT ning siyosiy idealizmni targ'ib qilish va ichki ishlarga aralashish qobiliyatini cheklab qo'yishi mumkin, ayniqsa inson huquqlarining buzilishi yoki demokratik tamoyillarning buzilishi holatlarida buni yaqqol ko'rish mumkin. Amerikalik diplomat Devid Malonning "BMT Xavfsizlik Kengashi: Sovuq urushdan to XXI asrgacha" kitobida BMT ning holatini shunday ta'riflaydi: "Sovuq urush oxiriga borib "Birlashgan Millatlar Tashkilotida ham juda ko'p narsa o'zgardi. Uning qarorlari improvizatsiya qilingan va beqaror edi, va bu qarorlar yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkinligi qaramasdan, to'g'ridan to'g'ri xalqaro munosabatlarga kattagina ta'sir o'tkazdi. Boshqa holatlar singari, Kengashning qarorlari Sovuq urush yillarida mustahkam

o‘rnatilgan davlat suvereniteti haqidagi tushunchalarni yo‘q qildi va ko‘pchiligimizni butun dunyo bo‘ylab davlat va fuqoro o‘rtasidagi munosabatlarga bo‘lgan qarashimizni o‘zgartirdi” [2]. Shunday qilib, “Birlashgan global jamiyat” idealistik g‘oyasi, xuddi bir paytlar taniqli AQSH prezidenti Vudro Vilson tomonidan xayrixohlik bildirilganidek, ya‘ni uning kollektiv xavfsizlik g‘oyasi, asta-sekinlik bilan kuch siyosatining og‘ir haqiqatlari va g‘oyaviy qarama-qarshiliklar soyasida qolib ketdi.

Realistik dunyoqarashning shakllanishi

Xalqaro munosabatlarda siyosiy idealizmning qulashi bir tomondan, xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlar va kuch dinamikasining asosiy o‘rinda ekanligini targ‘ib qiluvchi realistik dunyoqarashning o‘rishini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Hans Morgensonning «Milatlar orasidagi siyosat» va Kennetz Voltzning «Xalqaro siyosat nazariyasi» [5] kabi mashhur asarlarda davlatlarning o‘z manfaatlarini va xavfsizligiga erishish yo‘lida qanday harakat qilishlarini asos qilgan holda, realistik nazariyalarining qay darajada muhim o‘rin tutishiga katta hissa qo‘shgan. Masalan, Hans Morgensonning «Milatlar orasidagi siyosat» asarida aytganidek, xalqaro siyosat boshqa siyosatlar singari kuchga intiladi va xalqaro siyosatda har qanday boshqa muhim maqsad bo‘lmasin, kuch doim birlamchi maqsad hisoblanadi [4]. Buni davlat arboblari va xalqlar har qanday vaziyatda ham baribir ozodlikka, xavfsizlikka, ravnaq topish yoki shunchaki kuchning o‘ziga intilishi mumkin va odatda bu yo‘lda ular o‘zlarining maqsadlarini diniy, falsafiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan deb ta‘riflashadi deb izohlash mumkin. Shu bilan birga ular o‘zlarining bu «oliy maqsadi» ni o‘zining ichki kuchi⁸³, ilohiy ko‘rsatma yoki insoniy ishlarning tabiiy rivojlanishi orqali ro‘yobga chiqarishga umid qilishlari mumkin. Ammo ular qachon o‘z maqsadlarini xalqaro siyosat orqali amalga oshirishga harakat qilsalar, buni kuchga intilish orqali amalga oshiradilar. Masalan, Salib yurishlaridan maqsad go‘yoki muqaddas yerlarni boshqa din vakillaridan ozod qilish edi. Faqatgina kuch, xavfsizlik va o‘z manfaatini ko‘zlab ish tutish, bir paytlar xalqaro munosabatlarda hamjihatlik va boshqalar manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yish kabi yuksak maqsadlarni o‘z soyasida qoldirib ketishga xizmat qilgan realistik tamoyillarni meros qilib olishga yo‘l ochib beradi, o‘z navbatida, bu ham siyosiy idealizmning sezilarli darajada qulashiga olib keldi.

Global kuchlarning o‘zgarishi va geosiyosiy haqiqatlar tufayli mojarolarni hal qilishning murakkabliklari va xavfsizlik muammolari, hamda mafkuraviy manzara va madaniy siljishlarning o‘zgarishi.

⁸³ Ichki kuch (Inner force) - bu iborada qat‘iyat, chidamlilik va ichki mustahkamlik fazilatlarini ifodalovchi o‘z ichidan kelib chiqadigan kuch va kuch g‘oyasini bildiradi. Bu o‘z ichki resurslari va iroda kuchi orqali qiyinchilik va to‘siqlarni yengib o‘tish qobiliyatini anglatadi

Ikkinchi jahon urushidan keyin o‘zgarib borayotgan global kuch dinamikasi, jumladan, Yevropa imperiyalarining tanazzulga uchrashi, AQSh va Sovet Ittifoqi kabi yangi super kuchlarning paydo bo‘lishi ham xalqaro munosabatlarda siyosiy idealizmning susayishiga yordam berdi. Rivojlanayotgan bu kuchlar o‘z ta‘sirini kuchaytirishga va o‘zlarining strategik manfaatlarini himoya qilishga intilishar ekan, hokimiyat uchun kurash va geosiyosiy raqobat haqiqatlari global birlik va hamkorlik haqidagi idealistik tushunchalardan ustun keldi. Sovuq urush davrida ta‘sir doiralari, harbiy ittifoqlar va mafkuraviy ustunlik uchun raqobat xalqaro maydonda realistlik tafakkurni yanada mustahkamlab, uyg‘un va hamkorlikdagi dunyo tartibiga intiluvchi idealistik intilishlarni chetlab o‘tdi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdagi mojarolarni hal qilishning murakkabligi va xavfsizlik muammolarining kuchayishi xalqaro munosabatlarda siyosiy idealizmni amalga oshirishga jiddiy to‘siqlar tug‘dirdi. Yadro qurollarining tarqalishi, nodavlat ishtirokchilarning kuchayishi va mintaqaviy mojarolarning davom etishi tinchlik va hamkorlikning umumbashariy g‘oyalarini ilgari surish uchun o‘ziga xos qiyinchiliklarini tug‘dirdi. Davlatlar o‘z milliy xavfsizligi va murakkab xalqaro inqirozlarni boshqarish masalalari bilan kurashar ekan, jamoaviy xavfsizlik hamda global birdamlik sari idealistik intilish asta-sekin o‘z o‘rnini xalqaro muammolarni hal qilishda ko‘proq pragmatik va shaxsiy manfaatdorlik kabi yondashuvlarga bo‘shatib berdi. Shuningdek urushdan keyingi o‘zgaruvchan mafkuraviy manzaralar va madaniy o‘zgarishlar ham xalqaro munosabatlarda siyosiy idealizmning susayishiga yordam berdi. Millatlar Ligasi kabi idealistik urinishlarning muvaffaqiyatsizligi natijasida paydo bo‘lgan umidsizlik, yangi mafkuraviy harakatlar va madaniy siljishlarning kuchayishi bilan birga, yuksak global qarashlarga intilishning maqsadga muvofiqligi hamda maqsadga muvofiqligini qayta baholashga olib keldi. Mustamlakachilikdan keyingi kurashlarning paydo bo‘lishi, kommunizm va kapitalizm kabi raqobatlashuvchi mafkuralarning tarqalishi, turli mintaqalarda millatchilikning qayta tiklanishi xalqaro hamkorlik va diplomatiyaning yetakchi tamoyili sifatida siyosiy idealizmning hayotiylikini yanada qiyinlashtirdi. Samuel Xantingtonning “Svilizatsiyalar to‘qnashuvi” asari orqali global kuchlarning o‘zgarishi va geosiyosiy realliklar siyosiy idealizmning pasayishiga qanday ta‘sir qilganini bir necha jihatdan tushintirib berish mumkin. Birinchidan, Ittifoqlar va kuch dinamikasidagi o‘zgarishlar: Xantingtonning o‘z tezisida mamlakatlar o‘zlari bilan svilizatsiyalar chizig‘i bo‘ylab birlashayotganini va bu ittifoqlar, qolaversa kuch dinamikasida o‘zgarishlar bo‘lishiga olib kelishini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida, umumiy g‘oyalar yo‘lida ishlaydigan yagona hamjamiyatga bo‘lgan ishonchni yo‘qotdi, chunki davlatlar madaniy yaqinlik orqali o‘z manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishadi. Xantingtonning ta‘kidlashicha, sovuq

urushdan keyingi davrda madaniy va diniy o'ziga xosliklarga asoslangan sivilizatsiyalar o'rtasidagi to'qnashuvlar global keskinlikning asosiy manbaiga aylangan. Sivilizatsiyalar to'qnashuvi umuminsoniy qadriyatarga asoslangan siyosiy idealizm targ'ibotiga putur yetkazgan holda xavfsizlik va realistik siyosatga e'tibor qaratishga olib keldi. Ikkinchidan, Millatchilik va identitiklik siyosati ⁸⁴ : sivilizatsiyalar to'qnashuvi madaniy va etnik o'ziga xosliklarni umuminsoniy qadriyatlardan ustun qo'yadigan millatchilik hamda o'ziga xoslik siyosatining qayta tiklanishini bildiradi. Ushbu tendensiya demokratiya, inson huquqlari va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga intiladigan siyosiy idealizmning qulashiga yordam beradi. Shuningdek, Xantingtonning ushbu asarida qanday qilib geosiyosiy realliklar iqtisodiy va harbiy resurslar uchun kurash, strategik manfaatlar, va hududiy nizolar orqali global kuchlarning o'zgarishini shakllantirishini yoritib beradi [1]. Bu mulohazalar ko'pincha siyosiy idealizmdan ustunlik qilib, mamlakatlarni demokratik qadriyatlar va tamoyillarni ilgari surishdan ko'ra o'z manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishga olib keladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro munosabatlarda siyosiy idealizmning tanazzulga uchrashi tarixiy, mafkuraviy va geosiyosiy omillarning jamlanishi natijasida shakllandi. Realistik qarashlarning paydo bo'lishi, global kuch dinamikasining o'zgarishi, nizolarni hal qilishning murakkabligi va o'zgaruvchan mafkuraviy manzara xalqaro munosabatlarda siyosiy idealizmning so'nishiga xizmat qildi. Global birlik va hamkorlikka bo'lgan idealistik intilishlar diplomatik ritorika va xalqaro nutqqa ta'sir qilishda davom etayotgan bo'lsada, kuch siyosati, milliy manfaatlar va tizimning murakkabligi xalqaro munosabatlardagi hukmron paradigmalarni qayta shakllantirdi. Ushbu o'zgarishlarni chuqurroq tushunish uchun men bir qator ilmiy ishlar va materiallarga, jumladan, Hans Morgensonning «Xalqlar o'rtasidagi siyosat», Kennet Valtsning «Xalqaro siyosat nazariyasi» va jahon urushidan keyingi tarixiy tahlillarga tayandim. Ushbu manbalar xalqaro munosabatlardagi siyosiy idealizmning tanazzulga uchrashining tarixiy, nazariy va amaliy jihatlari haqida qimmatli fikrlarni taqdim etdi va global diplomatiyadagi ushbu muhim evolyutsiyani tekshirish uchun keng qamrovli asoslarni taklif qildi.

⁸⁴ Identitiklik siyosati – shaxsning ma'lum bir siyosiy mafkura, partiya yoki harakat bilan shaxsiy identifikatsiyasini anglatadi. U shaxsning siyosiy masalalarga bo'lgan qarashlarini shakllantiradigan va uning siyosiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan e'tiqod

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Huntington, S. p. (1996). *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. 1230 Avenue of the Americas New York, NY 10020: Simon&Schuster Inc Rockefeller Center.
2. Malone, D. M. (2004). *The UN Security Council: From the Cold War to the 21st Century*. 1800 30th Street, Ste. 314 Boulder, CO 80301 USA: Lynne Rienner Publishers website.
3. Mearsheimer, J. J. (2001). «The tragedy of Great Power politics». 500 Fifth Avenue. New York, NY 101 10: W. W. Nanon & Company, In.
4. Morgenthau, H. J. (1949). *Politics among Nations The Struggle for Power and Peace*. New York City: Alfred A. Knopf, Inc.
5. Waltz, K. N. (1979). *Theory of International Politics*. Boston, Massachusetts: Addison-Wesley Publishing Company, Inc.

ЎЗБЕК ТИЛИДАН ИНГЛИЗ ТИЛИГА БИЛВОСИТА ВА БЕВОСИТА ТАРЖИМАЛАР ХУСУСИДА

Камола Арипова Юсупова

Ўзбекистон халқаро ислом академияси
Чет тиллари кафедраси катта ўқитувчиси
90 981-46-15
e-mail: kamolakind@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Мақолада таржима фаолиятининг аҳамияти, бадиий таржима ва унинг қийинчиликлари, ҳамда турли тиллар ўртасидаги муносабатлар ҳақида сўз боради. Таржима, халқ ва маданиятлар ўртасида ўзаро алоқани мустаҳкамлашда муҳим рол ўйнайди. Бадиий таржиманинг мураккаблиги, асарларнинг маъно ва услубини сақлаб қолиш зарурияти билан боғлиқ. Таржима назарияси ва амалиёти ҳақида турли олимларнинг фикрлари келтирилган.

***Калит сўзлар:** адабий, ижтимоий-сиёсий ва махсус таржима, кетма-кет таржима, синхрон таржима, маҳаллий таржима, коммунал таржима.*

НЕПОСРЕДСТВЕННЫЕ И КОСВЕННЫЕ ПЕРЕВОДЫ С УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НА АНГЛИЙСКИЙ

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о важности переводческой деятельности, художественном переводе и его сложностях, а также о взаимосвязях между различными языками. Перевод играет важную роль в укреплении взаимосвязей между народами и культурами. Сложность художественного перевода связана с необходимостью сохранить смысл и стиль произведений. Приведены мнения различных ученых о теории и практике перевода.

***Ключевые слова:** художественный, общественно-политический и специальный перевод, последовательный перевод, синхронный перевод, перевод с места, коммунальный перевод.*

DIRECT AND INDIRECT TRANSLATIONS FROM UZBEK TO ENGLISH

ABSTRACT

The article discusses the importance of translation activities, artistic translation and its challenges, as well as the relationships between different languages.

Translation plays a crucial role in strengthening the connections between nations and cultures. The complexity of artistic translation is related to the necessity of preserving the meaning and style of works. Various scholars' opinions on translation theory and practice are presented.

Key words: *artistic, socio-political and special translation, consecutive interpreting, simultaneous translation, translation from sight, communal translation.*

КИРИШ

Энг дастлабки даврдан бошлаб, инсониятнинг ривожланишида турли халқлар, миллатлар ўртасида ўзаро алоқа ўрнатиш муҳим бўлиб келган. Ҳар бир қабиланинг, миллат, элатларнинг ўз сўзлашув тили мавжуд бўлиб, бу халқларнинг бир-бири билан муносабат ўрнатиши учун энг қадимги даврларданок таржима фаолиятига эҳтиёж мавжуд бўлган.

Инсониятнинг ривожланиш тарихида тил қанчалик муҳим аҳамиятга эга эканлиги маълум. Қадим даврларданок қабилалар сўзлашадиган тиллар бир-биридан фарқланган бўлса, бугунги кунда дунёда 7000дан ортиқ тил мавжуд. Шунини ҳисобга олган ҳолда аниқ айтишимиз мумкинки, таржимага бўлган эҳтиёж ҳануз камайгани йўқ, балки вақт ўтиши билан тобора ошиб бормоқда. Бироқ бу нарса таржима фаолиятига нисбатан тўғри ҳисобланади, таржима назариясининг тарихи эса яқин ўтмишга бориб тақалади. Таржима фаолияти тил билан бевосита боғлиқ ҳодиса бўлганлиги учун тилшунослик соҳасида таржима фаолиятини тадқиқ этишга алоҳида ўрин ажратилади. Турли услубга оид оғзаки ёки ёзма матнларни таржима қилишга доир кўплаб илмий изланишлар олиб борилиб, бу жараёнларда учрайдиган муаммоларга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Таржиманинг энг қийин турларидан бири - бу бадий таржима ҳисобланади. Бадий таржиманинг ўзига хос жиҳатларидан бири шуки, унда нафақат аслият матнидаги маънонинг сақланишига, балки турли стилистик воситалар, бадий унсурларни ҳам таржима матнига олиб ўтишга алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлади. Бадий таржима усулини тадқиқ этишга таржимашунослик соҳасида кенг ўрин ажратилган бўлиб, ўзбек тилшунослари, шунингдек, Россия ва Европа тилшунослик мактаблари вакиллари томонидан таржиманинг бу турини ўрганишга оид кўплаб ишлар амалга оширилган.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ҳозирги кунда бутун дунё халқлари ўртасида ўзаро алоқани мустаҳкамлаш жуда муҳим эҳтиёж ҳисобланиб, давлатларнинг ривожланиши, ҳар томонлама тараққий этишининг асосий омилига айланиб қолган. Глобаллашув жадал

кечаётган бундай даврда ҳар бир халқнинг рақобатбардошлиги бу миллатнинг жаҳон ҳамжамияти билан қанчалик алоқа ўрната олганлигига боғлиқ. Дунёда 7000 дан ортиқ тил мавжуд эканини ҳисобга олсак, бу тилларда сўзлашувчи халқларнинг ўзаро алоқа ўрнатиши учун таржима фаолияти бевосита муҳим эканлигини таъкидлаб ўтишимиз лозим. Таржима орқали бир халқнинг маданияти, урф-одатлари, қадриятлари, тарихий тараққиёти ҳақида бошқа халқлар ҳам билиб олади. Бу орқали дунё халқлари ўртасида ўзаро дўстлик, биродарлик ришталари пайдо бўлади. Бугунги кунга келиб, ҳар бир инсон жамиятда ўз ўрнини топиши, дунёни англаб, ундаги янгиликлардан бохабар бўлиб туриши учун камида битта хорижий тилни билишга ҳаракат қилиши гўё талаб даражасига ҳам кўтарилди. Зеро, бундан юз йиллар аввал маърифатпарвар шоир Аваз Ўтар ўғли ҳам бизни чет тилларини ўрганишга даъват этган эди:

Ҳар тилни билув эмди бани одама жондур,
Тил воситаи робитаи оламиёндур.
Ғайри тилни саъй қилинг билгали ёшлар,
Ким илм-у ҳунарлар ривожи андин аёндур.⁸⁵

Бу мисраларда таъкидланган фикрларнинг барчаси ҳақиқатдир. Тилни восита сифатида қўллайдиган касб эгаси бўлмиш таржимонларга нисбатан худди шу сўзларни айтсак, умуман адашмаган бўламиз.

Ўзбек таржимашунослик назарияси ва таржима амалиётининг ривожланиши Ғайбулла Саломов номи билан бевосита боғлиқ бўлиб, у таржима фаолиятини шундай таърифлайди: “таржиманинг асосий хусусияти - маънони сақлаб қолган ҳолда уни бошқа тил воситалари ёрдамида қайта яратишдан иборат бўлган сўз санъати, ижодий фаолият эканлигида”.⁸⁶ Бир халқнинг бадиий адабиётига тегишли бўлган асарлар таржима орқали бошқа халқларга ҳам тушунарли бўлади. Ғ. Саломовнинг сўзларига кўра, бу жараёнда таржимон - ижодкор ҳам ҳисобланади. Ғ.Саломов ўзининг “Таржима ташвишлари” асарида шундай дейди: “Таржима фаолияти наитижасида жамиятда янги муносабатлар ўрнатилади, янгича қарашлар пайдо бўлади”.⁸⁷ Дарҳақиқат, бадиий адабиёт тарихидан ҳам маълумки, жаҳон адабиёти намуналарининг бошқа тилларга таржима қилиниши сабабли адабиётда янги жанрлар, янгича оқимлар, ғоявий йўналишлар юзага келган.

Таниқли таржимашунос олим Қудрат Мусаевнинг сўзларига кўра,

⁸⁵ Аваз Ўтар ўғли. Саодат ул-икбол. — Тошкент: Ўзбекистон, 2012.

⁸⁶ Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. - Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1978. - 93 б.

⁸⁷ Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. -Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. - 20 б.

таржима - бир тилдаги матннинг мазмуний ва шаклий хоссаларини ўзгартирмаган ҳолда, уни бошқа тилнинг ифода воситалари орқали қайта яратиш жараёни ҳисобланади⁸⁸. Ҳақиқатан, “яратиш жараёни” маҳсули бўлган таржима энди асарнинг муаллифига эмас, уни бошқа тилга ўгирган таржимонга тегишли ижодий иш саналади. Таржимон бир тилдаги асарни бошқа тилга олиб ўтишда ўз ижодий қобилиятларини ишга солади, худди асар муаллифи сингари у ҳам таржимага ўз ёндашуви, ифода тили, услубини сингдиради Қудрат Мусаев ўз сўзининг давомида ушбу фикрларни келтириб ўтади: “Турли халқлар адабиёти намуналарининг бир-бирига таъсир ўтказиши, ўзаро алоқага киришиши, албатта, таржима жараёни орқали содир бўлади. Таржима туфайли ўқувчилар ўзлари билмаган тилларда ёзилган нодир асарларни ҳам ўқиб, уларнинг бадиий таъсир кучидан баҳраманд бўлиш имконига эга бўладилар. Таржима асарларни ўқиган китобхонлар эстетик завқни ҳис этадилар, шунингдек, уларнинг бадиий дидлари юксалиб, дунёқарашлари кенгаяди”⁸⁹. Қ. Мусаевнинг таржима фаолияти ҳақидаги ушбу ижобий фикрларини Ғ. Саломов айтган сўзларнинг мантикий давоми, десак ҳам тўғри бўлади.

“Муаллиф томонидан яратилган илмий ёки бадиий асар, бирон нутқ парчаси, турли ҳужжатлар, иш қоғозлари, маълумотларни бир тилдан иккинчи тилга кўчириб ўтказиш, уларнинг бошқа тилда тушунарли бўлишини таъминлаш таржима жараёнининг асосини ташкил қилади”, - дейди таржимашунос олим И. Ғафуров⁹⁰. Қ. Мусаев ҳамда И. Ғафуровнинг фикрига умумий хулоса суфатида шуни айтишимиз мумкинки, таржима - бир тилдаги оғзаки ёки ёзма матнни иккинчи бир тилга ўгириш жараёни бўлиб, бунда матннинг лексик, семантик, лингвакултурологик, стилистик хусусиятлари ҳисобга олинади.

Таржима фаолиятининг асарни янгидан ёзишга қиёс этилишининг яна бир сабаби шуки, бадиий асар муаллифи томонидан асарда қўлланган услубий-тасвирий воситалар, ҳис-ҳаяжонли ҳолатлар, эмоцияларни таржимада акс эттира олиш ҳам жуда мураккаб жараён саналади ва бунинг учун таржимондан катта маҳорат, вақт ва эътибор талаб этилади⁹¹. Таржиманинг муваффақиятли чиқиши - унинг таржима тили китобхонлари томонидан яхши кутиб олиниши ёки ўқилмай қолиб кетиши - кўп жиҳатдан таржимонга боғлиқ. Таржимон асар тилини мукамал даражада билиши, асарда қўлланган барча лингвистик компонентларни тўлиқ англаши, қаҳрамонлар характери-ю асардаги воқеалар

⁸⁸Мусаев Қ- Таржима назарияси асослари. - Тошкент: Фан нашриёти, 2005. - 8 б.

⁸⁹ Ўша асар, 15 б

⁹⁰Ғафуров И. Таржимон мутахассислигига кириш. - Тошкент: Мехридарё, 2008. - 5 б.

⁹¹ Тўхтаўжаева Н. Бадиий таржимада лингвокултуремаларнинг ифодаланиши. Филол.фан...фалсафа док (PhD) дис. автореф. - 13 б.

тасвирини яхши тушуна олиши керак. Асар орқали муаллиф нима демокчи эканини англамай туриб, унинг ҳикоя услуби, асар қаҳрамонларининг табиати, воқеаларга тўғри ёндашувга эга бўлмасдан қилинган таржима жуда ноаниқ чиқади, асл асарни ифодалаб беролмайди. Натижада, таржима тили китобхонида асарга ва унинг муаллифига нисбатан нотўғри фикр пайдо бўлади, асарнинг қадр-қиммати тушади. Таржима матнини ўқиган китобхон ундан етарли даражада завқ олмаса, асарнинг аслини ҳам шундай деб ўйлайди. Таржиманинг хом эканлиги туфайли китобхонда асарнинг асл нусхаси ҳам муаллиф томонидан паст савияда ёзилган, деган тасаввур пайдо бўлади. Бадиий асарни таржима қилишдан асосий мақсад - асар тилининг лексик, синтактик, стилистик хусусиятларини ҳисобга олиб, ундаги маъно ва шакл уйғунлигини таъминлаган ҳолда таржима тилида қайта тасвир яратишдан иборат. Буни тўғри бажармаслик натижасида таржимада маъно бузилишлари кузатилиб, ифода меъёрида аниқлик йўқолади.

Аксарият ҳолларда, асарнинг тили билан таржима тили ўртасида катта фарқланиш мавжуд бўлиб, бу ҳолат тилларнинг лексик, грамматик, услубий, семантик сатҳларида яққол намоён бўлади. Бир-бирига лингвистик жиҳатдан яқин гуруҳларга мансуб бўлган, қардош ҳисобланувчи тиллар ўртасидаги таржима жараёни бирмунча осон кечади, негаки, тил унсурлари қардош тилларда кўп жиҳатдан ўхшаш бўлади. Бошқа-бошқа тил гуруҳларига кирувчи тилларда ёзилган асарлар ўртасидаги таржима эса нисбатан мураккаб жараён ҳисобланиб, таржимондан катта маҳорат, куч-қувват ва вақт талаб қилади. Хусусан, ўзбек бадиий адабиётида бевосита таржимани энг кўп учратишимиз мумкин бўлган инглиз тили ҳам ўзбек тилига қардош эмас. Ҳинд-европа тиллари оиласига кирувчи инглиз тили ҳамда туркий тиллар оиласига кирувчи ўзбек тилларида яратилган асарларни тўғридан-тўғри таржима қилиш бир қатор қийинчиликларни юзага келтиради, сабаби, бу тилларнинг грамматик тузилиши, лексик ва семантик бирликларининг таркиби бир-биридан мутлақо фарқ қилади. Бундай ҳолатда асосий эътиборни тил бирликларининг шаклига эмас, матнда ифода этилган маънонинг таржима тилига тўғри олиб ўтилишига қаратиш лозим. Таржима фаолиятини тадқиқ этган олимлардан бири Комилжон Жўраевнинг сўзларига кўра, аслият матнида муаллиф томонидан яратилган бадиийлик бўёғи, асарнинг эстетик қийматини таржима тилида очиб бериш учун тил бирликларининг моддий эмас, вазифавий жиҳатдан уйғунлигини таъминлаш керак бўлади. Таржима жараёнида қийинчиликка учрамаслик учун мутахассислар етарли даражада назарий билимга ҳам эга бўлиши керак. Назарий тайёргарликсиз бошланган таржима фаолияти мукамал бўлмай, асар

охирига еткунга қадар таржимонни қийнаб кўяди. Муваффақиятли таржимани амалга ошириш учун етарли билим ва назарий маълумотларни таржимон шу пайтга қадар бажарилган таржима амалиётлари натижасида тўпланган умумий таржима назариясидан олади.

Ғайбулла Саломов таржима фаолиятининг дунё миқёсидаги аҳамияти катта эканига урғу бериб, уни бугунги кун ҳаётини тасаввур ҳам қилиб бўлмаслигини айтади. Ўз фикрлари давомида олим шундай дейди: “Таржима бўлмаса, халқларнинг ўзаро алоқаси амалга ошмайди, бусиз эса тараққиёт бўлмайди. Бошқа халқларнинг ҳаёти, турмуш тарзи ҳақида билимга эга бўлмаслик оқибатида миллатлар ривожланишдан тўхтаб, заволга юзланади”.⁹² Ушбу фикрларни умумлаштириб айтадиган бўлсак, таржима амалиётининг қуйидаги соҳаларда аҳамияти жуда катта:

- дунё халқларининг ўзаро алоқаси, дўстона муносабатини мустаҳкамлашда;

- илм-фан ҳамда техника тараққиётини тезлаштиришда;

- халқларнинг маданияти, санъат ва адабиётининг ўзаро таъсирлашувида;

- тиллар таркибининг кенгайиши, бойиши ва бошқаларда.

Таржима фаолиятини шунчаки нусха кўчириш, деб тушунмаслик керак. Айниқса, бадиий таржима соҳасига нисбатан бундай таърифни қўллаш умуман хато бўлади. Чунки таржима асарда аслият матнидаги ҳис-туйғу ва бадиийликдан ташқари, таржимон томонидан берилган эстетик сайқал ҳам ўз аксини топади. Таржимон бадиий асарни таржима тили воситаларидан фойдаланган ҳолда қайтадан яратади ва бу жараёнда ўзи сезмаган ҳолда ижодкорлигини ишга солади, ўз шахсий услубидан фойдаланади. И.Ғофуровнинг фикрига кўра, аслият матнини таржима тилида қайта гавдалантиришда муваффақиятга эришиш учун таржимон асарда ифода этилган тасвирни муаллиф даражасида яхши англаши лозим⁹³.

Таржима амалиётини тадқиқ этиш борасида жаҳон тилшунос-таржимашунос олимлари томонидан кўплаб изланишлар олиб борилган. Қуйида бир қанча олимларнинг фикрларини келтириб ўтамиз: испан таржимашунос олимаси Ана Мария Рожонинг фикрича, таржима - бир тилдаги оғзаки матнни иккинчи тилдаги оғзаки матнга, бир тилдаги ёзма матнни бошқа тилдаги ёзма матнга айланттиришдан иборат бўлган фаолият туридир. А. Рожонинг бу фикрлари таржима фаолиятига нисбатан келтирилиши мумкин бўлган энг қисқа, лўнда ва умумий таърифдир”⁹⁴. П. Ньюмарк таржимани

⁹² Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1978. - 18 б

⁹³ Ғафуров И., Мўминов О. Қамбаров Н., Таржима назарияси. - Тошкент: 2010. - 18 б.

⁹⁴Newmark P. A Textbook of Translation. - London: Prentice Hall, (1988/1995). - 5 p.

муаллифга тегишли бўлган матнни у назарда тутган усулда чет тилига ўгириш жараёни сифатида кўради. Ўйлаймизки, П. Ньюмаркнинг ушбу фикрлари бадиий асарларни таржима қилишга нисбатан ишлатилса, жуда тўғри бўлади. Бунинг сабабини эса бадиий адабиёт намуналарида эмоционал-экспрессив бўёқдорлик, бадиий унсурлар, китобхонга таъсир кучи, муаллиф услуби ва коннотатив таъмаъноларнинг мавжудлиги орқали изоҳлаш мумкин.

Таржимашунос олим Снел-Хорби айтади: “Таржима деб, бир тилда шаклланган фикрни бошқа тилнинг бирликларидан фойдаланиб, қайтадан тасвирлаш, фикрни ўзга тилнинг белгилар қолипига жойлаштириш ҳаракати ҳамда шу жараённинг ўзига айтилади”.⁹⁵ Олимнинг ушбу фикрлари, асосан, семантик(маъновий) таржима ҳақида айтилган бўлиб, бадиий асарлар таржимаси борасида бу фикрларни айтиш тўғри бўлади.

“Таржиманинг лингвистик назарияси” асарида Ж. Катфорд шундай дейди: “Аслият тилидаги матнга эквивалент бўлган матн материални таржима тилидан топиб, алмаштириш жараёни таржима деб аталади”⁹⁶. Олимнинг бу фикрларида таржиманинг асосий компонентларидан ҳисобланмиш эквивалентлик ҳодисасига қисқача кириш қилингани кўринмоқда. Эквивалентлик ҳолатига берилган янада батафсил таърифни Р. Белл ҳамда Е.Найданинг илмий ишларида учратишимиз мумкин. Р. Беллнинг фикрича, таржима жараёнида аслият тилидаги матннинг семантик ва стилистик эквивалентини таржима тилидан топиш амалиёти асосий ўрин эгаллайди⁹⁷. Е.Найда эса ушбу фикрларни янада бойитиб, Р. Белл томонидан “семантик” деб ифода этилган тушунчага батафсилроқ изоҳ беради: “Таржима - бир тилда келтирилган маълумотларни иккинчи бир тилда қайта яратиш жараёни бўлиб, бунда энг аввало, маъно терминларининг эквиваленти топилади, ундан сўнг эса услубий вазифа бажарувчи терминларнинг эквиваленти таржима тилидан қидирилади”.⁹⁸ Бундан англашиладики, таржимон бирон асарни бошқа тилга ўгиришда ҳар иккала тилнинг лингвистик хусусиятларидан яхшигина хабардор бўлиши, бу тилларнинг барча сатҳларини бирдек эътибор билан ўрганиб чиқиши зарур. Ж.Катфорднинг фикрлари эса, асосан, расмий таржималарнинг таърифига кўпроқ мос келади, деб ўйлаймиз.

Оксфорд университети профессори, таржима назариясини тадқиқ этиб ўрганган олимлардан бири Ж. Нортон таржима жараёни кўпроқ ёзма матнлар билан амалга оширилишини урғу бериб айтади: “Таржима- бир тилдаги ёзма

⁹⁵ Snell-Hornby M. Translation Studies: An Integrated Approach. - Amsterdam/ Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1988/1995. - 184 p.

⁹⁶ Catford J. A Linguistic Theory of Translation. - London: OUP. 1965. - 20 p.

⁹⁷ Bell R. Translation and Translating. - London and New York: Longman. 1991. - 5 p

⁹⁸ Nida E. and Taber C. The Theory and Practice of Translation. United Bible Society. 1969. - 12 p.

матнни иккинчи тилдаги ёзма матннинг энг муқобил кўринишига ўтказиш жараёни бўлиб, бунда таржимон аслият тилининг синтактик тузилиш қонуниятларини, семантикасини, шунингдек, прагматик хусусиятларини яхши тушуниши зарур”⁹⁹.

Таржиманинг табиати ҳақида ҳинд замонавий тилшунослик мактаби вакиллари шундай фикрни билдирадilar:

“Таржиманинг характеристикаси - табиати ҳақида қатъий фикр билдириш имконсиз, негаки, бу нарса ўзгарувчан бўлиб, таржима қилинаётган матннинг турига қараб, унинг хусусиятларини ўзлаштиради. Бирламчи семантик маъно англатувчи тил бирликларидан фойдаланиб яратиладиган матнлар - ҳужжатлари, шартнома ва бошқа турли иш қоғозларини хорижий тилларга ўгириш амалиёти таржиманинг нисбатан осон турларидандир. Маълумки, иш қоғозлари дунёдаги барча тилларда бу тилларнинг синтактик табиати, лексик таркибига мувофиқлаштирилган қатъий форма, талабларга мос тарзда тузилади. Бу нарса таржима жараёнида мутахассисга катта ёрдам беради. Таржиманинг бирмунча қийин бўлган тури - бу бадий матнлар таржимаси. Чунки адабий асарларда маълум тил меъёрлари, қатъий чегаралар мавжуд бўлмайди: ифода услуби, муаллифнинг ёндашуви, лексик-синтактик таркиб, прагматик хусусиятлар ҳар бир асарда турлича бўлади. Таржимон эса бадий асарнинг аслият матни луғат таркиби, грамматик тузилиши, гапларнинг структуралари, манба тилнинг стилистик имкониятларини тўлиқ таҳлил қилиб, уни таржима тилининг барча компонентларига мослаб, қайтадан яратиши лозим бўлади. Бу жараёнда манба тилида сўзлашувчи китобхонлар асардан қандай таассурот олган бўлса, таржима тили китобхони ҳам таржима асарни ўқиганда шундай тасаввурга эга бўлиши керак, деган тамойил асосий ўрин тутди”¹⁰⁰.

Демак, таржима жараёни ҳақида гап кетганда, бир тилдаги оғзаки ёки ёзма матнни бошқа тилда, бошқа тил бирликлари воситасида қайтадан тасвирлаш жараёни тушунилиб, бунда манба тил ҳамда таржима тилининг лексик-семантик, стилистик, лингво-культурологик аспектлари ҳисобга олинади. Шундан келиб чиққан ҳолда, биз ушбу диссертация ишимизда бадий таржима амалиёти ҳамда бу жараённинг энг мураккаб жиҳатларидан бўлган услубий-тасвирий тил бирликларининг таржима қилинишини тадқиқ этишга ҳаракат қилдик. Асарнинг бадийлик бўёғини, ундаги стилистик воситалар, бажий унсурлар, тасвирий бўёқдорликни таржима матнида ҳам акс эттира олиш учун нафақат икки тилнинг лексик-стилистик қатламани яхши тушуниш, балки бу

⁹⁹Norton G.P. Some Remarks on Translation and Translators. - Oxford:Oxford University Press. 1984. - 3 p.

¹⁰⁰ -Meaning, Nature and Scope of Translation Unit-01. 2013, India .

тилларда сўзлашувчи халқларнинг урф-одатлари, маданияти, миллий кадриятлари, керак бўлса, тарихий тараққиётдан ҳам хабардор бўлиш лозим. Сабаби, бадиий матнларда кенг қўлланувчи стилистик воситалар (метафора, метонимия, синекдоха, муболаға), асосан, халқларнинг миллий қиёфасини акс эттиришда муҳим роль ўйнайди, шунингдек, бу воситаларнинг тилда шаклланиш жараёни ҳам халқларнинг турмуш тарзи, этник хусусиятларига кўп жиҳатдан боғлиқ бўлади.

Дунё таржимашунослик мактаблари ривожланиб борар экан, юртимизда ҳам мустақиллик йилларида олимлар орасида таржима фаолиятини тадқиқ этишга бўлган қизиқиш тобора ортиб борди. Хорижий тиллар билан ўзбек тили ўртасида амалга оширилган билвосита ҳамда бевосита таржималарни танқидий ёндашиб ўрганиш ҳолатлари орта бошлади, бунинг натижасида эса таржима жараёни ҳам анча такомиллашди, ҳар томонлама сифатли бўлган таржима асарлар миллий адабиётимизга кириб келди. Таржима фаолиятида эришилган ютуқларнинг яна бир сабаби сифатида таржима назариясини ўрганишда олиб борилган тадқиқот ишлари натижаларини ҳам келтириб ўтиш мумкин. Ўзбек адабиётини бойитиб турган жаҳон адабиёти дурдоналари таржималарини тилга олганда, инглиз китобхонлари учун тайёрланган ўзбек бадиий асарлари таржималарини ҳам тилга олишимиз тўғри бўлади.

Бугунги кунга қадар ўзбек адабиётининг нодир намуналари кўплаб чет тилларига таржима қилиниб, ўзга тилли китобхонлар томонидан севиб ўқилмоқда. Бу асарларнинг жаҳон адабиёти манбалар хазинасини бойитганлиги, унинг ривожига ҳисса қўшганлиги аниқки, туркшунос олимларимиз бу ҳақида ўз илмий ишларида кўп бор маълумот бериб, бу таржималарнинг бадиий салмоғини эътироф этишган. Миллий адабиётимизнинг сара намуналарини хорижлик китобхонларга улар тушунадиган тилда етказиб бериш, уларни эстетик завқдан баҳраманд этиш учун амалга оширилган муҳим ишлардан бири Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмасининг 2010-йил 26-февралдаги қарорида ўз аксини топган. Қарорда Ёзувчилар уюшмаси хузурида “Ижод” фонди ташкил этилиши белгиланган бўлиб, унинг давомида уюшмага махсус топшириқ ҳам юклатилиб, унинг асосий мазмуни “...халқимизнинг қадимий тарихи, бой маданияти, асрий анъана ва кадриятлари тараннум этилган, миллий маънавиятимизнинг мазмун-моҳияти теран бадиий ифодасини топган мумтоз ва замонавий адабиётимиз муносиб намуналарини хорижий тилларга таржима қилишни ҳамда интернетда кенг тарғиб этиш”дан иборат эди.¹⁰¹

¹⁰¹ [hisobot.ijod.uz>login/download/1292_uz](http://hisobot.ijod.uz/login/download/1292_uz)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Арипова, К. Ю. (2021). The distinctive features of translation of the novel “Night and day”. *Международный журнал искусство слова*, 4(1-2).
2. Catford J. *A Linguistic Theory of Translation*. – London: OUP, 1965. – P.20.
3. Ingo, R. 1989. Kääntäminen kielenopetuksessa. In Nuopponen & Palmberg (eds.), 61-67.
4. Klaudy K. 2003. *Languages in Translation*. Budapest: Scholastica.
5. G’afurov I, Mo’minov O, Qambarov N. *Tarjima nazariyasi*. –T.: Tafakkur bo’stoni, 2012. – B.7.
6. Musaev Q. *Tarjima nazariyasi asoslari*. – T: Fan, 2005. – B.8.
7. Salomov G’. *Tarjima nazariyasiga kirish*. – T.: O’qituvchi, 1978. – B.93.
8. Muminova, D. A. (2023). CHET TILINI O‘RGANISHDA TARJIMANING ROLI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 693-696.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING DIGITAL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Anvarbekova Xilola Numanovna

73-Davlat ixtisoslashtirilgan
umumta'lim maktabi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining digital texnologiyalardan foydalanish metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammolari tanqid qilinib o'tilgan. Bunda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan holda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish tamoyillari, nazariy hamda pedagogik jihatlari ilmiy asoslanib o'tilgan hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: metodik tayyorgarlik, kompetensiya, Big data. Digital texnologiya, STEAM, kompetensiya, pedagogik texnologiya, AKT, zinama-zina metodi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье критикуются научно-педагогические проблемы совершенствования методической подготовки учителей начальных классов по использованию цифровых технологий и повышения квалификации. При этом обобщены мнения зарубежных и отечественных исследователей, научно обоснованы принципы профессионального развития учителей начальных классов, теоретические и педагогические аспекты, а также возможности учителей начальных классов общеобразовательных школ использовать современные педагогические технологии. представлено.

Ключевые слова: методическая подготовка, компетентность, Большие данные. Цифровые технологии, STEAM, компетентность, педагогическая технология, ИКТ, пошаговый метод.

ABSTRACT

This article criticizes the scientific-pedagogical problems of improving the methodical training of primary school teachers in the use of digital technologies and professional development. In this, the opinions of foreign and local researchers were summarized, the principles of professional development of primary school teachers, theoretical and pedagogical aspects were scientifically based, and the opportunities of primary school teachers of general secondary schools to use modern pedagogical technologies. opinions are presented.

Key words methodological training, competence, Big data. Digital technology, STEAM, competence, pedagogical technology, ICT, step-by-step method.

KIRISH

XXI – asr “Axborot texnologiyalar asri” deyilishi bejizga emas, chunki hozirgi zamonaviy dunyoda yashar ekanmiz digital texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoning qaysi markazini qaramang axborot texnologiyalariga oid yangiliklarni eshitamiz va ko'ramiz. Digital (raqamli) texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani kabi raqamli texnologiyalarni ta'lim sohasida ham shiddat bilan o'sib borayotgani hech birimizga sir emas. Masalan, sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish ta'lim oluvchining uyda o'tirgan holda online ta'lim olishi, firibgarliklarni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo'l kelsa, katta hajmli ma'lumotlar — Big data esa ta'lim vazirliklariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish ta'lim oluvchilar va ta'lim vazirliklari o'rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi. Xozirgi kunda ta'lim sifatini ko'tarishda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan. Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotganligi sababli ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy ta'lim texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ko'rinib turibiki bu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, foydaliroq o'qitish usullarini qo'llash, hamda, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini salmoqli darajada kengaytirish imkonini beradi. Digital texnologiyasi o'zi nima degani bu – xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni. masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin. Biz bu maqolada ta'lim tizimida raqamlashtirishni o'rniga to'xtalib o'tamiz. Hozirgi kunda digital texnologiyalari ta'lim sohasidan tashqari qolgan sohalarda ham juda ko'p vazifalarni inson aralashuvisiz shafof holda

o'zi hal qilib kelmoqda. Ya'ni misol tariqasida oddiygina soliq tizimidagi soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, sohadagi firibgarliklari va ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish kabi bir qancha axborot almashinuvlarini ko'rsak bo'ladi.

Shu sababli Prezidentimizning 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq, soliq sohasida ham yuridik shaxslarning soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq to'lovlaridagi tafovutlarni aniqlashda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashga alohida ahamiyat qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Raqamli texnologiyalar (inglizcha:) Digital texnologiyasi inglizcha so'zdan olingan bo'lib digital technology raqamli texnologiyalar degan manoni anglatadi. Digital texnologiyasi — signallarni uzluksiz spektr shaklida emas, balki analog darajadagi diskret diapazonlarda ko'rsatishga asoslangan texnologiya bo'lib hisoblanadi. 2019-yilning 29-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini rivojlantirish to'g'risida" Farmoni e'lon qilindi. Prezident farmonining asosiy maqsadi, 2019-2021-yillar davomida respublikaning har bir hududida bosqichma-bosqich STEAM (fan, texnologiya, injenering, san'at va matematika) yo'nalishlariga ixtisoslashtirilgan "Prezident maktablari"ni tashkil etish vazifasi belgilab qo'yildi. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O'zbekiston Respublikasining xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishda STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlari joriy etiladi.

Texnologiyalarning o'quv integratsiyasi bugungi kunda ta'lim texnologiyalarini tadqiq qilish sohasida yangilik emas. Dunyo miqyosda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yigirma yildan ko'proq vaqt davomida sinflarda texnologiyalarni

joriy etish, o'qitish jarayonlari sifatini oshirish nuqtai nazaridan o'ylangan natijalarni

bermoqda. Bundan ko'rinib turibdiki 21-asr fuqarolarining texnologik ta'lim ehtiyojlariga javob berish bo'lgan modellarini amalga oshirishga turtki bo'lgan xalqaro majburiyat o'lchovlarni tavsiflovchi nazariy va kontseptual asoslarni izlashga olib keldi. Raqamli malakali o'qituvchilar va o'quvchilarni tayyorlash uchun zarur. Boshqa tomondan, ta'limda texnologiyalarni integratsiyalashuviga ko'maklashuvchi

davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha shu paytgacha olib borilgan tadqiqotlar turlicha ekanligini ta'kidlaydi. U institutsional yondashuvdan tortib ta'lim agentlari o'rtasidagi sub'ektivlik va amaliyotlarni tahlil qilishgacha bo'lgan masofani qamrab oladi. Ta'kidlanishicha, ushbu yo'nalishda ishlab chiqilgan tadqiqotlar maktab madaniyatlarining murakkabligi va xilma-xilligini hisobga olmaslik, dasturlarning tijorat yo'nalishi, ba'zi tashabbuslarning barqarorligi va ta'lim siyosatining o'zlashtirilmaganligi kabi tobora aniq muammolarni ochib berdi. Shuningdek raqamli texnologiyalardan foydalanish ma'lumot eskirishini oldini olibgina qolmay davomli yangi va turli ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. So'nggi o'n yilliklarda o'qituvchilarni ushbu integratsiyani qo'llab-quvvatlash maqsadida sinfda texnologiyalarni integratsiyalashning bir nechta modellari va nazariyalari o'rganildi. Raqamli texnologiyalarni sinfda integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tadqiqotlarda eng ko'p qo'llaniladigan nazariy modellarni ko'rib chiqildi.

NATIJALAR

Bugungi kunda boshlang'ich sinflar ta'lim tizimida zamonaviy digital texnologiyalar butun dunyo bo'ylab barcha ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Raqamlashtirish, o'rganilgan saboq va bilimlarni almashish uchun imkoniyatlar yaratib, odamlarga ko'proq ma'lumot olish va kundalik hayotlarida yaxshi qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Yaqin kelajakda ta'lim muhitida raqamlashtirish bilan bog'liq katta o'zgarishlar yuz beradi. Kadrlar tayyorlashda elektron ta'lim tizimi yangi imkoniyatlar va yangi vazifalarni yaratmoqda. Asosiy imkoniyatlar qatoriga ta'limga oid muammolarni hal qilish, ta'lim shaklini tanlashni kengaytirish, bilimlarni uzatish vositalarini ko'paytirish kiradi. Raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta'limdagi o'rni va rolini anglash zarurati maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi va didaktikasi sohalaridagi zamonaviy tadqiqotlarda o'z aksini topishi kerak. Hozirgi kunda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim integratsiyasida raqamli texnologiyalarni qo'llash muammolari kelgusida rivojlanish strategiyasini va unga yo'naltirilgan yo'nalishni tanlash bilan bog'liq izlanishlarga sabab bo'ladi. Kelajakda raqobatdosh ta'lim va tadqiqot modeliga o'tish uchun raqamli transformatsiya dasturi allaqachon ishlab chiqilishi kerakligi aniq. Mamlakatimiz uchun ta'limni raqamlashtirishning asosiy maqsadi global ta'lim muhitining asosini topishdir. Ushbu maqsad bir necha omillar natijasida amalga oshirilishi mumkin:

- a) mahsulot sifati etarli darajada ekanligi;
- b) jahon bozoriga o'z vaqtida kirishning kechitirilmasiligi;
- c) til bilish to'sig'ini keskin darajada kamaytirish;

d) maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimi mutaxassislarining raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'rsatkichining o'sish darajasi rivojlantirish;

e) til bilish ko'rsatkichini yanada yuqori darajalarga olib chiqishdir.

"Raqamli texnologiya" - bu bizning atrofimizdagi hamma narsaning ajralmas qismi bo'lishdan uzoq bo'lmagan atama. Raqamli texnologiya, xuddi yong'in kabi, bizning zamonaviy landshaftimizni qamrab oladi va har bir sohada, ayniqsa ta'limda o'zgarishlarni yoqadi. Uning jadal kengayishi bizning o'rganish, ulanish va ma'lumotlarga kirish usullarini qayta shakllantirmoqda, yangi imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqarmoqda, chunki u kelajakka yo'l ochadi.

Mamlakatimizda ayni paytda rus va ingliz tilidagi bolalar uchun mo'ljallangan rivojlantiruvchi interaktiv tizimli o'yinlar, kompyuter o'yinlari, multimedia maxsulotlari juda ko'p, tilni bilgankishi esa ulardan bema'lol foydalanishi mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan fikrlarga asoslanib ta'kidlash mumkinki, digital texnologiyalarni joriy etish boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirish uchun juda muhimdir, lekin amalga oshirishda ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirish zarur. Mamlakatimizda ham ushbu soha rivoji uchun ham ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Yosh avlod uchun mo'ljallangan o'zbek tilidagi rivojlantiruvchi, yangi bilim beruvchi elektron portallar yaratilmoqda. Maktablarimizning boshlang'ich sinf darsliklariga ilova tarzida elektron multimedia darslari taqdim etilgan va ulardan dars jarayonlarida samarali foydalanilmoqda [1, 3].

XXI asr davom etar ekan, ta'limning yuzi chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. An'anaviy maktablar o'zlarining doskalari va darsliklari bilan asta-sekin o'z o'rnini yangi ta'lim davriga - raqamli maktablarga bo'shatib bormoqda. Biz raqamli maktabni an'anaviy o'tmishdoshlaridan, umumiy va ma'muriy amaliyotlarga o'tishdan, masalan, raqamli to'lovlarni to'lashdan tortib, interaktiv ta'lim tajribasi kabi ta'lim amaliyotidagi innovatsiyalargacha bo'lgan asosiy elementlarga to'xtalib o'tamiz. Bundan tashqari, biz keng qamrovli ta'lim platformalarining ta'lim kelajagini shakllantirish uchun texnologiya va ta'lim o'zaro bog'langan ushbu qiziqarli ta'lim evolyutsiyasida qanday muhim rol ekanligi hammamizga ma'lum bo'lib bormoqda.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining digital texnologiyalardan foydalana bilishi kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi, u boshlang'ich maktabning o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, AKTning o'ziga xosligi va tabiatini hisobga olgan holda, kasbiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalanish imkonini beruvchi kompetensiyalar majmuasidan iborat va boshlang'ich maktabda qo'llaniladi. Hozirgi rivojlanayotgan zamonda o'quvchi bilan ishlashda pedagogik texnologiyalarning o'zni ham juda katta ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiya

ta'lim – tarbiya jarayonini yuksak mahorat, san'at bilan boshqarishdir. Pedagogik texnologiya olimlar ta'rifida quydagicha fikrlarga ega bo'lingan.

“Pedagogik texnologiya –psixologik va pedagogik o'g'itlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositaning maxsus to'plamidir” (B.Lixachev), “Pedagogik texnologiya –o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi” (V.P. Bespalko), “Pedagogik texnologiya – rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi” (I.P. Volkov).

Ko'pgina maktablar, o'qituvchilar va murabbiylar o'quvchilarni qiziqtirishi va faolligini oshirish uchun yangi normada innovatsion o'qitish strategiyalarini sinab ko'rishmoqda. Raqamli dasturlar esa ularga o'quvchilarning ongiga kirishga yordam berdi va o'quvchilarga darslarga yaxshi kirish imkonini berdi.

2021-da:

- **57%** Barcha amerikalik talabalar o'zlarining raqamli vositalariga ega edilar.
- **75%** AQSh maktablarining bir qismi butunlay virtualga o'tishni rejalashtirgan.
- Ta'lim platformalari ishga tushdi **40%** talabalar qurilmasidan foydalanish.
- Ta'lim maqsadlarida masofaviy boshqaruv ilovalaridan foydalanish

ko'paydi **87%**.

- ga o'sish bor **141%** hamkorlik ilovalaridan foydalanishda.
- **80%** AQShdagi maktab va universitetlarning bir qismi talabalar uchun

qo'shimcha texnologiya vositalarini sotib olgan yoki sotib olishga intilgan.

2020 yil oxiriga kelib:

- **98%** ko'plab universitetlarda darslar onlayn o'qitilgan.

Ushbu statistika odamlarning o'qitish va o'rganish usullarida katta o'zgarishlarni ko'rsatadi. Eng yaxshisi, ularga e'tibor bering - siz eski shlyapa bo'lishni va o'qitish uslublaringizdan orqada qolishni xohlamaysiz, to'g'rimi?

Demak, ta'limdagi o'rganish usullarini qaytadan ko'rib chiqish vaqti keldi! Hozirgi kunda ta'limda ijobiy natijalarga erishi uchun juda ko'p o'yinli metodlar ishlab chiqilgan hamda yanada takomillashtirilib borishmoqda.

“Zinama-zina” metodini AKT darslarida qo'llanilishi.

- Axborot texnologiyalarining tarixi;
- Axborot texnologiyalarining ijobiy tomonlari;
- Axborot texnologiyalarining salbiy tomonlari;
- Axborot texnologiyalaridan mazmunli foydalanish;

Sinfda o'quvchilar Zinama-zina metodi orqali guruhlariga bo'linib ishlaydilar. G'olib bo'lgan jamoa rag'batlantiriladi.

XULOSA

Hozirgi kunda xulosa qilib shini aytish mumkinki ta'limdagi eng istiqbolli raqamli texnologiyalardan biri bo'lgan Interfaol ta'lim dasturi o'quvchilarga muhim tushunchalarni o'rgatish bilan birga o'quvchilarni jalb qilish uchun mo'ljallangan ta'lim dasturlari, simulyatsiyalar va o'yinlarni o'z ichiga oladi. Ushbu dasturiy echimlar dinamik va immersiv o'rganish tajribasini ta'minlaydi, qiziquvchanlikni va mavzularni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Raqamli baholash vositalari, jumladan, amaliyot to'plamlari, viktorinalar va planshetlar, mobil telefonlar yoki noutbuklar kabi raqamli vositalardan foydalangan holda baholash o'qituvchilarga talabalar faoliyatini samarali baholash imkonini beradi. Ular tezkorlik bilan fikr-mulohazalarni taqdim etib, o'quvchilarga o'zlarining yaxshilanish sohalarini tushunishlariga yordam beradi. Ularni ta'limdagi raqamli texnologiyalarning ajralmas qismiga aylantirishga imkon beradi. Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda interfaol va zamonaviy metodlardan foydalanish o'quv jarayonini samarali tashkil etishning asosidir. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa o'quvchilarni mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashni kengaytirish bilan birga ularni mdarslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi qarori. "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va IT sohasi bilan integratsiyalashuv chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-son qarori. PQ-4851, 10/06/2020.
2. Mirziyayev Sh.M. Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish masalalari bo'yicha <https://president.uz/uz/lists/view/3924>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni: 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi " O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni
5. Xalikova U.M. (2020). Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi. *Интернаука*, 13-2, С. 78-79. Zaripova G.K. va boshqalar oliy ta'limning kredit-modul tizimida o'qituvchi va talabalarning pedagogik hamkorligi // *Fan, ta'lim va madaniyat*. – 2020. – Yo'q. 8 (52).

6. B.X.Xodjayeva “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. “Sano-standart” nashriyoti Toshkent – 2017. 92-bet.
7. Xalikova U.M. (2020). Maktabgacha ta’lim muassasalarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi. *Интернаука*, 13-2, С. 78-79.
8. Усманов Р.Н. Интеллектуализация процесса принятия решений в условиях нечеткой исходной информации // *Алоқа Dunyosi*. – Ташкент, 2007.
9. Yuldasheva, G. I., & Shermatova, K. M. (2021). The use of adaptive technologies in the educational process. *Экономика и социум*, (4-1), 466-468.
10. Shermatova, G. Y. N. (2022). Aniq fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. *Scientific progress*, 3(1), 372-376.

BADIIY ADABIYOTDA «HASAD» KONSEPTI

Bahronjonova Charos Sobir qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada «HASAD» konseptining diniy manbalarda, xalq og‘zaki ijodida, asarlar tarkibidagi semantik xususiyatlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: konsept, hasad, badiiy asar, maqollar, hikmatli so‘zlar, lug‘atlar.

ABSTRACT

This article analyzes the semantic features of the «GRUDGE» concept in religious sources, folklore, works.

Key words: concept, grudge, artistic work, proverbs, wise word, dictionaries.

KIRISH

Ma‘lumki, so‘ngi yillarda jahon tilshunosligida konseptning o‘rganilishiga oid tadqiqotlar ko‘payib bormoqda. «Konsept»- lotincha «conceptus» so‘zidan olingan bo‘lib, «tushuncha» ma‘nosini bildiradi. Kongnitiv atamalar lug‘atida «Konsept» atamasiga quyidagicha ta‘rif beriladi: konsept bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarning inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir.¹⁰²

«Hasad» konsepti lug‘atlarda «Biron kishidagi Alloh tomonidan berilgan ne‘mat yoki fazilatni zavol topib, o‘ziga o‘tib qolishini xohlashlik» ma‘nosini ifodalaydi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, «Hasad» so‘zining haqiqiy va majoziy ma‘nolari bor.

Majoziy hasad arab tilida «G‘ibta» ya‘ni havas deyiladi. G‘ibta so‘zini «Kimki, Alloh tomonidan bir insonga berilgan ne‘matni o‘z sohibida barqaror turib, o‘zida ham bo‘lishini xohlashlik», - deb izohlashimiz mumkin. Darhaqiqat, har birimiz havas qilgan insonimizdan o‘rnak olib, yaxshilikka intilib yashaylik! Zero, bizdan faqat yaxshilik qoladi. Haqiqiy hasad esa Alloh bergan ne‘matlarni o‘z sohibidan ketib, o‘zida bo‘lib qolishini xohlashlikdir. Albatta, bunday hasad shariatda harom qilingan. Alloh taola o‘zining kalomi bo‘lmish Qur‘oni Karimda hasadchilarga qarata «Va hasad qilgan hasadchining hasadi yovuzligidan»-deya marhamat qiladi¹⁰³. (Falaq surasi, 5- oyat).

Hasad ko‘plab gunohlar manbai. Aslini olganda yer yuzidagi eng birinchi mudhish jinoyat ham hasad tufayli amalga oshirilmadimi? Ya‘ni yer yuzidagi ilk

¹⁰² Abduraimova B. Kongnitiv tilshunoslikva lingvomadaniyatda konsept tushunchasi. Toshkent. 1225-b.

¹⁰³ <https://www.Sammuslim.uz>.

inson odam Ato va momo Havoning farzandlari Qobil va Hobil o'rtasidagi nizo ham aynan hasad tufayli kelib chiqqandi. Qobil birodari Hobilni ko'rolmasdan, uning joniga qasd qilgan. (Moida surasi, 24-oyat).

Xalq og'zaki ijodida «Hasad» konseptining xususiyatlari. Biz o'z muloqot jarayonimizda fikrlarimizni dalillash maqsadida xalq maqollaridan keng foydalanamiz. Maqollar bizga nutqimizning go'zal, jozibali va ishonchli bo'lishida yordam beradi. Bolalar maktabga qadam qo'yishganidan ularda vatanga muhabbat, kelajakka intilish, mehnatga chanqoqlik kabi tuyg'ularni shakllantirish asosiy vazifamizdir. Bu o'rinda maqollarning o'rni beqiyosdir. Xalq orasida hasad haqida maqollar talaygina. Hasad jirkanch illatdir. U nafaqat hasadchining, balki boshqalarning nozik a'zosi bo'lmish qalbini kasal qilib, uni yemiradi. Shuni nazarda tutib, xalqimiz «Zang temirni kemirar, Hasad-odamni¹⁰⁴».-deyishgan. Hasadchining qo'lidan har qanday yomonlik keladi. Bunday insonlar o'zining qabih niyatini amalga oshirish uchun har nega tayyordirlar. Bejizga ota-bobolarimiz «Hasad o'tini-daryo ham o'chirolmas; hasad g'ayratli yovuzlik».- deb aytishmagan. SHunday ekan, hasad insonlarga hech qachon yaxshilik olib kelmagan, olib kelmaydi ham.

«Hasad» konsepti o'zbek xalq maqollarida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Maqollar

Havas qilgan yetar,

Hasad qilgan yitar.

Hasad qilma, Havas qil.

Havas bo'lsa, anqoning urug'i ham topilar.

Xashak o'ti xonani kuydirar,

Hasad o'ti tanani kuydirar.

Hasad o'tini daryo ham o'chirolmas.

Tanqidchiga tole yor,

Hasadchiga-halokat.

Hasad ko'chatini ekkan,

Balo mevasini teradi.

¹⁰⁴«O'zbek xalq maqollari, 2005, Sharq» kitobi.

Hasad qilma, Havas qil.¹⁰⁵

Ijodkorlarning fikrlari. Shuningdek, bu borada ko'pgina ijodkorlarimizning fikrlari ham katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Muoviya Abu Sufyon hasadchining yomonligi dushmanidan oldin o'ziga kelishini aytgan: Ey o'g'ilginam, hasaddan saqlangin. Chunki u dushmaning yetmasdan, sening o'zinga bilinadi. Qadimgi yunon faylasufi Arastu «Dunyoda hammadan ko'ra hasadgo'yning yuki og'irdir, chunki u bechora atrofdagi barcha odamlarning qayg'usini o'z ustiga yuklab yuradi¹⁰⁶», -deb aytadi. Kamoliddin Binoiy: Hasad barcha xislat, nuqsondan yomon. Hasad ahli barcha yomondan yomon.

Badiiy asarlar tahlili. «Hasad» so'ziga «O'zbek tilining izohli so'zlar lug'ati»da quyidagicha ta'rif berilgan: Kimsaga xos, unga tegishli narsa, fazilat va shu kabilarni ko'rolmaslik, xush ko'rmaslik his-tuyg'usi¹⁰⁷.

Yuksak qoyadan shiddat bilan qo'zg'algan burgut suruvdagi qo'zichoqni ildi-yu ketdi, zag'cha buni kuzatib turgandi, **hasaddan** ichi kuyib, o'zining ham shunday qilgisi kelib qoldi. (Ezop, «Burgut, zag'cha va cho'pon»). Shuhrat topsang, kishilar **hasadi** yomon, Yolg'iz qolsang, sendan qilishar gumon. (Umar Xayyom). Zaynab unga **hasadlanib** qaradi va kuchlanib aytdi: -Hali yoshga o'xshaysiz-ku. (A. Qodiriy «O'tkan kunlar»). Bir illati bordir xudpisand so'zin, **Hasad** ko'r qilgandi haqiqat ko'zin. (Sa'diy Sheroziy «Bo'stondan»).

O'zbek tili so'zga boy til. Har bir so'zning ma'nodoshi, shakldoshi, zidi bor. «Hasad» so'zining ma'nodoshlari **ko'rolmaslik, rashk, xush ko'rmaslik, qizarish, ichi qoralik, ichi kuymoq.**

Chinakam, bir zamon o'zi shu bechora xotinning ustiga kundosh bo'lib kelib, uning yuragini timtalagan, uni **rashk, ko'rolmaslik** olovlarida yondirgan edi. (Cho'lpon. «Kecha va Kunduz»).

Hasad va **rashkdan** ichi yonib ketayotgan bo'lsa ham, soxta beparvolik bilan dedi: Bizlar saxiy odam, baxtiyor bo'linglar. (F, Musajon).

«Hasad» har xil holatlarda namoyon bo'lishi mumkin:

Kishi kishining mol-dunyosiga hasad qilganida;

Javondagi qimmat baho buyumlarni ko'rib, **hasadi** qo'zg'aldi. (Mushtum).

Yuragida qo'zg'alib **hasad**, ich-etini yeb, qiynaldi behad. (S. Ochil).

Kishi rashk qilganda ;

¹⁰⁵ «O'zbek xalq maqollari, 2005, Sharq» kitobi.

¹⁰⁶ <https://oyina.uz>.

¹⁰⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati, 2014-2024.

Labing tegsa, **hasad** qilgum, Gilos birlan uzumdan ham. (E.Vohidov «Rashkim»).

Bu ikki dongdor me'mor o'rtasida azaliy bir yashirin **rashk-u hasad** mavjud. (Mirmuhsin. «Me'mor»).

Kishi kishining fazilatlarini ko'ra olmasdan hasad qilganida;

Javondoq qurg'ur, dunyoning zavqini biladi-da, **-hasadlanib** gapirdi Yormat. (Oybek. Tanlangan asarlar).

Kishi boshqa kishiga Alloh tomonidan berilgan ne'matlarga hasad qilganida;

Malika Oyqizning shunday barkamol yigitga tegayotganidan **hasad** qilmasdi. (M. Mahmudov. «Mangu kuy izlab»).

Haqiqatdanda hasad juda yomon illatdir. Negaki, u insonlar boshiga turli xil ofatlar olib kelishi shubhasiz. Masalan: Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanida Zaynab va Kumushning taqdiri hammamizga ma'lum. Ular o'rtasidagi hasad rashk tufayli yuzaga kelgandi. Kitobxonlarga ayonki, Zaynab hasad o'tidan Kumushga zahar berib, uning joniga qasd qilgan. Hosh aytingchi? U bu ishidan so'ng yori bilan baxtli hayot kechira oldimi? Yo'q. U bu chirkin niyatini yoriga yetishish maqsadida amalga oshirgan edi, afsuski, aynan shu niyati sababli yoridan ayrildi. Bundan tashqari bir insonning o'limiga va bir murg'ak go'dakning yetim qolishiga sababchi bo'ldi. Demak o'z-o'zidan ma'lumki, hasad insonlarni yovuzlikka, qabih ishlar qilishga olib keladi. Shu o'rinda Husayn Voiz Koshifiyning hasad haqida aytgan so'zlarini yodga olish o'rinlidir: «Hasad balosi ulkan fasodlar paydo qilur. Chunki hasad bag'oyat jirkanch illatdir».

«Hasad» so'zining antonimi «**Havas**» dir. «Havas» so'ziga «O'zbek tilining izohli so'zlar lug'ati»da quyidagicha ta'rif berilgan:

1. **Qiziqish, zavq hissi, shunday his-tuyg'uli munosabat.** Barcha **havas** bilan bir-biriga boqsa, O'tmasa fisq- fasod, g'iybat yonidan. («Tilagim» she'ridan)¹⁰⁸.

Men unga: «Shirinmi?» deb tikilaman. U **havasim** kelganini biladi, shekilli, qo'lini orqasiga oldi-da, boshini liqillatib maqtanadi: (Oybek. «Bolaning ko'ngli podsho»).

Sizga zarracha yo'qdir hasadim, Faqat turnalarga qalbidamda **havas**.

2. **Biror ish-faoliyat, kasb-korga bo'lgan rag'bat, intilish, istak, mayl.** Husany Boyqaroning yoshlikdan she'rga havasi kuchli edi. (Oybek. «Navoiy»).

¹⁰⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati, 2014-2024.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsam, bu hayotda bir insonning boyligi ko'payib ketsa, martabasi yuqorilasa, parvo qilmang. Hasad qilish o'rniga siz ham harakat qiling. Doimo bir-birimizga havas qilib, ulardan o'rnak olib, o'zimiz ham muvaffaqiyatga erishish uchun harakat qilib yashashimiz kerak. Hasad bu ezgulik kushandasi. Haqiqatdan ham hasadchi hasad qilgan insoniga yomonlik tilab, uning muvaffaqiyatsizligi uchun harakat qiladi. Ota-bobolarimiz aytganidek: «Qachonki, qalbingizda hasad tuyg'usi paydo bo'lsa, yomonlik o'rniga yaxshilik qiling». Hayotimiz qarama qarshiliklar asosida qurilgan. Zulmatni yorug'lik, yovuzlikni ezgulik, yomonlikni yaxshilik yenganidek, qalbimizdagi hasad olovini havas orqali, yaxshilik qilish orqali o'chirishimiz mumkin. Nazarimda hasadchi inson shu narsani o'ylab ko'rishi kerak -Nega endi boshqalarga hasad qilib yashashim kerak, axir menga berilgan ne'matlar kimlargadir orzuku. Shunday ekan, o'zimizda bor ne'matlarga shukr qilib yashaylik! Zero, Parvardigor o'z fazli karami bilan bir bandasiga ko'proq nasiba bergan ekan, unga nisbattan hasad qilish, uni ko'rolmaslik og'ir gunohlardan biri hisoblanadi¹⁰⁹.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2014-2024.
2. «O'zbek xalq maqollari, 2005, Sharq» kitobi.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf «Ruhiy tarbiya» 2008-2014.

¹⁰⁹ <https://www.sammuslim.uz>.

LEKSIK KOMPETENSIYA VA UNI RIVOJLANTIRISH USULLARI (XORIJIY TILLARNI O'RGANISH MISOLIDA)

Shahnoza Ravshanbek qizi Madrahimova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda leksik kompetensiyaning ahamiyatini o'rganamiz va uni rivojlantirishning turli usullarini muhokama qilamiz. Leksik kompetensiya yoki so'zlarni samarali tushunish va ulardan foydalanish qobiliyati til o'rganishning asosiy jihati hisoblanadi. Bu muloqotda hal qiluvchi rol o'ynaydi, bu odamlarga o'z fikrlari, g'oyalari va his-tuyg'ularini aniq ifoda etish imkonini beradi. Leksik kompetensiyani rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, diqqat va izchil amaliyotni talab qiladi.

Kalit so'zlar: Muloqot, leksik kompetensiya, idiomatik va leksik ko'nikma, lug'at, semiotik funksiya, grammatik mahorat.

ABSTRACT

In this article, we will study the importance of lexical competence in teaching foreign languages and discuss various methods of its development. Lexical competence, or the ability to understand and use words effectively, is a key aspect of language learning. It plays a crucial role in communication, allowing people to clearly express their thoughts, ideas and feelings. Developing lexical competence is a multifaceted process that requires attention and consistent practice.

Key words: Communication, lexical competence, idiomatic and lexical skills, vocabulary, semiotic function, grammatical skills.

KIRISH

Leksik kompetensiya deganda shaxsning ma'lum bir tilda so'z boyligining bilishi va tushunishi tushuniladi. Bu nafaqat so'zlarning ma'nosini bilishni, balki ularni turli kontekstlarda to'g'ri ishlata olishni ham o'z ichiga oladi. U so'zlarni tanib olish, so'z birikmalari, kollokatsiya va idiomatik iboralarni o'z ichiga olgan keng jihatlarni qamrab oladi. Leksik kompetensiya grammatika va sintaksisdan tashqariga chiqadi, chunki u samarali muloqotning markaziy elementi sifatida lug'atga qaratilgan. Leksik ko'nikmalarni shakllantirishda belgi-ramziy va semiotik funksiyalarning roli yosh o'quvchilarda mavhumlashtirish va umumlashtirish qobiliyati bilan belgilanadi. Leksik mahorat leksik kompetensiya tarkibida ko'rib chiqilishi kerak. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvda vazifalardan biri har xil turdagi kompetensiyalarni shakllantirishdir. Ta'limning dastlabki bosqichida u yoki

bu ko'nikmalarni sifatli o'zlashtirish kompetensiyalarni shakllantirish uchun mustahkam asosdir.

Asosiy qism: Chet tilini o'qitish metodologiyasidagi "kompetensiya" tushunchasi ta'limning umumiy xususiy maqsadlari va mazmuni bilan tavsiflanadi. "Kompetensiya" juda keng tarqalgan. Faoliyat ta'limi kontekstida kompetensiya, R.P.Milrudning so'zlariga ko'ra, "ma'lum bir sohada tashqi dunyo bilan samarali o'zaro ta'sir o'tkazish imkoniyatini ta'minlaydigan va buning uchun zarur bo'lgan vakolatlarga bog'liq bo'lgan murakkab, shaxsiy manba". Olimning so'zlariga ko'ra, kompetensiyalar o'quv dasturining birliklariga aylandi va kompetensiyaning "anatomiyasi"ni tashkil etdi.

Kompetensiya tushunchasini ta'kidlab, olimlar uni umumiy va individual sifatida o'zaro bog'lashadi. Kompetensiya tushunchasi bilim, ko'nikma va faoliyat usullarini o'z ichiga oladi, kompetensiyada – shaxsning xususiyatlari va shakllangan kompetensiyalar asosida bajarilgan faoliyatga shaxsiy munosabati paydo bo'ladi. Biz ta'lim maqsadlariga javob beradigan turli xil vakolatlarni shakllantirish haqida gapiramiz. Boshlang'ich maktabda chet tillarini o'qitish maqsadini nutq faoliyatining asosiy turlarida: tinglash, gapirish, o'qish va yo-zishda boshlang'ich o'quvchining boshlang'ich kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish sifatida belgi-laydi.

N.D.Galskova va Z.N.Nikitenko kommunikativ kompetensiya ostida "ma'lumotni tushunish va uzatish uchun chet tilidan moslashuvchan va samarali foydalanish qobiliyatini" tushunadilar. M.N.Vyatyutnev kommunikativ kompetensiyani "insonning ma'lum bir aloqa muhitida harakat qilish qobiliyatiga qarab, nutq xatti-harakatlari dasturlarini tanlash va amalga oshirish sifatida" tushunadi; suhbat oldidan, shuningdek, o'zaro moslashish jarayonida suhbat davomida paydo bo'ladigan mavzular, vazifalar, kommunikativ munosabatlarga qarab vaziyatlarni tasniflash qobiliyati paydo bo'ladi.

F.M.Litvinko kommunikativ kompetensiyani "til tizimi va uning birliklari, ularning nutqda tuzilishi va faoliyati, o'rganilayotgan tilda fikrlarni shakllantirish va boshqalarning hukmlarini tushunish usullari, o'rganilayotgan tilda so'zlashuvchilarning milliy va madaniy xususiyatlari, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida bilimlar to'plami" deb ta'riflaydi. Turli xil nutq turlari; bu tilni o'rganuvchining turli xil nutq faoliyatida hal qilinadigan kommunikativ vazifalarga muvofiq muloqot qilish, izchil bayonotlarni tushunish, talqin qilish va yaratish qobiliyati". Ushbu tushuncha nafaqat chet tilida gapirish qobiliyatini, balki madaniy tarkibiy qismga ega bo'lgan leksik birliklarni bilish va faol ishlatishni ham nazarda tutadi.

I.L.Binning soʻzlariga koʻra, “chet tillarini oʻqitishning integral maqsadi sifatida ishlaydigan kommunikativ kompetensiya deganda, standart dastur tomonidan belgilangan chegaralarda ona tilida soʻzlashuvchilar bilan chet tilida shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish qobiliyati hamda tayyorligi tushuniladi”.

Z.N.Nikitenko umumiy taʼlim faoliyati deganda “yangi bilimlarni mustaqil ravishda oʻzlashtirishni, koʻnikmalarni shakllantirishni taʼminlaydigan oʻquv ishlari koʻnikmalari bilan bogʻliq boʻlgan oʻquvchining harakat usullarining umumiyligini” tushunadi. Barcha fanlarda shakllangan umumiy taʼlim qobiliyatlari muvaffaqiyatli oʻqishni taʼminlaydi va uyda mustaqil ishlarni yuqori darajada bajarishga yordam beradi. Chet tilini bilish boʻyicha dunyo miqyosidagi vakolatlarga koʻra, kommunikativ kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni oʻz ichiga oladi: lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik. Lingvistik komponentda leksik, grammatik, semantik va fonologik kompetensiyalar ajralib turadi. Ushbu hujjatda leksik kompetensiya “leksik va grammatik elementlarni oʻz ichiga olgan tilning soʻz boyligini bilish va ularni nutqda ishlatish qobiliyatini” anglatadi.

I.P.Korotkova leksik kompetensiyaning toʻliq taʼrifini beradi: “ogʻzaki va yozma matnda leksik birlik-larni tanib olish, oʻquv vazifasiga muvofiq matn materiallari bilan ishlash, aloqa jarayonida oʻrganilgan lugʻat bilan ishlash, oddiy soʻz yasovchi elementlarni ajratib koʻrsatish, til taxminidan foydalanish qobiliyati. oʻqish va tinglash jarayonida murakkab matnli vaziyat, bu nutq faoliyatining barcha turlari asoslarini muvaffaqiyatli oʻzlashtirishni taʼminlashga imkon beradi”. A.N.Shamov leksik kompetensiyani inson soʻzining kontekstual maʼnosini aniqlash, uning maʼnosi hajmini ikki tilda taqqoslash, soʻz maʼnosining tuzilishini aniqlash va maʼlum bir tuzilishda oʻziga xos milliy xususiyatni ajratib koʻrsatish qobiliyati” deb taʼriflaydi. Olimning fikriga koʻra, leksik kompetensiyaning yuqori darajasi talabalarga nutq aloqasi harakatlarida soʻzlarni ishlatish va soʻzlarni idrok etish jarayonlarini toʻgʻri amalga oshirishga imkon beradi.

Leksik kompetensiyaning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: 1) leksik bilimlar; 2) leksik koʻnikmalar; 3) leksik qobiliyatlar; 4) til va nutq tajribasi; 5) maktab oʻquvchilarining shaxsiy fazilatlarini. Tadqiqot leksik mahoratga katta eʼtibor beradi.

Natija va tahlillar: A.A.Smirnov mahoratni “mashqlar tufayli harakat qilish usuli” deb taʼriflaydi. Ushbu taʼriflar nutq faoliyati kontekstida mahorat tushunchasini toʻliq aks ettirmaydi. Mashqlarni bajarish orqali mahoratni rivojlantirish asosiy narsaga javob bermaydi mahoratni nutqqa oʻtkazishni taʼminlamaydi. Koʻpincha, talaba jummalarni tuzish, mashqlarda soʻz birikmalaridan foydalanish bilan osonlikcha kurashadi va jummalarni erkin soʻzlashda ishlatishda

qiyinchiliklarga duch keladi. E.I.Passov nutq faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga nisbatan mahoratning to‘liq ta‘rifini beradi. Olimning fikriga ko‘ra, mahorat ongli faoliyat tizi-midagi nisbatan mustaqil harakat bo‘lib, bu fazilatlarning to‘liq to‘plami tufayli ushbu faoliyatni amalga oshi-rish shartlaridan biriga aylandi. Ong ongli nazorat darajasida harakatlarni avtomatik ravishda bajarish qobiliyati bilan belgilanadi.

“Nutq mahorati” tushunchasi sanab o‘tilgan barcha fazilatlarni o‘z ichiga oladi va nutqqa faoliyat turi sifatida tegishli ekanligidan dalolat beradi. Nutq qobiliyatlari leksik va grammatik ko‘nikmalarga bo‘linadi. Leksik mahorat leksik birlikni tanlash bo‘yicha sintez qilingan harakat g‘oyaga va uning boshqalar bilan to‘g‘ri kombinatsiyasiga mos keladi, mahorat parametrlarida amalga oshiriladi hamda nutqda ushbu leksik birlikdan situatsion foydalanishni ta‘minlaydi. Vaziyatli bog‘liqlik tufayli so‘z funksional birlik sifatida o‘zlashtiriladi. Boshlang‘ich maktab yoshida bolalar so‘zlarning o‘zgarishi va ularning so‘z birikmasi, jumla, matn darajasida boshqa so‘zlar bilan muvofiqligi naqshlari bilan tanishadilar. Vaziyat grammatik mahoratni shakllantirishda zaruriy shartdir. Grammatik mahoratmahorat parametrlarida bajariladigan va har qanday nutq darajasidagi nutq birligining yetarli morfologik va sintaktik dizaynini ta‘minlaydigan sintez qilingan harakat. Grammatik mahorat har doim o‘quvchilar erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan leksik birliklar asosida shakllanadi. So‘z asosiy kommunikativ yukni ko‘taradi. Leksik ko‘nikmalar, grammatikadan farqli o‘laroq, ko‘proq mantiqiy va semantik xabardorlik bilan ajralib turadi. Leksik ko‘nikmalarni shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqich–nutq hara-kat-larining taxminiy asosini yaratish. Ikkinchi bosqich – mashg‘ulotni tashkil etish. Uchinchi bosqich–dasturni tashkil etish. Ko‘nikmalarni shartli ravishda reproduktiv (gapirish va yozishda) va retseptiv (tinglash va o‘qish paytida)ga bo‘lish mumkin. Semiotik va ramziy funksiyalar so‘z bilan ishlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu funksiyalar abstraksiyaning birinchi darajasidir. Ularning asosida narsalardan chalg‘itish va so‘zlar bilan ishlash sodir bo‘ladi. So‘zlar shunchaki nomlanmaydi, ularga ma’no beriladi. Tarkib so‘z shakli bilan bog‘liq. Til belgisi tushunchasi qayd etiladi, keyinchalik, nutq faoliyatida qo‘llaniladi. Belgilar va ramziy vositalardan foydalangan holda talabalar haqiqatni ichki harakat rejasiga osonroq o‘zgartiradilar, mustaqil ravishda leksik birliklar va ularning ma’nolari bilan ishlashni optimallashtirish uchun belgilar va ramziy vositalarni yaratishni hamda o‘z ichiga olishni boshlaydilar.

XULOSA

Leksik kompetensiyani rivojlantirish til o'rganishning muhim jihati hisoblanadi. Bu odamlarga samarali muloqot qilish va tilni osonlik bilan tushunish imkoniyatini beradi. Lug'atni kengaytirish, kontekstli o'rganish, so'z birikmalari, faol amaliyot, so'z shakllantirish va raqamli resurslardan foydalanishga e'tibor qaratish orqali til o'rganuvchilar leksik vakolatlarini oshirishi hamda maqsadli tillarida yanada malakali bo'lishlari mumkin. Lug'atning mustahkam poydevorini yaratish doimiy amaliyot va turli xil haqiqiy materiallarga ta'sir qilishni talab qiladigan doimiy jarayondir. Izchil harakat bilan o'quvchilar o'zlarining leksik qobiliyatlarini rivojlantirishlari va maqsadli tillarida ko'proq malakaga erishishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мильруд Р.П., Максимова И.Р. Современные концептуальные принципы коммуникативного обучения иностранным языкам. "Иностранные языки в школе", 2000, № 4, с. 9 – 15.
2. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам: лингводидактика и методика [текст]. М., «Академия», 2002, с. 165; Никитенко З.Н. Развивающее иноязычное образование в начальной школе. Монография [текст], М., "Глосса-Пресс", 2010, 438 с.
3. Литвинко Ф.М. (2009). Коммуникативная компетенция как методическое понятие.
4. Kasimova, Sarvinoz Sayfullaevna. "Transformación de frases y sus destrucciones." Salud, Ciencia y Tecnología-Serie de Conferencias 3 (2024): 740-740.
5. Abbasovna S. M. WAYS TO EVALUATE THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AND ITS FORMATION. – 2021.
6. Орипова Р. ИНТЕГРАЛЛАШГАН ТАЪЛИМДА ТЕХНОЛОГИЯЛАР //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 877-888.
7. Oripova R. I. Ways to develop the pedagogue's competence in improving the quality of education. StoneDAU //Pedagogy, psychology and teaching methodology.
8. Saidova M. A. FORMATION OF COMPONENTS OF PRAGMATIC COMPETENCE IN A FOREIGN LANGUAGE IN STUDENTS //PEDAGOGS. – 2024. – Т. 55. – №. 1. – С. 48-52.
9. Djampulatova, N. (2023). THE ROLE OF THE COACHING APPROACH IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 2(1), 191-195.
10. Yuldasheva N. K., Djampulatova N. M. TALABALALARNING KOMMUNIKATIV RIVOJLANISHI KONTEKSTIDA KOUCHINGLIK MODELI

//Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 915-920.

11. Rakhmanberdiyeva K. S. Formation of independent education in students //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – C. 328-330.

12. Yakubov O. A. ASSOCIATION METHOD AS A WAY TO IMPLEMENT INNOVATIVE APPROACHES //CUTTING EDGE-SCIENCE. – 2020. – T. 8.

13. Yakubov O. A. EFFECTIVE METHODS OF MEMORIZING MUSICAL TERMS IN PERSIAN //Oriental Journal of Philology. – 2024. – T. 4. – №. 03. – C. 382-386.

HOFIZ XORAZMIYNING SHAXSI VA UNING IJODI.

Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna

Urganch Davlat Pedagogika Instituti mustaqil tadqiqotchisi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Hofiz Xorazmiyning shaxsi va uning ijodi Hofiz Xorazmiy devonining janr xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

***Kalit soʻzlar:** Hofiz Xorazmiy, devon, janr, sevinch, sogʻinish, sadoqat, vafo, visol, judolik, masʼuliyat, javobgarlik, ijodkor, oshiq va maʼshuqa obrazlari.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается личность Хафиза Хорезми и его творчество. Обсуждаются жанровые особенности сборника Хафиза Хорезми.

***Ключевые слова:** Хафиз Хорезми, диван, жанр, радость, тоска, верность, верность, визал, разлука, ответственность, ответственность, образы творца, любовника и любовницы.*

ABSTRACT

In this article, the personality of Hafiz Khorezmi and his work. The genre features of Hafiz Khorezmi's collection are discussed.

***Key words:** Hafiz Khorezmi, divan, genre, joy, longing, loyalty, faithfulness, visal, separation, responsibility, responsibility, creator, lover and mistress images.*


KIRISH

Badiiy ijod aslida adabiy tafakkur shakllaridan biri boʻlib, baʼzan inson hayoti uning bosh tasvir obyektini sifatida koʻrsatiladi. Albatta, bu tushuncha (obyekt) tasviri mavjud olamning oliy xilqati boʻlmish insonni ulugʻlab, uni badiiy kashf etishga, muayyan zamon va makon asosida ijtimoiy-estetik ideal kontekstida koʻrsatishga qaratilgan ijodiy jarayondir. Tabiiyki, unda ijodkorning haqiqiy voqelik va shaxs haqidagi qarashlarini, inson kechinmalari, orzulari, ruhiy olaminimaʼlum estetik maqsadga muvofiq aks ettiriladi. Yakunda, adabiy-tarixiy talqindagi inson oʻz feʼl-atvori, maʼnaviyati, ijobiy va salbiy jihatlari bilan turli davrlarga mansub kishilarning badiiy timsoli sifatida oʻquvchi koʻz oldida gavdalanadi. Zero, inson va jamiyat mavzusi keng maʼnoda, adabiyotning asosiy mavzusi boʻlsa, Vatan va xalq manfaati yoʻlida nom qozongan mashhur shaxslar hamda olamshumul voqealar tarixiy mavzu asosi hisoblanadi. Ijodkor qalami jarayon silsilasida tarixiy va badiiy haqiqatni tasvirlaydi hamda uning zamirida ijtimoiy voqelik, muayyan davr bilan

ijodkor munosabatini aks ettiradi. Adabiyot deb atalmish bu dengizga sho‘ng‘igan har bir ijodkor uzoq o‘tmish, zamonamiz va kelajak bilan hamnafas va uyg‘unlikda yashaydi. Shunday ijodkorlardan biri Hofiz Xorazmiy deyishga to‘la asosimiz bor.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunga qadar faqat bizga ma‘lum bir devondan tashqari hech bir asari haqida ma‘lumotga ega bo‘lmasak-da, ushbu devor orqali Hofiz Xorazmiyning shaxsi va uning ijodi haqida ma‘lum darajada ilmiy asoslarga ega bo‘la olamiz. Bizningcha, Hofiz Xorazmiy qamrovi keng ijodkor bo‘lib, uning ijodi falsafiy teranligi, sof ishqiy tasviri, insonparvarlik ruhi, tarbiyaviy etikasi, yuksak badiiyati, ta‘sirchanligi bilan zamondoshlaridan alohida ajralib turadi. Misol uchun, XV asr birinchi yarmidagi ijod qilgan shoirdan farqli jihati shuki, uning ijodida arab-fors so‘zlari kam ishlatilgan. Devonda asosan sodda, ravon va xalqona fe‘l-atvorli xususiyatlarini mujassamlashtirib, Xorazm shevasi va unga xos unsurlar aks ettirilgan. Hofiz Xorazmiy bizga ma‘lum ijodiy merosi 37 ming ta misradan ortiq. Yaxlit bir devon tarkibini quyidagi jadvaldan ham bilib olish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Hofiz Xorazmiy devonining tuzilishi¹¹⁰

Jumladan, ularga 9 ta qasida, 1 ta tarkibband, 3 ta tarji‘band, 1 ta muxammas, 1 ta marsiya, 1052 ta g‘azallar, 2 ta mustazod, 31 ta qit‘a, 12 ta ruboiylar kiradi.

Hofiz Xorazmiyning shaxsiga oid qiziq jihatlardan yana biri uning ismi bilan bog‘liq desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning asl ismi borasidagi ilmiy yondashuv ilk bor adabiyotshunos professor H.Sulaymonov tomonidan ijodkorning devondagi

¹¹⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

yettita forscha g‘azallarida keltirilgan Rahim yoki Abdurrahim nomlari asosida ilgari suriladi. Shuningdek, Abdurrahim ismining taxallus shaklida Hofiz Xorazmiyning o‘zbekcha g‘azallaridan birida keltirilganligi ko‘rsatiladi.¹¹¹

*Xos o‘z quling‘a lutf etib rahm qilsa yor,
Muxlis qadimiy qul anga Abdurrahim erur.*¹¹²

Qadimiy Sharqdagi an‘anaga aylangan tarixiy-adabiy uslubdan kelib chiqib, shu fikrni aytish mumkinki, ijodkorning yoshligi Xorazmda kechgan. Bu jihatdan albatta, uning ismidagi Xorazmiy nomi ham qo‘llaniladi. Zero, tug‘ilib o‘sgan joy nomini ism oxirida keltirish yuqorida qayt etganimizdek asosan Sharq tarixiy-adabiy uslubiga xosdir.

XIV asr oxirlarida eldoshlarini tark etib Samarqand, Buxoro, Xo‘jand, Iroq, Kirmon, Isfahon, Tabriz shaharlarini kezib, yakunida Sherozda Ibrohim Sulton saroyida qo‘nuv topadi. O‘zidan oldingi ustozlariga hurmat ko‘rsatgan shoir, Hofiz Sheroziy an‘analarini o‘zbek she‘riyatiga olib kirgan. Zotan, uning “Hofiz” taxallusini tanlashiga turkiy xalqlarni Hofiz Sheroziyning ijodidek ishqiy-falsafiy she‘riyatdan bahramand qilish niyati bo‘lgan bo‘lsa ajab emas.

Hofiz qachon vafot etgan va qayerga dafn etilganligi ham hozircha noma‘lum. Faqat adabiyotshunos professor H.Sulaymonov tadqiqotlariga asoslanib shuni ayta olamizki, 1435-yilda Sulton Ibrohim vafot etganida Hofiz Xorazmiy unga atab maxsus marsiya yozadi. Bu esa shoirning 1435-yilda hali hayot ekanligini bildiradi.¹¹³

Hofiz Xorazmiy lirikasidagi oshiq-ma‘shuq obrazlari, uning tarbiyaviy jihatlari, etikasi va estetik yondashuvlari zamonamizga qadar chuqur o‘rganilmagan. Albatta, Hofiz Xorazmiy badiiy mahoratini belgilashda, tarbiyaviy hamda estetik yondashuvlarini aniqlashda va uning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi munosib mavqeni ko‘rsatish uchun mazkur obrazlarni va ularning falsafiy ahamiyatini atroflicha o‘rganish zarur.

Zero, shoir ijodining keng qamrovi jihatlari, ilmiy asoslantirilgan dalillar bilan ko‘rsatib bersak, zamonamiz va kelajak avlod kitobxonlarida mumtoz adabiyotimizga nisbatan e‘tibor va yanada qiziqish doirasi oshadi. Natijada jamoatchiligimiz orasida jiddiy mutolaa ko‘nikmasi yuksaladi.

Ijodkorning har bir she‘riga joylangan nafislik, ezgulik tarannumi, so‘zga muhabbat hech shubhasiz o‘quv dargohlari va keng adabiy davralarga yaqindan kirib borishini ta‘minlaydi. O‘tmish adabiy-tarixiy merosimizdagi fikr-g‘oyalar bugungi davr muammolariga bog‘liq bo‘lib, kitobxonlarni o‘ylanishga, tafakkur qilishga

¹¹¹ Хофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. - 6 б.

¹¹² Хофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. - 121 б.

¹¹³ Хофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. - 9 б.

yo'naltiradi, mumtoz ijodkorga ixlosimizni yanada oshiradi, tarixiy merosimiz bilan faxrlanish tuyg'usini kuchaytiradi hamda joiz bo'lsa aytish kerakki, yoshlarni ezgu maqsadlar sari tarbiyalashga hizmat qiladi. Ushbu Hofiz Xorazmiyning shaxsi va uning ijodini o'rganishning didaktik shakli, matniy yuksakligi, tasavvufga doir mulohazalari, umuman ahamiyatliligi zamonamiz uchun dolzarbligini belgilaydi.

Hofiz Xorazmiyning ishq-muhabbat tasnifida insoniyatga xos jihatlarning go'zal tabiiy tuyg'usi, sevgi bilan bog'liq bo'lgan oshiq-ma'shuqning nozik qarashlari, ulkan orzulari ostida sevinch, sog'inish, sadoqat, vafo, visol, judolik, mas'uliyat, javobgarlik va boshqa tushunchalarini kuylagan buyuk shoirligi yana bir bor o'z tasdig'ini topgan. Ushbu fikrlarimizning tasdig'i sifatida Hofiz Xorazmiy quyidagi misralarini keltirish mumkin.

*Ko'ngul maqsudi bu olamda yo'qdur,
Farah asbobi ham odamda yo'qdur.*

*Farah izdama tarkibi jahondin,
Xavosi obi hayvon samda yo'qdur.*

*Tilamagil jahondin no'sh doru,
Asalning ta'mi chun arqamda yo'qdur.*

*Vafo izdama har mujrimdin, ey do'st,
Vafo holi chun har mujrimda yo'qdur.*

*Bu yo'lda g'amdin o'zga yor bilma,
Chu g'amdin o'zga bir hamdamda yo'qdur.*

*Safo izdar esang, sof et ko'ngulni,
Safoyi ishq jomi Jamda yo'qdur.*

*Sadoyi ishq, Hofiz, sanda erur,
Sado bu gunbadi a'zamda yo'qdur.¹¹⁴*

Ko'rishimiz mumkinki, Hofiz Xorazmiy o'z zamonasining yetuk ijodkori va ma'rifatparvar shoiri bo'lgan. Shoir ijodining alohida ahamiyati shunda-ki, u avvalo turkiy til qoidalariga tayanib, Xorazm shevasiga xos so'zlar asosida bitilganligidadir. Bu esa bizga shoir devoni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratadi. Bu jihatdan, ilmiy jihatdan tadqiq qilgan yurtimizning ko'zga ko'ringan olimlari

¹¹⁴ Хофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. - 110 б.

H.Sulaymonov, F.Sulaymonova, S.Hasanov, M.Sulaymonov va boshqalarning izlanishlarini e'tirof etish joiz. Shu bilan bir qatorda, Hofiz Xorazmiy ijodiy merosi turkiy tilli millat vakillarini ham qiziqtirishini unutmaslik lozim. Zero, turkiyalik olimlar R.Toparli, A.Ustuner va boshqa izlanuvchilarning Hofiz Xorazmiyga oid devonni tadqiq qilib, o'zlarining muayyan xulosalarini berishi bizni g'ururlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. - 540 b.
2. Resep T. Harezmlî Hafîz Divanî'ndan Seçmeler. - Ankara: 1994, Kültür Bakanlığı Yayınları
3. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. - T.: Akadernashr, 2020. - 158 b.
4. Xoфиз Хоразмий шеърятидан. - T.: ЎзКПМК, 1980. - 123 б.
5. Xoфиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - T.: ЎзКПМК, 1981. - 304 б.
6. Xoфиз Хоразмий. Девон. 2 том. 2-китоб. - T.: ЎзКПМК, 1981. - 312 б.
7. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. - T.: Akadernashr, 2013. - 272 б.
8. История узбекской литературы. В 2-х томах. Том I. С древнейших времен до XVI в. - T.: Фан, 1987. - 486 с.
9. Resep T. Hâfîz-ı Harezmi'nin Sultan İbrahim'in Ölümü Üzerine Yazdığı Mersiye. // Marmara Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Türklük Araştırmaları Dergisi (Mehmet Akalın Armağanı) (8) 1997, Marmara. - 511-524 s.
10. Сулаймонов М.Ю. Xoфиз Хоразмий ва ўзбек лирик шеърятининг ривожі: Филол. фанлари номзоди ... дисс. - Тошкент, 1996. - 160 б.
11. www.kutubxona.uz
12. www.literatura.ru
13. www.ziyonet.uz

ADABIY ALOQA VA BADIY TARJIMA: KECHA VA BUGIN

Shahnoza Xolmaxmatovna Berdiyeva

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy tarjimaga e'tibor va tarjima adabiyotining salmog'i ham yil sayin oshib borayotgani haqida tahlillar berilgan. O'zbek shoiri va yozuvchilari tarjimachilikni o'z ijodiy faoliyatlarining doimiy tabiiy yo'ldoshi, tarkibiy qismi deb hisoblagan holda, atoqli adiblarimiz Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzodalarning an'alarini davom ettirib, yangi-yangi so'z san'ati xazinalarini ochmoqdalar. Jahon adabiyotining ajoyib badiiy obidalarini tilimizda yangramoqda. Badiiy tarjima tufayli adabiyotning bag'ri behad kengaydi. Tarjima original adabiyot bilan yonma-yon odimlab bormoqda.

Kalit so'zlar: *Badiiy tarjima, Jahon adabiyoti, poema va romanlar, san'ati xazinalari, tarjima muommolari.*

ABSTRACT

This article analyzes the fact that attention to literary translation and the weight of translated literature is increasing year by year. Uzbek poets and writers consider translation to be a constant natural companion and component of their creative activities, continuing the traditions of our famous writers Oybek, Gafur Ghulam, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Maqsud Shaykhzoda, and creating a new -they are opening new treasures of word art. Wonderful artistic monuments of world literature sound in our language. Thanks to artistic translation, the scope of literature has expanded tremendously. The translation goes hand in hand with the original literature.

Key words: *Literary translation, World literature, poems and novels, art treasures, translation problems.*

KIRISH

XXI asr – tarixga ilmiy-texnika inqilobi asri bo'lib kirdi. Yer yuzida har 25 soniyada bir ilmiy kashfiyot ro'y berib turganini ko'z o'ngimizga keltirsak, fanning hozirgi taraqqiyot sur'ati haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Fan beqiyos taraqqiy etdi, texnika benihoya yuksaldi. Rus yozuvchisi Sergey Zaligin (Moskva) yozuvchilarning bir anjumanida so'zlagan nutqida fanda va san'atda yuz beradigan kashfiyotning o'ziga xosligi haqida gapirgan edi.

San'at kashfiyotining taqdiri esa buning aksidir. Bunda kashfiyotning dastlab yaratilishi, konkretligi hech qachon o'z ohorini yo'qotmaydi, doim porlab turadi.

Biron poema yoki roman yaratilgan ekan, uni kashf qilish prinsipi emas, shu san'at asarining o'zi abadiy qoladi.

Badiiy tarjimaga e'tibor kuchaymoqda, tarjima adabiyotining salmog'i ham yil sayin oshib bormoqda. O'zbek shoir va yozuvchilari tarjimachilikni o'z ijodiy faoliyatlarining doimiy tabiiy yo'ldoshi, tarkibiy qismi deb hisoblagan holda, atoqli adiblarimiz Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzodalarning an'alarini davom ettirib, yangi-yangi so'z san'ati xazinalarini ochmoqdalar. Jahon adabiyotining ajoyib badiiy obidalarini tilimizda yangramoqda. Badiiy tarjima tufayli adabiyotning bag'ri behad kengaydi. Tarjima original adabiyot bilan yonma-yon odimlab bormoqda.

O'zbek tarjimachiligi jo'g'rofiyasining xaritasi boy va rang-barang. Endilikda "tarjima" deganda faqat muayyan bir "begona" tildan – o'zbek tiliga kitob o'girish jarayoni tushunilmaydi, balki badiiy tarjimalarimiz o'zbek adabiyotining xalqaro miqyosdagi ko'p tomonlama munosabatlarini aks ettirib, ko'pincha, ma'naviy boylklarni o'zaro almashish prinsipiga asoslangan. Masalan, L.N.Tolstoyning "Urush va tinchlik" romani o'zbek tiliga o'girilgan ekan, rus kitobxonlari ham Alisher Navoiyning "Xamsa" sini o'z tillarida o'qimoqdalar. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani ozarbayjon tiliga o'girilgan bo'lsa, o'zbeklar Samad Vurg'unning dostonlarini o'z tillarida mutolaa qilmoqdalar. Abdulla Kahhorning "Shohi so'zana" komediyasi – grek tiliga, qadimgi yunon adabiyotining o'lmas obidasi "Iliada" – o'zbekchaga, Sh.Rashidovning "Kashmir qo'shig'i" dostoni – forsiyga, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" si esa o'zbek tiliga tarjima qilingan. Tarjimachiligimiz qamrab olayotgan tillar, adiblar, janrlar, davrlarning hammasi qayd etiladigan bo'lsa, bu ro'yxat benihoya kengayib ketadi. Ammo keltirilgan misollarning o'zi ham o'zbek adabiyotining bugungi kundagi xorijiy g'arbu sharq hamda qardosh adabiyotlar bilan bo'layotgan o'zaro ichki va tashqi tarjimachiligi siyosatini namoyish eta oladi.

Asosiy qism: Umuminsoniy maqsadni ko'zlab qalam tebratgan har qanday yozuvchi va shoirning asari faqat bir xalqning mulki bo'lib qolmay, butun insoniyatning ham boyligidir. Binobarin, barcha xalqlar bir-birining ma'naviy boyligi, ya'ni adabiyot va madaniyati bilan uzviy aloqa o'rnatgan taqdirdagina o'zlarining adabiyoti va madaniyatini harakatga keltira oladilar.

Alohida olingan har bir milliy adabiyot mavqeidan turib qaralsa, tarjima ko'poq rang-baranglik, xilma-xillikka qulaylik tug'diruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Lekin, ikkinchi tomondan, tarjima bir qancha yetakchi nasriy, she'riy yoki dramaturgiyaviy uslublarning butun jahon bo'ylab tarqalishiga ko'maklashadi va, shunga ko'ra, jahon adabiyoti mavqeidan turib qaraganda, birlashtiruvchi omil

sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, tarjima jahon adabiyoti taraqqiyoti tomon yo'naltiruvchi kuchdir. Biroq, shu bilan birga, original adabiyot taraqqiyoti bu jarayonga qarshilik ko'rsatadi: hozircha biz milliy adabiyotlarning qo'shilishidan ko'ra ularning parchalanishi, mustaqillik hosil qilishi tomon borayotganining shohidi bo'lamiz. Masalan, Osiyo va Afrika mamlakatlarida milliy adabiyotlar soni oshganligi va Yevropada ham shunga o'xshash ahvol sodir bo'layotgani ma'lum: chexoslovak adabiyoti chex va slovak adabiyotlariga bo'lindi, hatto Buyuk Britaniya singari an'anaviy madaniyatga ega bo'lgan mamlakatlarda ham milliy adabiyotlar sonining oshayotganligi ko'zga tashlanadi: u yerda ham shotland, valli va kornuel mualliflarining ijodida nisbatan kuchli markazdan qochirma kuch mayli seziladi.

O'zbek xalqi jahon sivilizatsiyasida madaniy millat atalmish buyuk xalqlar bilan bir qatorda insoniyatning ezgu orzu va istaklari aks etgan asarlardan bahramand bo'lish barobarida, uning o'zi ham jahon afkor ommasining talabi va didiga mos yuksak badiiy tafakkur namunalarini yaratib, jahon madaniyati xazinasini boyitmoqda. Bu o'rinda badiiy tarjima ishiga aloqador ba'zi masalalarga aniqlik kiritish zarur. Avvalo, qardosh xalqlar adabiyotlarini o'z tilimizga tarjima qilishdan kuzatiladigan maqsad nima? Bo'lak adabiyot asarlarini tarjima qilishga kuch sarflangandan ko'ra, original o'zbek adabiyotini rivojlantirishga yanada ko'proq e'tibor qilish maqsadga muvofiq emasmi? Tarjima tufayli nimaga erishiladi? Tarjima qanday xususiyatlarga ega? Badiiy ijodda nima uchun tarjimaga katta e'tibor berilmoqda?

Tarjimani mevali daraxt niholiga qiyos qilsa bo'ladi. Chunonchi, bir zaminda o'sib turgan nihol boshqa yerga o'tqazilganda ko'karib, meva beradi. Jahon adabiyoti durdonalari ham tarjima tufayli bir tildan boshqa tilga ko'chirilganda, o'sha tilning egasi bo'lan xalqning milliy ongini o'stirishda, yangicha estetik did paydo qilishda, dunyoqarashini tarbiyalashda faol rol o'naydi.

Tarjima tarbiyaviy, ma'rifiy va donishiy (bilish) ahamiyatiga ega. Original adabiyot orqali, asosan, o'z xalqimizning o'tmish, hozirgi va kelajak hayoti, tarixiy turmush sharoitlarini o'rgansak, badiiy tarjima asarlari orqali boshqa xalqlarning hayoti, ularning orzu-intilishlari, iqtisodiy turmush sharoitlarining badiiy in'ikosi bilan tanishamiz. Har ikkalasi: original adabiyot ham, tarjima adabiyoti ham bab-baravar ahamiyatga ega, ular izma-iz, qo'ltiqma-qo'ltiq rivojlanadi, birini ikkinchisidan ustun qo'yish mumkin emas.

Ma'lumki, bu ajoyib shoir o'zga bir qancha yevropalik so'z ustalaridan farq qilaroq, Sharqqa katta hurmat bilan qaragan. U Firdavsiy, Anvari, Sa'diy, Nizomiy, Rumi, Hofiz, Jomiyning ijodi bilan yaqindan tanish bo'lgan. Hofizni ustoz deb bilgan. Uning "G'arbu Sharq devoni" Hofiz g'azallariga taqlidan yaratilgan.

Keyingi yillarda shoirning shoh tragediyasi “Faust” o‘zbek tiliga o‘girildi. “Yosh Verterning iztiroblari” romani birinchi marta bevosita nemis tilidan tarjima qilindi. Gyote ijodi o‘zbek kitobxonlarining ma’naviy tarbiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, o‘zbek shoirlarining badiiy tafakkur olamida ham chuqur iz qoldirgan. Asarning sahnalashtirilishi esa teatr taraqqiyotida muhim voqea bo‘ldi. Bularning barchasi yaxlit olganda bir butun adabiy-estetik jarayondir.

“Men bir umr Pushkindan o‘rganib keldim va o‘rganaman, – deb yozgan edi ozarbayjon shoiri Samad Vurg‘un. – Uning ijodi men uchun hamma vaqt buyuk ijodiy maktab bo‘lib keldi. Agar shoir o‘z ijodining Pushkin poeziyasiga ichki yaqinligini his etsa, agar uning ideallari va ijodiy intilishlari Pushkin poeziyasining ideallari va ijodiy intilishlariga muvofiq kelsa, agar u Pushkinni jon-dilidan sevsa, bu maktab unga ko‘p narsalarni o‘rgatishi mumkin. Bordi-yu bunday ichki aloqa bo‘lmasa, har qanday o‘rganish ham o‘zining ijodiy ahamiyatini yo‘qotadi va jonsiz, ko‘r-ko‘rona taqlid qilishga aylanib qoladi.

Bu so‘zlar yozuvchilarning ijodlari o‘rtasidagi ichki yaqinlik, adabiy ta’sir va badiiy tarjimaning tabiati, o‘ziga xos tomonlarini g‘oyat aniq ochib beradi. Ko‘zga ko‘ringan boshqa yirik adiblarning o‘z ijodlari misolida tarjima haqida bildirgan fikrlari ham bu haqiqatning hayotiylikini tasdiqlaydi.

Adabiy aloqa haqida gapirganda xalqlar o‘rtasidagi adabiy aloqalar nazarda tutiladi, milliy adabiyotlarning o‘zaro bir-biriga ta’siri va bir-birini boyitishi, masalan, rus adabiyotining o‘zbek adabiyotiga ta’siri tushuniladi. Ammo bu, bir tomondan, boshqa adabiyotlarning o‘zbek adabiyotiga ta’sirini inkor qilmaydi, chunki bizning adabiyotimizga ozarbayjon, tatar, ukrain, qirgiz va boshqa milliy adabiyotlarning ham ta’siri seziladi; ikkinchi tomondan, boshqa xalqlar adabiyotlari singari, o‘zbek adabiyoti ham rus adabiyotiga muayyan ta’sir o‘tkazadi. Masalan, Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor kabi yirik yozuvchilarning ijodiy tajribalari ko‘pgina rus yozuvchilari uchun maktab bo‘lganligi o‘z-o‘zidan ravshan. Boshqa adabiyot namoyandalarining ijodi xususida ham shunday deyish mumkin.

Ma’lumki, har bir yozuvchi – ichki ijodiy hamohanglik his etgan yozuvchining, har bir shoir – o‘zi “e’tirof etgan”, sevgan shoirining asarini tarjima qiladi. Aks holda, zo‘rma-zo‘raki, majburiyat yuzasidan qilingan tarjimadan, avvalo, san’at asari hosil bo‘lmaydi, ikkinchidan, tarjimon-yozuvchining o‘zi undan ijodiy naflanmaydi.

Baliq suv ichida bo‘la turib, suvdan “foydalanmasligi”ni aql bovar qilmagani singari, o‘z dilingga yaqin yozuvchining asarini tarjima qila turib, undan bahra olmaslik mumkin emas. (Albatta, bunday ta’sirning samarasini sezish uchun tarjima qiluvchi kishining o‘zi yaratuvchi, ijodkor bo‘lishi kerak, aks holda, o‘nlab qalin kitoblarni o‘z tiliga o‘giran kishi ham hech qanday “ta’sir”ni his qilmaganicha,

oddiy tilmoch bo‘lib qolaveradi). Aksincha, biron yozuvchining ta‘sirini o‘z ijodida his qilish uchun “ta‘sirlanuvchi” adib uning asarlarini muqarrar tarjima qilgan bo‘lishi shart emas. Boshqacha aytganda, tarjima qila turib – ta‘sirlanmaslik mumkin emas, ammo ta‘sirlanib turib – tarjima qilmaslik mumkin. Masalan, Abdulla Qahhor Chexovning butun ijodiy mahsulini adib sifatida puxta o‘zlashtirgani va uning ta‘sirini o‘z ijodida chuqur his qilgani holda, bu ulug‘ yozuvchining nari borganda 10-15 ta hikoyasini o‘zbek tiliga tarjima qilgan, xolos.

Biroq shuni alohida ta‘kidlash lozimki, ijodkorlarning o‘zlari bevosita tarjima bilan shug‘ullanishlarida katta gap bor: bu tarjimalardan birinchi galda kitobxon foyda ko‘radi – ijodkor ijodkorni boshqa kishiga qaraganda nozikroq his qiladi, to‘g‘riroq tushunadi va bir-birining fikrini chuqurroq anglata oladi. Qush tilini qush tushunadi. Qolaversa, bunday tarjimadan yozuvchilarning o‘zlari ham manfaatdor, chunki ular original roman yoki qissa yozayotganidagina emas, balki jahon adabiyoti yoki qardosh xalqlar adabiyotlari xazinasidan o‘z hamkasblarining roman yoki qissasini ona tiliga tarjima qilayotganida ham ijodiy ish bilan mashg‘ul ekanliklarini his etadilar. Nihoyat, ijodkorlar o‘zga adabiyot namoyandalarining asarlarini tarjima qilishga sarflagan vaqtlarini qizg‘anmasalar ham bo‘ladi, chunki, ularning o‘zlari ham o‘z original ijodiy mahsullarining dunyo tillariga tarjima qilinishidan manfaatdor va buning uchun boshqa milliy tillarda ijod qiluvchi yozuvchilar ham o‘z vaqtlari (ehtimol, umri)ni sarflashlariga muhtojdirlar.

XULOSA

Adabiy aloqa va ta‘sir haqida gap ketganda “ta‘sirlanuvchi” yozuvchining “ta‘sir etuvchi” adib ijodidan o‘z tiliga tarjima qilganligi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Bizningcha, bu o‘rinda “tarjima – xalqqa” va “tarjima – yozuvchilarga” degan ikki tezisni ilgari surish mumkin. Albatta, badiiy tarjima – milliy yozuvchilar uchun katta ijodiy maydon va nazorat hosil qilish maktabi ekan, buni so‘z ustalarining qandaydir tor ijodiy mashg‘uloti, “adabiy ermagi” ma‘nosida talqin qilmaslik kerak. Tarjima – ma‘lum bir guruh kishilar yoki xalqning bir qismi, aholining bir toifasi uchun emas, balki butun xalq uchun yaratiladi. Agar, shartli ravishda, tarjimani buyurtma deb olinsa, buyuruvchi – xalq, tarjimon esa adabiy ijrochidir. Biroq ana shu tarjima jarayonida, obyektiv suratda, tarjimonning mahorati oshadi, u yozuvchining badiiy tasvir “sir”larini ochadi, ularni ijodiy o‘zlashtiradi, tili va uslubi boyiydi. Badiiy tarjima qardosh xalqlar adabiyotlarini bir-biri bilan chambarchas bog‘lab turgan, shuningdek, chet davlatlarda yaratilayotgan asarlarini mamlakatimiz ichkarisiga olib kiradigan, original ijod namunalari boshqa xalqlarga taqdim qiladigan, sinalgan, mo‘jizakor vositalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Иржи Левый. Искусство перевода. Изд-во “Прогресс”, М., 1974, стр. 234-235.
2. Lafasov, Urak Pazilovich, and Marxabo Raxmonkulovna Abdullayeva. "Abdulla Qodiriy romanlaridagi jonlantirish va tashxis tasvir usullari." *Tadqiqotlar. Uz* 39.3 (2024): 65-70.
3. Hamidov X. *Abdulla Qahhor uslubini tarjimada qayta yaratish masalalari (Monografiya)* //Publication date. – 2024. – T. 2.
4. Berdiyeva, Shahnoza & Azimjanovna, Mulladjanova. (2021). Exploring a flipped learning approach in teaching english for esp (english for specific purposes) students. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*. 11. 1535-1544. 10.5958/2249-7137.2021.00268.8.
5. Hamidov X. *TRANSLATION OF PROVERBS IN THE WORKS OF ABDULLA QAHHOR* //Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies. – 2024. – Т. 2. – №. 04. – С. 74-82.
6. Hamidov, Xayrulla. "THE STORY OF" POMEGRANATE" IS IN TURKISH AND RUSSIAN LANGUAGES." *Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies* 3.02 (2024): 39-47.
7. Hamidov K. K. *Translation Of Common Words And Phrases In The Novel “Days Gone By” By Abdulla Kadiri* //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2020. – Т. 1. – №. 01. – С. 12-18.
8. Hamidov, Xayrulla, and Marxabo Abdullayeva. "FRAZEOLOGIZMLARNING O ‘ZBEKCHA MUQOBIL VARIANTLARI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI." *Konferensiyalar| Conferences*. Vol. 1. No. 8. 2024.
9. Qodirovna, Teshaboyeva Ziyodakhon. "Scientific and Theoretical Study of “Baburname” and Its ‘translations into the World Languages." *Journal of Critical Reviews* 7.3 (2019): 2020.
10. Qodirovna, Teshaboyeva Ziyodakhon. "SCIENTIFIC AND THEORETICAL STUDY OF “BABURNAME” AND ITS’TRANSLATIONS INTO THE WORLD LANGUAGES." *Journal of Critical Reviews* 7.3 (2019): 2020.
11. Mahbuba Kuvondikova, Teshaboyeva Ziyodaxon Qodirovna. *IMOM AL BUXORIYNING “AL-JOME’AS-SAHIH” ASARI TARJIMASINING AHAMIYATI*. 2024/1/15. Журнал INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. b152-154
12. Kasimova, Sarvinoz Sayfullaevna. "Transformación de frases y sus destrucciones." *Salud, Ciencia y Tecnología-Serie de Conferencias* 3 (2024): 740-740.

13. Касимова, С. (2020). Работы великих турецких ученых, писавших об арабских пословицах и пословицах. Востоковедения, 1(1), 154–166. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/oriental-studies/article/view/16641>
14. Begmatova B., Kasimova S., Zaynutdinova S. Syntactic and semantic analysis of constraints, states and absolute masdars //International Journal of Scientific and Technology Research. – 2020. – Т. 9. – №. 3. – С. 284-291.
15. Begmatova, Buzakhro Marufjanovna, and Sarvinoz Sayfullaevna Kasimova. "STUDY OF THE PROBLEM OF PREDICATIVITY AND ATTRIBUTION IN LINGUISTICS."

TALABA-YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING TA'LIM SOHASIDA NAMAYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

Temirova Svetlana Vladimirovna

“Xalqaro ommaviy xuquq” kafedrasida katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda talaba-yoshlarga oid davlat siyosatining ta'lim sohasida namayon bo'lish xususiyatlari, Mamlakatimizda oxirgi yillarda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo'yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish, huquq va manfaatlarini ta'minlash kabi muhim masalalar davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. OTMga oid davlat siyosatini amalga oshirish istiqbollari haqida to'xtalib o'tilgan.

***Kalit so'zlar.** Talaba-yoshlar, siyosat, ta'lim tizimi, ijtimoiy integratsiyalashuv, ta'lim, konsepsiya, demokratlashuv, ijtimoiy integratsiyalashuv.*

ABSTRACT

In this article, the characteristics of the state policy regarding students and youth in the field of education, as well as the importance of educating the young generation in recent years in our country, creating all the necessary conditions for them to take an independent step in life, and ensuring their rights and interests issues are becoming one of the most priority directions of the state policy. The prospects for the implementation of the state policy on OTM were discussed.

***Keywords:** Students, politics, education system, social integration, education, concept, democratization, social integration.*

KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo'yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish, huquq va manfaatlarini ta'minlash kabi muhim masalalar davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 19 milliondan ortiq yoki aholining 55 foizini tashkil qiladi. Mehnat bozoriga har yili 600 ming yoshlar kirib kelayotgan bo'lsa, kelgusi 10 yilda bu raqam bir millionga yetadi. Bugungi kunda yurtimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonunining 3-moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari ko'rsatib o'tilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- ta'lim-tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakterda bo'lishi,
- ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining yo'nalishlarini tanlashning ixtiyorligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta'lim standarti doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv;
- bilimli bo'lishni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini tuyg'unlashtirish.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 3-moddasida ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri ta'lim va tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakterda bo'lishi ko'rsatilgan. Ta'lim va tarbiyaning insonparvarlashuvi insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali xar tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Ta'limni insonparvarlashtirish shaxsning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida uning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlari, xohish-istaklari va hiziqlashlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsni xar tomonlama kamol topishini ta'minlashga yo'naltiriladi, uning shaxsiga nisbatan hurmat bilan yondashiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'lim va tarbiyani demokratlashtirishning mazmuni shundan iboratki, ta'lim-tarbiya mazmunining ochiqligi, o'quv materiallari, ta'lim shakl va metodlarining xilma-xilligi, milliy va hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, hammaning va xar kimning madaniy jihatdan yuksak natijalarga erishishini ta'minlashga imkon beradi. Mazkur tamoyilga amal qilish o'quvchilarning xohishlariga ko'ra o'quv jadvalidan qo'shimcha fanlarning o'rin olishi, yuqori sinflarda muayyan fanlarning chuqurlashtirilib o'rgatilishi, fakultativ mashg'ulotlar hajmining kengaytirish, turli yo'nalishlarda to'garaklarni tashkil etish, darslarning yakka va guruh asosida o'tkazilishiga e'tibor berilishini anglatadi.

Shavkat Mirziyoyev oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqladi va quydagilar belgilab qoyildi. a) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi va unda quyidagilar nazarda tutiladi: Oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish; O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand

davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish; respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish;

oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startup, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek, respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish;

oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish;

talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash;

ta'limning ishlab chiqarish korxonalarini va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash;

b) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

2016 yil 15 sentabrdan kuchga kirgan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi" sohadagi vazifalarni yangi bosqichga ko'tardi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha Komissiya tuzish to'g'risida"gi F-4789-sonli farmoyishi ijrosi yuzasidan ham tizimli ravishda ishlar olib borilmoqda. Jumladan, hozirgi kunda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Yozuvchilar uyushmasi tomonidan joriy yil 10 apreldan boshlab oliy ta'lim muassasalarida kitobxonlik, mutolaa madaniyatini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar o'tkazilmoqda.

Talabalarning siyosiy-huquqiy bilimlarini boyitish, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha "Yagonasan, muqaddas Vatan!", "Soliq bilimdonlari", "Tafakkur sinovlari", "Quvnoqlar va zukkolar", "Baxtiyorlar diyori" respublika ko'rik-tanlovlari, Talabalar teatr studiyalari festivallari hamda turli mavzularda ijodiy ishlar tanlovlari o'tkazilmoqda. Jumladan, "Yagonasan, muqaddas Vatan!" respublika ko'rik-tanlovlarning mamlakat bosqichida Samarqand davlat universiteti jamoasi faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Ayniqsa, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga

oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar Dasturi” bu sohadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Dunyoda o‘xshashi bo‘lmagan uch bosqichli noyob tizim – “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” sport musobaqalari bo‘lajak yetuk sportchilar uchun o‘ziga xos pillapoya vazifasini o‘tamoqda. O‘zbekiston Universiadalari talaba-yoshlarimizni Osiyo, jahon va xalqaro yozgi Olimpiada o‘yinlarida ishtirok etishi va eng qimmatli g‘alabalarni qo‘lga kiritishlarida o‘ziga xos poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o‘tkazilgan XXXI Yozgi Olimpiada va XV Paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston terma jamoasi tarkibida 25 nafar talaba sportchilarimiz ishtirok etib, 13 ta medal (3 ta oltin, 2 ta kumush va 8 ta bronza)ni qo‘lga kiritishdi. Globallashuvning zamonaviy davri ta‘limni, ayniqsa oliy ta‘lim tizimini tashkil etish, boshqarish va mazmuniga yangi talablarni qo‘yar ekan, buning uchun Oliy ta‘lim tizimi ham globallashuvning noaniq jarayonlari va jamiyatning tezkor texnologik va axborot taraqqiyotidan kelib chiqadigan talablarga maksimal darajada javob berishi kerak bo‘ladi. Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimida ta‘limning yangi konsepsiyasini barpo etish va yoshlarga zamonaviy bilimlar asosida ta‘lim berish va tarbiyalashda, nafaqat an‘anaviy, balki innovatsion yondashuvlardan ham samarali foydalanish va o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borish kutilgan natijalarga erishishga olib kelishi shubhasiz.

Ta‘lim sohasidagi yangi O‘zbekiston davlat siyosatining mohiyati iqtisodiyotining eng intellektual salohiyatli "tarmog‘i" sifatida ta‘limning ustuvorligini ta‘minlashdir. Oliy kasbiy ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi XXI asrning barcha qiyinchiliklariga javob beradigan ta‘limning yetarli modelini shakllantirish, jamiyatning yangi O‘zbekiston shakllanishida yetakchi rolini tan olishdir. Bu davlat va jamiyat oldida ta‘limning hozirgi holati, uni modernizatsiya qilishning samaradorligi, klassik jahon oliy ta‘lim tizimining eng yaxshi an‘analari va andozalarini saqlab qolish uchun alohida mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishni talab qiladi.

O‘zbekiston ta‘limini modernizatsiya qilish bugungi kunda O‘zbekiston ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining bosh strategik liniyasi sifatida rasman tan olinganligini biz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning bu borada bildirgan fikrlari va qarorlaridan ham bilishimiz mumkin. Bu, albatta, O‘zbekistonning oliy kasbiy ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishni talab qiladi. Ta‘lim sohasidagi innovatsion o‘zgarishlarning eng ko‘zga ko‘ringan natijalaridan biri, bizning fikrimizcha, universitetda ta‘lim olish jarayonida olingan bilimlarning "qarishi" ning tezlashuvi, shuningdek, nazariy bilimlarning jamiyat hayotining amaliy sohasi ehtiyojlariga mos kelmasligi. Shunga ko‘ra, ushbu bilimlarni doimiy ravishda

yangilash va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati ortib bormoqda. Shu munosabat bilan mamlakatimiz ta'lim tizimining ikki bosqichli tizimga (bakalavriatni joriy etish) o'tish barcha soha uchun mutaxassislarni kasbiy tayyorgarlikda amaliyot bilan birlashtirish va ilm-fanni yanada rivojlantirish davr zaruriyatiga aylandi. Bu borada olib borilayotgan ta'lim siyosatini tubdan takomillashtirish va huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash xalqaro ta'lim andozalariga integratsiyalashuvini ta'minlashga olib kelmoqda. O'zbekistonning Boloniya Konvensiyasiga tobora qo'shilishiga tayyorgarlik ko'rilishi, yagona ta'lim makonini shakllantirish zarurligini va shunga ko'ra, ta'lim sifati uchun Yevropa mezonlari bilan bir xil, yagona texnologik va gumanitar meyorlarga rioya qilish hamda barcha soha mutaxassislarni tayyorlash talablarini oldindan belgilab berdi.

Ikkinchidan, nafaqat O'zbekiston, balki butun Yevropaning ta'lim sohasidagi yagona professional malakalarning mavjudligi universitet-larida tashkil etilgan majburiy kasbiy malakalar doirasida ijtimoiy-gumanitar sohalar bakalavrlari uchun zarur bo'lgan bir qator parametrlarni, jumladan, til, madaniyat, iqtisodiyot, siyosat va boshqalarni ham butunlay o'zgartirishga sabab bo'ldi. Bo'lajak mutaxassislarning zarur kasbiy va umumiy madaniy vakolatlarini shakllantirish nafaqat shakllar, darajalar, balki o'quv jarayonining mazmuni ham muhim o'zgarishlar fonida yuzaga keladi. Masalan, zamonaviy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati ta'lim mazmunini davlat tomonidan shakllantirishdan ushbu tizimga yangi jihatlar va ishtirokchilarni, xususan, ish beruvchilarni kiritishiga o'tishdir. Shu bilan birga, ushbu yondashuv barcha darajadagi zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi, o'quv jarayonini tashkil etishning mazmuni, shakllari va usullariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini kengaytiradi, hatto ta'lim muassasasining turini tanlashga yordam beradi. Bir tomondan, ushbu yondashuv barcha darajadagi mutaxassislarning zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi. Aslida, bu parametrlar bir daraja yoki boshqa ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifati yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori ijrosi yuzasidan ishlab

chiqilgan. Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari,

vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Bugungi kunda respublikada 198 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 105 tasi xorijiy oliy ta’lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, so‘nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta’lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta’lim muassasasi filiali tashkil etildi. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta’lim yo‘nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi. 2019/2020 o‘quv yilida 59 ta oliy ta’lim muassasasida sirtqi ta’lim, 10 ta oliy ta’lim muassasasida kechki ta’lim shakli joriy etildi. Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo‘yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, so‘nggi 3 yilda 1,7 baravarga oshdi. Talabalarning 54,8 foizi gumanitar va pedagogik, 25,2 foizi ishlab chiqarish-texnik, 5,2 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo‘jaligi, 4,4 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot, 4,5 foizi xizmat ko‘rsatish bilim sohalariga oid ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha tahsil olmoqdalar. Magistratura talabalari-ning 40,8 foizi gumanitar va pedagogik, 23,3 foizi ishlab chiqarish-texnik, 13,3 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo‘jaligi, 13,5 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot, 3,2 foizi xizmat ko‘rsatish bilim sohalariga oid ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olmoqdalar. 2019/2020 o‘quv yili uchun qabul parametrlari 121 mingtani tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 18 foizga, 2016 yilga nisbatan esa 92 foizga oshdi. Respublikaning 16 ta oliy ta’lim muassasasida 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalaridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar soni 84 tani tashkil qilmoqda (2017 yilda 48 ta). So‘nggi 3 yilda 1693 nafar professor-o‘qituvchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi natijasida oliy ta’lim muassasalarida ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni 9636 nafarga yetdi (shundan 2130 nafari fan doktori (DSc), 7506 nafari fan nomzodi (PhD) hamda respublika oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyati 5,1 foizga oshishiga erishildi.

So‘nggi 5 yilda oliy ta’lim muassasalarining 1611 nafar professor- o‘qituvchisi xorijiy oliy ta’lim muassasalarida stajirovka o‘tashi va malaka oshirishi ta‘minlandi. Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy oliy ta’lim va ilmiy muassasalar magistratura

mutaxassisligiga 112 nafar, doktoranturasiga 51 nafar yoshlar ta'lim olishga qabul qilindi .

Наряду с этим, современные методы поиска, восприятия и передачи информации меняют наше восприятие мира, делая его более плоским, но более насыщенным информацией. Переход к дистанционному общению увеличивает количество контактов, но уменьшает тактильное взаимодействие, что влияет на наше эмоциональное восприятие окружающих. Эти изменения могут привести к тому, что мы начнем воспринимать других людей как аудиовизуальных объектов, сконцентрированных на их визуальных и акустических характеристиках, а также на их активности в сети и потребительском поведении. С развитием цифрового общества поиск информации стал более удобным и быстрым благодаря доступности различных онлайн-ресурсов. Однако необходимость эффективно фильтровать эту информацию становится все более актуальной для успешной адаптации к современным условиям. Те, кто не владеют этим навыком, подвержены стрессу от навязывания ненужных товаров, ложной информации и цифрового маркетинга. Умение эффективно работать с информацией, анализировать ее и отличать правдивую от ложной, становится ключом к успешному функционированию в цифровой эпохе.

Цифровое общество также сталкивается с явлением "поколения с опущенной головой" – молодежь, предпочитающую виртуальное общение

реальному. Этот тренд определяется преимущественным использованием социальных сетей и смартфонов, которые меняют способ взаимодействия и общения молодых людей. Переход от реального общения к цифровому может создать преграды в понимании межпоколенческих, межличностных различий и усложнить обмен информацией. Четвёртая промышленная революция связана с утверждением Индустрии 4.0, которая «трансформирует модели межличностной коммуникации, общения, взаимодействия» [6, 22].

Также существует угроза индивидуализации источников информации, что может привести к формированию узкоспециализированных информационных пузырей. Социальные сети и персонализированные новостные ленты создают возможность выбирать и фильтровать информацию под свои интересы, однако это также увеличивает риск манипуляций и формирования однобокого мировоззрения. Таким образом, цифровизация общества вносит как новые возможности, так и вызовы, требующие обдуманых и адаптивных подходов к образованию, информационной грамотности и межличностным отношениям.

ВЫВОД

Понятие цифрового общества представляет собой современное состояние информационного общества, превращенного в новый единый организм в контексте глобального и универсального времени-пространства, существующего и развивающегося в соответствии с общими ритмами, что значительно расширяет горизонты представлений о Земле как общем доме человечества. Термин "цифровое" отражает определенное завершенное, предельное состояние развития общества и мира в целом. Человек, стремящийся представить жизнь как чувственно воспринимаемое целое, воплощенное, например, в виртуальной реальности, априори рассматривает мир как законченный, ограниченный. Такой мир всегда будет иметь свой конец (как временной, так и пространственный), предел, который можно достичь (как в случае завершения любой компьютерной игры). Однако, обращаясь к числу как способу познания реальности, человек не только предполагает, но и утверждает бесконечность мира

Цифровая революция стала ключевым термином, характеризующим цифровую трансформацию социальной реальности, глобализирующегося социокультурного воспроизводства как динамический процесс, экономических и технологических преобразований общества. В современной эпохе феномен цифровой революции воспринимается не как выбор конструктивного пути цивилизационного самоопределения, а как объективная

реальность, наложенная производными синтеза научно-технического и социокультурного прогресса.

Сегодня современные технологии во многом уже закабалили людей, открыв перспективу ничем не ограниченного потребления, комфорта и развлечений, с одной стороны, и тотального контроля над людьми, управления ими – с другой. Долг философии в этой ситуации – всемерно содействовать сохранению человеческого достоинства, ясности мысли, оптимистической перспективы, решимости преодолеть кризисные явления, противоречия, порожденные внедрением цифровых технологий.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES)

1. Иоселиани А. Д. Особенности повседневной жизни человека в цифровом мире // Тамбов: Грамота, 2020. Том 13. Выпуск 4. С. 117.
2. Конева А. В., Лисенкова А. А. Матрица идентичности в цифровую эпоху: социальные вызовы преодоления анонимности // Вестник Томского государственного университета. Культурология и искусствоведение. 2019. № 35. С. 14–28.
3. Хазиева Н.О. — Цифровое общество: опыт философского осмысления проблемы // Философия и культура. – 2018. – № 4. – С. 8 - 13. DOI: 10.7256/2454-0757.2018.4.25383
4. Тимофеев А.В. Трансформация системы ценностей в эпоху цифровизации // Научное мнение. - 2019. - №. 9. – С. 22-25
5. Иззетова Э.М. Цифровая цивилизация в контексте философского дискурса// ISSN 2311-2158. The Way of Science. 2021. № 5 (87). – С.52 – 55.
6. Бурнашев Р.Ф., Асророва М.О., Масарова К.Ф. Философские основы концепции безопасности личности в эпоху цифровизации // Universum: общественные науки: электронный научный журн. 2023. -№ 11(102).
7. Иванов Д.В. Критическая теория цифровизации: господство алгоритмической рациональности и бунт аутентичности // Журнал социологии и социальной антропологии. - 2023. - Т. 26. - №. 3. - С. 7-35.

**SHOHRUH MIRZONING SUYUKLI RAFIQASI
GAVHARSHODBEGIMNING TEMURIYLAR SIYOSIY HAYOTIDAGI
O‘RNI**

Mahliyo Turdixo‘jayeva Muqimxo‘ja qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

tayanch doktorant

E-mail: turdixujayevamakhliyo@gmail.com

ORCID-ID:0009-0008-5599-9647

ANNOTATSIYA

Maqola Shohruh Mirzoning suyakli rafiqasi, chig‘atoy zodagonlaridan G‘iyosiddin tarxonning qizi Gavhar Shod begimning temuriylar siyosiy hayotida tutgan o‘rniga bag‘ishlanadi. Mamlakat devon ishlarini yuritgan Gavharshod begimning fazilatlari va boshqaruvchanlik qobilyati manbalar ma‘lumoti orqali ochib berilgan. Shuningdek, malikaning bunyodkorlik faoliyati maqolada keltiriladi.

***Kalit so‘zlar:** Shohruh Mirzo, Gavharshod begim, temuriylar, Hirot, Matlayi sadayn, Ona lochin vidosi.*

ABSTRACT

This article is dedicated to the role of Gavhar Shod begim that daughter of Ghiyaziddin Tarkhan one of the Chigatai nobles, so the beloved wife of Shahrukh Mirza in the political life of the Timurids. The qualities and management skills of Gavharshad Beg, who managed the affairs of the country's cabinet, are revealed through the information of the sources. Also, the creative activity of the princess is presented in the article.

***Key words:** Shahrukh Mirza, Gavharshad Begim, Timurids, Herat, Matlayi Sadayn, farewell to Mother Falcon.*

KIRISH

Temuriylar davrida saroy malikalari o‘z salohiyatlari bo‘yicha juda mashhur bo‘lishgan. Ular orasida eng mashhur malikalari qatoriga Gavhar Shod begim Shohruh Mirzoning suyakli rafiqasi bo‘lgan. U chig‘atoy zodagonlaridan G‘iyosiddin tarxonning qizi bo‘lib 1379-yilda tug‘ilib, 1393-yilda Shohruh mirzoning nikohiga kirgan. Undan uch o‘g‘il va ikki qiz ko‘rgan. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, “Gavharshod begim muborak soyali va baland martabali, shiori pokizalik va iffat pardasiga o‘ralgan, xatti-harakati odilona va qilmishlari pok, oliyhimmat va ulug‘ orzuli, iffat pardasida Robia sifatlik va pokizalik yopinchig‘ida Zubayda

yangligʻ bir malika edi. U shuhratli bonudan tiriklikda koʻp xayrli yodgorliklar qoldi¹⁵¹.

Shohruh Mirzo tabiatan dindor, koʻp vaqtini kitob mutoalasiga bagʻishlagan. Mamlakat devon ishlarini Gavhar Shod begim yuritgan. Malika bir paytning oʻzida shahzodalarning fel atvori, xatti-harakalarini ham nazoratda saqlagan. Xususan, Shohruh Mirzo Xirot taxtiga kenja oʻgʻli Joʻki Mirzoni valiahd etib tayinlashga harakat qilgan, lekin malika oʻz oʻgʻliga nisbatan nabirasi Aloud Davla Mirzoni taxt uchun munosib deb bilgan. Gavharshod begimning hatto shaxsiy muhrga ega boʻlganligi haqida maʼlumotlar bor boʻlib, bu malikaning ayrim davlat ishlarida oʻzi shaxsiy qaror qabul qilib, tasdiqlaganini koʻrsatadi¹⁵². U toʻq yashil mohtobdan, toʻq yashil rangda, bodomsimon shaklda yasalgan boʻlib, sirtiga suls yozuvida arabcha xat bilan “Gavharshod begim Gʻiyosiddin Tarxonning qizi”, deb yozilganligi tadqiqotlarda aks etgan¹⁵³. Gavhar Shod begim Hirotida juda katta qurilish ishlarini amalga oshirgan va Hirotida ikki yirik madrasani bunyod ettirgan. Shohruh Mirzoning vafotidan soʻng boshlanib ketgan taxt uchun koʻrashlar tepasida Gavhar shod begim turgan. Shahzodalarning birlasha olmaganliklaridan foydalangan Samarqand hukmdori Abu Said Mirzo Xurosonni bosib oladi va taxtga oʻtiradi. Bu davrda malika 80 yoshga yaqinlashib, ancha qarib qolgan, ammo taxtdan hali ham vos kechmagan edi. Shu maqsadda chevarasi Sulton Ibrohim Mirzoni Abusaidga qarshi isyon koʻtarishga undaydi. Malikaning bu ishlaridan xabar topgan Abusaid Mirzo malikani chopib tashlashga buyruq beradi. Buyruqqa muvofiq 1457-yilda Gavhar Shod begim chopib oʻldiriladi va oʻzi qurdirgan madrasa yonidagi Boysungʻur daxmasiga dafn etiladi. U hayoti davomida koʻplab hayrli ishlarni amalga oshirgan boʻlsada, umrining asosiy qismi davlat boshqaruvi va siyosiy davralarda kechgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muarrif Sharafiddin Ali Yazdiy Shohruh Mirzo va Gavharshod begimning toʻylari temuriyzoda aka-uka Muhammad Sulton va Pir Muhammad Mirzo birga oʻtganligini quyidagicha taʼriflaydi: “Har biriga bir huri najot qizni shaʼriy mutahhara yoʻsini bila berdi va Bogʻi Bihishtda toʻy qildi”. Bu voqea xijriy 790 (milodiy 1388) yilda sodir boʻladi. Nikoh marosimidan soʻng ular Hirotga qaytib keladilar. Bu nikohdan uch oʻgʻil (Ulugʻbek Mirzo, Boysunqur Mirzo, Joʻki Mirzo) va ikki qiz

¹⁵¹ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саълайн на мажман бахрайн. 2-жилд, 1-қисм. Форс тилидан А. Ўринбоев таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 424-425.

¹⁵² Ҳайдаров И, Турдихўжаева М. Манбаларда Гавҳаршод Бегим сиймоси.// Sharq mashʼali № 3, 2022 –Б.53-57

¹⁵³ Бердимуродов А. Гавҳар Шод бегим // Бухоро мавжлари. – Бухоро. 2012. -№3. – Б. 11-13; Файзиев Т. Хонзодабегим,Гулбаданбегим //Бухоро мавжлари. – Бухоро: 2010. -№4. – Б. 22-23. Бердимуродов А. Гавҳар Шод бегим //Бухоро мавжлари. – Бухоро. 2012. -№3. – Б. 11-13; Файзиев Т. Хонзодабегим,Гулбаданбегим //Бухоро мавжлари. – Бухоро: 2010. -№4. – Б. 22-23.

farzand tug‘iladi¹⁵⁴. “Matlayi sadayn” asarida Gavharshod begim ko‘plab xayrli ishlarni amalga oshirganligi: “zamon bonusi, jahon malikasi” deya tariflangan. U temuriyzoda shahzodalarini tarbiyalashda oqilligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Hofiz Abru uni shunday ta’riflaydi: “U baxtning ibtidosi edi, nufuzli ayollarning yetakchisi, homiysi bo‘lgan xayriya ishlarining oxiri yo‘q dinning, islom va musulmonlarning sofligi, kambag‘allarning panohi¹⁵⁵. Tabiatan vatanparvar, bilimdon va zukko Gavhar Shod begim mamlakat ravnaqi yo‘lida tinmay g‘amxo‘rlik qiladi. Uning dasturida madaniy va ma’rifiy hayot birinchi o‘rinda bo‘lgan. Shu boisdanmi, farzandlari hamda barcha nabiralari ilm-fan muxlislari bo‘lib, hatto g‘azal ham bitganlar. Gavhar Shod begim Hirotidagi juda ko‘p qurilish ishlariga rahnomalik qildi¹⁵⁶. Uning o‘zi ham Hirotida ikkita katta madrasa qurdirgan. Gavhar Shod begimning kundoshi malika Milkat Og‘o (bu malikaning asli nomi Mulk Og‘o bo‘lib, Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li Umar Shayx Mirzoning xotini edi. 1394-yilda Umar Shayx Mirzo vafotidan so‘ng, qayinotasi Amir Temurning irodasiga bo‘ysunib, Shohruh Mirzo nikohiga kirgan) Hirot shaharida bir madrasa, “Dorushshifo” nomli kasalxona, “Dorulhadis” nomli xonaqoh, ikkita hammom va shahardan sakkiz farsax (tosh) chetroqda bitta madrasa, kutubxona va maqbara, shahzoda Aloud Davla Mirzo esa bitta kasalxona qurdirgan. Ayni vaqtda, xususiy mulkdor, davlatmand kishilarga xayriya tariqasida qurilishlar bunyod etishiga ijozat berilgan va rag‘batlantirib turilgan.

Shohruh Mirzo Sherozdan Hirotga qaytayotganda yo‘l asnosida betoblanib, 1447 yil 12 martda vafot etadi. Gavhar Shod begim qo‘shin qo‘mondonligini Abdul Latif Mirzoga topshiradi. Ammo Hirotga Aloud-Davla Mirzoga “poytaxtni mustahkamlash” haqida maxfiy maktub yozib, uni maxsus chopar orqali jo‘natadi. Bundan ogoh bo‘lgan Abdul Latif Mirzo buvisi Gavhar Shod begimni mahbuslikda saqlab, Amudaryo tomon yo‘l oladi hamda bobosi Shohruh Mirzoning o‘limi haqida o‘z otasi Ulug‘bek Mirzoga xabar yuboradi. Amakisi Ulug‘bek Mirzodan hayiqqan Aloud-Davla Mirzo o‘zini podshoh deb e‘lon qilishga jur‘at etmaydi va avvalgidek juma kunlari masjidlarda bobosi Shohruh Mirzo nomini xutbaga qo‘shib o‘qitadi. Gavhar Shod begim 80 yoshga yaqinlashib, ancha qarib qolgan edi. Biroq qarib qolgan malika Xuroson taxtidan hali ham voz kechmagan edi. Binobarin, chevarasi Sulton Ibrohim Mirzoni (1440–1460) hukmdor Sulton Abusayid Mirzoga qarshi isyon ko‘tarishga undaydi. Malikaning bu harakatidan xabar topgan Sulton Abusayid

¹⁵⁴ The Zafarnamah by Maulana Sharfuddin Ali of Yazd. I-II, Калкутта, 1885-88. Шарофиддин Али Яздий. “Зафарнома”. I-II. Мухаммад Аббосий, Техрон, хижрий 1336. Шарофиддин Али Яздий. “Зафарнома”. А.Ўринбоев. – Тошкент, 1972.

¹⁵⁵ Hafiz Abru. Zubdat at-tavorix. 2 nd book. – Tashkent, 2010; Nurmatov J.K., Abdullayeva M.O The role of princesses in the history of the Temuriy’s state. – T., 2019. –P. 29.

¹⁵⁶ Хайдаров И, Турдихўжаева М. Манбаларда Гавҳаршод Бегим сиймоси.// Sharq mash’ali № 3, 2022 –Б.53-57

Mirzo malikani chopib tashlashga farmon beradi. Farmonga muvofiq 1457-yilda Gavhar Shod begim chopib o'ldiriladi va o'zi qurdirgan madrasa yonidagi Boysung'ur dahmasiga dafn etiladi¹⁵⁷.

2009-yilda "O'zbekiston" nashriyotida chop etilgan "Shohruh va Gavharshod"¹⁵⁸ romanida temuriylar sulolasining betimsol davomchisi bo'lgan Sohibqironning sadoqatli o'g'li Shohruh Mirzo hamda umr yo'ldoshi bo'lgan, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiydek dilbar shaxslarga mehrini bergan fidoyi ona – Gavharshod bengin yorqin siymolari o'z aksini topgandi. "Shohruh va Gavharshod" romani "Ona lochin vidosi"ning to'ldirilgan va tabiiyki, Sohibqiron Amir Temurning o'zi kabi ulug'vor o'g'li Shohruh siymosi bilan boyitilgan nashridir. – Temuriy tarixida qirq yildan ortiq taxtda o'tirgan va Sohibqiron otasining ulug'vor ishlarini o'ziga xos tarzda davom ettirgan Shohruh Mirzo haqida juda ko'p ma'lumotlar to'pladim,– degandi Pirmqul Qodirov o'z mulohazalarini bayon etar ekan.– Mazkur manbalarni sinchkovlik bilan o'rganganingiz sari bu buyuk bobokalonimizning ham qanchalik ulug'vor shaxs, dono shohu mard va tanti inson bo'lganini anglayverasiz. Tarixdan yaxshi ma'lumki, Sohibqironning so'nggi yurishi, ming afsuski, uning hayotiga xotima qo'ygan. Uzoqni ko'ra bilgan, keksalik bog'lariga qadam qo'ygan otasining ahvolini juda yaxshi tushungan donishmand o'g'li Shohruh Mirzo otasining bu yurishiga qarshi bo'ladi

Shohruh davlatni idora qilishdan ko'ra ko'proq toat-ibodat, diniy kitoblar mutolaasi bilan mashg'ul bo'lmoqni afzal ko'rganidan, avval unga devon ishlarini boshqarishni, so'ng viloyat hokimlari va qo'shin sarkardalarini tayinlash, hatto kimga qanday in'omu, kimga qanday jazo berish huquqini ham topshirib qo'ygan. Masalan, 1440-yil mashhur tarixchi Fasih Ahmad Xavofiy Gavharshodbengin buyrug'i bilan ikki marta zindonga tashlangan. Gavharshodbengin saltanat taxtiga valiahd tayinlash borasida ham o'z ixtiyori bo'yicha ish tutib, Shohruhning Muhammad Jo'qini taxt vorisi qilib tayinlash niyatida ekanligiga qaramay, nabirasi Alouddavlani valiahdlikka munosib ko'radi. Chunonchi, u 1444-yil Shohruh og'ir betob bo'lib qolganda maxfiy farmon bilan Alouddavlani valiahdlikka tayinlaydi. Ammo, Shohruh tez kunda shifo topib, uning bu rejasi amalga oshmay qoladi.

"Ona lochin vidosi"¹⁵⁹ romani temuriylar davrining eng muhim hodisalari yuz bergan davr haqidagi asardir. Asarda ijodkor kitobxon e'tiborini asosan temuriyzodalarning ayollariga qaratadi. Romandagi sodir bo'layotgan voqealarning tub mohiyati ayollarning temuriylar saltanati vakillariga ma'naviy ta'sirlari nuqtai nazaridan qarab badiiy tahlilga tortiladi. Asarning bosh qahramoni

¹⁵⁷ Qarang Gavharshod begim memoriy majmuasi

¹⁵⁸ Pirmqul Qodirov "Shohruh va Gavharshod". (tarixiy roman). –T. 2014.

¹⁵⁹ Pirmqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" T.-2012.

Gavharshodbegimning shodligu iztiroblari bayoni asosida boshqa temuriy malikalar obrazlari ham o‘z tasvirini topgan. Asarning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda tasvirlanayotgan tarixiy davr va sharoitda temuriyzodalarning ma’naviy-ahloqiy dunyoqarashiga kuchli ta’sir etuvchi asosiy kuch sifatida ayollar badiiy tasvir doirasida gavdalanadi va ma’lum darajada temuriylarning inqiroziga oid badiiy xulosa ham ayollar obrazlari vositasida bayon etiladi.

Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlayi sadayn”¹⁶⁰ asarida Gavharshodbegim ko‘plab xayrli ishlarni amalga oshirgan “zamon bonusi, jahon malikasi” deya tariflangan. Gavharshodbegim temuriyzoda shahzodalarni tarbiyalashda oqilligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Gavharshod begim me’moriy majmuasi - 1) Mashhad (Eron) markazida Hirot hukmdori Shohrux Mirzoning xotini Gavharshod begim sharafiga (me’mor Qavomiddin Sheroziy) qurilgan masjid. Atrofi ayvonli katta hovli (55x45 m) ning to‘rt tarafida to‘rt xona bo‘lib, ularning jan.dagisi katta va gumbazli. Unga minorali ulkan peshtoq orqali kirilgan. Minoralar tepasi qafasa bilan bezatilgan. Masjidga rangli koshinlardan nafis va go‘zal bezaklar ishlangan.

XULOSA

Xulosa qilganda temuriy malikalar orasida o‘zining aql-u-donoligi, siyosat borasida teran fikrlari hamda odilligi bilan ajralib turuvchi Gavharshodbegim siymosi o‘sha davr manbalarida yetarlicha yoritilgan. Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, temuriyzodalarning ma’naviy-ahloqiy dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsata olgan ayol sifatida tarixda qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. The Zafarnamah by Maulana Sharfuddin Ali of Yazd. I-II, Калкутта, 1885-88. Шарофиддин Али Яздий. “Зафарнома”. I-II, Мухаммад Аббосий, Техрон, хижрий 1336. Шарофиддин Али Яздий. “Зафарнома”. А. Ўринбоев. – Тошкент, 1972.
2. “Historie des konguetes de Tamerlan intitule Zafarnama, par Nizamuddin Sami”. Прага, 1937. 1956 йилда Низомиддин Шомий. “Зафарнома”. Анкара, 1949.
3. Низомиддин Шомий. “Зафарнома”. Техрон, 1363 хижрий. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўтирувчи Ю. Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир А. Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

¹⁶⁰ Абдураззок Самарқандий, Матлаи саълайн на мажман баҳрайн. 2-жилд, 1 қисм. Форс тилидан А. Уринбоев таржимаси, Тошкент: Ўзбекистон, 2008.

4. Абдураззок Самаркандий, Матлаи саълайн на мажман бахрайн. 2-жилд, 1-қисм. Форс тилидан А. Ўринбоев таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
5. Hafiz Abru. Zubdat at-tavorix. 2 nd book. – Tashkent, 2010
6. Турғун Файзиёв. Темурий маликалар. – Т., 1994. – Б. 8-9.
7. Nurmatov J.K , Abdullayeva M.O The role of princesses in the history of the Temuriy's state. – Т., 2019. P. 29.
8. Файзиёв Т. Хонзодабегим, Гулбаданбегим // Бухоро мавжлари. – Бухоро: 2010. -№4. – Б. 22-23.
9. Бердимуродов А. Гавҳар Шод бегим // Бухоро мавжлари. – Бухоро. 2012. -№3. – Б. 11-13;
10. Файзиёв Т. Хонзодабегим, Гулбаданбегим // Бухоро мавжлари. – Бухоро: 2010. -№4. – Б. 22-23.
11. Ҳайдаров И, Турдихўжаева М. Манбаларда Гавҳаршод Бегим сиймоси. // Sharq mash'ali № 3, 2022 –Б.53-57
12. Пиримқул Қодиров. Она лочин видоси. – Т.: Шарқ, 2001.

РАЦИОНАЛЬНЫЙ ХАРАКТЕР ФИЛОСОФСКОЙ АНТРОПОЛОГИИ АРНОЛЬДА ГЕЛЕНА

Шамсиев Тимур Ходжимирзаевич,

Ассистент кафедры «Философия»

Ташкентского Государственного

Экономического Университета

Телефон: +998998276286

Bestbishop1986@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Огромный интерес философов, проявленный ими к вопросам человека, способствовал созданию нового направления в философии – философской антропологии, хотя идея выделения собственно антропологических исследований из философии была высказана еще Кантом. В данной статье раскрываются особенности антропологических взглядов одного из основателей философской антропологии Арнольда Гелена.

***Ключевые слова:** Философская антропология, человек, окружающий мир, искусственная среда, культура, недостаточное существо, среда обитания.*

ABSTRACT

The great interest of philosophers, shown by them to the questions of man, contributed to the creation of a new direction in philosophy – philosophical anthropology, although the idea of separating anthropological research from philosophy was already expressed by Kant. This article reveals the features of the anthropological views of one of the founders of philosophical anthropology Arnold Gehlen.

***Keywords:** Philosophical anthropology, man, the surrounding world, artificial environment, culture, insufficient being, habitat.*

ВВЕДЕНИЕ

В начале 20 века в Германии возникла новая философская дисциплина – философская антропология, которая в центр своего внимания поставила человека. Её выдающимися представителями были Макс Шеллер, Арнольд Геллен, Хельмут Плеснер.

Философскую антропологию Арнольда Гелена от других ее вариантов отличает, прежде всего, ориентация на конкретные науки в духе позитивизма и прагматизма. Гелен не только был хорошо знаком с биологией и психологией, но заслуженно считается одним из оригинальных социологов. Первый

немецкий послевоенный учебник по социологии вышел под редакцией Гелена, а сам он для него написал большой раздел о первобытных обществах.

Работа «О систематике антропологии» является поздним трудом А.Гелена. По сути, это результат обобщения и систематизации тех идей и положений, которые он выявил ранее [1]. Человек у А.Гелена — «деятельное», но с биологической точки зрения «недостаточное» существо. Любым явлениям действительности человек пытается найти истолкование, и оно не ограничено биологически. Его отличает стремление познать окружающий мир, используя для этого достижения техники. Для животных окружающий их мир ограничен. Каждый вид при этом оказывался в плену собственного окружающего мира. У человека есть не «окружающий мир», а просто мир. По сравнению с животным человек «есть существо неспециализированное и в этом смысле примитивное». Он не приспосабливается к среде как животные, в связи с чем «несовершенен». Человек у Гелена — «недостаточное в отношении органов существо, лишенное в большой степени надежных инстинктов, предоставленное неопределенной полноте открытого мира, не редуцированного и даже частично не приглушенного приспособлением» [1]. Смысл существования человека заключается в адаптации мира под себя, в превращение непригодных для себя условий в комфортные. Но помимо постижения мира человек постоянно исследует и себя самого. Даже мозг человека нельзя рассматривать в отдельности от органов чувств, способности мыслить и говорить, подвижности.

Биологическая недостаточность человека выступает стимулом к преобразованию окружающего мира, что порождает культуру. Однако в основе этой культуры находятся инстинкты, врожденные импульсы, а именно агрессия и взаимность, причем последняя является основой многого в жизни человека. Согласно Гелену, социокультурные процессы берут свое начало не в разумной целесообразности, а в бессознательно-витальной сфере. Реализация этих социокультурных процессов становится результатом восполнения биологической недостаточности. Антропология, основанная на сравнении с животными, является показательной, т. к. при сопоставлении эффектно выделяются контрасты. С одной стороны, человек — часть животного мира, т. к. смыслом его существование становится приспособление к среде, необходимость выжить во вражеской среде, сопротивление. С другой стороны, есть между человеком и животными радикальное отличие, которое заключается в отсутствии у человека биологической специализированности [3]. То есть если животное приспособляется биологически, то человек лишен возможности

приспосабливаться органически. С точки зрения биологии и в контексте эволюционных процессов человек является неприспособленной, неразвитой ступенью. Он не может быть столь же успешен, как животные, в добыче пищи, холоду, противостоянии хищникам. Человек умеет воспринимать действительность во всем ее многообразии. Чтобы выжить, человек создаёт вокруг себя новую, искусственную среду, которая будет устроена так, чтобы он смог выжить.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В понимании Гелена культура - искусственная среда. Если животное приспосабливается к среде и по его виду можно понять, в каких условиях он проживает, то человек не просто живёт в среде, к которой вынужден приспособиться, но и живёт в мире, формируемом культурой, которую он сам и создает. Человека тянет выйти за пределы своих минимальных биологических потребностей, что наносит природе глубокий вред. Человек буквально стремится поработить природный мир, установить на территории свои правила.

Более того, человек может вызывать изменения не только во внешнем, но и во внутреннем мире. В своих фантазиях и побуждениях человек свободен в трансформациях, может развивать их по собственному желанию в любом направлении. Для трансформации своего внутреннего состояния он может использовать специальные опьяняющие вещества, которые также изготавливаются им самим. Такие вещества и яды порождают видения и провоцируют состояния, в которых человек безграничен. Появляются экстраординарные видения, происходят игры воображения. Отправная точка жизни человека — действие. В понимании Гелена это «предусмотрительное, планирующее изменение действительности» [2] Культурой при этом называется совокупность всего того, что создано в результате деятельности. Культуру следует рассматривать в соотношении с конкретным человеческим сообществом. Гелен в своем труде указал, что всё еще не ясно до конца, что есть человек. Человек «не остановлен в своем движении, еще является для себя самого предназначением и целью обработки, а во-вторых, еще не установлено, что, собственно, есть человек». Гелен использует разные методы (социальные, биологические, физические), чтобы основать свою позицию. Человек у него рассматривается в разных аспектах — культурном, общественном, историческом аспекте. Категории, отличающие человека от других представителей животного мира — взаимность, внешняя и внутренняя стабилизация, субъективизация.

Человек, с одной стороны, несовершенен, недоразвит. Но при его сопоставлении с животным становится очевидна его специфическая природа, его отличия от животных. Он, создавая культуру, действует как самостоятельное, обособленное от мира существо.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Гелен, А. О систематики антропологии / А. Гелен. — 1-е изд. — Москва: Прогресс, 1988. — 152 с.
2. Руткевич А. М. Теория институтов А. Гелена / А. М. Руткевич. — Текст: непосредственный // Социологическое обозрение. — 2001. — № 2. — С. 22.
3. Андрюшина, Л. В. Человек как культурное животное в немецкой антропологии начала XX века / Л. В. Андрюшина. — Текст: непосредственный // Ученые записки Орловского государственного университета. Серия: гуманитарные и социальные науки. — 2014. — № 5. — С. 3

DINOR VA DIRHAMLARNING ZAKOTIGA DOIR ZAMONAVIY MASALALAR YECHIMI (Movarounnahr fiqh manbalari asosida)

To‘xtasinov Ro‘zimuhammad Nurmuhammad o‘g‘li

Mir Arab Oliy madrasasi katta o‘qituvchisi

rozimuhammad4964@gmail.com.

Tel: (91) 175 49 64

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Movarounnahr fiqh manbalarida qimmatbaho toshlarning zakotiga doir keltirilgan masalalar borasida bugungi kun ulamolarning yondoshuvlari, zamonaviy masalalar borasidagi yechimlari muhokama qilingan. Shuningdek, tilla va kumushning nisobi, bugungi kundagi zamonaviy o‘lchovlar bilan qanday o‘lchanishi, naqd pul va tijorat mollarining zakoti qanday hisoblanishi kerakligi to‘grisidagi masalalar ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Movarounnahr fiqh manbalarida zakot masalasi; tilla va kumush zakoti; dinor; dirham; misqol; shar’iy dirham; tijorat mollari zakoti.*

ABSTARCT

In this article, the approaches of today's scholars and solutions to modern issues are discussed in the sources of Movarounnahr jurisprudence regarding the issues related to the zakat of precious stones. Also, the issues of the ratio of gold and silver, how to measure it with today's modern measurements, and how to calculate the zakat of cash and commercial goods have been scientifically analyzed.

Key words: *the issue of zakat in Movarounnahr fiqh sources; gold and silver zakat; dinar; dirham; miqal; Islamic dirham; zakat of commercial goods.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются подходы современных учёных и решения современных проблем в источниках юриспруденции Моваруннахра относительно вопросов, связанных с закатом драгоценных камней. Также научно проанализированы вопросы соотношения золота и серебра, как его измерить современными мерками и как рассчитать закат наличных денег и коммерческих товаров.

Ключевые слова: *проблема закята в источниках фикха Моваруннахр; золотой и серебряный закат; динар; дирхам; мискал; исламский дирхам; закат с коммерческих товаров.*

KIRISH

X-XIII asrlar mobaynida butun islom olamida, jumladan Movarounnahr mintaqasida fiqh ilmlarini o'rganish, asarlar yozish rivojlandi. Ushbu davrga doir manbalar nafaqat o'z zamonasining, balki, undan keyingi davrlarga tegishli manbalarga asos bo'lib xizmat qildi. Xususan, Movarounnahr faqihlari tomonidan yozilgan "Badoe'us-sanoe", "Hidoya", "Muhit", "Sharhul Viqoya", "Muxtasarul viqoya", "Kanzud daqiq" nomli asarlar tabaqot kitoblarida fiqh ilmidagi mo'tabar manbalar qatoriga qo'shilgan.

Ma'lumki, har bir faqih masalalarga o'zining yashayotgan hududi, zamoni nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yondoshadi. Ayniqsa, muomala, savdo sotiq kabi urfga taalluqli masalalar borasidagi fatvolar o'zgaruvchandir. Shunga ko'ra, qimmatbaho toshlar, ma'danlar, tilla va kumush haqida aytilgan masalalar ham bugungi kunda qanchalik o'z ahamiyatini saqlab qolgani yoki masalaga nisbatan faqihlarning yondoshuvi o'zgargani borasida ilmiy ish qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Movarounnahr fiqh manbalari asosida tilla va kumushning zakotiga oid zamonaviy masalarning yechimiga e'tibor qaratiladi.

Sar'iy dinor va dirhamning zamonaviy vaznini hisoblash qanday amalga oshiriladi?

Klassik fiqh manbalarida tillaning nisobi yigirma dinor (misqol) va kumushning nisobi ikki yuz dirham bilan hisoblanishi belgilangan bo'lib, bugungi kunda insonlar bunday o'lchov birligidan foydalanmaydi. [1, 1/234.] Shuning uchun manbalarda ko'rsatilgan dinor va dirhamlarning zamonaviy miqdorini aniqlash lozim.

Sar'iy dinor va dirhamning miqdori haqida ko'p olimlar, jumladan Abu Ubayd "Al-Amvol", Balazuriy "Futuhul buldon", Xattobiy "Maolimus sunan", Movardiy "Al-Ahkamus sultoniya", Navaviy "Al-Majmu", Maqriziy "An-Nuqudul qodiyatul islomiya", Ibn Xaldun "Al-Muqaddima" asarlarida izlanish olib borgan. [2, 1/270]

Ibn Xaldun aytadi: "Islomning avvali, sahoba va tobeinlar davridan beri shariatda o'nta dirham vazni yettita dinorning vazniga teng ekaniga ijmo bog'langan. Bir uqiya 40 dirhamga teng. Shunga ko'ra bir dirham bir dinorning o'ndan yetti qismini tashkil qiladi. Bir misqol og'irlikdagi sof tilla tanga yetmish ikki arpa donasiga teng. Demak bir dirham ellik besh arpa donasiga teng bo'ladi. Bu miqdorlarning barchasiga ijmo bog'langan".

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dinorning vazni johiliyat vaqtida ham islom kirib kelgach ham o'zgarmagan. Dinorning vazni istilohda misqol ham deyiladi. Sar'iy dinor va dirham degan tushuncha esa umaviy xalifa Abdul Malik ibn Marvon davrida paydo bo'ldi. Chunki u kishining davriga kelib jamiyatda dirhamlarning vazni har xil bo'lib ketgan.

Ba'zilari sakkiz doniq, yana ba'zilari to'rt doniq edi. Shunda u kishi dirhamlarni jamlab teng ikkiga bo'ldilar va shar'iy dirhamning miqdorini chiqardilar. Natijada olti doniq shar'iy dirham deyila boshladi. U kishining dirham tanga borasidagi bu islohoti hijriy 77-yili amalga oshirilgan. Dinor (misqol)ning miqdori esa asrlar osha o'zgarmadi. Olti doniqqa teng bo'lgan har o'n dirham yetti misqolga teng bo'ldi. Shuning uchun xalifa uning vazniga o'zgartirish kiritmadi, o'z holicha qoldirdi.

Olimlar va tarixchilar aytishicha keyinchalik dirham va dinor Abdul Malik ibn Marvon davrida ijmo bog'langan miqdorda qolmagan. Balki uning miqdorida katta o'zgarishlar bo'lgan. Makonlar va zamonlar o'zgarishi bilan ularning miqdori ham o'zgarib borgan. Odamlar ularning shar'iy miqdorini zehnlariida hisoblab borganlar va shar'iy haqlarni shunga qarab chiqarganlar.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi: "Hozirgi kunda islom olamida pul birliklari o'zgargan, vaznning ahamiyati qolmagan bo'lsa, dinor va dirhamning shar'iy miqdorini bilishga nima hojat bor?".

Darhaqiqat Rosululloh s.a.v. ummatni foydali haqiqatga yo'llaganlar. Bu ko'rsatmani hozirgi kunda ba'zi rivojlangan davlatlar tushunib yetib, uni amaliyotda qo'llashga harakat qilmoqda. U zotning ko'rsatmalari shuki, musulmonlar kayl va vaznda (kerak bo'lsa boshqa o'lchovlarda ham) bitta bo'lishi kerak. Chunki shundagina oldi-berdi muomalalarida nizolar kam bo'ladi. U zot hadisda: "Tarozida Makkaliklar, kaylda Madinaliklar e'tiborlidir", deganlar. Chunki o'sha vaqtlarda Makka ahli tijoratchi bo'lgan va tarozi borasida mohir edi. Madinaliklar esa dehqon bo'lgan va kayl ishlarida usta edi. U zot har bir o'lchovda unga mohir bo'lgan qavmga ergashishni buyurdilar.

Shunga ko'ra barcha musulmonlar vazn va kaylda Makka va Madina ahliga tobe bo'lishi kerak edi. Lekin afsus, vaqtlar o'tib bu ko'rsatmalarga amal qilinmadi. Kaylda Bag'dodiy, Iroqiy, Misriy, Shomiy ratllar, vaznda esa 12, 14, 15, 16 qiyrotli dirhamlar paydo bo'ldi. Shuning uchun faqihlar sha'riy haqlarni belgilash borasida juda ko'p bahs qildilar va o'zaro ixtiloflar kelib chiqdi. Hatto ba'zi faqihlar hamma musulmonlar o'zi yashab turgan joyning vazni va kaylini oladi, deya fatvo berdilar. Bu kabi fatvo Movarounnahrlik Abu Bakr ibn Fazl tomonidan ham chiqarilgan bo'lib, unda shar'iy haqlarni belgilashda o'zimizning yurtida muomalada bo'lib turgan dirhamlar e'tiborga olinishi aytilgan. [3, 2/40]

Tilla va kumushdan boshqa naqd pullar va tijorat mollarining nisobi shariat tomonidan belgilanmagan. Ularning nisobi dirham va dinorning nisobiga tobe bo'lgan. Ya'ni ikki yuz dirham yoki yigirma misqol og'irlikdagi ma'danning qiymatiga teng naqd pul yoki tijorat molidan zakot vojib bo'ladi. Shunga ko'ra dinor va dirhamning bugungi kundagi zamonaviy o'lchovdagi vaznini aniqlamay turib,

naqd pul va tijorat mollarning nisobini chiqarib bo'lmaydi. Shuning uchun avval dirham va dinorlarning shar'iy vaznini aniqlab so'ng tijorat mollarning nisobini chiqarish kerak bo'ladi.

Biz uchun tadqiqotni osonlashtiradigan narsalardan biri shuki, dirham va dinordan qaysinisidr vaznini aniqlash ikkinchisining ham miqdorini aniqlashga yordam beradi. Dirhamning vazni aniqlansa dinorning, dinorning vazni aniqlansa dirhamning vazni aniq bo'ladi. Chunki ularning orasidagi nisbat aniq. Har bir dirham har bir dinorning o'ndan yetti qismini tashkil qiladi.

Muammo shundaki, dirham va dinorning shar'iy vazni qadimda xurub, arpa, bug'doy, xardal kabi don mahsulotlari bilan hisoblangan, bu donlarning vazni esa joylarga qarab o'zgarib turadi. Shunga ko'ra, dinor va dirhamning aniq vazni borasida bir to'xtamga kelish qiyin.

Shar'iy dirham 6 doniq, bir doniq esa ikki butun uchdan ikki dona xurubdir. Demak, bir dirham 16 xurubdir. 16 xurubning zamonaviy vaznini aniq bilish imkoni bormi?

Bu bo'yicha ko'p tadqiqotlar qilingan. Doktor Abdurahmon Fahmiy "Sanjus sikka fi fajril islom" asarida o'zining izlanishlaridan so'ng bir dona xurub donining og'irligi 0,194 grammga teng degan xulosaga keladi. [4, 45] Shunga ko'ra bir dirham 3,104 grammga teng bo'ladi. Bu esa shar'iy dirham (Misrdagi) urfiy dirhamga yaqin ekanini ifodalaydi. Chunki ular orasida 0,016 gramm farq bor xolos. Ammo Doktor Fahmiyning bu natijasiga biroz e'tiroz paydo bo'ladi. Chunki dirhamni 6 doniq yoki 16 qiyrot bilan belgilash faqihlar tomonidan ittifoq qilingan ish emas. Shuningdek qiyrotning miqdori qanchaligi borasida ham ixtilof bor.

Tadqiqotchilar yana bir yo'l bilan yuqoridagi natijaga yaqin xulosaga kelganlar. Maqriyziy va boshqa olimlarning aytishicha qadim yunon xalqi dirham va dinorni o'lchash uchun xardaldan foydalanganlar. Chunki xardalning vazni joylarga qarab o'zgarmaydi. Shunga ko'ra bir dirham 4200 xardal, dinor esa 6000 xardalga teng bo'ladi. O'tkan asrda imom Zahabiy ismli olim o'zining "Tahriyud dirhami val misqoli var rotli val mikyol" asarida o'zining zamonida keng tarqalgan dirham shar'iy dirhamga barobar ekanini yozadi. [5, 33] Chunki u shar'iy dirhamni xardal doni va poshsho Qotiboyning muhri bilan ishlab chiqarilgan tanga bilan o'lchab ko'radi. Undan ratl tarkib topadi. Ratl esa misriyda 144 dirham, bag'dodiyda 128 butun yettidan to'rt dirhamga tengdir. Shunda bir dirham 3,12 grammga teng bo'ladi. Bu tadqiqot bilan avvalgisining orasida 0,016 gramm farq bor.

Lekin baribir dirhamning og'irligini faqat xardal doni asosida hisoblash kifoya qilmaydi. Chunki xardal doni zamon va makonlarga qarab ozgina miqdorda bo'lsa

ham o‘zgaradi. Oradan ko‘p muddat o‘tishi bilan esa bu o‘zgarish sezilarli darajaga yetadi.

Bu o‘rinda dirham va dinorlarning shar‘iy vaznini aniqlashning yana bir yo‘li bor. U ham bo‘lsa bugungi kunda arab va g‘arb muzeylarida saqlanib kelayotgan tangalar, xususan dinorlarning vaznini o‘lchashdir. Chunki tarixchilarning fikriga ko‘ra dinorning vazni johiliyat vaqtida ham islom davrida ham o‘zgarmagan. Dinorning vaznini aniqlansa dirhamning ham vazni aniqlanadi. Ba‘zi yevropa tadqiqotchilari, xususan misrlik Ali Poshsho Muborak dirham va dinorning vaznini aniqlashda mana shu amaliyotni qo‘llagan. Ali Poshsho o‘zining “Al-Xutotut tavfiqiya” degan asarining yigirmanchi juzini aynan naqd pullarga bag‘ishlagan. [6, 337] London, Parij, Madrid, Berlin muzeylarining osori atiqalar qismida saqlanayotgan tangalarni o‘lchab ko‘radi va Abdul Malik ibn Marvon davridagi dinor vazni 4,25 gramm bo‘lgan degan xulosaga keladi. [5, 28] “Doiratul maoriful islomiya”da ham sharqshunos olim Zimbavr Abdul Malik ibn Marvonning dinori Vizantiya dinoriga teng ekanini yozadi. [6, 337] Shunga ko‘ra bir dirhamning og‘irligi 2,975 grammga teng bo‘ladi. Misrlik olim Yusuf Qarzoviyning fikricha dirham va dinorning vaznini aniqlashdagi eng to‘g‘ri yo‘l mana shudir. Ushbu natijaga ko‘ra kumushning nisobi ikki yuz dirham bo‘lib, uning vazni 595 grammga teng, tilloning nisobi 20 misqol bo‘lib, uning vazni 85 grammga teng bo‘ladi. Kimki tillo yoki kumushdan mana shu miqdorga ega bo‘lsa, bir yil aylangach uning 2,5 % qismini zakot sifatida berishi kerak bo‘ladi. Shuningdek, nisobga yetgan tillo va kumushning qiymati barobarida naqd pul yoki tijorat moliga ega bo‘lsa undan zakot vojib bo‘ladi.

Bugungi kunda naqd pullarning nisobni nimaga qarab hisoblaymiz? Tillami yoki kumush?

Qadimda tilla va kumushning nisobi moliyaviy jihatdan bir xil bo‘lgan. Ya‘ni ikki yuz dirham bilan yigirma misqolning qiymati bir-biriga teng bo‘lgan. Bugungi kunda esa ularning qiymati o‘zaro keskin farq qiladi. Undan tashqari hozirda qog‘oz pullar odamlar orasidagi muomalalarda hukmron, ma‘daniy pullarni deyarli pul hisoblamay qo‘ydilar. Shundan kelib chiqib, zakotning eng past nisobini tilla va kumushdan qaysi biri orqali hisoblanishi borasida tadqiqot olib borish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri. Qiymati arzon bo‘lgani uchun kumush bilan hisoblanadimi? Yoki o‘z qiymatini uzoq muddatdan beri saqlab kelayotgan tilla bilan hisoblash kerakmi?

Ba‘zi tadqiqotchilar kumush bilan hisoblash kerak degan fikrga moyil bo‘lgan va ular bunga ikkita sabab keltirib o‘tgan. Birinchidan: kumushning nisobiga ijmo bog‘langan va mashhur, sahih sunnat bilan sobit bo‘lgan. Ikkinchidan: kumush bilan

hisoblash kambag'allar uchun manfaatli. Chunki kumushning nisobi e'tiborga olinsa ko'pchilikka zakot vojib bo'ladi. Natijada ko'p kambag'allar zakotga haqli bo'ladi.

Boshqa ulamolar esa nisobning eng kam miqdorini tilla bilan hisoblash lozim, degan fikrni ilgari surgan. Chunki kumushning qiymati Nabiy s.a.v. zamonasiga nisbatan so'ng o'zgarib ketdi. Tillaning qiymati esa haligacha o'z quvvatini saqlab kelmoqda. Shuningdek, beshta tuya, qirqta qo'y, besh vasaq mayiz yoki xurmo kabi boshqa nisoblar ham tillaning nisobiga muvofiqdir. Misrlik Abu Zahra, Xalof, Hasan va Yusuf Qarzoviyning zakot bo'yicha qilgan izlanishlarida ularning shu fikrda ekanliklarini ko'rish mumkin. O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi fatvo markazi ham bir necha yildan beri qog'oz pul va tijorat mollarining nisobini tillaning qiymatiga nisbatan hisoblab kelmoqda.

Shuningdek alloma Shoh Valiyulloh Dehlaviy o'zining "Hujjatullohil balig'o" asarida: "Kumushning nisobi besh uqiya deb belgilanishiga u bir oilaning bir yillik xarajatlarini qoplay olishi sabab bo'lgan", deydi. [7, 2/506] Hozirgi kunga kelib, ikki yuz dirham kumush hech qaysi davlatda bir oilaning bir yillik xarajatiga yetarli mablag' bo'lmaydi. Tasavvur qilish uchun buni O'zbekiston misolida ko'rib chiqish mumkin. Bugungi kunda (20.01.2024. dagi ma'lumotga ko'ra) 1 gramm (925 probali) kumushning narxi 8830,91 so'mga teng. Shunga ko'ra 595 gramm kumush narxi 5 254 391 so'm bo'ladi. Ma'lumki, ushbu miqdordagi pul O'zbekiston sharoitida bir oilaning yillik xarajatlariga yetmaydi. Hatto ba'zi rivojlangan davlatlarda bu pul oilaning bir kunlik ehtiyojlariga kifoya qiladi xolos. Shunday ekan, qanday qilib bu miqdordagi pul bilan kishini boy deyish mumkin. Nisobni belgilashdan asosiy maqsad kishining boy ekanini aniqlashdir. Shuning uchun bugungi kunda naqd pullar va tijorat mollarining zakotini hisoblashda kumushni asos qilib olish to'g'ri emas, balki, tilla bilan belgilash ma'qul. Chunki 1 gramm (585 probali) tillaning narxi 472 603,41 so'mdir. Shunda 85 gramm tilla narxi 40 171 289,85 so'm bo'ladi. Bu summa O'zbekiston sharoitida bir oilaning yillik xarajatiga yetadi, deyish mumkin. Shundan kelib chiqib, musulmon dunyosidagi barcha fatvo markazlari bugungi kunda naqd pul va tijorat mollarining nisobini tillaning qiymatiga qarab belgilamoqdalar.

Kelajakda kumush kabi tillaning ham qiymati tushib ketsa nima qilinadi?

Musulmon ulamolari vaqti kelib tillaning ham qiymati tushib ketsa naqd pullar va tijorat mollarining eng kam nisobi chorva hayvonlari yoki yerdan chiqqan hosilning nisobi bilan hisoblanadi, deganlar. Misol uchun 5 ta tuya, 40 ta qo'y yoki 5 vasaq bug'doy qiymatidagi naqd pul yoki tijorat moliga ega bo'lgan kishi boy bo'ladi va molining qirqdan bir qismini zakot sifatida ajratadi. Bu haqida Yusuf Qarzoviy o'zining "Fiqhuz zakot" asarida batafsil to'xtalgan. [2, 1/276]

Tilla va kumush naqd pullik xususiyatini yo‘qotsa eng kam nisobni hayvonlar nisobiga qiyoslash to‘g‘riroqmi yoki yerdan chiqqan hosilgami?

Bu savolga faqihlar chorva hayvonining nisobiga qiyoslash to‘g‘riroq bo‘ladi, deb javob berganlar. E‘tibor qilinsa yerdan chiqqan hosil nisobining qiymati hayvon nisobining qiymatidan kam. Misol uchun 5 vasaq bug‘doyning qiymati 40 ta qo‘yning qiymatiga yetmaydi. Bir qarashda savolning javobi aniqdek. Hosilning nisobi kam. Demak boshqa mollarning nisobini unga qiyoslash kerak bo‘ladi. Ammo bunday xulosa to‘g‘ri emas. Chunki muammo nisoblardan qaysi biri kam ekanini aniqlashda emas, balki, naqd pul va tijorat mollaridan zakot vojib bo‘lishi sababi hosil va chorva hayvonlaridan qaysi birining zakot vojib bo‘lish sababiga ko‘proq o‘xshash ekanini aniqlashdan iborat.

O‘rganib ko‘rilsa hosilning nisobi chorva hayvonining nisobidan kam belgilanishining bir nechta sabablari bor. Avvalo, Allohning bandasiga bergan ne‘mati boshqa mol-davlatga qaraganda yerdan chiqadigan hosilda ravshanroq ko‘rinadi. Chunki boshqa mol-mulkni hosil qilishdagi mashaqqatdan ko‘ra yerdan chiqqan hosilga erishish mashaqqati kam. Ikkinchidan, kishi chorva hayvonidan behojat bo‘lishi mumkin, ammo yerdan chiqqan hosildan behojat emas. Ko‘p muhtojlar ushbu ne‘matda boshqalarga sherik bo‘lishi uchun islom shariati yerdan chiqqan hosilning nisobini kamaytirib qo‘ydi. Uchinchidan, zakot asl bo‘lgan yerning emas, balki, undan chiqqan foyda – ekinning vojibidir. Ya‘ni to‘liq yangi rizqning zakotidir. Chorva hayvonlarining zakoti esa asl bo‘lgan hayvonning va unga yil davomida qo‘shilgan ziyodalikning vojibidir. Ya‘ni avvaldan bor bo‘lgan rizqning va yil davomida unga qo‘shilib borgan ziyodalikning zakotidir. Shuningdek ekinlarda belgilangan vojib miqdori ham chorva hayvoni uchun belgilangan vojib miqdoridan ko‘p. Chunki chiqqan hosilning o‘ndan bir yoki yigirmadan bir qismini zakot sifatida berish kerak. Yuqorida sanab o‘tilgan ma‘nolarda naqd pullar va tijorat mollari ko‘proq chorva hayvonlariga o‘xshaydi. Shuning uchun ularning nisobini tuya, sigir, qo‘y kabi chorva hayvonlarining nisobiga qiyoslash to‘g‘ri bo‘ladi.

Chorva hayvonlaridan qaysi birini nisobning eng kam miqdori sifatida belgilash to‘g‘ri bo‘ladi?

Chorva hayvonlari zakoti ham uch qism: tuya, sigir va qo‘ydan iborat. Sigirning zakotida 5 tadan 30 tagacha, 40 tadan 60 tagacha qay tarzda zakot vojib bo‘lishi borasida ixtilof mavjud. Shuning uchun uning nisobini asos qilib olish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Tuya bilan qo‘yning nisobida esa ixtilof yo‘q. Ularning nisobi hadis va ijmo bilan sobit bo‘lgan. Unga ko‘ra tuyaning eng kam nisobi 5 ta bo‘lsa qo‘yning eng kam nisobi 40 tadir.

Voqelikda tuya yoki qo‘yning eng kam nisobi tilla yoki kumushning eng kam nisobiga tengmi?

Buning uchun “Nabiy s.a.v.ning zamonasida naqd pullarning nisobi 20 dinor yoki 200 dirhamning qiymati chorva hayvonlari, 5 ta tuya yoki 40 ta qo‘y nisobining qiymatiga to‘g‘ri kelganmi?”, degan savolga javob topish kerak bo‘ladi. Shamsul aimma Saraxsiy o‘zining “Mabsut” asarida 1ta binti maxoz (ikki yoshli tuya) 40 dirhamga, 1 ta qo‘y 5 dirhamga teng bo‘lgan”, degan. [8, 2/150] Ushbu fikrga ko‘ra 5 ta tuyada yoki 40 ta qo‘yda zakotni vojib qilish 200 dirhamda zakotni vojib qilish kabi bo‘ladi va naqd pul hamda tijorat mollarning nisobini tuya yoki qo‘ydan qaysi biriga bo‘lsa ham qiyoslash mumkin bo‘ladi.

Lekin muhaqqiq Ibn Humom “Fath” asarida, [9, 1/495] Ibn Nujaym “Bahr” asarida [10, 2/230] imom Saraxsiyning ushbu gapiga e‘tiroz qilgan. Chunki bu gap hadisda kelgan ma‘lumotga zid. Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” asarida kelgan hadisda: “Kimgaki zakot uchun biror yoshdagi tuyasini berish vojib bo‘lsayu, tuyalarining ichidan ana shu yoshdagisini topa olmasa, bir qo‘yning o‘rniga o‘n dirham beradi”, deyilgan. [9, 1/495] Bu hadis Saraxsiyning gapiga ochiq-oydin zid.

Sahihi Buxoriy va boshqa kitoblarda Anas r.a.dan rivoyat qilinadi: “Kimning qo‘lidagi tuyalari jazaa (5 yoshli tuya) vojib bo‘ladigan miqdorga yetsa va uning huzurida jazaa emas, hiqqa (4 yoshli tuya) bo‘lsa hiqqani zakot sifatida beradi va yana qo‘shimcha ikkita qo‘y yoki yigirma dirham beradi. Kimning qo‘lidagi tuyalari hiqqa vojib bo‘ladigan miqdorga yetsa va unda hiqqa emas, jazaa bo‘lsa, sadaqa yig‘uvchi kishi unga yigirma dirham yoki ikkita qo‘y qaytaradi...”. [2, 1/276]

Ushbu hadisdan ko‘rinib turibdiki, 40 ta qo‘y Nabiy s.a.v.ning davrlarida 400 dirhamga teng bo‘lgan. Bu esa qo‘yning nisobi naqd pullarning nisobidan ikki barobar yuqori ekanini ifodalaydi.

Chorva hayvonining nisobi naqd pullarning nisobidan ikki barobar yuqori bo‘lishi shariat egasi tomonidan ixtiyor qilingan hikmati ilohiydir. Chunki naqd pul boshqa mol-mulkdan ko‘ra kishining iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun eng qulay vositadir. Misol uchun kishining tuyasi bo‘lsa o‘ziga kerakli bo‘lgan kiyim-kechakni darhol sotib ololmaydi. Avval tuyasini sotishi, naqd pulga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Undan keyin o‘zining ehtiyojini sotib oladi. Gohida xohlagan vaqtda tuyasini sota olmasligi, sotsa ham o‘zining narxiga sotolmasligi mumkin. Naqd pullar esa unday emas. Ular bevosita ayirboshlovchi vosita sanaladi. Shuningdek, naqd pulni zaxira qilib qo‘yish kishining to‘kin-sochin hayot kechirayotganlik alomatidir. Chorva hayvonini ko‘pligi esa doim ham bekam-u ko‘stlik alomati bo‘lavermaydi. Hanafiy mazhab faqihlari naqd puldan zakot vojib bo‘lishida uning hojati asliydan

ortiqcha bo'lishini shart qilganlar. Shu sabablarga ko'ra naqd pul nisobi chorva hayvonining nisobining yarmi qilib belgilangan bo'lishi mumkin.

Demak naqd pullarning xarid qilish quvvati keskin o'zgarib ketsa, ularning nisobini eng mo'tadil shaharlardagi beshta tuya yoki yigirmata qo'yning narxi bilan belgilash mumkin bo'ladi. Eng mo'tadil shaharga qiyoslanishining sababi shuki, ba'zi davlatlarda chorva hayvoniga hetiyoj juda yuqori bo'lib, ularning narxi ko'tarilib ketgan, boshqa ba'zi davlatlarda ularga bo'lgan ehtiyoj juda kam bo'lib, qiymati pasayib ketgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun uning o'rtasi me'yor hisoblanadi. Bu borada bir qarorga kelish uchun, albatta, tajriba egalarining fikriga suyaniladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Burhoniddin Marg'inoniy. Hidoya. – Bayrut: “Darul-kutubul ilmiya”, 1990. 1/234.
2. Yusuf Qarzoviy. Fiqhuz zakot. – Bayrut: “Muassatur risala”, 1973. 1/276
3. Muhammad Amin ibn Obidin. Raddul muxtor alad durrril muxtor hoshiyatu ibn Obidin. – Ar-Riyod: “Doru olamil kutub”, 2003. 2/40.
4. Doktor Abdurahmon Fahmiy. Sanjus sikka fi fajril islom. - Qohira: “Dorul kutubil Misriyya”, 1957. – B. 45
5. Mustafo ibn Hanafiy Zahabiy. “Tahriyrud dirhami val misqoli var rotli val mikyol”. – Bayrut: “Dorul Bashoirul Islomiyya”, 2011. – B. 33.
6. Ziyouddin Dabis. Al-Xaroj fid davlatil islamiya. – B. 337.
7. Shoh Valiyulloh Dehlaviy. Hujjatullohil balig'o. – Qohira: “Dorul jiyil”, 2005. 2/506
8. Shamsul aimma Saraxsiy. Mabsut. 2/150.
9. Ibn Humom. Fathul Qodir. Bayrut: “Dorul kutubul ilmiy”, 2009. 1/495.
10. Ibn Nujaym Misriy. Bahrur roiq. . – Bayrut: “Dorul marifa”, 1997. 2/230.

TABOTABOIY QARASHLARIDA TEOLOGIK VA GNOSEOLOGIK BILISH USHLUBLARI SINTEZLASHUVI

Алланазаров Мухиддин Хайитович

Ахборот технологиялари ва менежмент университети

Педагогика кафедраси мудири

muhiddinijtimoiy@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada XX asr sharq faylasufi Alloma Tabotaboyning teologik va falsafiy bilish ushblarining o'zaro ta'sirlashuvi va sintezlashuvi masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, ilm, idrok, mushohada, irfon kabi masalalarning g'ayrimoddiy ekanligi dealektik materializm tahlili asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Irfon, mushohada, dealektik materializm, ilm, idrok, modda, shariat.

СИНТЕЗ ТЕОЛОГИЧЕСКИХ И ГНИСЕОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ПОЗНАНИЯ В ВОЗЗРЕНИЯХ ТАБАТАБАИ

Алланазаров Мухиддин Хайитович

Университет информационных технологий и менеджмента

Заведующий кафедрой педагогики

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются вопросы взаимодействия и синтеза теологического и философского методов познания восточного философа XX века Алломы Табатабая. Также на основе анализа диалектического материализма раскрывается нематериальность таких вопросов, как знание, восприятие, наблюдение, гнозис.

Ключевые слова: Ирфан, наблюдение, диалектический материализм, знание, восприятие, материя, шарият.

SYNTHESIS OF THEOLOGICAL AND GNOSEOLOGICAL METHODS OF KNOWLEDGE IN TABATABAI VIEWS

Allanazarov Mukhiddin Khayitovich

University of Information Technology and Management

Head of the Department of Pedagogy

ABSTRACT

In this article, the issues of interaction and synthesis of the theological and philosophical methods of knowledge of the 20th century oriental philosopher Alloma

Tabotabai are studied. Also, the immaterial nature of issues such as knowledge, perception, observation, and gnosis is revealed based on the analysis of dialectical materialism.

Keywords: *Irfan, observation, dialectic materialism, knowledge, perception, matter, Sharia.*

KIRISH

Ilmga bo'lgan qiziqish va unga erishish insonga hayotiy kurashlarda kuch-qudrat bag'ishlaydi va tabiat ustidan hukmronlik qilishda yordam beradi. Tarixga nazar tashlasak, ilm olish yo'lida donishmand hamda olimlar ko'plab azob-uqubat, musibatlar hamda cheklovlarga duchor bo'lganlar va ularning barchasiga bardosh bilan chidaganlar, turmushning moddiy jihatlaridan voz kechganlar. Inson xoh uddasidan chiqsin, xoh chiqmasin, dunyoning boshlanishi va tugashi, borliqning boshi va poyoni, fikr va harakat, birlik va ko'plik, xususiylik va umumiylik, sabab va oqibat, vojib va mumkin, kabilar haqida fikriy hamda aqliy faoliyat yuritishdan o'zini tiya olmaydi. Mana shu istak va xohish inson uchun "falsafa"ni vujudga keltirdi. Falsafa borliqni boshdan-oyoq inson fikri javlongohiga joylaydi, insonning aql-u, fikrini o'z qanotiga o'tkazadi va insonning orzu-istaklaridan xolis bo'lgan olamlar tomon parvoz qildiradi.

Falsafa tarixidaga nazar soladigan bo'lsak, faylasuflarning aksari qismi dunyoqarashlarida olamni anglash va bilish kabi gnoseologik muommo asosiy o'rinda turadi. Gnoseologik muammolarni tadqiq etishda Muhammad Husayn Tabotaboiy sharq faylasuflaridan farqli o'laroq, bu masalaga an'anaviy tartibga xilof ravishda e'tibor qaratgan. Haqiqatdan, ba'zi o'rinlarda bu boradagi fikrlarida diniy dunyoqarash ustunlik qilishiga guvoh bo'lamiz, lekin shu jihatni ham nazarga olishimiz kerakki, Alloma Tabotaboiy diniy muhitda ulg'aygan, dindorlar oilasida tarbiya topgan va u ham diniy ruhoniylardan bo'lgan. Ta'lim-tarbiyani ham diniy madrasalarda olgan, biroq uning ma'rifatshunoslik borasidagi qarashlarida ilmiylik jihatlar yetakchilik qiladi va biz bunga e'tibor qaratishimiz darkor.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Islom falsafasida ma'rifatshunoslik yoki bilish haqida so'z borganda asosan uni inson bilimlari, uning turlarining qiymatlari, ularning xato va haqiqatlari mezonining ta'rifi borasida bahs boruvchi ilm, deb biladi.¹⁶¹ Balki, islom falsafasining o'ziga xos tomoni ham shundadir.

¹⁶¹ ۱۳۵ ص ، ۶۸ ، سازمان تبلیغات اسلامی، سال ۶۸ ، ص ۱۳۵ (omuzeshe falsafe, o'strod Masboh Yazdiy, sozmone tableg'ote eslomiy, sol-e 1348(h,q.), sahife-e 135)

Tabotaboiyning bilish nazariyasida ilm ta'rifi, ilmning qismlari, bilish uslublari, borliq va olam aloqadorligi, anglashning namayon bo'lishi, voqea-hodisalarning yolg'on, yoki rostligining mezoni, xato va haqiqat singari munozaralar atrofida bahs olib boriladi. Bilish uslublarini bilish nazariyotchilari antik ma'rifatshunoslik, yoki birinchi darajadagi (bosqichdagi) ma'rifatshunoslik, degan nom bilan atagan va ilk falsafadan, metafizika boblaridan joy egallab kelgan.

Alloma Tabotaboiy o'zining bilish nazariyasida inson bilimlarining vujudga kelishi haqida so'z yuritib, jumladan, ilm o'zi nima?, u qanday vujudga keladi?, inson bilimlarining mohiyati nimada-yu, imdagi haqiqat nimalardan iborat bo'lishi kerak?, kabi savollarni o'z oldiga qo'yib, ularga javob topishga harakat qiladi.

Tabotaboiy bilishga shunday ta'rif beradi: "Ma'rifatshunoslik sub'yektning ob'yektni anglashda yagona tushinishni, yagona tasavvurlarni emas, balki falsafa, tibbiyot, handasa va boshqa predmetlar singari ilmlarning tasavvuriy tushunchalarini jamlagan ilm bo'lagidir. Shunday ma'rifatshunoslik mavjudki, turli ilm tarmoqlarining vujudga kelishidan boxabar bo'lgan, o'zga predmetlardagi asosga ega bo'lgan bilimlarga e'tiborini qaratgan, tug'ilish va rivojlanishimizning mukammalliklaridan doimiy xabardor etuvchi, ilm tarixidan xabardor qiluvchi, ularning o'tmishi va bugungi kunini har doim qiyoslab boradi. Boshqa olimlar bir-birlari bilan jamoa fikri va joriy ilmni e'tiborga olmay, qadimgi ma'rifatshunoslik, psixologiya, mantiq va tarixdan foyda izlash bilan o'zining tadqiqot ko'lamini boyitib boradi. Bu bilish nazariyasi olimlar guruhining harakatiga, munosobatiga bog'liq va a'loqador".¹⁶² Tabotaboiy fikricha, bugungi bilish nazariyasi muommolarining ba'zilar quyidagilarni tashkil etadi: Ilm rivoji nima degani? Bashariyat bilimi kengayishda, mustahkamlanishda va takomillashuvdami, yoki yo'q? Bu takomillashuv qanday sabablarga bog'liq? Bilim takomilining me'yori nimada? Turli bilimlar qachon o'zaro a'loqada bo'ladi? Turli ilmiy nazariyalar nega vujudga keladi va nega inkor etiladi? Olimlar jamoasi ilmlar mohiyatidan qanday manfaatga ega? Bilimning shakli aql ummonida qanday namoyon bo'ladi? Falsafiy tushintirishdan g'ayri falsafiy tushintirishning afzalligi nimada? Ma'noli va ma'nosiz tushinishning afzalligichi? Bilimning biri boshqasiga turli ta'sirlari, ilmga tilning ta'siri, reduksionalizm, birinchi va ikkinchi ko'rinishlar masalasi, tushintirishlarning asosi, xotira, ishonch va ilm, realizm, antirealizm, instrumentalizm singari bahslardir. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan masalalar qatorida "ilm" tushunchasiga Alloma Tabotaboiy shunday ta'rif beradi: "Ilmning mavhumligiga qaramay, uni umuman mavhum substansiya, deb bo'lmaydiki, shubhasiz, u shakl va qismlarga ega, lekin

¹⁶² ۳۳ تهران ۱۳۸۲، مسعود امید، سروش، تهرانی ۱۳۸۲، ص ۳۳. ("Nazariy be zendegi va barxi oro-e Allome Tabotaboiy", Mas'ud O'mid, so'rush, Tehron 1382, sahife-e 33.)

uning xususiyati va xarakteriga qarab, uni shunday ta'riflash mumkin: "Ilm boshqa bir abstrakt borliq borasidagi moddiylikdan alohida faoliyat hosilasidan iboratdir".¹⁶³ Shuningdek, ilmning vujudga kelish usullari (metodlari) uning moddiy, yoki g'ayrimoddiy bo'lishi haqidagi bahs borliqni anglash va bilish ontologiyasiga taalluqli bo'lgan bahslardan biridir, deb hisoblaydi. Biz bu kabi masalalarni yana bir sharq faylasufi Shahobiddin Suhravardiy ta'limotida ham uchratishimiz mumkin.

Ilmsiz hayot mazmunsizdir. Ilm yo'qolishi qiyomat yaqinlashganidan belgidir. Shu haqda Buxoriy va Muslim rivoyatida Payg'ambar alayhissalom deydilar: "Ilmning ko'tarilib ketishi, johillik tarqalishi, mast qiluvchi ichimliklar ichilishi, zino avj olishi – qiyomat alomatlaridandir". Ilm ko'tarilishi qalblardan o'chib ketish bilan bo'lmaydi, balki ulamolar "o'lishi" bilan bo'ladi. Abdulloh ibn Amr ibn Os roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollollohu alayhi vassallam shunday deganlarini eshitdim: "aloh ilmni bandalaridan tortib olmaydi, lekin olimlarni olish bilan oladi. Olim qolmagandan keyin odamlar ilmsiz, johil kimsalarni boshliq qilib oladilar. Ulardan savol so'rganlarida, ilmsizlar fatvo berib o'zlarini ham, o'zgalarni ham adashtiradilar".¹⁶⁴ Darhaqiqat, olimlarning o'limi zilzila, suv toshqinidan ham katta ofatdir. Zero, olimlar o'lishi bilan fisq-u fasod ko'payadi, hayot o'z qiymatini yo'qotadi.

Ilm dunyo va oxiratda o'ziga foyda, yoki zarar bo'lgan narsalarni bilmoq demakdir. Ilm insonlarga xos bo'lgan bir sifatdir. Ilmdan boshqa sifatlar masalan, botirlik, shafqat kabilar ba'zi vaqtda boshqa hayvonlarda ham topiladi. Ilm o'rganish bandalar ustida ulug' burchdir. Alloh ta'olo: "Bilmagan ishlaringizni bilgan kimsalardan o'rganingiz", deya buyurgan. Yana bir boshqa oyatda "ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmi?! Darhaqiqat faqat aql egalarigina pand-nasihat olurlar".¹⁶⁵ Islomda ilmlilar bilan ilmsizlar teng bo'la olmasliklari haqida so'z ketganda, ilimli doimo ustun turishi va fazilatli hisoblanishi, ilmsizda esa bu narsalar bo'lmasligiga ishora qilinadi. Biror masalalarni anglab, ulardan o'rnak olish uchun ham ilm zarurdir. Ilmsiz hayot qorong'i kechaga qiyoslanadi.

Islomiy uyg'onish, shar'iy hayotni lozim tutish ko'zga tashlanib qoldi. Ilmga muhabbat qo'yish yoshlar orasida kuchli ekanligi ko'rinadi. Bu yaxshi xabar – musulmonlar Rabbilarini ko'p zikr qilayotganidan nishonadir. Lekin, musulmonlarning dunyoviy ilmlarga beparvoligi natijasida bugungi ilmiy muhit qoniqarli darajada emasdek nazarimizda. Bu borada bir qancha mulohazalar bor. "Bir qancha musulmon o'lkalaridagi islomiy institutlardagi muhit o'rganilganda natija

¹⁶³ نهاية الحكمة، علامه طباطبائي، مؤسسه النشر الاسلامي، سال ٤٢، ص ٦ (Nehoyat-ul hekma, Alloma Tabotaboiy, muassase-e nashr-e eslomiy, sol 42, sahife-e 6)

¹⁶⁴ Sarjoniy, Doktor Rog'ib. Islom va olam. –Toshkent.: Imom Buxoriy xalqaro markazi. 2018. –B. 8.

¹⁶⁵ Jamolov S. Ilmning o'n to'rt qanoti. –Toshkent.: G'ofur G'ulom. 2018. –B. 8.

shuni ko'rsatadiki, yuqori darajada tahsil olayotgan talabalar soni juda oz. Islomiy ilmlarni o'rganishda faollik bor, biroq dunyoviy fanlardan orqada qolingan. Chunki, ko'plab talabalar din yo'lida dunyoviy fanlardan voz kechish kerak, deb hisoblaydi. U Qur'on, tafsir, hadis, fiqh darslariga qatnashadi, ammo kimyo, fizika, biologiya, botanika, kabi fanlarni o'zlashtirmaydi. Qorilar va shayhlar majlisiga boradi, biroq tajriba maydonlariga yaqinlashmaydi ham. Bu muammo musulmon talabalari uchun odatga aylangan".¹⁶⁶ Shu bois talabalarning dunyoviy ilmlarga bo'lgan qiziqishini ham oshirishimiz zarur.

Boshqa bir yondashuvga ko'ra, "musulmon ummatining o'tgan ming yillikdagi eng katta yutug'i intellektual birdamlikka erishgani bo'lganligi shubhasiz. Hijriy beshinchi asrdan shu kungacha sulolalar o'rtasidagi o'z qobig'ini yorib chiqishga qaratilgan to'qnashuvlarni hisobga olmaganda, suniy mashab vakillari dinga nisbatan deyarli o'zgarmagan hurmatni va o'zaro birodarlikni saqlab qola bildi. Boshqalar uchun mana shunday mushkul kechgan uzoq davr mobaynida na ulkan diniy urishlar, na qo'zg'olonlar va na ta'qiblar ularni bo'lib yubora olmagan hayratlanarlidir".¹⁶⁷ Albatta, buning sof diniy sababi bor. Islom so'nggi dindir, u "uyga eltuvchi so'ngi avtobusdir" va shuning uchun ham vaqti-vaqti bilan bo'linib ketishday inqirozdan dinning birlashtiruvchilik funksiyasi sabab himoyalangandir. Demak, islomdagi ilm olish, haqiqatga intilish da'vatlarini islom dunyosiga singdirish orqali ulardagi ilmiy-intellektual faoliyatni jonlantirish va taraqqiy ettirish mumkin. Tabotaboiiy madrasalarda falsafa va mantiq ilmini saqlab qolishda jonbozlik ko'rsatishining asosiy sababi ham islomiy mamlakat bo'lgan Eron jamiyatidagi ilmiy doira nigohini nafaqat diniy ilmlarga, qolaversa dunyoviy ilmlarga qaratishi, dunyoviy fanlar xususida fikr yuritishi lozimligini anglab yetgan va bunga da'vat qilgan.

Alloma bilish nazariyasida insonda ilmning g'ayrimoddiy bo'lishini quyidagicha asoslaydi: "Avvalo, jahonda moddaning asosiy belgilari va o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qilib, o'sha kezda, inson ilmi va idroki bilan qiyoslab, uni moddaga xos xususiyatlardan mahrumdir, deb bilgan va shu tariqa idrokning g'ayrimoddiy bo'lishiga hukm qilingan"¹⁶⁸. Demak, mutafakkir nazarda tutgan idrok borasida, idrok va ilmning g'ayrimoddiy bo'lishiga xulosa qilganligining o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

– "moddiylikda kichik predmetda katta narsaning joylasha olmasligi, farqli ravishda idrokda unday emas;

¹⁶⁶Sarjoni, Doktor Rog'ib. Islom va olam. –Toshkent.: Imom Buxoriy xalqaro markazi. 2018. –B. 18.

¹⁶⁷Timoti J.Uinter(Abdulhakim Murod) XXI asrda islom: postmodern dunyoda qiblani topish. –Toshkent.: Sharq. 2005. –B. 335.

¹⁶⁸ اصول فلسفه و روش رئالیسم، علامه طباطبائی، دفتر انتشارات اسلامی، سال؟، ص ۵۷ (O'sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome Tabotaboiiy, daftar-e enteshorot-e eslomiy, sol-e ?, sahife-e 57.)

- moddiylikda bo‘linishlarning mavjudligi, idrokda uning bo‘lmasligi;
- moddiylikda o‘zgarish va yangilanishlar mavjud, idrokda unday emas;
- moddiylikda aynanlikning mavjud emasligi, idrokda emas;
- moddiylikda elementlarning mavjudligi, idrokda unday emas;
- moddiylikda quvvat va moddaning mavjudligi, idrokda emas;
- moddiylikda bog‘lanishning yo‘qligi va ajralishning mavjudligi, idrokda unday emas;

– moddiylikda zamonmandlikning mavjudligi, idrokda emas”¹⁶⁹.

Tabotaboiy idrokning abstraktligini isbotlashdagi usuli an’anaviy islom falsafasining idrokning g‘ayrimoddiy bo‘lishini isbotlashdagi uslubi bilan bir xildir. Biroq, odatga xilof ravishda Alloma Tabotaboiy idrokning abstraktligini isbotlashda boshqa bir metoddan foydalangan. U bu uslubini marksistlarga savol tarzida muhokama etadi. Jumladan shunday izohlaydi: “Marksistlar idealizmni inkor etadilar, tashqi olamning voqe‘ligi va bizning idrokimizning hosil bo‘lishini tashqi olamdan, deb ishonadilar. Boshqa tarafdin, skiptitsizm, ilm va idrokning nisbiyligini inkor etadilar. Biroq, inson idroki va ilm jarayonini tushuntirishda uning moddiy bo‘lishini qabul qilishi bilan o‘zi bilmagan holda skiptitsizm, nisbiylik va idealizm girdobiga botib ketadilar. Boshqacha qilib aytganda, marksistlar insonda ilm va idrokning paydo bo‘lishini tashqi predmet, harakat, miya va asabiy reaksiyaning o‘zaro ta’siri yig‘indisidan hosil bo‘ladi, deb biladilar. Va ishonadilarki, idrok asabiy reaksiya, harakat yoki ashyoning ta’siridan hech biri emas, balki har ikkisinining birlashmasi, aralashmasi va yig‘indisining mahsulidir. Darvoqe, marksistlar idrokni ifodalashdagi formulasi quyidagi tartibda: tashqi predmet ta’siri + harakat + miya yoki asabiy reaksiya = idrok, yoki ilm. Boshqacha aytganda, tezis + antitezis = sintez. Darvoqe, ular ishonadilarki, fikr modda va miyaning bir bo‘lagidan tug‘ilgan va har ikkisidan boshqa bo‘lakdir”¹⁷⁰. Demak, mutafakkirning materialistik nazariya tanqidida tezis + antitezis = sintez munosabatlari shunchaki bo‘lmasligi, bu jarayonda yana nimadir mavjud ekanligini ta’kidlaydi.

Ta’qiy Oroniy marksistlarning idrokni qabul qilishdagi nuqtai-nazari sharhiga quyidagi misolni keltiradi: “Shunday tarzda, ovqat oshqozonga kirishi hamonq meda elementlari bilan aralashib, tezda hazm bo‘ladi va hazm bo‘lgan taom oshqozon moddalari bilan ovqat tarkibining mahsulidir, idrok ham inson fiziologiyasi (harakati) va asab sistemasi bilan tashqi ta’sirlar aralashmasining mahsulidir. Bunda hech

¹⁶⁹ ۲۳۹-۲۳۷ ص ۴۲، مؤسسه النشر الاسلامی، علامه طباطبائی، نه‌ایة الحکمه، علامه طباطبائی، مؤسسه النشر الاسلامی، سال ۴۲ ص ۲۳۹-۲۳۷ (Nehoyat-o’l hikma, Allome Tabotaboiy, muassase-e nashr-e eslomiy, sol-e 42, sahife-e 237-239)

¹⁷⁰ ۶۱ ص ۶۱، دفتر انتشارات اسلامی، سال؟، ص ۶۱ (O’sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome Tabotaboiy, daftar-e enteshorot-e eslomiy, sol-e ?, sahife-e 61.)

obyektivlik ham muhim jarayon sanaladi. Tabotaboiy o‘zining “Falsafa metodi va realizm uslubi” asarida tadqiqotchi boshqa xalq ijodini o‘rganishda o‘sha til iboralari va tushunchalarini ham atroflicha anglab yetishi zarurligini ta’kidlaydi. Bu borada mutafakkirning quyidagi fikrlariga e’tibor qaratsak: “Sharqshunoslarning bajaradigan ishlariga o‘ta ishonch bilan qaraydigan odamlarga namuna sifatida quyidagi holatga diqqat qaratishlarini so‘raymiz. Nosiruddin Shoh davrida Eronda yashagan va fors tilida yaxshi so‘zlashadigan Kant Gobino o‘zining fransuz tilida nashr etgan va fors tiliga tarjima qilingan “Uch yil Eronda”, nomli kitobidagi eronliklarning so‘rashishlarini sharhlar ekan, shunday deydi: “Siz, uy egasi va barcha ishtirokchilar o‘tirganlaringizdan so‘ng, siz uy egasi tomonga yuzlanib, “Sizning burningiz semizmi?”, deysiz. Uy egasi esa sizga “Ta’olo inoyati bilan mening burnim semizdir, sizning burningiz qanday?”... Men ba’zi uchrashuvlarda bu savol bir kishidan besh marta so‘ralganiga va u javob berganiga guvoh bo‘lganman. Hatto izohda... (Eron olimlardan biri) aytardilarki, buyuk xislatlaridan shu ediki, buyuklardan birining huzuriga borganida nafaqat uning burni va boshqa tegishli narsalari haqida, balki barcha xizmatkorlar, navkarlar va hatto darvoza oldida turadigan qorovulning burni haqida ham so‘rardi”.¹⁷⁴ Endi o‘zingiz o‘ylab ko‘ring, fors tilidagi so‘z va iboralarni yaxshi tushunmaslik va “dimog‘ingiz choqmi?” jumlasidagi “dimog‘” so‘zini “burun”, “chog‘” so‘zini “semiz”, deb tushunish qanday xatoliklarga olib kelgan va uni qanday masxarali tarzda bayon etgan. Kant Gobino bu jumlaning bayon etishda va forsiy so‘z va iboralarning asl ma’no va mazmunini tushunmasligi tufayli bunday xatoga yo‘l qo‘ygan. Rasmiy urf-odatlar va odob-axloq bobida bunday xatoliklarga yo‘l qo‘yiladigan bo‘lsa, u holda falsafiy fikrlarni bayon etishda nimalarni kutish mumkin? Mutafakkir bu haqda kuyunchaklik bilan shunday fikr bildiradi: “Biz bilamizki, Eronning o‘zida Abu Ali ibn Sino va Mullo Sadro kabi insonlarning qarashlarini o‘rganish uchun barcha zamon va davrlarda ularning qarashlarini to‘liq tushunib yetish maqsadida bir necha yillik umrlarini bunga bag‘ishlardilar va natijada minglab tolibi ilmlardan bu ishning uddasidan chiqadigan va eplay oladigan kishilar soni bir qo‘ldagi barmoqlar sonidan oshmasdi. Shunga binoan biz qanday qilib o‘n asr oldingi islom falsafasi va Ibn Sino qarashlari, masalan, o‘z shogirdlari tushunadiganidek, ulardan qilingan tarjimalarda o‘z aksini topgan qarashlarga ishonch hosil qilishimiz mumkin?”.¹⁷⁵ Allomaning fikrlarida jon bor, biz bunday masalalarda milliy kadrlarga katta ahamiyat qaratishimiz lozim.

¹⁷⁴ ۱۵ - ۱۶ ص ؟ سال ، دفتر انتشارات اسلامی ، علامه طباطبائی با پورقی استاد مطهری ، O’sul-e falsafe va ravsh-e realism, Allome Tabotaboiy, bo povaraqi o’stod Mo’taharriy , daftar-e enteshorot-e eslomiy, sol-e ?, sahife-e 15-16.)

¹⁷⁵ ۱۶ ص ؟ سال ، دفتر انتشارات اسلامی ، علامه طباطبائی با پورقی استاد مطهری ، O’sul-e falsafe va ravsh-e realism, Allome Tabotaboiy, bo povaraqi o’stod Mo’taharriy , daftar-e enteshorot-e eslomiy, sol-e ?, sahife-e 15-16.)¹⁷⁵

Aql, qalb va shariatni tushunish va bilishga erishish omili, deb hisoblagan Alloma Tabotaboiy har bir insonda tushunish va bilishning ikki manbasi bo‘lib, ularning biri qalb va ikkinchisi aqldir deydi. Inson o‘z aqli bilan yaxshi-yomonni, foyda-zararni, to‘g‘ri-noto‘g‘rini ajratsa, qalbi bilan o‘zi va borliq o‘rtasidagi aloqa hamda o‘zi va yaratguvchi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish uchun yo‘l topadi. Albatta, insonda mavjud bo‘lgan ushbu ikki muhim omilning har biri alohida-alohida vazifaga ega bo‘lsa-da, bir-birisiz tushunish va bilish omili bo‘la olmaydi. Agar ulardan biri bo‘lmasa, inson uchun dalil-isbotlar olamining eshigi berk qoladi, deb hisoblaydi.

Allomaning fikricha, qalb va aql omillari, hamda bularga ko‘maklashuvchi shariat omili birgalikda bo‘lgandagina tushunish va bilishga erishish mumkin. Allomaning ushbu uch omil, ya‘ni aql, qalb va shariat to‘g‘risidagi qarashlari quyidagilardan iborat:

Qalbiy mushohada. Qalbiy mushohada, yoki qalb kuzatishlari orqali fikr-mulohaza yuritish insonning borligi yaratuvchiga bog‘liq ekanligiga iymon keltirishga sabab bo‘ladi. Har qanday aqliy, yoki falsafiy tafakkur qalbiy mushohadasiz insonni ma‘lum bir narsaga to‘la amin qila olmaydi. Ya‘ni, aqliy tafakkur orqali chiqarilgan har qanday xulosaning to‘g‘riligi qalbdan his etilmog‘i va tan olinmog‘i lozim.

Aqliy tafakkur. Tabotaboiy aqlga ham diniy, ham dunyoviy ilmlar borasidagi qarashlarida yuksak baho began. Jumladan, aqliy tafakkur ichki hissiyotlarni tartibga va ma‘lum bir muvozanatga solib turadigan narsa bo‘lib, xom hayollar, asossiz hissiyotlarning oldini olishga xizmat qiladi hamda qalbiy mushohadani turli yo‘lga kirib ketishining oldini oladi va to‘g‘ri soladi. Chunki, aqliy tafakkur bo‘lmasa, qalbiy mushohada to‘g‘ri yo‘ldan chiqib ketadi, bu esa mavhum narsalarga ishonishga olib keladi. Bunda o‘tkinchi bir narsa qalbni o‘ziga jalb etib qo‘yishi mumkin. Alloma aqliy tafakkurga shunday deb ta‘rif beradi va bilish jarayonida uning o‘rni muhim ekanligini ta‘kidlaydi.

Shariat. Shariat yuqoridagi har ikki omilni mustahkamlovchi voqe‘lik bo‘lib, ulardan qay biri kuchsizlanadigan bo‘lsa, o‘shanga ko‘mak beradi. Zero, aql, qalb va shariatning har biri yagona haqiqat to‘g‘risida guvohlik beruvchi omillar bo‘lib, yagona ma‘noning uchta alohida-alohida tarjimoni hisoblanadilar. Ularning jamuljamida esa biz haqiqatni ko‘ra olamiz. Ushbu uch omil zanjir kabi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, bir-birini himoya qiladi va barqarorligiga xizmat qiladi”.

Albatta, bu yerda Tabotaboiyning shariat omilini qo‘shishini tushunish mumkin, negaki u ruhoni inson bo‘lgan. Ammo biz bu joyda, aynan shariat omili bobida alloma fikriga qo‘shila olmaymiz, chunki bizningcha, ilmiy haqiqatlar qalbiy va aqliy mushohadani inkor eta olmaydi. Shuning bilan birga shar‘iy mushohadaga ehtiyoj

ham sezmaydi, agar sezadigan bo'lsa, subyektivizm yuqori o'ringa chiqib qolishi tabiiy.

Alloma Tabotaboiy falsafiy qarashlarida g'arb faylasuflarining nuqtai nazarlarini ham tahlil etadi. Uning tahlillariga ko'ra, "aytib o'tish kerak bo'lgan jihatlar shuki, falsafiy asarlar va g'arb mutafakkirlarining asarlarida ham shunday nuqtai nazarlarni uchratish mumkin. Misol uchun XX asr nemis faylasufi Edmund Gusserl shunday hisoblaydi: "Bilish doimo biror narsani anglaganlikdir". Bilish faqatgina biror narsani tushungandagina ilm bo'la oladi. Idrok doimo biror narsani anglashdir. Idrok shunday ko'rinadiki, o'zini o'zidan tashqariga (voqe'likka), ma'lumot va ob'yekt tomon yo'naltiradi. Idrok ko'p tarkibga ega. Biz idrokda biror narsaning mohiyatini tasavvur etamiz. Bu idrok yetarli emas. Biz o'sha dunyo ma'nosini topamiz va uni haqiqiy idrok eta olamiz. Yana bir G'arb faylasufi Jan Pol Sartr ham shunday deydi: "Idrok olam sari to'xtovsiz ochilib boradi".¹⁷⁶ Allomaning zamonaviy g'arb falsafasi va uning yo'nalishlariga munosabati ijobiy bo'lsada, ular ichida materializm hamda marksizm uslublarini ma'qullamaydi.

Alloma Tabotaboiy bilish nazariyasida narsalarning shakli hamda mohiyatini alohida e'tirof etadi va ularni qabul qilishda inson idroki muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi. Bu jarayonlar inson bilish imkoniyatlarini hamda ilmini shakllantirib borishini aytib, shunday deydi: "Bu holatda inson ma'rifati(bilishi) bo'lib kelgan narsani u o'z idroki bilan topsa, shu narsa tashqi ashyo mohiyati bo'ladi. Shu tartibda shunday ma'rifat turi hosil bo'ladi, uni bilish, yoki anglash ilmi, deb atash lozim. Ya'ni, shunday ilmki, unda tashqi voqe'likning shakli emas, balki mohiyati hozir bo'ladi. b) Alloma nazarida aqliy, hayoliy va hissiy idrokning tadqiqi modda ilmi, hayol va aqlga qarashlidir. Agar modda ilmi, hayol va aql tadqiq etilmasa aqliy, hissiy va hayoliy idroklarda ham o'zgarish bo'lmaydi. v) Allomaning fikrlaridan shu narsa kelib chiqadiki, insondagi g'ayrimoddiy unsurlarning, ya'ni ruhiyat yoki ruh va uning tana a'zolari bilan bog'liqligi, ya'na ilm va idrokning g'ayrimoddiy bo'lishi nisbiylik, skiptitsizm va idealizm kabi bilish nazariyasi mushkulliklarininig hal etilishiga sabab bo'lmoqda. Inson g'ayrimoddiy borliq shakllarini qabul qilmaslik va buning sabablari bizni bilish nazariyasining mushkulliklari va qiyinchiliklari domiga tortadi.¹⁷⁷ Shunday ekan, uning bilish nazariyasida g'ayrioddiy borliq mushkulliklari hal qilmaslikka alohida urg'u beriladi.

Borliqni anglashda idealizmning inkorida alloma shunday fikrni bildiradi: "Ma'rifatshunoslik (gnoseologiya) bahsida ilk qadam voqe'lik, borliqni qabul qilish

¹⁷⁶ ۲۴ ، ۲۳ ، ۲۱ ص ، ۷۳ ، سال ۷۳ ، انتشارات سمت ، ترجمه دکتر محمود نوالی ، اندره دارتیک ، پدیدارشناسی چیست؟ ، ۱۳۷۳ ، ۲۱،۲۳،۲۴ (Padidorshenosi chist? , Ondere Dortik, tarjo'me-e do'kto'r Mahmo'd Navoli, enteshorot-e samt, sol-e 1373, sahife-e 21,23,24)

¹⁷⁷ ۲۳۹- ۳۱۴ ص ۴۲ ، سال ۱۳۹۴ ، مؤسسه النشر الاسلامی ، علامه طباطبائی ، نهاییة الحکمه ، Allome Tabotaboiy, muassase-e nashr-e eslomi, sol-e 42, sahife-e 239-314)

usuli, hamda o‘z voqe‘ligi, o‘zidan tashqari mavjudlik va o‘zligini qabul qilishdir. Biz mavjudmiz va bizning atrofimizdagi voqe‘lik mavjuddir, ish-yumushlarni o‘zimizcha o‘z atrofimizda, o‘zimizning xohishimizga yarasha bajaramiz”.¹⁷⁸ Demak, mutafakkir bilish falsafasida voqelikning ahamiyati va uning mezon o‘laroq vazifasi yuqori hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilganda, Muhammad Husayn Tabotaboiy o‘zining bilish nazariyasini talqin etishda asosiy metod qilib materializmni tanqid qilish, ular oldiga turli muammoli savollar qo‘yish va o‘z navbatida ularga o‘zining nuqtai-nazari bo‘yicha yechim topish uslubini tanlagan. U ko‘proq bilish nazariyasida o‘rganilayotgan predmet yoki voqe‘likning mohiyatini alohida e‘tirof etadi va ularning tub mazmunini anglab yetishda inson idroki muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi. Idrokning modda holatida mavjud emasligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, u narsalar mohiyatini anglab yetishda xato, ya‘ni yanglish fikrlarning vujudga kelishi va uning haqiqatga ta‘sir etishi, haqiqatning esa, zamon va makonda cheksiz bo‘lishi, mutloq haqiqatning mavjudligi borasida ham muhim bo‘lgan nazariyani ilgari suradi. Tushinish va tushintirishda ob‘yektivlik muhim ekanligini ta‘kidlagan mutafakkir sharq falsafasini, jumladan milliy qadriyatlar, an‘analar va falsafa aks etgan jabhalarni dunyoga tanitishda ilmiy jihatlariga jiddiy e‘tibor qaratish lozimligini e‘tirof etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. آموزش فلسفه، استاد مصباح یزدی، سازمان تبلیغات اسلامی، سال ۶۸، (omuzeshe falsafe, o‘stod Masboh Yazdiy, sozmone tableg‘ote eslomiy, sol-e 1348 (h.q.).
2. Sarjoniy, Doktor Rog‘ib. Islom va olam. –Toshkent.: Imom Buxoriy xalqaro markazi. 2018.
3. Jamolov S. Ilmning o‘n to‘rt qanoti. –Toshkent.: G‘ofur G‘ulom. 2018.
4. Timoti J.Uinter(Abdulhakim Murod) XXI asrda islom: postmodern dunyoda qiblani topish. –Toshkent.: Sharq. 2005.
5. اصول فلسفه و روش رئالیسم، علامه طباطبایی، دفتر انتشارات اسلامی، سال؟ (O’sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome Tabotaboiy, daftar-e enteshorot-e eslomiy, sol-e ?).
6. Алланазаров, М. Х., & Элбоева, Ш. Б. (2020). МАНИПУЛЯЦИЯ: ЭФФЕКТ МОЛОДЕЖНОГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ОРУЖИЕ

¹⁷⁸ بداية الحكمة، علامه طباطبایی، مؤسسه النشر الاسلامی، سال ۶۴، ص ۶ (Bedoyat-o‘l hikma, alloma Tabotaboiy, muassasa-e al-nashr-e eslomiy, sol-e 1364, sahife-e 6.)

اصول فلسفه و روش رئالیسم، علامه طباطبایی، به کوشش سید هادی خسروشاهی، مرکز بررسیهای اسلامی، سال؟ ص ۱۱ (O’sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome Tabotaboiy, be kusheshe Said Hodiyy Xo’sravshohiy, markaze bo‘rarsiho-e eslomiy, sol-e ?, sahife-e 11.)

ОБЩЕСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ. In 30 лет Конвенции о правах ребенка: современные вызовы и пути решения проблем в сфере защиты прав детей (pp. 187-191).

7. Алланазаров, М. Х., & Тураева, С. Х. (2016). Философская теология: религия и философия сотрудничают ли друг с другом?. Молодой ученый, (6), 955-957.

8. Allanazarov, M. K., & Mamasaliev, M. M. (2020). ANALYSIS OF COMPREHENSION METHODS IN THE GNOSEOLOGY OF ALLAME TABATABAI. In ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 106-109).

9. Allanazarov, M. K. (2023). TABOTABOIY QARASHLARIDA DIALEKTIK MATERIALIZM TAHLILI. SCHOLAR, 1(15), 159-165.

10. Алланазаров, М. Х. (2023, June). ТАБОТАБОИЙ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОСИ ТАСНИФИ. In Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference (pp. 58-66).

11. ALLANAZAROV, M. THE WAY OF SCIENCE. THE WAY OF SCIENCE Учредители: Издательство Научное обозрение, (10), 46-48.

12. Allanazarov, M. K. (2023). TABOTABOIY QARASHLARIDA DIALEKTIK MATERIALIZM TAHLILI. SCHOLAR, 1(15), 159-165.

13. Khaitovich, A. M. (2023). Ontological and Epistemological Views of Tabatabai. Miasto Przyszłości, 36, 77-83.

14. Allanazarov, M. K. (2019). THE ROLE OF EASTERN AND WESTERN PHILOSOPHY IN POINT OF VIEW ALLAME TABATABAI. Theoretical & Applied Science, (9), 147-150.

TURLI HOLATARDA JABRLANGANLARGA PSIXOLOGIK ILK YORDAM KO'RSATISHNING AHAMIYATI

Inoyatova Mahina Erkin qizi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jabrlanganlarga va psixologik yordamga muhtoj insonlarga o'z vaqtida amaliy yordam ko'rsatishning ahamiyati, jabrlanganlar orasida alohida e'tibor qilinishi kerak bo'lgan asosiy xavf guruhlarida haqida so'z boradi. Shu bilan birga psixologik birinchi yordam qanday ko'rsatilishi bilan bog'liq taklif va tavsiyalar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: *psixologik ilk yordam, psixologik travmalar, psixologik debriefing, o'qitilgan ko'ngillilar, kommunikatsiya, inqiroz hodisasi, apatiya, agressiya, stupor holati, vahima.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о важности оказания своевременной практической помощи пострадавшим и лицам, нуждающимся в психологической помощи, основным группам риска, на которые следует обратить особое внимание среди пострадавших. При этом отражены предложения и рекомендации, связанные с оказанием первой психологической помощи.

Ключевые слова: *первая психологическая помощь, психологическая травма, психологический разбор, подготовленные волонтеры, общение, кризисное событие, апатия, агрессия, состояние ступора, паника.*

ABSTRACT

This article talks about the importance of providing timely practical assistance to victims and people in need of psychological assistance, the main risk groups that should be paid special attention to among victims. At the same time, suggestions and recommendations related to the provision of psychological first aid are reflected.

Key words: *first psychological aid, psychological trauma, psychological analysis, trained volunteers, communication, crisis event, apathy, aggression, state of stupor, panic.*

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan islohotlar, avvalambor, odamlarga har jihatdan qulaylik yaratish, ularni turli xil ham jismoniy ham ruhiy travmalardan muhofaza qilishga qaratilayotgan e'tibor va psixologiya

sohasida qilinayotgan tub o'zgarishlar bugungi davrda zarur va dolzarb masalalardan biridir desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan psixologik ilk yordam ko'rsatish punktlari va tayyorlanayotgan ko'ngillilar soni ortib borayotgani alohida e'tirofqa sazovordir.

ASOSIY QISM

Psixologik birinchi yordam nafaqat ofat yoki salbiy holatlardan jabr ko'rgan shaxslar uchun, balki yordam xodimlari uchun ham muhimdir. Travmatik yoki favqulodda vaziyatga duch kelgan barcha shaxslar, oilalar, qo'llab-quvvatlash guruhlari va qidiruv, qutqaruv va aralashuv bo'linmalari, ayniqsa bolalar, chaqaloqlar va qariyalar psixologik yordamdan foydalanishlari mumkin. Psixologik yordam ko'rsatuvchi provayderlar bolalarni qo'llab-quvvatlash va aralashuvni ta'minlashda ularning rivojlanish darajalari, yoshi, qiziqishlari va idrok darajalariga qarab harakat qilishlari zarur. Favqulodda vaziyatlardan jabrlanganlarning jismoniy va psixologik salomatligini va falokatning barcha bosqichlarida yordam guruhlarini intizomli muvofiqlashtirishni ta'minlash birinchi psixologik yordam ko'rsatish doirasiga kiradi.

Avvalambor, psixologik ilk yordam aslida nima ekanligiga to'xtalib o'tsak. Psixologik yordam – bu psixologik ma'lumotga ega bo'lmagan odamlarga, agar ular ekstremal vaziyatga tushib qolgan bo'lsalar, ushbu inqiroz yoki falokat bilan bog'liq holda yuzaga keladigan psixologik reaksiyalarni yengish uchun boshqalarga yordam berishga imkon beradigan texnikalar tizimidir. Ushbu yordam odamlarning depressiya yoki undanda og'ir holatga tushishiga qarshi, ularga stressli vaziyatlarni yengish strategiyalarini o'rgatish va o'zlarini yaxshi his qilishlariga yordam berish maqsadida beriladi. Psixologik ilk yordam tabiiy ofatlar, jarohatlar, yo'qotishlar va baxtsiz hodisalar kabi vaziyatlarni yengishga muhtoj bo'lgan odamlar uchun muhimdir. Shuni inobatga olish kerak-ki, birinchi psixologik yordam:

- psixologik maslahat emas,
- nima bo'lganini muhokama qilish yoki tahlil qilish emas,
- his-tuyg'ular haqida gapirish uchun bosim ham emas.

Psixologik ilk yordam atamasi 1940-yillardan beri qo'llanilsada, u so'ngi 15 yil ichida keng ma'lum bo'ldi. 2011-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti psixologik ilk yordam bo'yicha qo'llanmani nashr ettirdi.

Psixologik birinchi yordam, albatta, qayg'u holatiga sabab bo'lgan voqealarni batafsil muhokama qilishni o'z ichiga olmaydi. Bu jabrlanuvchining o'zi bilan sodir bo'lgan voqealarni tahlil qilish va voqealarning aniq xronologiyasi va mohiyatini o'rnatish talabi emas. Psixologik yordam ko'rsatish odamlarni tinglashni o'z ichiga

oladi, lekin ularni o‘z his-tuyg‘ulari va hodisaga munosabati haqida gapirishga majburlashni anglatmaydi. Psixologik ilk yordam samarasiz va zararli deb topilgan psixologik debriefingning muqobili emas. Aksincha, bundan farqli ravishda psixologik birinchi yordam insonning uzoq muddatli tiklanishi uchun eng foydali deb hisoblangan jihatlarni o‘z ichiga oladi. Bu jihatlarga quyidagilar kiradi:

- xavfsizlik hissi, boshqa odamlar bilan aloqa, ishonch va umid yaratish;
- ijtimoiy, jismoniy va hissiy yordam olish imkoniyatini ta’minlash;
- o‘zingizga va boshqalarga yordam bera olishga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash.

Psixologik birinchi yordamda nima qilish kerak? Psixologik birinchi yordam ko‘rsatishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

Tinglash: Psixologik birinchi yordam ko‘rsatayotganda, odamning his-tuyg‘ularini va sabablarini tushunishga harakat qilish. Ularning nutqi va his-tuyg‘ularini hurmat qilinishi;

Qo‘llab-quvvatlash: jabrlanuvchi jismoniy va hissiy jihatdan xavfsiz ekanligini anglashi va u nimani his qilayotganini yordam ko‘rsatayotgan shaxsning his qilishini bilishi;

Funksional ko‘nikmalarni rivojlantirish: jabrlanuvchining omon qolish va tiklanish ko‘nikmalaridan foydalanishga undash, masalan, nafas olish va meditatsiya usullari;

Yo‘l-yo‘riq berish: odamni uzoq muddatli yordam so‘rashga undash, masalan, psixolog yoki terapevtga yo‘naltirish;

O‘zingizga g‘amxo‘rlik qilish: birinchi psixologik yordam ko‘rsatayotganda, yordam ko‘rsatayotgan shaxs o‘zini xavfsiz va qulay his qilishi kerak. Agar yordam ko‘rsatayotgan shaxs charchagan yoki qiyin vaziyatda bo‘lsa, boshqa birovga yordam berishga tayyor bo‘lmasligi mumkin. Birinchi psixologik yordam ko‘rsatishda, insonning o‘ziga xos holati va ehtiyojlarini hisobga olish kerak. Har bir vaziyat boshqacha va har kimning yordamga muhtojligi turli xildir.

Birinchi psixologik yordam universal qo‘llab-quvvatlash va amaliy yordamni nazarda tutganligi sababli, u ma’lum darajada nafaqat mutaxassislar tomonidan, balki yaqin atrofda bo‘lgan oddiy g‘amxo‘r odamlar tomonidan ham ko‘rsatilishi mumkin (mutaxassislar yo‘qligi/yetishmasligi yoki odam bilan bog‘lanishni istamagan taqdirda).

Bundan tashqari shuni inobatga olish kerak-ki, psixologik travmani yoki hodisani boshdan kechirgan har bir kishi ham yordamga muhtoj bo‘lmasligi mumkin. Yordam faqat ilk travmatik vaziyatdan chiqishga shaxsiy resurslari yetishmagan yoki haddan tashqari travmatik ta’sirga beriluvchan belgilari bor insonlarga ko‘rsatiladi.

Travmaga asosiy reaksiyalar mavjud bo'lib, ularni inobatga olgan holda yordam ko'rsatish maqsadga muvofiqdir: agressiya, apatiya (befarqlik), stupor (muzlash), qo'rquv, asabiy qaltirash.

Agressiyaning asosiy belgilari g'azablanish, norozilik, g'azab, boshqalarga kuch ishlatish, qo'l yoki biron bir narsa bilan urish, og'zaki haqorat, mushaklarning kuchlanishi, qon bosimining oshishi namoyon bo'ladi.

Psixolog bu vaziyatda quyidagicha ilk yordam ko'rsatishi mumkin: Iloji bo'lsa, agressiya holatidagi shaxsni boshqalardan ajratib qo'ygan holda, unga gapirish hattoki baqirish imkoniyatini berish, yuqori jismoniy faoliyat bilan bog'liq ish yuklash, agressiyani jazodan qo'rqish bilan o'chirish mumkin.

Apatiya. Biror kishi bir necha soatdan bir necha haftagacha apatiya holatida qolishi mumkin. Apatiyaning asosiy belgilari: atrof-muhitga befarq munosabat, uzoq pauzalar bilan sekin nutq, ishtaha yo'qolishi bilan namoyon bo'ladi.

Stupor bir necha daqiqadan bir necha soatgacha davom etishi mumkin. Bezovtalikning asosiy belgilari ixtiyoriy harakatlar va nutqning keskin kamayishi yoki yo'qligi, tashqi ta'sirlarga reaksiyaning yo'qligi (shovqin, yorug'lik), muayyan holatda "muzlash", uyqusizlik, to'liq harakatsizlik holatidir.

Bu ikkala vaziyatda ham psixolog quyidagicha yordam ko'rsatishi mumkin: Jabrlanuvchining barmoqlarini ikkala qo'lda egib, kaftning tagiga bosish;

Bosh barmoqlar tashqariga qaratilishi kerak. Bosh barmoq va ko'rsatkich barmoq uchlari yordamida, jabrlanuvchining peshonasi, ko'zlari tepasi, soch chizig'i va qoshlar o'rtasida (ijobiy nuqtalar) joylashgan nuqtalarni massaj qilish.

Bo'sh qo'l kaftini jabrlanuvchining ko'kragiga qo'yib, vaqtinchalik nafasni uning nafas olish ritmiga moslashtirish (sozlash). Stupor yoki apatiya holatida tushganiga qaramay odam eshitishi va ko'rishi mumkin. Shuning uchun, uning qulog'iga kuchli his-tuyg'ularga va qo'zg'alishga sabab bo'ladigan narsalar haqida jimgina, sekin va aniq gapirish,

Jabrlanuvchining reaksiyasiga har qanday usul bilan erishish, uni apatiya yoki stupor holatidan chiqarish kerak.

Vahima qo'rquvi, dahshat, uyqusizlikka olib kelishi yoki aksincha, hayajon, tajovuzkor xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Inson o'zini tuta olmaydi va u nima qilayotganini va atrofida nima sodir bo'layotganini bilmaydi.

Qo'rquvning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: mushaklarning kuchlanishi (ayniqsa, yuz mushaklari), yurak urishi, tez sayoz nafas olish, o'z xatti-harakatlari ustidan nazoratni kamaytirish.

Psixolog bunday vaziyatlarda qanday yordam bera oladi:

Jabrlanuvchining qo‘lini bilakka ohista qo‘yish, shunda u xotirjam yurak urishini his qiladi. Bu uning uchun signal bo‘ladi: "Men hozir sizning yoningizdaman, siz yolg‘iz emassiz!"; "Chuqur va bir tekis nafas oling" kabi tinchlantiruvchi so‘zlardan foydalangan holda jabrlanuvchini bir xil ritmda nafas olishga undash;

Agar jabrlanuvchi gapirsa, uni tinglash, qiziqish, tushunish, hamdardlik bildirish; Jabrlanuvchi tanasidagi eng tarang mushaklarni engil massaj qilish.

Psixologik yordamda nimalarga e‘tibor qaratish kerakligi haqida to‘xtalib o‘tish zarur bo‘lgan yana bir ahamiyat ya‘ni psixologik ilk yordamda nima qilmaslik kerakligi to‘g‘risida qisqacha bayon qilib o‘tamiz. Psixologik birinchi yordamda nima qilmaslik kerak? Psixologik birinchi yordamda bajarilmaydigan narsalar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

Kishini xatti harakatlarini qoralash. Psixologik muammolari bo‘lgan odamni qoralash, uni yomon his qilishiga olib kelishi va davolanish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

Shaxsni nazorat qilish: Psixologik muammolari bo‘lgan odam uchun o‘z qarorlarini qabul qilish va nazorat qilish muhimdir. Ularni o‘z qarorlarini qabul qilishga majburlash yoki ularning o‘rniga qarorni boshqa bir kimsa qabul qilishi, ularni yomon his qilishlari va davolanish jarayonini qiyinlashtirishiga olib kelishi mumkin.

Insonning his-tuyg‘ularini e‘tiborsiz qoldirish: Psixologik muammolari bo‘lgan odamning his-tuyg‘ulariga e‘tibor bermaslik, uning his-tuyg‘ularini yomonlashtirishi va davolanish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

Odamning holatini haddan tashqari oshirib ko‘rsatish: Psixologik muammolari bo‘lgan odamning holatini haddan tashqari oshirib yuborish uni yanada yomon his qilishiga olib keladi va tiklanish jarayonini qiyinlashtiradi.

Shaxsning ahvolini minimallashtirish: Psixologik muammolari bo‘lgan odamning ahvolini minimallashtirish, uni yomon his qilishiga olib kelishi va tiklanish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

XULOSA

Dunyoning turli mamlakatlarida psixologik birinchi yordam asosan tabiiy ofatga tayyorlanishga qaratilgan. Ushbu tajribaga asoslanib, tabiiy ofatlarni boshqarish milliy idoralari favqulodda vaziyatlarda birinchi psixologik yordam ko‘rsatishda mahalliy birinchi yordam guruhlarini boshqarish uchun tabiiy ofatdan zarar ko‘rgan hududlarga yuboriladigan guruhlarini shakllantirishni ko‘rib chiqishi mumkin. Psixologik birinchi yordam mazmuni, shuningdek, o‘t o‘chiruvchilar, politsiya xodimlari, kasalxonaning tez yordam bo‘limlaridagi tibbiyot xodimlari va gumanitar

yordam xodimlari kabi kundalik ishlarida travma qurbonlari bilan uchrashishi mumkin bo'lgan professional guruhlarini o'qitishga kiritilishi mumkin. Asta sekin psixologik ilk yordam qamrovini oshirib borish, mamlakatning eng chekka joylarida ham bu kabi xizmatlarni yo'lga qo'yish chora tadbirlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda tegishli muassasalar bilan tabiiy ofatlar va inqirozli vaziyatlarda psixosotsial qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish bo'yicha ish olib borilmoqda va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarda aralashuv rejasi ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, tibbiyot xodimlarini tayyorlash davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Первая психологическая помощь в экстренной ситуации. Логинова Ольга Иосифовна.
2. Первая психологическая помощь. Андрей Демкин.
3. Первая психологическая помощь: руководства для работников на местах. Женева: ВОЗ, 2014.
4. Когнитивная психология. Роберт Солсо. 8-е издание.
5. Human Psychology: Its Applications and Key Concepts ASEAN Journal of Psychiatry, Vol. 24 (6) June, 2023; 1-2.

MUTAKALLIM OLIMLARNING FALSAFIY QARASHLAR TAHLILI

Ro‘zimuhammad To‘xtasinov

Mir Arab Oliy madrasasi katta o‘qituvchisi

rozimuhammad4964@gmail.com.

Tel: (91) 175 49 64

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mutakallim olimlarning falsafiy qarashlari, ularning tarixi, asosiy g‘oyalari va ta’siri tahlil qilinadi. Mutakallimlik islomiy fikrda muhim rol o‘ynab, ilohiyot, erkin iroda va ilm masalalariga e’tibor qaratadi. Al-Ash’ariy va al-Maturidiy kabi mutakallimlar, islomiy aqidalarni falsafiy asoslar bilan birlashtirib, Yevropa falsafasiga ta’sir ko‘rsatgan. Maqola, mutakallimlarning g‘oyalarining zamonaviy ahamiyatini ko‘rsatadi va ularning merosini yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *Mutakallim; Falsafa; Ilohiyot; Erkin iroda; Al-Ash’ariy; Al-Maturidiy; Islomiy aqida; Falsafiy ta’sir; Ilm va falsafa; O‘rta asrlar*

ABSTRACT

This article analyzes the philosophical views of mutakallim scholars, their history, key ideas, and influence. Mutakallim thought plays a significant role in Islamic thought, focusing on issues of theology, free will, and knowledge. Scholars like Al-Ash’ariy and Al-Maturidiy integrated Islamic beliefs with philosophical foundations, impacting European philosophy. The article highlights the contemporary relevance of mutakallim ideas and emphasizes the need for further exploration of their legacy.

Keywords: *Mutakallim; Philosophy; Theology; Free will; Al-Ash’ariy; Al-Maturidiy; Islamic belief; Philosophical influence; Knowledge and philosophy; Middle Ages*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются философские взгляды мутакиллимов, их история, ключевые идеи и влияние. Мутакиллимская мысль играет значительную роль в исламской мысли, сосредотачиваясь на вопросах теологии, свободы воли и знаний. Ученые, такие как аль-Аш’ари и аль-Матуриди, интегрировали исламские верования с философскими основами, оказав влияние на европейскую философию. Статья подчеркивает современную значимость идей мутакиллимов и акцентирует необходимость дальнейшего изучения их наследия.

Ключевые слова: *Мутакиллим; Философия; Теология; Свобода воли; Аль-Аш'ари; Аль-Матуриди; Исламская вера; Философское влияние; Знание и философия; Средние века*

KIRISH

Mutakallim (kalom olimlari) islomiy falsafa va dinshunoslikda muhim o'rin tutuvchi mutafakkirlar to'plamidir. Ularning asarlari, Qur'on va sunnat asosida, ijtimoiy va metafizik masalalarni muhokama qilishga qaratilgan. Ushbu maqolada mutakallim olimlarning falsafiy qarashlari, ularning ta'siri va o'zaro aloqalari tahlil qilinadi.

1. Mutakallimlikning Tarixi

Mutakallimlik islomiy madaniyatning dastlabki asrlarida, xususan, IX-X asrlarda shakllandi. Bu davrda islomiy aqida va falsafa o'rtasidagi munosabatlar chuqur o'rganila boshlandi. Al-Ash'ariy va al-Maturidiy kabi mutakallimlar, mantiqiy va falsafiy asoslar yordamida islomiy aqidalarni himoya qildilar.

Al-Ash'ariy (873-935) Hayoti va faoliyati: Al-Ash'ariy, Abu al-Hasan al-Ash'ariy, islomiy falsafa va kalomda muhim shaxs hisoblanadi. U Bag'dodda tug'ilgan va dastlab Mu'tazila maktabiga yaqin bo'lgan, ammo keyinchalik o'z fikrlarini islomiy aqidalar asosida yangilashga harakat qilgan. Al-Ash'ariy, o'zining "Kitab al-Luma" asari orqali kalom ilmiga asos solgan.

Asosiy g'oyalari:

- Ilohiyotni isbotlash: Al-Ash'ariy, Allohning mavjudligini va uning xususiyatlarini isbotlash uchun ko'plab dalillarni keltiradi. U, ilohiyotda mantiqiy va falsafiy yondashuvlardan foydalangan.
- Olamning yaratilishi: U, olamning yaratilishini vaqtincha hodisa sifatida ta'riflab, bu jarayonni Allohning mutlaq irodasi bilan bog'laydi.
- Ilm va imon: Al-Ash'ariy, ilm va imon o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlab, islomiy aqidalar asosida aqidani mustahkamlashga intiladi.

Ta'siri: Al-Ash'ariy o'zining g'oyalari bilan islomiy aqida va falsafani birlashtirgan. U asarlarida islomiy fikrning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va keyingi mutakallimlar uchun muhim yo'l ko'rsatuvchi bo'lgan.

Al-Maturidiy (853-944) Hayoti va faoliyati: Al-Maturidiy, Abu Mansur al-Maturidiy, Samarqandda tug'ilgan va o'z asarlarida islomiy aqidani mantiqiy va falsafiy jihatdan asoslashga intilgan. U, Mu'tazila maktabiga qarshi bo'lgan g'oyalarini ilgari surgan va o'zining "Kitab al-Tawhid" asarida bu g'oyalarni bayon etgan.

Asosiy g'oyalari:

- Erkin iroda va taqdir: Al-Maturidiy, insonning erkin irodasi va Allohning taqdiridagi munosabatni muhokama qilgan. U, insonning mas'uliyatini ta'kidlab, erkinlikni Allohning ilmi bilan bog'laydi.
- Aqida asoslari: U, aqidani mantiqiy asoslar bilan qo'llab-quvvatlab, Allohning sifatlarini tushuntirishda ilmiy yondashuvlarni qo'llagan.
- Yaxshilik va yomonlik: Al-Maturidiy, yaxshilik va yomonlik tushunchalarini izohlab, axloqiy masalalarga alohida e'tibor qaratadi.

Ta'siri: Al-Maturidiy asarlari islomiy fikrda muhim o'rin tutadi. U, o'z g'oyalari orqali islomiy aqidaning yanada chuqurroq rivojlanishiga yordam berdi va o'z zamonida muhim ta'sir ko'rsatdi.

2. Mutakallimlarning Asosiy Qarashlari

2.1. Ilohiyotni Isbotlash

Mutakallimlar ilohiyotni isbotlashda turli nazariyalar ishlab chiqdilar. Ular:

- Ontologik dalil: Allohning mavjudligini uning mohiyatidan kelib chiqib isbotlash. Ular ilohiyotni zaruriy mavjudlik deb ta'rifladilar.

- Kosmologik dalil: Olamning yaratilishi va uning sabablarini o'rganish. Al-Ash'ariy, "Olamning yaratilishi vaqtincha, bu esa Allohning mavjudligini tasdiqlaydi", deb ta'kidlagan.

- Axloqiy dalil: Yaxshilik va yomonlikni anglash orqali ilohiyotni tasdiqlash. Mutakallimlar, axloqiy qadriyatlarning asl manbai sifatida Allohni ko'rishadi.

2.2. Erkin Irodalar

Erkin iroda masalasi, mutakallimlarning muhim mavzularidan biri bo'lib, bu borada ikki asosiy qarash mavjud:

- Deterministik qarash: Bunday fikrga ko'ra, Allohning taqdiri mutlaq bo'lib, insonning harakati Allohning nazorati ostida.

- Erkin iroda: Inson o'z harakatlari uchun mas'uliyatga ega va erkin qarorlar qabul qiladi. Al-Maturidiy, insonning erkin irodasi, lekin bu erkinlik Allohning ilmi va hukmiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi.

2.3. Ilm va Falsafa

Mutakallimlar ilm va falsafaning o'zaro aloqasini ham chuqur o'rganishdi. Ular islomiy aqida asosida ilmiy yondashuvni rag'batlantirishga harakat qildilar.

- Raqobat va hamkorlik: Falsafa va din o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha raqobatli bo'lib, mutakallimlar, falsafiy g'oyalarni islomiy kontekstda baholashga harakat qildilar.

- Tafakkur va muhokama: Ular tafakkur va muhokama jarayonlarini muhim deb bilishar edi, bu esa islomiy fikrning rivojlanishiga xizmat qildi.

3. Mutakallimlarning Ta'siri

Mutakallimlarning falsafiy qarashlari, nafaqat islomiy o'lkalar, balki Yevropa falsafasi rivojiga ham ta'sir ko'rsatdi. O'rta asrlar davomida islomiy falsafa G'arbiy falsafaga muhim hissa qo'shdi.

• Yevropa Falsafasiga Ta'sir: Al-Farabi, Ibn Sino va Ibn Rushd kabi olimlar, mutakallimlarning g'oyalarini o'z asarlarida ishlatdilar. Ibn Rushd, masalan, Aristotel falsafasini islomiy kontekstda talqin qilib, uning g'oyalarini Yevropaga olib keldi.

• Klassik va Zamonaviy Falsafa: Mutakallimlarning ta'siri zamonaviy falsafaga ham ta'sir ko'rsatdi, xususan, axloqiy va diniy masalalar bo'yicha.

XULOSA

Mutakallim olimlarning falsafiy qarashlari islomiy fikr tarixida muhim rol o'ynaydi. Ularning nazariyalari, erkin iroda, ilohiyot va ilmga oid fikrlari, o'z zamonining aqidaviy masalalarini yechishga qaratilgan. Ushbu maqola mutakallimlarning falsafiy qarashlari va ularning o'rni to'g'risida qisqacha ma'lumot beradi. Kelajakda ushbu masalani yanada chuqurroq o'rganish, mutakallimlarning merosini va uning zamonaviy ahamiyatini yanada kengroq yoritishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR

1. Al-Ash'ariy, Abu al-Hasan. "Kitab al-Luma". (Nashr qilingan manba).
2. Al-Maturidiy, Abu Mansur. "Kitab al-Tawhid". (Nashr qilingan manba).
3. Gutas, Alexander. "Avicenna and the Aristotelian Tradition". Brill, 1988.
4. Nasr, Seyyed Hossein. "Islamic Philosophy from Its Origin to the Present". State University of New York Press, 2006.
5. Smith, Peter. "Islamic Philosophy: A Beginner's Guide". Oneworld Publications, 2006.

ORIENTALISM IN THE FOREIGN POLICY OF THE UNITED KINGDOM AND THE ROLE OF “THINK TANKS”

Azimbayeva Shakhnoza Akramjanovna

ABSTRACT

